# Centrum

Travel magazine

№9 | 2026



Фото: Кирилл Умрихин

$H_2O$

Magic
AQUARIUM

РЕКЛАМА

Здесь вас ждут более 2 000 морских и пресноводных обитателей: акулы, медузы, выдры, капибары и единственные в Центральной Азии пингвины






# Magic Aquarium

Первый
и единственный
океанариум
в Узбекистане!

Ежедневно с 10:00 до 23:00
г. Ташкент, Чиланзарский район,
ул. Бабура, 174/2, Magic City
+998 71 205 20 50 | magicaquarium.uz

EMC ЕВРОПЕЙСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЦЕНТР

# *Институт онкологии EMC*

## ВТОРОЕ МНЕНИЕ В ОНКОЛОГИИ. УВЕРЕННОСТЬ В КАЖДОМ ШАГЕ ВАШЕГО ЛЕЧЕНИЯ.

Доктор Нидаль Салим, директор Института онкологии Европейского медицинского центра (EMC), член Европейского и Израильского советов по медицинской онкологии (опыт — более 25 лет):

*«За более, чем 25-летний опыт работы я могу сказать точно - в онкологии не бывает незначительных деталей. Точная диагностика и выверенная стратегия – это основа успешной терапии. Второе экспертное мнение позволяет взглянуть на клинический случай максимально глубоко и найти эффективное решение даже в самых сложных ситуациях».*



САЛИМ НИДАЛЬ
Директор Института Онкологии

## КОГДА ТОЧНО СТОИТ ОБРАТИТЬСЯ ЗА ВТОРЫМ МНЕНИЕМ:

01 **Уточнить детали:** если диагноз вызывает вопросы, а стадия и тип опухоли требуют уточнения.

02 **Справиться со сложным случаем:** если речь идет о редком виде заболевания, требующем уникальной экспертизы.

03 **Оценить эффективность лечения:** если предложенная терапия не дает положительной динамики и требуется коррекция подхода.

04 **Обрести спокойствие:** если вы хотите быть на 100% уверены, что используете лучшие мировые возможности для своего выздоровления.

## ПОЧЕМУ ПРОГРАММА «ВТОРОЕ МНЕНИЕ В EMC» — ЭТО ЗОЛОТОЙ СТАНДАРТ ДИАГНОСТИКИ?

### НЕЗАВИСИМЫЙ ПЕРЕСМОТР МАТЕРИАЛОВ.

Экспертные патоморфологи и нейрорадиологи EMC заново анализируют гистологические стекла и диски КТ/МРТ. Мы не переписываем чужие заключения, а находим детали, которые могли быть упущены при стандартном описании.

### МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ КОНСИЛИУМ (TUMOR BOARD).

Ваш случай разбирает не один врач, а мультидисциплинарная команда онкологов, хирургов, радиотерапевтов и генетиков с опытом работы в ведущих клиниках Израиля, Европы и США.

### БЕСШОВНЫЙ ПЕРЕХОД К ЛЕЧЕНИЮ.

Вы получаете не просто заключение, а конкретный план лечения и дорожную карту. При необходимости лечение можно сразу продолжить в EMC — на оборудовании последнего поколения и по международным протоколам.

ЗАПИШИТЕСЬ НА ДИСТАНЦИОННУЮ КОНСУЛЬТАЦИЮ ИЛИ ОЧНЫЙ ПРИЕМ:

Москва, ул. Щепкина, д. 35 (Клиника EMC)
+7 (495) 933 66 55 | emcmos.ru

РЕКЛАМА. Л041-01137-77/00367630
ИМЕЮТСЯ ПРОТИВОПОКАЗАНИЯ. ПРОКОНСУЛЬТИРУЙТЕСЬ СО СПЕЦИАЛИСТОМ.

РЕКЛАМА. ИМЕЮТСЯ ПРОТИВОПОКАЗАНИЯ. ПРОКОНСУЛЬТИРУЙТЕСЬ СО СПЕЦИАЛИСТОМ.

EMC ЕВРОПЕЙСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЦЕНТР

# *Премиальная экосистема управления здоровьем*

Сочетание технологий передовой доказательной медицины и стратегического целостного подхода к здоровью

*24/7*
архитектура долголетия с персонализированным сопровождением для клиентов из любой точки мира

*600+*
российских и международных медицинских экспертов

*36*
лет опыта на благо здоровья клиентов

*57*
специализаций



РЕКЛАМА

HILL

# ВАШ РОСКОШНЫЙ ВИД НА УЗБЕКИСТАН

Стать спонсором экспедиций:
*Ekspeditsiyaga homiy bo‘ling:*

+998 90 014 99 90
projects@hill.uz
hill.uz

# *O‘ZBEKISTONGA YAGONA VA BETAKROR NIGOH*

7K | Тираж
*Tiraj*

180+ | Премиум-локаций
*Premium lokatsiyalar*

23 | Indoor LED-экрана
*Indoor LED-ekranlar*

4.5M | Охват аудитории
*Auditoriya qamrovi*

Городище Кампыртепа (Александрия Оксианская), Сурхандарья, 2026

*Qadimiy Kampirtepa shahri (Oksiana Iskandariyasi), Surxondaryo, 2026*

РЕКЛАМА

## JEWELRY & WATCHES

MESSIKA · CHAUMET PARIS · HUBLOT · ULYSSE NARDIN · Breguet · BREITLING 1884 · BLANCPAIN · OMEGA · GP GIRARD-PERREGAUX · ZENITH · BUBEN&ZÖRWEG · LONGINES · RADO SWITZERLAND · TISSOT · SWAROVSKI · PANDORA · TOUS

## FASHION

PESERICO · SANDRO · maje · DIESEL · PINKO · WEEKEND MaxMara · LACOSTE · MARINA RINALDI · TWINSET MILANO · Luisa Spagnoli · BOSS · 12 STOREEZ · Chantelle · DILDORA KASIMOVA · S.A.A.D.I. HAUTE COUTURE · TWINSET SPACE · HUGO · KARL LAGERFELD · Calvin Klein · BOGGI MILANO · Massimo Dutti · TOMMY HILFIGER · ARMANI EXCHANGE · Levi's · GEOX · GANT · GERRY WEBER · CALZEDONIA · intimissimi · MAX&Co · Timberland · ZARA · BERSHKA · PULL&BEAR · STRADIVARIUS · VANS · OYSHO · MANGO · JACK&JONES · women'secret · GUESS · NEW YORKER

## KIDS

Bonpoint · Tartine et Chocolat · jacadi PARIS · eleventy · BIBIONA · EMPORIO ARMANI · MONNALISA · DKNY · KENZO · MICHAEL KORS · BOBO CHOSES · JELLY MALLOW · kenzo. kitsyl · Moulin Roty · vilac · LEGO · POP MART · MATTEL · name it · NEXT · LITTLE MARC JACOBS · HUGO KIDS · BOSS KIDSWEAR

## SHOES

ALDO · COLE HAAN · ecco · SKECHERS · crocs · BALDININI

## BAGS & ACCESSORIES

TUMI · ROQUADRO · FURLA SINCE 1927 ITALY · FENDI · Dior · Ray-Ban · LOEWE · CÉLINE · GUCCI · PRADA · MIU MIU · Cartier

## BEAUTY & PARFUM

CHANEL · MAC · ELEMIS LONDON · L'OCCITANE EN PROVENCE · KIKO MILANO · SABER

## TECHNOLOGY

BORK · B&O · smeg · dyson · TECH

## SPORT

THE NORTH FACE · UNDER ARMOUR · PUMA · Reebok · SABER · SKECHERS · salomon

BREND MULTI-DO'KON ICHIDA JOYLASHGAN. BATAFSIL MA'LUMOT UCHUN KONSYERJ-HUDUDGA MUROJAAT QILING.
БРЕНД РАСПОЛОЖЕН ВНУТРИ МУЛЬТИ-МАГАЗИНА. ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ ПОДРОБНОЙ ИНФОРМАЦИИ, ПОЖАЛУЙСТА, ОБРАТИТЕСЬ В КОНСЬЕРЖ-ЗОНУ.

# EXCEPTIONAL EXPERIENCES

TASHKENT CITY MALL








**UZ**

**SAYOHATINGIZ AYNAN SHU YERDA DAVOM ETADI.**

Zamonaviy Toshkentning eng yorqin nuqtalaridan birini kashf eting.

Ishlar yuzasidan yoki dam olish uchun tashrif buyursangiz ham, Tashkent City Mall marshrutingizdagi asosiy manzillardan biriga aylanadi.

Tashkent City Mall shaharning dinamikasi va zamonaviy ritmini aks ettiruvchi, dam olish, xarid qilish va gastronomik taassurotlarning to'liq formatini taqdim etuvchi makondir.

Poytaxt markazida joylashgan bu o'ziga xos savdo-ko'ngilochar majmuada dunyo modasining yetakchi brendlari bir tom ostida jamlangan.

Tashkent City Mall ekotizimi esa savdo makoni bilan chegaralanmaydi: yaqin atrofda hashamatli JW Marriott mehmonxonasi va A-klass Summit biznes-markazi joylashgan bo'lib, bu hudud xarid qilish bilan bir qatorda poytaxtning biznes hayoti uchun ham jozibador nuqtaga aylangan. Hilton, Holiday Inn va qo'shiq aytuvchi favvoralari bilan mashhur sayilgoh bog'iga yaqinligi esa Tashkent City Mallga tashrifni Toshkent haqidagi yaxlit taassurotning ajralmas qismiga aylantiradi.

**RU**

**ВАШЕ ПУТЕШЕСТВИЕ ПРОДОЛЖАЕТСЯ ЗДЕСЬ.**

Откройте для себя одно из самых ярких мест современного Ташкента.

Приезжаете ли вы в Ташкент по делам или на отдых, Tashkent City Mall станет одной из главных точек вашего маршрута.

Это больше, чем торговый центр: полноценный формат отдыха, шопинга и гастрономии, отражающий динамику и ритм современного города.

В самом сердце столицы расположен единственный в своём роде торгово-развлекательный комплекс Узбекистана, где под одной крышей собраны ведущие имена мировой моды.

Экосистема Tashkent City Mall выходит далеко за рамки торгового пространства: по соседству расположен люксовый всемирно известный отель JW Marriott и бизнес-центр Summit класса А, что делает это место точкой притяжения не только для шопинга, но и для деловой жизни столицы. Близость к отелям Hilton и Holiday Inn, а также к парку с поющими фонтанами превращает визит в Tashkent City Mall в часть цельного впечатления от Ташкента.

TEL.: +998 95 024 77 77
**FACEBOOK:** TASHKENT CITY MALL
**INSTAGRAM:** TASHKENT_CITY_MALL
TCMALL.UZ

O'ZBEKISTON, TOSHKENT,
BOTIR ZOKIROV KO'CHASI, 7,
TASHKENT CITY MALL

УЗБЕКИСТАН, ТАШКЕНТ,
УЛ. БАТЫРА ЗАКИРОВА, 7,
TASHKENT CITY MALL

LOCATION













*H₂O*

# MUNDARIJA

СОДЕРЖАНИЕ


*40*
O‘z ko‘zingiz bilan: e’tiborga loyiq voqealar
Своими глазами: события, достойные внимания

*52*
Suv arkasi
Водная арка

*60*
«Blue Flag»: dunyoning eng yaxshi plyajlari bo‘yicha yo‘riqnoma
Blue Flag: путеводитель по лучшим пляжам мира

*76*
#SaveCharvaq: Chorvoqni qanday saqlab qolish va bugundan boshlab nimalarga ulgurish mumkin
#SaveCharvaq: как сохранить Чарвак и что можно сделать уже сегодня

*90*
Danil Kim: «Har bir yirik loyiha ortida doimo jamoa turadi»
Данил Ким: «За каждым большим проектом всегда стоит команда»

*104*
Ko‘llar sadosi
Голоса озёр

*124*
Vladimir Muxin: «Bosh oshpaz uchun suv – bu to‘laqonli bir masalliq»
Владимир Мухин: «Для шеф-повара вода – это полноценный ингредиент»

*134*
«Eng murakkabi – oddiy taomlar»: Vladimir Bogojavets kasbi, sayohatlari va suv haqida
«Простая кухня – самая сложная»: Владимир Богожавец о профессии, путешествиях и воде

*142*
Qumlar musiqasi: qurigan dengiz pleylisti
Музыка песков: плейлист об ушедшем море

*156*
Suvdan yaralgan: o‘zbek kinosi tarixi
Рождённое водой: история узбекского кино

*160*
Sof idrok ekstrimi
Экстрим чистого разума
















CENTRUM HOLIDAYS

Yangi avlod turoperatori

Туроператор нового поколения

centrum-holidays.com

+998 55 577 88 88

# Centrum
Travel magazine

*Директор по маркетингу:*
АНДРЕЙ ОСИНЦЕВ

*Главный редактор:*
ЕЛИЗАВЕТА АЛМАЗОВА

*Арт-директор:*
ЭМИЛЬ ЗУБАИРОВ

*Бренд-менеджер:*
СОФЬЯ ЗАВЕРШИНСКАЯ

*Заместитель директора по маркетингу*
НИКОЛАЙ КОШКАРЁВ

*Директор по спецпроектам:*
ГИО КАРДАВА

*Авторы:*
АЛИНА ВОЗНЮК
ИСЛАМ РАХМАНОВ
МАРИНА ГУЛЯЩЕВА
ЭЛЬДАР ЮЛДАШЕВ
ГЕОРГИЙ ШВАНОВ
СТАНИСЛАВ ГУРФИНКЕЛЬ

*Перевод (узбекский язык):*
КАМОЛ НАЗАРОВ

*Редактор и корректор, узбекский язык:*
НИЛУФАР МАВЛАНОВА

*Редактор и корректор, русский язык:*
МАРИНА ИСАЙЧЕВА

*Дизайн и верстка:*
ЭМИЛЬ ЗУБАИРОВ
АФЗАЛ ХАМИДОВ

*Фото:*
ГИО КАРДАВА
ДЕНИС КЛЕРО
АНДРИС МОЛЧАНОВ

*Адрес редакции:*
Г. ТАШКЕНТ, МИРАБАДСКИЙ РАЙОН,
УЛ. ОЙБЕКА, 38Б.

*Отдел рекламы*
ТЕЛЕФОН: +998 91 030 82 21
MARKETING@CENTRUM-AIR.COM

*Marketing bo'yicha direktor:*
ANDREY OSINTSEV

*Bosh muharrir:*
YELIZAVETA ALMAZOVA

*Art-direktor:*
EMIL ZUBAIROV

*Brend-menejeri:*
SOFYA ZAVERSHINSKAYA

*Marketing bo'yicha direktor o'rinbosari*
NIKOLAY KOSHKARYOV

*Maxsus loyihalar bo'yicha direktor:*
GIO KARDAVA

*Mualliflar:*
ALINA VOZNYUK
ISLOM RAHMANOV
MARINA GULYASHEVA
ELDAR YULDASHEV
GEORGIY SHVANOV
STANISLAV GURFINKEL

*Tarjima, o'zbek tili:*
KAMOL NAZAROV

*Muharrir va musahhih, o'zbek tili:*
NILUFAR MAVLANOVA

*Muharrir va musahhih, rus tili:*
MARINA ISAYCHEVA

*Dizayn va sahifalash:*
EMIL ZUBAIROV
AFZAL XAMIDOV

*Foto:*
GIO KARDAVA
DENIS KLERO
ANDRIS MOLCHANOV

*Tahririyatning manzili:*
TOSHKENT SHAHRI, MIROBOD
TUMANI, OYBEK KO'CH., 38B.

*Reklama bo'limi*
TELEFON: +998 91 030 82 21
MARKETING@CENTRUM-AIR.COM

Лицензия №854711

Редакция не несёт ответственности
за содержание рекламных материалов.

Использование материалов или
их фрагментов в любой форме
допускается исключительно
с письменного разрешения редакции.

Отпечатано в типографии Print House
Gerona: Республика Казахстан, г.
Алматы, ул. Сатпаева, 30а/3, офис 124.
Тираж 15 000 экземпляров.

Litsenziya №854711

Tahririyat reklama materiallarining
mazmuni uchun javobgar emas.

Materiallar yoki ularning qismlaridan
har qanday shaklda foydalanishga faqat
tahririyatning yozma ruxsati bilan yo'l
qo'yiladi.

Print House Gerona tipografiyasida
chop etilgan: Qozog'iston Respublikasi,
Olmaota shahri, Satpaev ko'chasi, 30a/3,
124-ofis. Nashr 15 000 nusxa.



# Aziz o‘quvchi!

## Дорогой читатель!

Вода – одна из тех стихий, без которых невозможно представить жизнь. Она движется, меняет форму, находит путь там, где, кажется, его нет. В ней – проявление силы, гибкости и способности оставаться собой, меняясь вместе с окружающим миром.

Но $H_2O$ – это не просто вода. Это ещё и поток людей, идей и впечатлений, которые постоянно движутся навстречу друг другу. Именно так устроено наше путешествие по миру: мы пересекаем границы, встречаем новых людей, открываем культуры, пробуем незнакомые вкусы, слышим другие языки и увозим с собой то, что невозможно отметить на карте.

Вода умеет менять русло, не теряя направления – в этом прослеживается и образ человеческой жизни: мы меняемся, учимся, порой выбираем неожиданные маршруты, но продолжаем двигаться вперёд. Путешествия особенно хорошо напоминают нам об этом: иногда, чтобы увидеть новое, нужно позволить себе свернуть с привычного пути.

В этом номере мы говорим о воде по-разному – как об источнике жизни и вдохновения, важнейшем ресурсе и части повседневной культуры, полноценном ингредиенте, который способен менять вкус блюда, и как о стихии, помогающей по-новому взглянуть на лидерство, движение и перемены. Мы говорим о людях, которые создают новые маршруты, соединяют города и страны, реализуют потрясающие идеи и превращают расстояния в возможности для встречи.

Потому что за каждым путешествием всегда есть нечто большее, чем точка отправления и пункт назначения. Есть интересные личности, которых мы встречаем, истории, которые удивляют, впечатления, что остаются с нами, и идеи, которыми хочется поделиться. Как вода, они не стоят на месте, продолжая своё движение и объединяя нас.

Пусть этот выпуск станет приглашением почувствовать собственное течение – прислушаться к себе и понять, куда ведёт поток. Ведь пока мы движемся, встречаемся, открываем новое и остаёмся открытыми миру, наше путешествие продолжается.

*Редакция Centrum Travel Magazine*

Suv – hayotni usiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan unsurlardan biri. U harakatlanadi, shaklini o‘zgartiradi, yo‘l yo‘qdek tuyulgan joydan ham o‘ziga yo‘l topadi. Unda qudrat, moslashuvchanlik va atrof-olam bilan birga o‘zgargan holda o‘zligini saqlab qolish qobiliyati mujassam.

Lekin $H_2O$ – shunchaki suv emas. Bu, ayni paytda, bir-biri tomon tinimsiz intilayotgan odamlar, g‘oyalar va taassurotlar oqimidir. Bizning dunyo bo‘ylab sayohatimiz ham ayni shunday kechadi: chegaralarni kesib o‘tamiz, yangi insonlar bilan tanishamiz, madaniyatlarni kashf etamiz, notanish ta’mlarni tatib ko‘ramiz, o‘zga tillarni eshitamiz va o‘zimiz bilan xaritada belgilab bo‘lmaydigan narsalarni olib ketamiz.

Suv o‘z yo‘nalishini yo‘qotmagan holda o‘zanini o‘zgartira oladi – bunda inson hayotining ham bir timsoli bor: biz o‘zgaramiz, o‘rganamiz, gohida kutilmagan yo‘llarni tanlaymiz, ammo olg‘a intilishda davom etamiz. Ayniqsa, sayohatlar buni bizga juda yaxshi eslatib turadi: ba’zan yangilikni ko‘rish uchun odatiy yo‘ldan chetga chiqishga jur’at qilish yetarli.

Ushbu sonda biz suv haqida turlicha: uning hayot va ilhom manbai, eng muhim resurs va kundalik madaniyatning bir qismi; taom ta’mini o‘zgartirishga qodir to‘laqonli masalliq; yetakchilik, harakat va o‘zgarishlarga yangicha nazar solishga yordam beruvchi unsur ekani haqida so‘z yuritamiz. Biz yangi yo‘nalishlar yaratayotgan, shahar va mamlakatlarni bog‘layotgan, ajoyib g‘oyalarni amalga oshirayotgan va masofalarni uchrashuv imkoniyatiga aylantirayotgan insonlar haqida so‘zlaymiz.

Zero, har bir sayohat zamirida jo‘nash nuqtasi-yu, borar manzilimizdan ko‘ra ulkanroq narsa yotadi. Biz uchratadigan insonlar, bizni hayratga soladigan voqealar, biz bilan qoladigan taassurotlar va boshqalar bilan bo‘lishish istagini uyg‘otadigan g‘oyalar bor. Suv singari ular ham bir joyda turmaydi, o‘z harakatini davom ettirib, bizni birlashtiradi.

Ushbu son o‘z oqimingizni his etishingizga – qalbingizga quloq tutib, oqim sizni qayerga olib borayotganini anglashingiz uchun bir da’vat bo‘lsin. Axir, biz harakatlanar, uchrashar, yangiliklarni kashf etar va dunyoga ochiq qolar ekanmiz, sayohatimiz ham davom etaveradi.

*Centrum Travel Magazine tahririyati*




CENTRUM HOLIDAYS UMRA

Centrum Holidays bilan Umra ziyorati

Паломничество Умра с Centrum Holidays



centrum-holidays.com

+998 55 577 88 88

PEKLAMA

MY FREIGHTER: НАДЁЖНЫЕ ЛОГИСТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

# MY FREIGHTER: ISHONCHLI LOGISTIK YECHIMLAR



*My Freighter faoliyatida harakat tushunchasi allaqachon oddiy parvozlar chegarasidan mutlaqo chiqib ulgurgan. Bir necha yil ichida kompaniya ilk yuk tashish amaliyotlaridan Markaziy Osiyoni Xitoy, Yevropa, Yaqin Sharq va dunyoning boshqa hududlaridagi eng yirik bozorlar bilan bog'laydigan xalqaro tarmoqqacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Bu geografiya kengayib borgan sari, biznesning asosiy – O'zbekistonning joylashuvini uning ustunligiga, Toshkentni esa jahon yo'nalishlari kesishadigan nuqtaga aylantirish g'oyasi ham shunchalik yaqqol namoyon bo'la boshladi.*

*Для My Freighter движение давно вышло за пределы отдельных рейсов. За несколько лет компания прошла путь от первых грузовых перевозок до международной сети, соединяющей Центральную Азию с крупнейшими рынками Китая, Европы, Ближнего Востока и других регионов мира. И чем шире становилась эта география, тем отчётливее проявлялась идея, лежащая в основе бизнеса: превратить расположение Узбекистана в его преимущество, а Ташкент – в точку, где пересекаются глобальные маршруты.*

Эта идея определила всю траекторию развития компании. My Freighter росла вместе с изменением мировой логистики: расширяла флот, открывала новые направления, выстраивала партнёрства с международными перевозчиками и постепенно превращала отдельные рейсы в связанную систему маршрутов.

История компании началась в 2019 году, а уже в 2020-м My Freighter получила сертификат эксплуатанта – паспорт авиакомпании и приступила к операционной деятельности в сфере авиационной логистики. С тех пор масштаб существенно изменился: сегодня флот насчитывает десять грузовых воздушных судов, а сеть связывает Центральную Азию с ключевыми рынками Азии, Европы, Ближнего Востока и Северной Америки.

Но самолёты – лишь видимая часть нашей истории. За каждым новым бортом стоит следующий маршрут, за маршрутом – новый грузопоток, а за грузопотоком – экономическая связь между регионами, поэтому развитие компании измеряется не только количеством воздушных судов, но и тем, как много новых связей появляется на карте мировой торговли. Именно так Ташкент постепенно перестал быть для нас просто базовым аэропортом: он стал центром сети, где пересекаются международные грузовые потоки.

> *«Наша задача – не просто увеличивать количество рейсов или расширять флот. Мы создаём устойчивую международную сеть, в которой Ташкент становится связующим звеном между крупнейшими рынками Азии и Европы. Для нас важно использовать географическое преимущество Узбекистана и превращать его в реальные транспортные возможности для бизнеса и международной торговли»*, – отмечает генеральный директор Centrum Holding Абдулазиз Абдурахманов.

Одним из показательных примеров стал запущенный в феврале 2026 года регулярный маршрут Гонконг – Ташкент – Маастрихт. Дважды в неделю Boeing 767-300F соединяет один из крупнейших производственных центров Китая с европейским рынком через Центральную Азию, и чем больше таких связей появляется, тем заметнее меняется роль самого города: из регионального авиационного центра он постепенно превращается в один из узлов международной грузовой сети.

Bu g'oya kompaniyaning butun taraqqiyot yo'lini belgilab berdi. My Freighter jahon logistikasidagi o'zgarishlar bilan hamnafas rivojlanib bordi: o'z aviaparkini kengaytirdi, yangi yo'nalishlar ochdi, xalqaro tashuvchilar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi va asta-sekin alohida parvozlarni o'zaro bog'langan yo'nalishlar tizimiga aylantirdi.

Kompaniya tarixi 2019-yilda boshlagan bo'lib, 2020-yilga keliboq My Freighter ekspluatant sertifikatini – aviakompaniya pasportini qo'lga kiritdi va aviatsiya logistikasi sohasida o'z faoliyatini boshladi. O'shandan beri kompaniya ko'lami ancha kengaydi: bugungi kunda uning havo floti o'nta yuk kemasidan iborat bo'lib, yo'nalishlar tarmog'i esa Markaziy Osiyoni Osiyo, Yevropa, Yaqin Sharq va Shimoliy Amerikaning asosiy bozorlari bilan bog'lab turadi.

Lekin samolyotlar tariximizning ko'zga ko'ringan bir qismi, xolos. Har bir yangi havo kemasi ortida navbatdagi yo'nalish, har bir yo'nalish ortida – yangi yuk oqimi, yuk oqimi ortida esa hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yotadi. Shu bois kompaniya taraqqiyoti nafaqat havo kemalari soni, balki jahon savdo xaritasida qancha yangi aloqalar paydo bo'layotgani bilan ham o'lchanadi. Aynan shu sababli Toshkent biz uchun asta-sekin shunchaki tayanch aeroport bo'lishdan to'xtab, xalqaro yuk oqimlari tutashadigan tarmoq markaziga aylandi.

> *«Vazifamiz – faqat parvozlar sonini oshirish yoki aviaparkni kengaytirishdangina iborat emas. Biz Toshkentni Osiyo va Yevropaning eng yirik bozorlari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'inga aylantiradigan barqaror xalqaro tarmoqni yaratmoqdamiz. Shu sababli O'zbekistonning geografik ustunligidan foydalanib, uni biznes va xalqaro savdo uchun real transport imkoniyatlariga aylantirish biz uchun muhim»*, – deya ta'kidlaydi Centrum Holding bosh direktori Abdulaziz Abdurahmonov.

2026-yilning fevral oyida yo'lga qo'yilgan Gonkong – Toshkent – Maastrixt muntazam yo'nalishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Boeing 767-300F samolyoti haftasiga ikki marta Xitoyning eng yirik ishlab chiqarish markazlaridan birini Markaziy Osiyo orqali Yevropa bozori bilan bog'lamoqda. Bunday aloqalar ko'paygan sari shaharning o'rni ham sezilarli tarzda o'zgarmoqda: u hududiy aviamarkazdan asta-sekin xalqaro yuk tarmog'i nuqtalaridan biriga aylanib bormoqda.



*Генеральный директор Centrum Holding*
**Абдулазиз Абдурахманов**

*Centrum Holding bosh direktori*
**Abdulaziz Abdurahmonov**

## ОТ ПЕРВОГО БОРТА ДО МЕЖДУНАРОДНОЙ СЕТИ

История этого роста хорошо читается через флот. В 2022 году My Freighter начала операционную деятельность как авиакомпания, выполнявшая грузовые чартерные рейсы на Boeing 747-200. Это стало первым шагом к собственной международной сети.

Дальше каждый новый борт становился частью следующего этапа развития. В 2025 году флот пополнился восьмым грузовым самолётом – Boeing 767-300F, а уже в апреле 2026 года компания получила десятое воздушное судно. До конца текущего года My Freighter планирует продолжить расширение флота и довести его до 13 грузовых самолётов.

Но увеличение флота для компании – это не самоцель. Новый самолёт означает новые возможности: открыть направление, увеличить частотность рейсов, взять на себя дополнительные грузовые потоки и связать между собой ещё больше рынков.

Есть у этого роста и другая, менее очевидная сторона. В апреле 2026 года один из новых Boeing 767 получил имя «Абдулла Кадыри» – в честь выдающегося узбекского писателя. Так самолёт, который ежедневно работает в глобальной логистической системе, становится ещё и своеобразным носителем национальной истории. Он отправляется из Ташкента в разные части мира, связывая Узбекистан с международными торговыми потоками. И в этом есть метафора самой My Freighter: компания выросла здесь, но её пространство давно вышло далеко за пределы страны.

> *«Для нас важно, чтобы, выходя на международный рынок, мы не теряли связь с местом, ставшим точкой нашего роста. Самолёт может курсировать между разными странами, но при этом важно оставаться частью истории и культуры Узбекистана. Имена выдающихся личностей нашей страны – один из способов эту связь сохранить»,* – говорит сооснователь Centrum Holding Хафизжон Гафуров.

## СОЗДАВАЯ НОВЫЕ ТОРГОВЫЕ КОРИДОРЫ

Грузовая авиация быстро реагирует на изменения в мировой торговле. Меняются производственные цепочки – меняются маршруты; растёт электронная коммерция – увеличивается спрос на быстрые и предсказуемые поставки; появляются новые торговые коридоры – меняется роль транзитных центров. My Freighter развивает маршрутную сеть вместе с этими изменениями, расширяя присутствие не только на крупных и очевидных направлениях, но и там, где появляются новые перспективные грузовые потоки.

В 2025 году одним из таких направлений стал маршрут Урумчи – Ургенч. Первый грузовой рейс перевёз более 50 тонн грузов, преимущественно связанных с электронной коммерцией. Для Ургенча это стало первым подобным грузовым сообщением и открыло дополнительные возможности для западных регионов Узбекистана, в том числе для выхода на международные рынки.

В 2026 году сеть продолжила расти. Новые регулярные маршруты связали Ханой, Бангкок и Алматы с Ташкентом и Франкфуртом, создав дополнительный коридор между Юго-Восточной Азией, Центральной Азией и Европой. Связь с Европой усилилась и за счёт Льежа: My Freighter увеличила частоту рейсов между бельгийским городом и Центральной Азией до ежедневной, усилив связь региона с европейским транспортным узлом.

Всё это позволяет говорить о том, что сегодня маршрутная сеть My Freighter охватывает ключевые торговые направления между Азией, Центральной Азией и Европой. По мере роста международной торговли и электронной коммерции она продолжает расширяться.

## BIRINCHI SAMOLYOTDAN XALQARO TARMOQQACHA

Bu yuksalish tarixini aviapark misolida yaqqol ko‘rish mumkin. 2022-yilda My Freighter Boeing 747-200 bilan yuk charter reyslarini amalga oshiradigan aviakompaniya sifatida o‘z faoliyatini boshladi. Bu – kompaniyaning global bozordagi ilk qadami bo‘ldi.

Keyinchalik har bir yangi samolyot rivojlanishning navbatdagi bosqichiga zamin yaratdi. 2025-yilda aviapark sakkizinchi yuk samolyoti – Boeing 767-300F bilan to‘ldirildi, 2026-yilning aprel oyida esa kompaniya o‘ninchi havo kemasini qabul qilib oldi. Joriy yil oxiriga qadar My Freighter o‘z aviaparkidagi yuk samolyotlari sonini 13 taga yetkazishni rejalashtirmoqda.

Ammo aviaparkni kengaytirish kompaniyaning pirovard maqsadi emas. Yangi samolyot bu – yangi imkoniyatlar: yangi yo‘nalishlar ochish, parvozlar sonini ko‘paytirish, qo‘shimcha yuk oqimlarini qamrab olish va yanada ko‘proq bozorlarni o‘zaro bog‘lashdir.

Bu o‘sishning yana bir, ko‘zga yaqqol tashlanmaydigan jihati ham bor. 2026-yil aprel oyida yangi Boeing 767 samolyotlaridan biriga atoqli o‘zbek adibi sharafiga «Abdulla Qodiriy» nomi berildi. Shu tariqa, global logistika tizimida har kuni mehnat qiladigan havo kemasi ayni vaqtda milliy tariximizning o‘ziga xos elchisiga ham aylandi. U Toshkentdan dunyoning turli burchaklariga parvoz qilib, O‘zbekistonni xalqaro savdo oqimlari bilan bog‘laydi. Bunda My Freighter faoliyatining o‘ziga xos ramziy ma’nosi mujassam: kompaniya shu yerda ulg‘aydi, biroq uning faoliyat doirasi anchadan beri mamlakat sarhadlaridan tashqariga chiqib ulgurgan.

> *«Xalqaro bozorga chiqar ekanmiz, biz uchun o‘zimiz voyaga yetgan zamindan uzilib qolmaslik muhim ahamiyatga ega. Samolyot turli mamlakatlar o‘rtasida parvoz qilishi mumkin va ayni vaqtda O‘zbekiston tarixi hamda madaniyatining bir bo‘lagi bo‘lib qolishi lozim. Yurtimizning atoqli shaxslarining nomlari esa bu aloqani saqlab qolishning yo‘llaridan biridir»,* – deydi Centrum Holding hammuassisi Hafizjon G‘afurov.

## YANGI SAVDO YO‘LAKLARINI YARATIB

Yuk aviatsiyasi jahon savdosidagi o‘zgarishlarga tezkorlik bilan moslashib boradi. Ishlab chiqarish zanjirlari o‘zgarishi bilan yo‘nalishlar ham o‘zgaradi; elektron tijoratning o‘sishi tez va oldindan taxmin qilish mumkin bo‘lgan yetkazib berish xizmatlariga talabni oshiradi; yangi savdo yo‘laklarining paydo bo‘lishi esa tranzit markazlarining rolini o‘zgartiradi. My Freighter ana shu o‘zgarishlarga hamqadam tarzda o‘z yo‘nalishlar tarmog‘ini rivojlantirib, nafaqat yirik va muhim yo‘nalishlarda, balki yangi istiqbolli yuk oqimlari yuzaga kelayotgan hududlarda ham o‘z ishtirokini kengaytirmoqda.

2025-yilda ana shunday yo‘nalishlardan biri sifatida Urumchi – Urganch marshruti yo‘lga qo‘yildi. Dastlabki yuk reysida asosan elektron tijoratga oid 50 tonnadan ortiq yuk tashildi. Urganch uchun bu ilk yuk qatnovi bo‘lib, O‘zbekistonning g‘arbiy hududlariga qo‘shimcha imkoniyatlar, jumladan, xalqaro bozorlarga chiqish eshiklarini ochdi.


2026-yilda tarmoq kengayishda davom etdi. Yangi muntazam yo‘nalishlar Xanoy, Bangkok va Olmaotani Toshkent hamda Frankfurt bilan bog‘lab, Janubi-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasida qo‘shimcha yo‘lak yaratdi. Shuningdek, Lyej orqali Yevropa bilan bog‘liqlik yanada mustahkamlandi: My Freighter Belgiya shahri va Markaziy Osiyo o‘rtasida har kunlik parvozlarni yo‘lga qo‘yib, mintaqaning Yevropa transport markazi bilan aloqasini kuchaytirdi.

Bularning barchasi bugungi kunda My Freighter’ning yo‘nalishlar tarmog‘i Osiyo, Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi asosiy savdo yo‘nalishlarini qamrab olganini ko‘rsatadi. Xalqaro savdo va elektron tijorat o‘sishi asnosida u yanada kengayib bormoqda.



*Соучредитель Centrum Holding*
**Хафизжон Гафуров**

*Centrum Holding hammuassisi*
**Hafizjon G'afurov**







## ОТ ГРУЗА – К МАРШРУТУ

За каждым маршрутом стоит конкретный грузопоток, и именно его структура во многом определяет, куда направится следующий самолёт. Одним из ключевых источников спроса для My Freighter стала электронная коммерция. Грузы из Китая и других азиатских рынков направляются в Европу, где особенно важны скорость и предсказуемость доставки. В 2025 году компания перевезла более 40 процентов авиагрузов, отправленных в Узбекистан или транзитом через страну, что отражает её роль в региональной системе воздушных грузоперевозок.

При этом грузовая база компании постепенно становится шире. Помимо электронной коммерции, My Freighter работает с автомобильными комплектующими, промышленным оборудованием, электроникой, товарами повседневного спроса и другими категориями. Отдельное место занимают специальные грузы: скоропортящиеся, фармацевтические, опасные, негабаритные и ценные. Для каждого из них важны свои параметры – где-то критична скорость, где-то – соблюдение специальных условий или возможность точно встроить авиаперевозку в более длинную цепочку поставок, поэтому грузовая авиация всё чаще становится не отдельной услугой, а частью единой логистической системы.

> *«Мы смотрим не только на то, куда летит самолёт, но и на то, что происходит с грузом до и после рейса. Если соединить авиацию с наземной логистикой и другими видами транспорта, можно выстроить для клиента действительно цельную цепочку доставки»,* – комментирует Абдулазиз Абдурахманов.

В этом и заключается одно из преимуществ My Freighter: воздушная перевозка может работать внутри более широкой инфраструктуры Centrum Holding, объединяясь с наземной логистикой и другими видами транспорта. В результате самолёт становится не конечным звеном доставки, а частью маршрута, который соединяет производителя, транзитный центр и конечный рынок.

## YUKDAN – YO‘NALISHGACHA

Har bir yo‘nalish ortida muayyan yuk oqimi turadi va ko‘p jihatdan aynan uning tarkibi keyingi samolyotning qayerga yo‘l olishini belgilab beradi. My Freighter uchun asosiy talab manbalaridan biri elektron tijorat bo‘ldi. Xitoy va Osiyoning boshqa bozorlaridan yuklar yetkazib berishning tezligi va oldindan bashorat qilinishi ayniqsa muhim bo‘lgan Yevropaga yo‘naltiriladi. 2025-yilda kompaniya O‘zbekistonga yuborilgan yoki mamlakat orqali tranzit qilingan avia yuklarning 40 foizdan ortig‘ini tashidi, bu esa uning mintaqaviy havo yuk tashish tizimidagi o‘rnini aks ettiradi.

Shu bilan birga, kompaniyaning yuk bazasi ham bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. My Freighter elektron tijoratdan tashqari, avtomobil butlovchi qismlari, sanoat uskunalari, elektronika, kundalik ehtiyoj mollari va boshqa toifadagi yuklar bilan ham ishlaydi. Tez ayniydigan, farmatsevtika, xavfli, yirik hajmli va qimmatbaho bo‘lgan maxsus yuklar alohida o‘rin tutadi. Ularning har biri uchun o‘ziga xos mezonlar – qayerdadir tezlik, boshqa bir joyda maxsus shartlarga rioya etish yoki havo tashuvini uzunroq ta’minot zanjiriga aniq integratsiya qilish imkoniyati muhim. Shu sababli, yuk aviatsiyasi tobora alohida xizmat bo‘lib qolmay, yagona logistika tizimining bir qismiga aylanmoqda.

> *«Biz nafaqat samolyotning qayerga uchayotganini, balki yuk bilan parvozdan oldin va keyin nima sodir bo‘lishiga ham e’tibor qaratamiz. Agar aviatsiyani yerdagi logistika va boshqa transport turlari bilan birlashtirsak, mijoz uchun haqiqatan ham yaxlit yetkazib berish zanjirini yarata olamiz»,* – deya izoh beradi Abdulaziz Abdurahmonov.

My Freighter’ning afzalliklaridan biri ham aynan shunda namoyon bo‘ladi: havo transporti yer usti logistikasi va boshqa transport turlari bilan integratsiyalashgan holda Centrum Holding’ning kengroq infratuzilmasi doirasida faoliyat yurita oladi. Natijada samolyot yetkazib berishning yakuniy bosqichi emas, balki ishlab chiqaruvchi, tranzit markazi hamda pirovard bozorni o‘zaro bog‘laydigan marshrutning bir qismiga aylanadi.

## НЕ ТОЛЬКО САМОЛЁТЫ

Грузовая авиация не заканчивается на взлётной полосе, ведь самолет – лишь часть большой системы, где одинаково важны терминалы, наземная обработка, техническое обслуживание, цифровые решения и люди. Поэтому вместе с расширением флота My Freighter развивает инфраструктуру вокруг своих операций. Ташкент остаётся ключевым хабом компании, а развитие грузового терминала и технической базы создаёт условия для дальнейшего роста объёмов рейсов и перевозок.

В более широкой системе Centrum Holding воздушная логистика соединяется с наземной. Группа располагает терминальной инфраструктурой, контейнерным парком, железнодорожными платформами, автомобильным транспортом и складскими мощностями. Это позволяет выстраивать логистическую цепочку от отправителя до конечного получателя, не разрывая её на отдельные этапы, в чём и заключается преимущество интегрированной модели: воздушная перевозка отвечает за скорость, а наземная инфраструктура – за непрерывность движения.

> *«Мы понимаем инфраструктуру не как дополнение к авиации, а как её продолжение. Самолёт обеспечивает скорость, но без терминалов, наземной логистики и других элементов этой системы невозможно обеспечить стабильную доставку»,* – говорит Хафизжон Гафуров.

Для клиента результат прост: груз должен пройти весь путь без лишних остановок, потери времени и разрывов между этапами. Поэтому масштаб грузовой авиакомпании определяется не только размером флота, но и тем, насколько слаженно работает вся система вокруг него.

## РАСШИРЯЯ ГРАНИЦЫ СОБСТВЕННОЙ СЕТИ

Но даже широкая собственная география не может охватить весь мир, поэтому важнейший этап развития My Freighter – партнёрства с другими авиакомпаниями. Такие интерлайн-соглашения позволяют объединять разные маршрутные сети в единую систему: груз может начать путь на борту My Freighter, продолжить его рейсом партнёра и в итоге попасть на рынок, куда собственные самолёты компании не летают напрямую.

За последние годы My Freighter последовательно расширяла такую сеть, заключая соглашения с Icelandair Cargo, Air Europa, Aeromexico, Cargojet, Air Serbia, National Air Cargo, American Airlines, Biman Bangladesh Airlines и другими перевозчиками. В 2026 году к сети также присоединились SF Airlines, Loong Air, Juneyao Air, STARLUX Airlines и China Southern Airlines.

> *«Чтобы развивать международную сеть, нужно постоянно находиться внутри отрасли: участвовать в крупных выставках, встречаться с авиакомпаниями и логистическими партнёрами, обсуждать новые маршруты и возможности. Мы регулярно ездим на такие мероприятия, и многие соглашения, которые сегодня работают в нашей сети, начинались именно с этих встреч»,* – отмечает Абдулазиз Абдурахманов.

Так собственный флот становится частью глобальной системы. Компания создаёт маршрут, партнёрство существенно расширяет его, а совокупность таких связей превращает маршрутную сеть в полноценный международный логистический инструмент. Поэтому для My Freighter важен не только собственный маршрутный охват, а возможность доставить груз в любую нужную точку через всю партнёрскую сеть.

## FAQATGINA SAMOLYOTLAR EMAS

Yuk tashish aviatsiyasi shunchaki uchish-qo‘nish yo‘lagi bilan cheklanib qolmaydi, zero, samolyot bu – terminallar, yer usti xizmatlari, texnik ta’minot, raqamli yechimlar va insonlar muhim o‘rin tutadigan yirik tizimning bir qismi. Shu bois My Freighter aviaparkni kengaytirish bilan birga zarur infratuzilmani ham rivojlantirmoqda. Toshkent shahri kompaniyaning asosiy habi bo‘lib qolmoqda, yuk terminali va texnik bazani rivojlantirish esa reyslar hamda yuk tashish hajmini yanada oshirish uchun sharoit yaratmoqda.

Centrum Holding’ning keng qamrovli tizimida havo logistikasi yer usti logistikasi bilan uzviy bog‘liq. Guruh o‘z tasarrufida terminal infratuzilmasi, konteyner parki, temir yo‘l platformalari, avtomobil transporti va omborxona quvvatlariga ega. Bu esa logistika zanjirini jo‘natuvchidan to yakuniy oluvchigacha alohida bosqichlarga bo‘lmasdan tashkil etish imkonini beradi. Integratsiyalashgan modelning afzalligi ham aynan shunda: havo tashuvi tezlikni ta’minlasa, yer usti infratuzilmasi yuk harakatining uzluksizligiga javob beradi.

> *«Biz infratuzilmani aviatsiyaga qo‘shimcha emas, balki uning davomi deb bilamiz. Samolyot tezlikni ta’minlaydi, biroq terminallar, yer usti logistikasi va bu tizimning boshqa unsurlarisiz barqaror yetkazib berishni ta’minlab bo‘lmaydi»,* – deydi Hafizjon G‘afurov.

Mijoz uchun natija oddiy: yuk belgilangan manzilga ortiqcha to‘xtashlarsiz, vaqt yo‘qotilmasdan va bosqichlar orasidagi uzilishlarsiz yetib borishi kerak. Shu sababli, yuk aviakompaniyasining miqyosi nafaqat aviapark hajmi, balki uning atrofidagi butun tizimning qanchalik muvofiqlashtirilgan holda ishlayotgani bilan ham belgilanadi.

## O‘Z YO‘NALISHLAR TARMOG‘I SARHADLARINI KENGAYTIRIB

Hatto keng geografik qamrovning o‘zi ham butun dunyoni qamrab olish uchun yetarli emas. Shu bois My Freighter rivojlanishidagi eng muhim bosqich – boshqa aviakompaniyalar bilan hamkorlik o‘rnatishdir. Bunday interlayn kelishuvlar turli yo‘nalish tarmoqlarini yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi: yuk tashish My Freighter bortida boshlanib, hamkor aviakompaniya reysida davom ettirilishi va natijada kompaniyaning o‘z samolyotlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri parvoz qilmaydigan bozorlarga yetib borishi mumkin.

So‘nggi yillarda My Freighter Icelandair Cargo, Air Europa, Aeromexico, Cargojet, Air Serbia, National Air Cargo, American Airlines, Biman Bangladesh Airlines kabi va boshqa aviatashuvchilar bilan shartnomalar tuzib, o‘z tarmog‘ini izchil kengaytirib kelmoqda. 2026-yilda bu tarmoqqa SF Airlines, Loong Air, Juneyao Air, STARLUX Airlines va China Southern Airlines ham qo‘shildi.

> *«Xalqaro tarmoqni rivojlantirish uchun doimo soha ichida bo‘lish kerak: yirik ko‘rgazmalarda qatnashish, aviakompaniyalar va logistika bo‘yicha hamkorlar bilan uchrashish, yangi yo‘nalish va imkoniyatlarni muhokama qilib borish lozim. Biz bunday tadbirlarga muntazam borib turamiz va bugungi kunda tarmog‘imizda amalda bo‘lgan ko‘plab kelishuvlarga aynan o‘sha uchrashuvlarda poydevor qo‘yilgan»,* – deb ta’kidlaydi Abdulaziz Abdurahmonov.

Shu tariqa, kompaniya aviaparki global tizimning bir qismiga aylanadi. Kompaniya yo‘nalish yaratadi, hamkorlik esa uni sezilarli darajada kengaytiradi va bunday aloqalar majmui esa yo‘nalishlar tarmog‘ini to‘laqonli xalqaro logistika vositasiga aylantiradi. Shu bois My Freighter uchun nafaqat o‘z yo‘nalishlari qamrovi, balki butun hamkorlik tarmog‘i orqali yukni istalgan manzilga yetkazib berish imkoniyati ham muhim ahamiyatga ega.







## ЗА КАЖДЫМ РЕЙСОМ – КОМАНДА

*«Даже самая современная инфраструктура не работает сама по себе. За каждым рейсом стоят люди – те, кто планирует маршрут, готовит борт, контролирует его техническое состояние, организует загрузку и следит за тем, чтобы десятки процессов точно совпали во времени»*, – говорит первый заместитель генерального директора, коммерческий директор My Freighter Мамуржон Мамадалиев.

Для My Freighter профессиональная подготовка становится частью масштабирования бизнеса. Компания использует международные тренировочные центры для подготовки авиационных специалистов и планирует создать собственный учебный центр. На первом этапе он будет сосредоточен на пилотах и бортпроводниках (в сфере пассажирских авиаперевозок), а в дальнейшем программа может быть расширена на подготовку технического персонала.

В 2025 году My Freighter заключила соглашение с Acron Aviation об использовании полнофункциональных тренажёров для подготовки пилотов. Обучение проходит в Бангкоке, а в дальнейшем программа может быть распространена на тренировочный центр в Лондоне.

В авиации есть показатели, которые видны сразу: количество самолётов, маршрутов, тонны перевезённого груза. Но есть и те, что почти невозможно увидеть со стороны: достаточно ли подготовлен экипаж, как быстро специалисты приняли оптимальное решение, насколько слаженно сработала команда и система в целом. Именно из таких незаметных для внешнего наблюдателя решений складывается надёжность – то, что в грузовой авиации ценится особенно высоко.

Поэтому рост My Freighter – это история не только об увеличивающемся флоте и множестве направлений. Это летопись того, как вокруг них постепенно сформировалась профессиональная система, способная работать со всё более широкой сетью маршрутов, грузов и международных партнёров.

## HAR BIR REYS ORTIDA – JAMOA

*«Hatto eng zamonaviy infratuzilma ham o‘z-o‘zidan ishlamaydi. Har bir reys ortida yo‘nalishni rejalashtiruvchi, bortni tayyorlovchi, uning texnik holatini nazorat qiluvchi, yuklashni tashkil etuvchi va o‘nlab jarayonlarning vaqti bir-biriga aniq mos kelishini ta’minlovchi insonlar turadi»*, – deydi My Freighter bosh direktorining birinchi o‘rinbosari, tijorat direktori Ma’murjon Mamadaliyev.

My Freighter’da kasbiy tayyorgarlik biznesni rivojlantirishning bir qismiga aylanmoqda. Kompaniya aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash uchun xalqaro o‘quv-mashg‘ulot markazlaridan foydalanib, kelgusida o‘z o‘quv markazini tashkil etishni rejalashtirmoqda. Birinchi bosqichda markaz uchuvchilar va bort kuzatuvchilarini (yo‘lovchi aviatsiyasi sohasida) tayyorlashga yo‘naltiriladi, keyinchalik esa dastur texnik xodimlarni tayyorlash hisobiga kengaytirilishi mumkin.

2025-yilda My Freighter Acron Aviation bilan uchuvchilarni tayyorlash uchun to‘liq funksional trenajyorlardan foydalanish to‘g‘risida kelishuv imzoladi. Mashg‘ulotlar Bangkokda bo‘lib o‘tadi, kelajakda esa dastur London shahridagi o‘quv markazida ham joriy etilishi mumkin.

Aviatsiyada darhol ko‘zga tashlanadigan ko‘rsatkichlar: samolyotlar soni, parvoz yo‘nalishlari, tashilgan yuk hajmi bor. Biroq chetdan qaraganda deyarli ilg‘ab bo‘lmaydigan jihatlar: jamoaning nechog‘li aniq harakat qilgani, ekipaj qay darajada tayyorgarlik ko‘rgani, mutaxassislar tezkorlik bilan to‘g‘ri qarorga kelgani hamda tizimning o‘zaro uyg‘un ishlashi mavjud. Aynan mana shunday, tashqi kuzatuvchi uchun sezilmaydigan yechimlar yig‘indisidan yuk aviatsiyasida yuqori qadrlanadigan xususiyat – ishonchlilik vujudga keladi.

Shu bois My Freighter’ning rivojlanishi – shunchaki aviaparkning kengayishi va parvoz yo‘nalishlarining ko‘payishi haqidagi hikoya emas. Bu – tobora kengayib borayotgan marshrutlar tarmog‘i, turli yuklar va xalqaro hamkorlar bilan ishlay oladigan professional tizimning kompaniya atrofida bosqichma-bosqich shakllangani solnomasidir.

MY FREIGHTER

myfreighter.uz



Современный Шёлковый путь создают люди. Именно команда профессионалов My Freighter соединяет города, страны и континенты, создавая новую инфраструктуру движения товаров, идей и возможностей.

Zamonaviy Ipak yo‘lini insonlar barpo etmoqdalar. Aynan My Freighter’ning professional jamoasi shaharlar, mamlakatlar va qit’alarni o‘zaro bog‘lab, tovarlar, g‘oyalar hamda imkoniyatlar oqimi uchun yangi infratuzilma yaratmoqda.

РЕКЛАМА

Uyo,
Buyo.

ТУДА, СЮДА

CENTRUM POST

# YETKAZIB BERISH VA XALQARO SHOPPING BO‘YICHA YANGI XIZMAT

Xorijdan xarid qilish va jo‘natmalarni yuborish — bitta xizmatda

Новый сервис доставки международного шопинга.
Покупки за рубежом и отправка посылок — в одном сервисе.

centrum-post.com




# TABIIY KUCH QUDRATI

## СИЛА СТИХИИ

Вода умеет быть разной: глубокой и спокойной, гибкой и стремительной, способной огибать препятствия или, наоборот, двигать за собой целые потоки. В нашей серии интервью мы решили посмотреть на лидерство через эту стихию и поговорили с женщинами-руководителями Centrum Holding о том, что помогает им держать курс, вести за собой команды и находить решения в самых непростых ситуациях. В каждой из них мы увидели своё проявление водной стихии: в одной – глубину, в другой – способность огибать препятствия и находить новые пути, в третьей – энергию волны, способной увлечь за собой.

Suv turlicha: teran va sokin, moslashuvchan va shiddatli, to‘siqlarni aylanib o‘ta oladigan yoki, aksincha, butun boshli oqimlarni o‘z ortidan tortib ketadigan bo‘lishi mumkin. Intervyular turkumimizda biz yetakchilikka ushbu unsur orqali nazar tashlashga qaror qildik hamda Centrum Holdingning ayol rahbarlari bilan nima ularga to‘g‘ri yo‘nalishni saqlashga, jamoalarni boshqarishga va eng murakkab vaziyatlarda yechim topishga yordam berishi haqida suhbatlashdik. Ularning har birida tabiat stixiyasining o‘zgacha aksini: birida – teranlikni, ikkinchisida – to‘siqlarni chetlab o‘tib, yangi yo‘llarni topish qobiliyatini, uchinchisida – o‘z ortidan ergashtira oladigan to‘lqin quvvatini ko‘rdik.



## ЭЪЗОЗА МАХМУДОВА

*заместитель финансового директора*

**— Финансы часто называют фундаментом компании. Что вам помогает сохранять устойчивость в периоды перемен?**

— Я финансист, поэтому привыкла воспринимать нестабильность не как что-то пугающее, а как задачу, которую нужно разобрать на составляющие, понять причины и найти возможные варианты решения. В работе финансового блока редко бывает ситуация, когда всё идёт строго по плану. Меняются условия рынка, планы компании, расходы, появляются новые задачи, поэтому важно сохранять спокойствие и ясность даже в периоды перемен.

Мне часто вспоминаются слова мамы: «Всё в жизни можно исправить, кроме смерти». С возрастом я всё больше понимаю их смысл. Пока мы живы, здоровы и у нас есть возможность действовать, практически любую ситуацию можно изменить или найти способ с ней справиться.

Наверное, именно это понимание и помогает мне сохранять внутреннее равновесие в периоды перемен.

**— Вода огибает препятствия, не теряя направления. Приходилось ли вам искать нестандартные пути решения сложных задач?**

— Несомненно. My Freighter развивается очень быстро, и вместе с компанией постоянно меняются наши задачи, процессы и подходы. У холдинга есть определённая стратегия, и задача финансового блока – не просто контролировать цифры, а находить способы поддерживать эту стратегию с финансовой точки зрения. Поэтому иногда привычные решения не работают и приходится искать другой путь. Мне близок принцип: мы не говорим «нет» только потому, что задача сложная. Мы говорим: «Хорошо, давайте подумаем, как это реализовать». Иногда именно нестандартный подход позволяет найти лучшее решение.

**— А в жизни?**

— Наверное, один из самых ярких примеров связан с моей мамой. С детства я очень любила учиться и читать, но совершенно не любила заниматься домашними делами. Из-за этого мы часто спорили: мама считала, что девушка должна уметь вести быт, а я не понимала, почему меня гораздо больше тянет к учёбе.

Когда я поступила в университет, начала карьеру в аудите, а затем пришла в My Freighter и постепенно выросла до позиции заместителя финансового директора, мама, наблюдая за всем этим, однажды сказала: «Ладно, я больше не буду с тобой бороться. Знаю, что когда тебе нужно будет научиться готовить, ты это сделаешь».

Мне кажется, в этой фразе есть большая мудрость: не обязательно соответствовать чужим представлениям о том, каким ты должен быть. Важно понимать свои сильные стороны и развивать их.

**— Что для вас значит устойчивость компании за пределами финансовых показателей?**

— Для меня устойчивость компании – это прежде всего доверие пассажиров, сотрудников и партнёров. В авиации особенно важно доверие пассажира. Когда человек получает хороший опыт, остается доволен и в следующий раз снова выбирает нашу авиакомпанию, формируются долгосрочные отношения с брендом – всё это тоже показатели устойчивости, хотя их невозможно увидеть в финансовой отчётности.

## E’ZOZA MAHMUDOVA

*moliya direktori o‘rinbosari*

**— Moliya — kompaniya poydevori. O‘zgarishlar davrida barqarorlikni saqlab qolishda sizga nima yordam beradi?**

– Men moliyachiman, shu bois beqarorlikni qandaydir qo‘rqinchli narsa sifatida emas, balki tarkibiy qismlarga ajratib, sabablarini tushunish va yechimining mumkin bo‘lgan variantlarini topish kerak bo‘lgan vazifa sifatida qabul qilishga o‘rganganman. Bizning sohamizda ishida hamma narsa qat’iy reja bo‘yicha ketadigan vaziyat kamdan-kam uchraydi. Bozor sharoitlari, kompaniya rejalari, xarajatlar o‘zgaradi, yangi maqsadlar yuzaga keladi, shuning uchun o‘zgarishlar davrida ham xotirjamlik va aql-idrokni saqlab qolish muhim.

Tez-tez onamning: «Hayotda o‘limdan boshqa hamma narsani tuzatish mumkin» degan so‘zlari esimga tushadi. Yoshim ulg‘aygan sari bu so‘zlarning ma’nosini chuqurroq anglab yetyapman. Modomiki tirik, sog‘-salomat ekanmiz va harakat qilish imkoniyatimiz bor ekan, deyarli har qanday vaziyatni o‘zgartirish yoki uni hal qilish yo‘lini topish mumkin.

Ehtimol, aynan shu tushuncha o‘zgarishlar davrida ichki muvozanatimni saqlashga yordam bersa kerak.

**— Suv o‘z yo‘nalishini yo‘qotmay to‘siqlarni aylanib o‘tadi. Murakkab masalalarni hal qilishning nostandart yo‘llarini izlashingizga to‘g‘ri kelganmi?**

– Shubhasiz. My Freighter juda tez rivojlanyapti va kompaniya bilan birga vazifalarimiz, jarayonlarimiz va yondashuvlarimiz ham doimiy ravishda o‘zgarib boryapti. Xoldingning muayyan strategiyasi bor va moliyaviy blokning vazifasi shunchaki raqamlarni nazorat qilish emas, balki ushbu strategiyani moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yo‘llarini topishdan iborat. Shuning uchun ba’zan odatdagi yechimlar ish bermaydi va boshqa yo‘l izlashga to‘g‘ri keladi. Menga: «biz vazifa murakkab bo‘lgani uchungina «yo‘q» demaymiz» tamoyili yaqin. Biz: «Yaxshi, keling, buni qanday amalga oshirishni o‘ylab ko‘raylik» deymiz. Ba’zan aynan nostandart yondashuv eng yaxshi yechimni topish imkonini beradi.

**— Hayotda-chi?**

– Ehtimol, eng yorqin misollardan biri onam bilan bog‘liq. Bolaligimdan bilim olish va kitob mutolaa qilishni juda yaxshi ko‘rardim, lekin uy yumushlari bilan shug‘ullanishni mutlaqo yoqtirmasdim. Shu sababli biz tez-tez bahslashib turardik: onam qiz bola ro‘zg‘or tutishni bilishi kerak deb hisoblardi, men esa nima uchun o‘qishga ko‘proq qiziqishimni o‘zim ham tushunmasdim.

Universitetga o‘qishga kirib, audit sohasida karyeramni boshlaganim, so‘ngra My Freighter’ga ishga kirib, asta-sekin moliya direktori o‘rinbosari lavozimigacha ko‘tarilganimni kuzatib yurgan onam bir kuni: «Mayli, men endi sen bilan kurashmayman. Bilaman, qachon ovqat pishirishni o‘rganishing kerak bo‘lsa, buni albatta uddalaysan» dedi.

Nazarimda, bu so‘zlarda katta hikmat mujassam: boshqalarning qanday bo‘lishing kerakligi haqidagi tasavvurlariga mos kelishing shart emas. Asosiysi – o‘z kuchli tomonlaringni anglash va ularni rivojlantirish.

**— Siz uchun moliyaviy ko‘rsatkichlardan tashqari yana nima kompaniyaning barqarorligini anglatadi?**

– Men uchun kompaniyaning barqarorligi bu – avvalo, yo‘lovchilar, xodimlar va hamkorlarning ishonchi. Aviatsiyada yo‘lovchining ishonchi ayniqsa muhim. Mijoz ijobiy taassurot olib, mamnun bo‘lsa va keyingi safar yana bizning aviakompaniyamizni tanlasa, brend bilan uzoq muddatli munosabatlar shakllanadi – garchi ularni moliyaviy hisobotlarda ko‘rib bo‘lmasa-da, bularning barchasi ham barqarorlik ko‘rsatkichlaridir.




**ЭЪЗОЗА МАХМУДОВА**
*заместитель финансового директора*

**E’ZOZA MAHMUDOVA**
*moliya direktori o‘rinbosari*

Узбекистанцы относительно недавно начали активно путешествовать. Сегодня люди всё чаще выбирают не только необходимые поездки, но и путешествия как часть своего образа жизни – летают на отдых, концерты, встречаются с друзьями и открывают новые страны. Поэтому развитие авиации во многом отражает и то, как меняется образ жизни людей.

**— Какой профессиональный принцип вы никогда не готовы нарушить?**

— Для меня очень простой принцип: пока мы работаем в компании, все наши действия должны быть в её интересах. Это значит не только качественно выполнять свою работу, но и понимать последствия своих решений и нести за них ответственность.

**— Где вы находите внутренний ресурс для восстановления и перезагрузки?**

— В путешествиях. Я стараюсь чаще летать в другие страны, хотя не беру много отпускных дней. Если появляются дополнительные выходные, стараюсь использовать их для путешествий.

Причём мне нравится не только сама поездка, но и весь процесс. Нравится аэропорт: регистрация, паспортный контроль, ожидание вылета, возможность посидеть с кофе и просто наблюдать за самолётами. Потом – посадка, перелёт, новая страна, новые люди. Интересно видеть, как они живут, как себя ведут, какой у них ритм жизни, узнавать что-то необычное. Всё это сильно перезагружает.

**— А какое ваше самое любимое направление?**

— Среди любимых городов могу назвать Лондон, Москву, а в последнее время ещё Рим и Париж. Ну и Стамбул, который вообще вне конкуренции. У меня даже есть негласное правило: если не знаю, куда хочу, значит пора лететь в Стамбул. Там всегда есть чем себя занять и на что посмотреть: Босфор, площадь Султанахмед... А можно просто сидеть, погрузившись в размышления.

Этот город совмещает в себе Азию и Европу, поэтому здесь можно увидеть абсолютно разных людей. Несмотря на множество встреч со Стамбулом, я, наверное, так и не смогла охватить его полностью, каждый раз открываю для себя новые локации и маршруты. Это город контрастов, где каждый может найти всё, что ему нужно.

O‘zbekistonliklar nisbatan yaqinda faol sayohat qila boshlashdi. Bugungi kunda odamlar nafaqat zaruriy safarlarni, balki tobora ko‘proq dam olish, konsertlarga borish, do‘stlar bilan uchrashish va yangi mamlakatlarni kashf etishni — sayohatni o‘z turmush tarzining bir qismi sifatida tanlamoqdalar. Shuning uchun ham aviatsiyaning rivojlanishi ko‘p jihatdan insonlar hayot tarzi qanday o‘zgarayotganini aks ettiradi.

**— Qaysi kasbiy tamoyilni hech qachon buzmaysiz?**

— Men uchun bu juda oddiy: kompaniyada ishlar ekanmiz, har bir harakatimiz uning manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Bu nafaqat o‘z ishimizni sifatli bajarish, balki qarorlarimizning oqibatlarini tushunish va ular uchun mas’uliyatni o‘z zimmamizga olish demakdir.

**— Tiklanish va qayta kuch yig‘ish uchun ichki manbalarni qayerdan topasiz?**

— Sayohatlardan. Ta’til uchun ko‘p kun olmasam ham, boshqa mamlakatlarga tez-tez uchishga harakat qilaman. Agar qo‘shimcha dam olish kunlari paydo bo‘lib qolsa, ulardan sayohat qilish uchun foydalanishga harakat qilaman.

Qolaversa, menga nafaqat sayohatning o‘zi, balki butun jarayon yoqadi. Aeroportni yoqtiraman: ro‘yxatdan o‘tish, pasport nazorati, parvozni kutish, qahva ichib o‘tirish va shunchaki samolyotlarni kuzatish imkoniyati. Keyin – samolyotga chiqish, parvoz, yangi mamlakat, yangi odamlar. Ularning qanday yashashi, o‘zlarini qanday tutishi, hayot ritmi qandayligini ko‘rish, g‘ayrioddiy narsalarni o‘rganish qiziqarli. Bularning barchasi kishini ruhan butunlay yangilaydi.

**— Eng sevimli yo‘nalishingiz qaysi?**

— Sevimli shaharlarim qatorida London, Moskva, so‘nggi paytlarda esa Rim va Parijni aytishim mumkin. Istanbul esa umuman raqobatdan tashqari. Menda hatto yozilmagan bir qoida bor: agar qayerga borishni xohlayotganimni bilmasam, demak, Istanbulga uchish vaqti kelgan. U yerda o‘zingizni band qiladigan va tomosha qiladigan narsalar doim topiladi: Bosfor, Sultonahmad maydoni... Yoki shunchaki xayolga cho‘mib o‘tirishingiz ham mumkin.

Osiyo va Yevropani o‘zida mujassam etgan bu shaharda mutlaqo turfa xil odamlarni uchratish mumkin. Istanbulda ko‘p marta bo‘lganimga qaramay, uni hali ham to‘liq o‘rgana olmaganman shekilli, har safar o‘zim uchun yangi joylar va yo‘nalishlarni kashf qilaman. Bu qarama-qarshiliklar shahri bo‘lib, unda har kim o‘ziga kerakli barcha narsani topa oladi.

**MODOMIKI TIRIK, SOG‘-SALOMAT EKANMIZ VA HARAKAT QILISH IMKONIYATIMIZ BOR EKAN, DEYARLI HAR QANDAY VAZIYATNI O‘ZGARTIRISH YOKI UNI HAL QILISH YO‘LINI TOPISH MUMKIN**

**ПОКА МЫ ЖИВЫ, ЗДОРОВЫ И У НАС ЕСТЬ ВОЗМОЖНОСТЬ ДЕЙСТВОВАТЬ, ПРАКТИЧЕСКИ ЛЮБУЮ СИТУАЦИЮ МОЖНО ИЗМЕНИТЬ ИЛИ НАЙТИ СПОСОБ С НЕЙ СПРАВИТЬСЯ**






## АЗИЗА ИСАМИДДИНОВА

*директор юридического департамента*

**— Вода всегда находит путь: меняет русло, обходит препятствия, но продолжает двигаться вперёд. Можно ли провести такую параллель с вашей работой?**

— Думаю, да. В юридической работе не всегда существует один прямой путь к решению. Иногда нужно обойти препятствие, посмотреть на ситуацию с другой стороны, найти компромисс или предложить несколько вариантов, чтобы бизнес мог двигаться дальше. Но это вовсе не означает отсутствие принципов. Есть вещи, которые должны оставаться неизменными: закон, ответственность и интересы компании. Поэтому для меня работа юриста – это поиск не столько запретов, сколько законного и безопасного пути для развития. Наверное, именно в этом вода для меня и является хорошей метафорой: она умеет обходить препятствия, но при этом всегда движется к своей цели.

**— Вода может быть спокойной на поверхности, хотя внутри у неё продолжается бурное движение. Что помогает вам сохранять спокойствие, когда ситуация внутри компании далека от спокойной?**

— Прежде всего – понимание того, что эмоции редко помогают принять правильное решение. В сложной ситуации важно остановиться, собрать факты, понять риски и только после этого действовать.

Юридический департамент часто подключается именно тогда, когда ситуация требует особого внимания: меняются правила, возникают спорные вопросы и необходимо быстро принять решение. В такие моменты от руководителя требуется не только профессиональная компетентность, но и внутреннее спокойствие.

Я стараюсь помнить, что моя задача – не просто увидеть проблему, а помочь команде найти решение. Когда люди понимают, что рядом есть человек, который сохраняет ясность и готов взять ответственность, это само по себе даёт команде устойчивость.

**— Что является «руслом» для юридического департамента авиакомпании?**

— Определенно закон, внутренние стандарты компании и профессиональная этика. Именно они задают границы, в которых мы принимаем решения. При этом юридическая функция в авиации не может существовать отдельно от бизнеса. Мы должны понимать, как работает авиакомпания, что важно для пассажиров, какие задачи стоят перед коммерческой службой, операционными подразделениями, финансами и другими командами.

Поэтому хороший юрист, на мой взгляд, должен не просто знать законодательство, а понимать бизнес-контекст. И иногда задача заключается не в том, чтобы сказать «нельзя», а в том, чтобы объяснить, как сделать то, что нужно компании, правильно и безопасно с юридической точки зрения.

**— Что помогает вам находить общий язык с людьми из разных подразделений, у которых могут быть совершенно разные задачи?**

— Наверное, умение слушать и говорить с людьми на понятном им языке. У каждого подразделения есть свои приоритеты: для кого-то важна скорость, для кого-то безопасность, для кого-то финансовая эффективность. Задача юриста – увидеть всю картину и найти баланс между этими интересами.

## AZIZA ISAMIDDINOVA

*yuridik departament direktori*

**— Suv har doim o‘z yo’lini topadi: o‘zanini o‘zgartiradi, to‘siqlarni chetlab o‘tadi, ammo oldinga harakat qilishda davom etadi. Sizning ishingizda ham bu bilan bog’liq o‘xshashlik bormi?**

– Menimcha, bor. Yuridik ishda har doim ham yechimga olib boradigan bitta to‘g‘ri yo‘l mavjud bo‘lavermaydi. Ba’zida biznes oldinga siljishi uchun to‘siqni aylanib o‘tish, vaziyatga boshqa tomondan qarash, murosaga kelish yoki bir nechta variantlarni taklif qilish kerak bo‘ladi. Lekin bu umuman prinsiplarimiz yo‘qligini anglatmaydi. O‘zgarishsiz qolishi kerak bo‘lgan narsalar: qonun, mas’uliyat va kompaniya manfaatlari bor. Shu bois men uchun yurist ishi – nafaqat taqiqlarni, balki rivojlanishning qonuniy va xavfsiz yo‘lini izlashdir. Ehtimol, aynan shu jihatdan suv men uchun yaxshi metafora: u to‘siqlarni aylanib o‘tishni biladi, lekin shu bilan birga doim o‘z maqsadi sari intiladi.

**— Tubida shiddatli harakat kechayotgan suvning yuzasi sokin ko‘rinishi mumkin. Kompaniya ichidagi vaziyat osoyishtalikdan yiroq bo‘lganda, sizga sovuqqonlikni saqlashda nima yordam beradi?**

– Avvalo – his-tuyg‘ular kamdan-kam hollarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam berishini anglash. Murakkab vaziyatda to‘xtab, faktlarni to‘plash, xavf-xatarlarni tushunish va shundan keyingina harakat qilish muhim.

Yuridik departament ko‘pincha vaziyat alohida e’tiborni talab qilganda: qoidalar o‘zgarganda, bahsli masalalar yuzaga kelganda va tezkor qaror qabul qilish zarur bo‘lganda ishga kirishadi. Bunday paytlarda rahbardan nafaqat kasbiy malaka, balki ichki xotirjamlik ham talab etiladi.

Vazifam shunchaki muammoni ko‘rish emas, balki jamoaga yechim topishda yordam berish ekanini yodda tutishga harakat qilaman. Atrofidagilar yonida tiniq fikrlayotgan va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor inson borligini his qilishsa, buning o‘zi jamoaga barqarorlik bag‘ishlaydi.

**— Aviakompaniyaning yuridik departamenti uchun «o‘zan» nima?**

– Shubhasiz, qonun, kompaniyaning ichki standartlari va kasb etikasi. Aynan ular qarorlarimiz chegarasini belgilab beradi. Shu bilan birga, aviatsiyada yuridik funksiya biznesdan alohida mavjud bo‘la olmaydi. Biz aviakompaniya qanday ishlashini, yo‘lovchilar uchun nima muhimligini, tijorat xizmati, operatsion bo‘linmalar, moliya va boshqa jamoalar oldida qanday vazifalar turganini tushunishimiz kerak.

Shu bois, menimcha, yaxshi yurist shunchaki qonunlarni bilishi yetarli emas, u biznes muhitini ham anglashi kerak. Ba’zan asosiy vazifa «mumkin emas» deb taqiqlash o‘rniga kompaniyaga kerak bo‘lgan ishni huquqiy jihatdan to‘g‘ri va xavfsiz bajarishni ko‘rsatib berishdir.

**— Vazifalari mutlaqo turlicha bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli bo‘linmalardagi odamlar bilan til topishishingizga nima yordam beradi?**

– Ehtimol, odamlarni tinglay bilish va ular bilan o‘zlari tushunadigan tilda gaplashish ko’nikmam bo’lsa kerak. Har bir bo‘linmaning o‘z ustuvorliklari bor: kim uchundir tezlik, kim uchundir xavfsizlik, yana kim uchundir moliyaviy samaradorlik muhim. Yuristning vazifasi – butun manzarani ko‘rish va ushbu manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni topish hisoblanadi.

Мне кажется, руководителю особенно важно не создавать дистанцию между собой и командой. Даже если решение принято, человек должен понимать, почему оно принято и какую задачу оно решает. Когда между подразделениями есть доверие, многие вопросы решаются гораздо быстрее. А доверие, как и вода в сосуде, не появляется за один день – его нужно постоянно поддерживать.

**— Насколько руководителю важно уметь адаптироваться к изменениям?**

— Очень важно. Особенно в авиации, где изменения происходят постоянно: обновляется законодательство, появляются новые требования, меняются технологии, развивается международное сотрудничество. Но адаптация для меня – это не отказ от своих принципов. Скорее, это способность менять подход, сохраняя главное. Руководитель должен понимать, когда необходимо действовать быстро, когда стоит взять паузу, а когда – пересмотреть привычный способ работы.

Считаю, что сильная команда строится именно на таком сочетании: устойчивые принципы плюс готовность учиться и меняться.

**— За каждой правовой или конфликтной ситуацией стоят люди. Как молодому руководителю удается принимать жёсткие решения и не выгорать?**

— Со стороны я часто кажусь очень жёсткой. Иногда люди даже считывают меня как сложную или холодную. Но когда ты отвечаешь за юридическую безопасность целого логистического холдинга, ты обязан принимать решения с абсолютно холодной головой. Эмоции в нашем деле – плохой советчик. Однако холодная голова не означает каменное сердце. В сложных переговорах или внутренних спорах я всегда стараюсь увидеть ситуацию целиком. Закон задаёт границы, но применяем мы его к живым ситуациям и людям. Если есть альтернативный, более экологичный способ решить проблему, не нарушая регламенты и интересы компании, я всегда выберу его. В этом меня полностью поддерживает руководство.

**— Если представить вашу профессиональную жизнь как образ водной стихии, какой она была бы сегодня: рекой, морем, дождём или, может быть, чем-то другим?**

— Наверное, рекой. У неё есть направление, но при этом она постоянно меняется: где-то течение спокойное, где-то появляются пороги, а иногда приходится искать новое русло. Но её движение не прекращается и мне близка эта мысль в моей профессии. Невозможно однажды получить весь необходимый опыт и сказать: «Теперь я всё знаю». Каждый новый проект, сложная ситуация или человек, с которым ты работаешь, чему-то учит. Поэтому сейчас для меня главное – продолжать двигаться, сохранять интерес к профессии и помогать команде проходить свой путь уверенно. А если по дороге удаётся ещё и сделать этот путь немного проще для других, значит, всё не зря.

Menimcha, rahbar o‘zi va jamoasi o‘rtasida masofa yaratmasligi ayniqsa muhimdir. Qaror qabul qilingan taqdirda ham, inson uning nima sababdan qabul qilingani va bu qanday vazifani hal etishini tushunishi kerak. Bo‘linmalar o‘rtasida ishonch bo‘lganda, ko‘plab masalalar ancha tezroq hal qilinadi. Ishonch esa xuddi idishdagi suv singari bir kunda paydo bo‘lib qolmaydi – uni doimiy ravishda saqlab turish kerak.

**— Rahbar uchun o‘zgarishlarga moslasha olish qanchalik muhim?**

— Juda muhim. Ayniqsa, o‘zgarishlar doimiy yuz berib turadigan aviatsiyada: chunki qonunchilik yangilanadi, yangi talablar paydo bo‘ladi, texnologiyalar o‘zgaradi, xalqaro hamkorlik rivojlanadi. Ammo men uchun moslashish bu – o‘z tamoyillarimdan voz kechish degani emas. Aksincha, bu – muhim narsalarni saqlab qolgan holda yondashuvni o‘zgartira olish qobiliyati hisoblanadi. Rahbar qachon tez harakat qilish, qachon tanaffus olish, qachon esa odatiy ish uslubini qayta ko‘rib chiqish kerakligini tushunishi lozim.

O‘ylaymanki, kuchli jamoa aynan shunday uyg‘unlik: mustahkam tamoyillar hamda o‘rganish va o‘zgarishlarga tayyorlik ustiga quriladi.

**— Har bir huquqiy yoki nizoli vaziyat ortida insonlar turadi. Qanday qilib yosh rahbar qat’iy qarorlar qabul qilishni va ruhiy toliqmaslikni uddalamoqda?**

— Chetdan men ko‘pincha juda qattiqqo‘l ko‘rinaman. Ba’zida odamlar meni hatto murakkab yoki sovuqqon inson deb qabul qilishadi. Ammo butun boshli logistika xoldingining huquqiy xavfsizligi uchun javobgar bo‘lganingda, qarorlarni mutlaqo sovuqqonlik bilan qabul qilishing shart. Bizning ishimizda hissiyotlar – yomon maslahatchi. Biroq, sovuqqonlik bag‘ritoshlik emas. Murakkab muzokaralar va ichki nizolarda vaziyatni doimo yaxlit ko‘rishga harakat qilaman. Qonun chegaralarni belgilaydi, ammo biz uni tirik insonlar va hayotiy vaziyatlarga tatbiq etamiz. Agar kompaniya manfaatlariga zid kelmaydigan muqobil, yumshoqroq yechim bo‘lsa, har doim uni tanlayman. Bu borada rahbariyat ham meni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.

**— Agar kasbiy hayotingizni suv unsuri timsolida tasavvur qilsak, u bugun qanday bo‘lardi: daryo, dengiz, yomg‘ir yoki boshqa biror narsami?**

— Daryo bo‘lsa kerak. Uning o‘z yo‘nalishi bor, lekin u doimo o‘zgarib turadi: qayerdadir oqim tinch, qayerdadir to‘siqlar paydo bo‘ladi, ba’zan yangi o‘zan qidirishga to‘g‘ri keladi. Biroq uning oqimi sira to‘xtamaydi – kasbiy faoliyatimda aynan shu falsafa menga juda yaqin. Bir marta tajriba to‘plab, «endi hamma narsani bilaman» deb bo‘lmaydi. Har bir yangi loyiha, murakkab vaziyat yoki hamkasbimiz bizga nimadir o‘rgatadi. Shu bois hozir men uchun eng muhimi – harakatda davom etish, kasbga bo‘lgan qiziqishni saqlash va jamoaga o‘z yo‘lini ishonch bilan bosib o‘tishga ko‘maklashishdir. Agar bu yo‘lda boshqalarning ishini biroz bo‘lsa-da osonlashtira olsam, demak, hammasi bejiz emas.

**MEN UCHUN YURIST VAZIFASI — TAQIQLAR QO‘YISH EMAS, BALKI RIVOJLANISHNING QONUNIY VA XAVFSIZ YO‘LINI IZLASHDIR**

**ДЛЯ МЕНЯ РАБОТА ЮРИСТА — ЭТО ПОИСК НЕ СТОЛЬКО ЗАПРЕТОВ, СКОЛЬКО ЗАКОННОГО И БЕЗОПАСНОГО ПУТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ**



## СЕВАРА ХОДЖАЕВА

*заместитель начальника службы бортпроводников департамента лётной эксплуатации*

**— Волна обладает удивительной способностью увлекать за собой. Что помогает вам вдохновлять людей и вести их вперёд?**

— Для меня вдохновлять людей – значит создавать условия, в которых человеку самому захочется двигаться вперёд. Мне кажется, всё начинается с ясности: когда сложную мысль удаётся объяснить простыми словами, цель становится понятнее, а сделать первый шаг – легче.

Очень важна внимательность. Понимание движущих человеком мотивов и сопутствующих обстоятельств делает разговор по-настоящему полезным.

Также могу смело утверждать, что доверие рождается не из громких слов, а из последовательности. Уверенность в том, что на тебя можно положиться, создаёт прочную основу для совместной работы.

И конечно, важна любознательность. Иногда правильно заданный вопрос помогает найти ответ гораздо быстрее, чем готовый совет. Для меня важно, чтобы после разговора у человека оставалось не только хорошее настроение, но и понимание следующего шага.

Наверное, именно в этом и заключается моё понимание лидерства и вдохновения – помочь человеку поверить в себя, чтобы он мог сделать следующий шаг.

**— Что отличает коллектив, который просто работает вместе, от настоящей команды?**

— Разница очень простая: коллектив – это люди, которые работают рядом, а команда – это единомышленники, которые работают друг для друга и ради общей цели. Все понимают, что общий результат зависит от вклада каждого. Появляются взаимная ответственность, доверие и готовность поддержать коллегу в любой ситуации. Именно тогда люди перестают быть просто специалистами и становятся единым целым.

В авиации это особенно важно. Здесь невозможно добиться успеха в одиночку: безопасность, комфорт пассажиров и качество каждого рейса всегда являются результатом слаженной работы всей команды.

**— Что дарит вам чувство гордости как руководителю?**

— Пожалуй, самым большим поводом для гордости становятся не личные достижения, а успехи команды. Когда люди растут профессионально, проявляют инициативу, поддерживают друг друга и со временем начинают превосходить ожидания – это один из самых ярких показателей сильного лидерства.

В конечном счёте хороший руководитель оставляет после себя не только реализованные проекты, но и команду, которая способна добиваться высоких результатов даже без его постоянного участия.

**— В авиации многое зависит от слаженности действий. Как рождается доверие внутри экипажа?**

— Доверие внутри экипажа рождается не в один момент, а складывается из множества ежедневных действий. Его основа – надёжность. Когда каждый выполняет свои обязанности, держит слово и знает, что в сложной ситуации коллеги поддержат, появляется уверенность друг в друге.

Не менее важны открытость и уважение. Возможность честно высказать своё мнение, обсудить ошибки без страха и вместе искать решения укрепляет команду гораздо сильнее, чем стремление казаться безупречными.

## SEVARA XODJAYEVA

*Parvozlardan foydalanish departamenti bort kuzatuvchilar xizmati boshlig‘i o‘rinbosari*

**— To‘lqin o‘z ortidan tortib ketishdek ajoyib qobiliyatga ega. Odamlarni ilhomlantirish va ularni oldinga yetaklashda sizga nima yordam beradi?**

— Men uchun odamlarni ilhomlantirish – insonning o‘zida oldinga intilish istagini uyg‘otadigan sharoitlarni yaratish demak. Menimcha, barchasi aniqlikdan boshlanadi: murakkab fikrni oddiy so‘zlar bilan tushuntira olsang, maqsad oydinlashadi, birinchi qadamni tashlash esa osonlashadi.

Diqqat-e’tibor juda muhim. Insonni harakatga keltiruvchi motivlar va yondosh shart-sharoitlarni tushunish suhbatni chinakamiga foydali qiladi.

Shuningdek, dadil ayta olamanki, ishonch balandparvoz so‘zlardan emas, balki izchillikdan tug‘iladi. Sizga suyanish mumkinligiga bo‘lgan ishonch hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratadi.

Albatta, qiziquvchanlik ham muhim. Ba’zan to‘g‘ri berilgan savol javobni tayyor maslahatdan ko‘ra ancha tezroq topishga yordam beradi. Men uchun suhbatdan so‘ng odamda nafaqat yaxshi kayfiyat, balki keyingi qadamni tushunish hissi ham qolishi muhim.

Ehtimol, mening yetakchilik va ilhomlanish haqidagi tushuncham aynan shundan – odamga keyingi qadamni tashlashi uchun o‘ziga ishonishiga yordam berishdan iborat bo‘lsa kerak.

**— Shunchaki birga ishlaydigan xodimlarni haqiqiy jamoadan nima ajratib turadi?**

— Farqi juda oddiy: kollektiv – bu yonma-yon ishlaydigan odamlar, jamoa esa – bir-biri uchun va umumiy maqsad yo‘lida ishlaydigan hamfikrlar. Umumiy natija har bir kishining hissasiga bog‘liq ekanini hamma tushunadi. O‘zaro mas’uliyat, ishonch va har qanday vaziyatda hamkasbini qo‘llab-quvvatlashga tayyorlik paydo bo‘ladi. Aynan shunda odamlar shunchaki mutaxassis bo‘lishni to‘xtatib, yaxlit bir butunga aylanishadi.

Aviatsiyada bu ayniqsa muhim. Yakka holda muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi: yo‘lovchilarning xavfsizligi, qulayligi va har bir parvozning sifati har doim butun jamoaning hamjihatlikdagi mehnati mahsulidir.

**— Rahbar sifatida sizga nima faxr tuyg‘usini baxsh etadi?**

— Ehtimol, faxrlanishim uchun eng katta sabab shaxsiy yutuqlarim emas, balki jamoaning muvaffaqiyatlari bo’lsa kerak. Odamlar kasbiy jihatdan o‘sib, tashabbus ko‘rsatsa, bir-birini qo‘llab-quvvatlasa va vaqt o‘tishi bilan kutilganidan-da yuqori natijalarni ko‘rsata boshlasa, bu – kuchli yetakchilikning eng yorqin ko‘rsatkichlaridan biridir.

Oxir-oqibat, yaxshi rahbar o‘zidan keyin nafaqat amalga oshirilgan loyihalarni, balki uning doimiy ishtirokisiz ham yuqori natijalarga erisha oladigan jamoani qoldiradi.

**— Aviatsiyada ko‘p narsa harakatlar muvofiqligiga bog‘liq. Ekipaj ichida ishonch qanday paydo bo‘ladi?**

— Ekipaj ichidagi ishonch bir lahzada paydo bo‘lmaydi, balki ko‘plab kundalik harakatlar natijasida shakllanadi. Uning asosi – ishonchlilik. O‘zaro ishonch har kim o‘z vazifasini bajarsa, so‘zining ustidan chiqsa va qiyin vaziyatda hamkasblari qo‘llab-quvvatlashini bilsa paydo bo‘ladi.

Ochiqlik va hurmat ham ahamiyatga ega. O‘z fikrini ro‘yirost bildirish, xatolarni qo‘rqmasdan muhokama qilish va birgalikda yechimlar izlash imkoniyati jamoani benuqson ko‘rinishga intilishdan ko‘ra ancha kuchliroq jipslashtiradi.



**СЕВАРА ХОДЖАЕВА**
*заместитель начальника службы бортпроводников департамента лётной эксплуатации*

**SEVARA XODJAYEVA**
*parvozlardan foydalanish departamenti bort kuzatuvchilar xizmati boshlig'i o'rinbosari*



## OXIR-OQIBAT, YAXSHI RAHBAR O‘ZIDAN KEYIN NAFAQAT AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALARNI, BALKI UNING DOIMIY ISHTIROKISIZ HAM YUQORI NATIJALARGA ERISHA OLADIGAN JAMOANI QOLDIRADI

## В КОНЕЧНОМ СЧЁТЕ ХОРОШИЙ РУКОВОДИТЕЛЬ ОСТАВЛЯЕТ ПОСЛЕ СЕБЯ НЕ ТОЛЬКО РЕАЛИЗОВАННЫЕ ПРОЕКТЫ, НО И КОМАНДУ, КОТОРАЯ СПОСОБНА ДОБИВАТЬСЯ ВЫСОКИХ РЕЗУЛЬТАТОВ ДАЖЕ БЕЗ ЕГО ПОСТОЯННОГО УЧАСТИЯ

Если обобщить, доверие внутри экипажа рождается из совместного опыта, взаимного уважения и ответственности. Оно появляется, когда люди снова и снова убеждаются в том, что рядом находятся те, на кого можно положиться в любой ситуации.

**— Бывали ли моменты, когда поддержка коллектива помогала преодолеть особенно сложные ситуации?**

— Такие моменты бывают у каждого руководителя. Именно в сложные периоды особенно понимаешь ценность сильной команды: люди объединяются, берут на себя дополнительную ответственность, поддерживают друг друга и работают на общий результат. Это помогает справиться даже с теми вызовами, которые в одиночку казались бы почти непреодолимыми.

Поэтому главная сила любого коллектива – это доверие, взаимовыручка и готовность быть рядом.

**— Кто является для вас знаковой фигурой и источником вдохновения?**

— Меня вдохновляют люди, которые умеют брать на себя ответственность, принимать непростые решения и при этом сохранять уважение к своей команде. Считаю, настоящий лидер – это не только тот, кто достигает высоких результатов, а кто помогает расти другим. Таким человеком является наш руководитель Абдулазиз Абдукадырович. А в числе лидерских качеств, которые особенно мне импонируют, могу назвать способность объединять людей, сохранять достоинство в самых сложных обстоятельствах и вести за собой через уважение, а не через силу.

Xulosa qilib aytganda, ekipaj ichidagi ishonch birgalikdagi tajriba, o‘zaro hurmat va mas’uliyat asosida shakllanadi. U odamlar har qanday vaziyatda ham tayanish mumkin bo‘lgan insonlar yonida ekaniga qayta-qayta ishonch hosil qilganida paydo bo‘ladi.

**— Jamoaning qo‘llab-quvvatlashi ancha murakkab vaziyatlarni yengib o‘tishga yordam bergan paytlar bo‘lganmi?**

– Har bir rahbarda bunday holatlar uchrab turadi. Aynan qiyin davrlarda kuchli jamoaning qadrini chuqurroq anglaysiz: odamlar birlashadi, o‘z zimmasiga qo‘shimcha mas’uliyatni oladi, bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi va umumiy natija uchun mehnat qiladi. Bu hatto yolg‘iz o‘zingiz yengib o’tolmaydigandek tuyulgan sinovlarni ham hal qilishga yordam beradi.

Shuning uchun har qanday jamoaning asosiy kuchi bu – ishonch, o‘zaro yordam va doim yelkadosh bo‘lishga tayyorlik.

**— Siz uchun kim ibratli shaxs va ilhom manbai hisoblanadi?**

– Meni mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, qiyin qarorlar qabul qila oladigan va shu bilan birga o‘z jamoasiga nisbatan hurmatni saqlaydigan insonlar ilhomlantiradi. Menimcha, haqiqiy yetakchi bu – nafaqat yuqori natijalarga erishadigan, balki boshqalarning o‘sishiga ham yordam beradigan inson. Rahbarimiz Abdulaziz Abduqodirovich ana shunday inson. Menga ayniqsa manzur bo‘lgan yetakchilik fazilatlari qatorida odamlarni birlashtirish, eng murakkab vaziyatlarda ham o‘z qadr-qimmatini saqlab qolish hamda kuch bilan emas, balki hurmat orqali o‘z ortidan ergashtirish qobiliyatlarini sanab o‘tishim mumkin.



CENTRUMAIR

# O‘Z KO‘ZINGIZ BILAN: E’TIBORGA LOYIQ VOQEALAR

## СВОИМИ ГЛАЗАМИ: СОБЫТИЯ, ДОСТОЙНЫЕ ВНИМАНИЯ





### ВЫСТАВКА ЗУРАБА ЦЕРЕТЕЛИ «БОЛЬШЕ, ЧЕМ ЖИЗНЬ»

*Когда: с 1 октября по 1 декабря*

*Где: Ташкент, Узбекистан*

В Галерее изобразительного искусства Узбекистана пройдёт выставка, посвящённая творчеству Зураба Церетели. Экспозиция объединит живопись, скульптуру, рельефы и шелкографии – от ранних работ художника до поздних монументальных серий. Программу дополнят лекции и мастер-классы.

### ZURAB SERETELI: «HAYOTDAN-DA KO‘PROQ» KO‘RGAZMASI

*Qachon: 1-oktyabrdan 1-dekabrgacha*

*Qayerda: Toshkent, O‘zbekiston*

O‘zbekiston Tasviriy san’at galereyasida Zurab Sereteli ijodiga bag‘ishlangan ko‘rgazma bo‘lib o‘tadi. Ekspozitsiya rassomning ilk asarlaridan tortib so‘nggi monumental turkumlarigacha bo‘lgan rangtasvir, haykaltaroshlik, relyef va shoyi bosma namunalarini o‘zida jamlagan. Dastur ma’ruzalar va mahorat darslari bilan to‘ldiriladi.




РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
SKD САМАРКАНД
1 ч.
TAS ТАШКЕНТ
от 235 тыс. сумов




### КОНЦЕРТ ЛУКИ МИННЕЛЛИ

*Когда: 18 октября*

*Где: Баку, Азербайджан*

Итальянский лирический тенор Лука Миннелли выступит в Баку с программой, в которой классическая музыка встречается с современной поп-оперой. В этот вечер прозвучат оперные арии, неаполитанские песни и известные кроссовер-композиции, включая O Sole Mio, Caruso, Nessun dorma и Con te partirò. Минелли выступал в Италии, Франции, Великобритании, Германии и США, работал с Нью-Йоркским симфоническим оркестром и записывал музыку с Керри Эллис и гитаристом Queen Брайаном Мэем.


### LUKA MINNELLI KONSERTI

*Qachon: 18-oktyabr*

*Qayerda: Boku, Ozarbayjon*

Italiyalik lirik tenor Luka Minnelli Bokuda klassik musiqa va zamonaviy pop-operani o‘zida mujassam etgan dastur bilan chiqish qiladi. Konsert oqshomida opera ariyalari, neapolitan qo‘shiqlari hamda «O Sole Mio», «Caruso», «Nessun dorma» va «Con te partirò» kabi mashhur krossover kompozitsiyalar yangraydi. Minnelli Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va AQShda gastrollarda bo‘lgan, Nyu-York simfonik orkestri bilan ishlagan hamda Kerri Ellis va «Queen» guruhi gitarachisi Brayan Mey bilan birga musiqa yozgan.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ
3 ч. 05 мин.
GYD БАКУ
от 1,64 млн сумов




### КОНЦЕРТ ГРУППЫ ROCKETS «50 ЛЕТ НА СЦЕНЕ»

*Когда: 21 октября*

*Где: Екатеринбург, Россия*

Французская рок-группа Rockets отправляется в юбилейный тур в честь 50-летия дебютного альбома. Одни из родоначальников спейс-рока выступят в Екатеринбурге с главными хитами – Electric Delight, On the Road Again, Galactica и другими. Концерт станет возвращением к фирменной эстетике группы, прославившейся в конце 1970-х благодаря масштабному лазерному шоу и необычной сценографии. Полвека спустя Rockets вновь выйдут на сцену с живым звуком и своей космической визуальной эстетикой.

### «ROCKETS» GURUHINING «SAHNADA 50 YIL» NOMLI KONSERTI

*Qachon: 21-oktyabr*

*Qayerda: Yekaterinburg, Rossiya*

Fransiyaning «Rockets» rok guruhi debyut albomining 50 yilligi munosabati bilan yubiley gastrol safariga otlanyapti. Speys-rok asoschilaridan biri bo'lgan guruh Yekaterinburgda «Electric Delight», «On the Road Again», «Galactica» va boshqa mashhur xitlari bilan sahnaga chiqadi. Bu konsert 1970-yillar oxirida o'zining keng ko'lamli lazerli shousi va g'aroyib ssenografiyasi bilan shuhrat qozongan guruhning o'ziga xos uslubiga qaytish bo'ladi. Oradan yarim asr o'tib, «Rockets» jonli ijro va o'zining betakror kosmik vizual estetikasi bilan sahnaga qayta ko'tariladi.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

TAS ТАШКЕНТ — 3 ч. — SVX ЕКАТЕРИНБУРГ

от 1,56 млн сумов

### КОНЦЕРТ ГРУППЫ GIPSY KINGS

*Когда: 22 октября*

*Где: Дубай, ОАЭ*

Gipsy Kings во главе с одним из основателей группы Андре Ресом выступят в Дубае в необычном симфоническом формате. Знакомое звучание фламенко, румбы и гитарных партий объединится с полноценными оркестровыми аранжировками.

В программе – главные хиты группы, среди которых Bamboleo, Djobi Djoba, Volare и Un Amor. Для Дубая это будет первое симфоническое выступление Gipsy Kings: знакомые песни получат более масштабное и кинематографичное звучание, сохранив характерную энергетику группы.

### «GIPSY KINGS» GURUHI KONSERTI

*Qachon: 22-oktyabr*

*Qayerda: Dubay, BAA*

Guruh asoschilaridan biri Andre Reyes boshchiligidagi «Gipsy Kings» Dubayda noodatiy simfonik formatda konsert beradi. Flamenko, rumba va gitara partiyalarining tanish sadolari to'laqonli orkestr aranjirovkalari bilan uyg'unlashadi.

Dasturdan guruhning «Bamboleo», «Djobi Djoba», «Volare» va «Un Amor» kabi asosiy xitlari o'rin olgan. Bu «Gipsy Kings»ning Dubaydagi ilk simfonik chiqishi bo'lib, unda tanish qo'shiqlar guruhga xos quvvatni saqlab qolgan holda yanada keng ko'lamli va kinematografik ohangda yangraydi.




РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

TAS ТАШКЕНТ — 4 ч. 05 мин. — DXB ДУБАЙ

от 1,7 млн сумов




### КОНЦЕРТ МОТА

*Когда: 24 октября*

*Где: Ташкент, Узбекистан*

Мот вновь выступит в Ташкенте с большим сольным концертом. Один из самых популярных российских исполнителей сочетает в своей музыке хип-хоп и поп-музыку, а его песни легко узнаваемы благодаря мелодичному звучанию и искренним текстам. В этот вечер прозвучат главные хиты артиста, среди которых «Капкан», «Сопрано», «На дне», «Моряк» и «По буквам».

### MOT KONSERTI

*Qachon: 24-oktyabr*

*Qayerda: Toshkent, O'zbekiston*

Mot Toshkentda yana bir bor katta yakkaxon konsert dasturini taqdim etadi. Rossiyaning eng mashhur ijrochilaridan biri o'z ijodida xip-xop va pop musiqasini uyg'unlashtirgan, uning qo'shiqlari esa o'ziga xos ohangi va samimiy matnlari bilan tanilgan. Bu oqshom san'atkorning «Kapkan», «Soprano», «Na dne», «Moryak» va «Po bukvam» kabi eng sara xitlari yangraydi.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

DYU ДУШАНБЕ — 1 ч. — TAS ТАШКЕНТ

от 1,02 млн сумов

### КОНЦЕРТ МАКСА РИХТЕРА

*Когда: 27 октября*

*Где: Ташкент, Узбекистан*

Во Дворце международных форумов «Узбекистан» выступит британский композитор Макс Рихтер. Концерт будет посвящён его альбому In A Landscape – работе, в которой классическая оркестровая музыка соединяется с современными электронными элементами.

Рихтер считается одним из наиболее заметных композиторов современной неоклассики. Его музыка известна сочетанием академического звучания и современной электроники, создающим камерную и эмоциональную атмосферу.

### MAKS RIXTER KONSERTI

*Qachon: 27-oktyabr*

*Qayerda: Toshkent, O'zbekiston*

«O'zbekiston» xalqaro forumlar saroyida britaniyalik bastakor Maks Rixter konsert beradi. Dastur uning klassik orkestr musiqasi zamonaviy elektron unsurlar bilan uyg'unlashgan «In a Landscape» albomiga bag'ishlangan.

Rixter zamonaviy neoklassikaning eng ko'zga ko'ringan bastakorlaridan biri sanaladi. Uning musiqasi samimiy va hissiyotlarga boy muhit yaratadigan akademik ohanglar va zamonaviy elektronikaning o'zaro uyg'unligi bilan mashhur.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

AKX АКТОБЕ — 1 ч. — TAS ТАШКЕНТ

от 1,02 млн сумов



## КОНЦЕРТ ДУЭТА МАЛЬБЭК X СЮЗАННА

*Когда: 31 октября*

*Где: Москва, Россия*

Мальбэк и Сюзанна отправляются в тур с новым альбомом. На концерте прозвучат новые песни и главные хиты дуэта, среди которых «Равнодушие» и «Гипнозы» – ставшие саундтреками целого поколения. Эти первые большие концерты, знаменующие начало новой главы дуэта, – возможность услышать свежий материал вживую и вновь прожить музыку, с которой связаны важные моменты.

## «MALBEK X SYUZANNA» DUETINING KONSERTI


*Qachon: 31-oktyabr*

*Qayerda: Moskva, Rossiya*

Malbek va Syuzanna yangi albomi bilan konsert gastroliga yo'l olmoqda. Konsertda duetning yangi qo'shiqlari va asosiy xitlari bilan bir qatorda butun bir avlodning saundtrekiga aylangan «Ravnodushiye» hamda «Gipnozi» treklari yangraydi. Duet ijodining yangi sahifasini ochuvchi ushbu ilk yirik konsertlar – yangi materialni jonli ijroda tinglash va hayotning muhim lahzalari bilan bog'liq musiqani qayta his etish uchun ajoyib imkoniyatdir.




РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ 4 ч. 45 мин. SVO МОСКВА
от 811 тыс. сумов




## КОНЦЕРТ ВАНИ ДМИТРИЕНКО

*Когда: 12 ноября*

*Где: Ташкент, Узбекистан*

Ваня Дмитриенко впервые выступит в Узбекистане с сольным концертом. На сцене Humo Arena прозвучат главные хиты артиста – «Венера-Юпитер», «Лего», «Сила притяжения» и другие песни. Концерт станет возможностью услышать живое исполнение и увидеть масштабное шоу одного из самых заметных артистов нового поколения.

## VANYA DMITRIENKO KONSERTI

*Qachon: 12-noyabr*

*Qayerda: Toshkent, O'zbekiston*

Vanya Dmitrienko ilk bor O'zbekistonda yakkaxon konsert dasturi bilan chiqish qiladi. Humo Arena sahnasida san'atkorning «Venera-Yupiter», «Lego», «Sila prityazheniya» kabi mashhur xitlari va boshqa qo'shiqlari yangraydi. Konsert tinglovchilarga ularni jonli ijroda eshitish va yangi avlodning eng yorqin ijodkorlaridan birining katta sahnadagi shousini tomosha qilish imkonini beradi.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
NQZ АСТАНА 2 ч. 15 мин. TAS ТАШКЕНТ
от 659 тыс. сумов





## КОНЦЕРТ ДИМЫ БИЛАНА

*Когда: 22 ноября*

*Где: Алматы, Казахстан*

Дима Билан выступит в Алматы с масштабным шоу «Я просто люблю тебя». Слушателей ожидает полноценное аудиовизуальное представление с живой музыкой, современной сценографией, мультимедийными технологиями и хореографией.
В программе прозвучат главные хиты артиста и новые композиции, а сама постановка будет построена как целое музыкальное представление.

## DIMA BILAN KONSERTI

*Qachon: 22-noyabr*

*Qayerda: Olmaota, Qozog'iston*

Dima Bilan Olmaotada «Ya prosto lyublyu tebya» deb nomlangan keng ko'lamli shou dasturini taqdim etadi. Tinglovchilarni jonli musiqa, zamonaviy sahna bezaklari, multimedia texnologiyalari va xoreografiya bilan boyitilgan to'laqonli audiovizual tomosha kutmoqda.
Dasturdan san'atkorning eng mashhur xitlari va yangi kompozitsiyalari o'rin olgan bo'lib, shou yaxlit musiqiy spektakl tarzida sahnalashtiriladi.




РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ 1 ч. 45 мин. ALA АЛМАТЫ
от 789 тыс. сумов




## ФЕСТИВАЛЬ НЕБЕСНЫХ ФОНАРИКОВ YI PENG

*Когда: 24–25 ноября*

*Где: Таиланд*

В ноябре пройдёт один из самых зрелищных фестивалей света в Таиланде – Yi Peng. В эти дни тысячи небесных фонариков поднимаются в ночное небо, создавая тот самый узнаваемый момент, который многие помнят по мультфильму «Рапунцель». Параллельно проходит Loy Krathong – праздник, во время которого по воде пускают небольшие украшенные цветами и свечами лодочки-кратонги.

## «YI PENG» SAMO CHIROQLARI FESTIVALI

*Qachon: 24–25-noyabr*

*Qayerda: Tailand*

Noyabr oyida Tailanddagi eng yorqin va hayratlanarli yorug'lik festivallaridan biri – «Yi Peng» bo'lib o'tadi. Shu kunlarda minglab samo chiroqlari tungi osmonga ko'tarilib, ko'pchilikning yodida «Rapunsel» multfilmi orqali saqlanib qolgan o'sha mashhur manzarani yaratadi.
Unga parallel ravishda gullar va shamlar bilan bezatilgan kichik kratong qayiqchalari suvga oqiziladigan «Loy Krathong» bayrami ham bo'lib o'tadi.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ 6 ч. 45 мин. BKK БАНГКОК
от 2,13 млн сумов




### КОНЦЕРТ ГРУППЫ KALEO

*Когда: 27 ноября*

*Где: Ташкент, Узбекистан*

Исландская группа KALEO впервые выступит в Ташкенте в рамках тура Way Down We Go, посвящённого десятилетию дебютного альбома A/B. В программе прозвучат главные хиты группы – Way Down We Go, No Good, All the Pretty Girls, а также новые песни.

### «KALEO» GURUHINING KONSERTI

*Qachon: 27-noyabr*

*Qayerda: Toshkent, O'zbekiston*

Islandiyaning «KALEO» guruhi ilk bor Toshkentda o'zining «A/B» debyut albomi chiqqaniga 10 yil to'lishi munosabati bilan tashkil etilgan «Way Down We Go» gastrol safari doirasida konsert beradi. Konsert dasturidan guruhning «Way Down We Go», «No Good», «All the Pretty Girls» kabi mashhur xitlari, shuningdek, yangi qo'shiqlari o'rin oladi.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

UGC ✈ TAS

УРГЕНЧ 1 ч. 30 мин. ТАШКЕНТ

от 678 тыс. сумов

### КОНЦЕРТ ГРУППЫ IMAGINE DRAGONS

*Когда: 5 декабря*

*Где: Абу-Даби, ОАЭ*

Американская рок-группа Imagine Dragons выступит в Абу-Даби в рамках серии концертов после гонки Formula 1 Abu Dhabi Grand Prix. Группа во главе с Дэном Рейнольдсом известна хитами Believer, Radioactive, Demons, Thunder и It's Time.
Доступ на концерт входит в билет Abu Dhabi Grand Prix.

### «IMAGINE DRAGONS» GURUHINING KONSERTI

*Qachon: 5-dekabr*

*Qayerda: Abu-Dabi, BAA*

Amerikaning «Imagine Dragons» rok-guruhi Abu-Dabida bo'lib o'tadigan «Formula-1» Gran-prisidan keyingi konsertlar dasturi doirasida sahnaga chiqadi. Den Reynolds yetakchiligidagi jamoa «Believer», «Radioactive», «Demons», «Thunder» va «It's Time» kabi xitlari bilan mashhur. Abu-Dabi Gran-prisiga olingan chipta konsertga kirish imkoniyatini beradi.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

TAS ✈ DXB

ТАШКЕНТ 4 ч. 05 мин. ДУБАИ

от 1,7 млн сумов







РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

TAS ✈ BSZ

ТАШКЕНТ ? ч. ? мин. БИШКЕК

от 777 тыс. сумов

### КОНЦЕРТ ВЕНСКОГО ФИЛАРМОНИЧЕСКОГО ШТРАУС-ОРКЕСТРА

*Когда: 12 декабря*

*Где: Бишкек, Кыргызстан*

Vienna Strauss Philharmonie Orchestra был создан в 2014 году Геральдом Грюнбахером, основателем Моцарт-Оркестра в Вене. Сегодня в составе коллектива – 27 музыкантов из Австрии, Венгрии, Японии, Украины, Германии, Польши, Тайваня, Хорватии и Кипра. Оркестр, возглавляет который дирижёр Андраш Деак. Оркестр представит программу в традициях венской музыкальной школы – это потрясающая возможность услышать классическое звучание в исполнении музыкантов представить программу на одной из главных концертных площадок Бишкека.

### VENA FILARMONIK SHTRAUS ORKESTRINING KONSERTI

*Qachon: 12-dekabr*

*Qayerda: Bishkek, Qirg'iziston*

«Vienna Strauss Philharmonie Orchestra» orkestrini 2014-yilda Venadagi «Motsart» orkestri asoschisi Gerald Gryunbaxer bunyod etgan. Bugungi kunda jamoa o'z tarkibida Avstriya, Vengriya, Yaponiya, Ukraina, Germaniya, Polsha, Tayvan, Xorvatiya va Kiprdan 27 nafar musiqachini jamlagan. Orkestrga dirijyor Andrash Deak rahbarlik qiladi.
Orkestr Vena musiqa maktabi an'analariga xos dasturni taqdim etadi – bu Bishkekning asosiy konsert maydonlaridan birida orkestr sozandalari ijrosida klassik sadolardan bahramand bo'lish uchun ajoyib imkoniyat.

### СОЛЬНЫЙ КОНЦЕРТ JONY

*Когда: 19 декабря*

*Где: Баку, Азербайджан*

JONY – один из самых популярных исполнителей современной музыкальной сцены – выступит в Баку с большим сольным концертом. В программе прозвучат главные хиты артиста, завоевавшие любовь миллионов слушателей, а также новые композиции. Концерт дополнит масштабное сценическое, световое и визуальное шоу, поэтому вечер обещает стать одним из заметных в Баку музыкальных событий этого года.

### JONY'NING YAKKAXON KONSERTI

*Qachon: 19-dekabr*

*Qayerda: Boku, Ozarbayjon*

Zamonaviy musiqa sahnasining eng mashhur ijrochilaridan biri JONY Bokuda katta yakkaxon konsert dasturi bilan chiqish qiladi. Dasturdan san'atkorning millionlab tinglovchilar mehrini qozongan asosiy xitlari hamda yangi kompozitsiyalari o'rin olgan. Konsert keng ko'lamli sahna, yorug'lik hamda vizual shou bilan to'ldiriladi va shu bois bu oqshom Bokuning joriy yildagi eng yorqin musiqiy voqealaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

TAS ✈ GYD

ТАШКЕНТ 3 ч. 05 мин. БАКУ

от 1,64 млн сумов



## NONSTOP MUSIC FESTIVAL

*Когда: 25 декабря*

*Где: Алматы, Казахстан*

Большой музыкальный фестиваль соберёт на одной сцене популярных исполнителей, танцевальные шоу и специальных гостей. Среди уже объявленных участников – A.Z. и ZAQ. Программу дополнят живые выступления, танцевальные номера и масштабное световое шоу.


NonStop Music Festival станет одним из музыкальных событий зимы в Алматы и предложит формат большого праздничного концерта с атмосферой предновогоднего вечера.

## NONSTOP MUSIC FESTIVAL

*Qachon: 25-dekabr*

*Qayerda: Olmaota, Qozog'iston*

Katta musiqa festivali bir sahnada mashhur ijrochilar, raqs shoulari va maxsus mehmonlarni jamlaydi. Shu kungacha e'lon qilingan ishtirokchilar orasida A.Z. va ZAQ ham bor. Dastur jonli ijrolar, raqs chiqishlari va keng ko'lamli yorug'lik shousi bilan boyitiladi. «NonStop Music Festival» Olmaotadagi qishki musiqiy tadbirlardan biriga aylanib, Yangi yil oqshomi muhitidagi katta bayram konserti formatini taqdim etadi.




РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

TAS ТАШКЕНТ — 1 ч. 45 мин. — ALA АЛМАТЫ

от 789 тыс. сумов




## КОНЦЕРТ ГРУППЫ MAROON 5

*Когда: 27 января*

*Где: Сеул, Южная Корея*

Maroon 5 выступят в Сеуле в рамках азиатского тура 2027 года. Концерт пройдёт на одной из крупнейших выставочных площадок региона – KINTEX, где группа представит свою концертную программу, включающую главные хиты и песни из разных творческих периодов Maroon 5 Для зрителей доступны как обычные сидячие и стоячие места, так и специальные пакеты с ранним входом и VIP-привилегиями.

## «MAROON 5» GURUHINING KONSERTI

*Qachon: 2027-yil 27-yanvar*

*Qayerda: Seul, Janubiy Koreya*

«Maroon 5» guruhi 2027-yilgi Osiyo gastroli doirasida Seulda konsert beradi. Konsert mintaqadagi eng yirik ko'rgazma maydonlaridan biri – «KINTEX» majmuasida bo'lib o'tadi va guruh unda o'zining shou-dasturini taqdim etadi.

Dasturdan «Maroon 5» ning eng sara xitlari va guruh ijodining turli davrlariga oid qo'shiqlar o'rin olgan. Tomoshabinlar uchun oddiy o'tiradigan va tik turadigan joylar, shuningdek, barvaqt kirish imkoniyati hamda VIP imtiyozlari mavjud maxsus paketlar taklif etiladi.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

TAS ТАШКЕНТ — 6 ч. 55 мин. — ICN СЕУЛ

от 2,97 млн сумов

## TASHKENT CONTENT MARKET

*Когда: 4–5 февраля 2027 года*

*Где: Ташкент, Узбекистан*

Tashkent Content Market – международная бизнес-платформа, которая объединяет представителей кино, телевидения, цифровых медиа, анимации и креативных индустрий. В программе – выставка, конференции, панельные дискуссии, B2B-встречи и возможности для международного сотрудничества. Участники смогут обсудить будущее медиа и контента, влияние искусственного интеллекта на индустрию, международную дистрибуцию и развитие контентного рынка Центральной Азии. Ожидается участие представителей более 50 стран и свыше 3000 участников.

## TASHKENT CONTENT MARKET

*Qachon: 2027-yil 4–5-fevral*

*Qayerda: Toshkent, O'zbekiston*


Tashkent Content Market — kino, televideniye, raqamli media, animatsiya va kreativ industriyalar vakillarini birlashtiradigan xalqaro biznes platformasi. Dasturdan ko'rgazma, konferensiyalar, panel munozaralari, B2B uchrashuvlar va xalqaro hamkorlik uchun imkoniyatlar o'rin olgan. Ishtirokchilar media va kontentning kelajagi, sun'iy intellektning sohaga ta'siri, xalqaro distribyutsiya hamda Markaziy Osiyo kontent bozorining rivojlanishini muhokama qiladilar. Tadbirda 50 dan ortiq mamlakatdan vakillar va 3000 dan ziyod ishtirokchi qatnashishi kutilmoqda.




РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

KZN КАЗАНЬ — ? ч. ? мин. — TAS ТАШКЕНТ

от 1,57 млн сумов




## КОНЦЕРТ СКРИПТОНИТА

*Когда: 27 февраля 2027 года*

*Где: Ташкент, Узбекистан*

Казахстанский рэпер Скриптонит выступит в Ташкенте с большим сольным концертом. Его музыка давно вышла за рамки привычного рэп-звучания: плотный речитатив сочетается с ярким инструменталом, а концерты дополняют световое шоу и визуальный ряд. В программе – главные хиты артиста: от «Вечеринки» и «Танцуй сама» до треков с поздних альбомов, а также новые композиции. Скриптонита будет сопровождать живой состав музыкантов, поэтому знакомые песни прозвучат в новых аранжировках.

## SKRIPTONIT KONSERTI

*Qachon: 2027-yil 27-fevral*

*Qayerda: Toshkent, O'zbekiston*

Qozog'istonlik reper Skriptonit Toshkentda katta yakkaxon konsert dasturi bilan sahnaga chiqadi. Uning musiqasi allaqachon an'anaviy rep jarangidan chiqib ulgurgan: jo'shqin rechitativ yorqin instrumental bilan uyg'unlashgan, konsertlar esa yorug'lik shousi va vizual qator bilan to'ldiriladi.

Dasturdan san'atkorning «Vecherinka» va «Tansuy sama» kabi ilk xitlaridan tortib, so'nggi albomlaridagi treklarigacha, shuningdek, yangi kompozitsiyalari ham o'rin olgan. Skriptonitga jonli ijrodagi sozandalar guruhi jo'r bo'ladi va shu sababli tanish qo'shiqlar yangicha aranjirovkalarda yangraydi.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

LED САНКТ-ПЕТЕРБУРГ — 4 ч. 45 мин. — TAS ТАШКЕНТ


от 1,67 млн сумов

TOSHKENT - O'ZBEKISTON

CHIPTA PLATFORMASI

2026

# БИЛЕТНЫЙ ОПЕРАТОР ВАШИХ ЭМОЦИЙ




# HISSIYOTLARINGIZ CHIPTA OPERATORI

**RU**

Современная билетная платформа, объединяющая ключевые культурные, развлекательные и спортивные события Узбекистана. На платформе доступны билеты на концерты, кино, фестивали, спортивные мероприятия, доступны билеты для детей и взрослых. Выбирайте интересующие события, приобретайте билеты онлайн на сайте Olbilet.uz и планируйте свой досуг заранее.

**UZ**

O'zbekistonning eng muhim madaniy, ko'ngilochar va sport tadbirlarini birlashtiruvchi zamonaviy chipta platformasi. Platformada konsertlar, kinoteatrlar, festivallar, sport tadbirlari hamda bolalar va kattalar uchun mo'ljallangan boshqa ko'ngilochar dasturlarga chiptalar mavjud. O'zingizni qiziqtirgan tadbirlarni tanlang, Olbilet.uz sayti orqali chiptalarni onlayn xarid qiling va bo'sh vaqtingizni oldindan rejalashtiring.

**01**
ВЫБЕРИТЕ СОБЫТИЕ
TADBIRNI TANLANG

**02**
КУПИТЕ БИЛЕТ ОНЛАЙН
CHIPTANI ONLAYN XARID QILING

**03**
ПЛАНИРУЙТЕ ЗАРАНЕЕ
OLDINDAN REJALASHTIRING

## АФИША СЕЗОНА — OLBILET.UZ




26 СЕНТЯБРЯ - ПАНОРАМА




16 ОКТЯБРЯ - ПАНОРАМА




31 ОКТЯБРЯ - СК ЮНУСАБАД




7 ДЕКАБРЯ - ПАНОРАМА

## ЛУЧШИЕ СОБЫТИЯ — OLBILET.UZ




12 ДЕКАБРЯ - СК ЮНУСАБАД




15 ДЕКАБРЯ - HUMO ARENA




РАЗВЛЕЧЕНИЯ




КИНО


**ОТКРЫВАЙТЕ УЗБЕКИСТАН ЧЕРЕЗ СОБЫТИЯ**
OZBEKISTONNI TADBIRLAR ORQALI KASHF ETING

КОНЦЕРТЫ • КИНО • ФЕСТИВАЛИ • СПОРТ • РАЗВЛЕЧЕНИЯ • ТЕАТРЫ

chopuz — ТВОЙ ГИД ПО СОБЫТИЯМ ТАШКЕНТА

DOMUS DOORS · unieq · mediabaza

РЕКЛАМА

**ВАШ ВХОД НА СОБЫТИЯ УЗБЕКИСТАНА**

Сайт / Sayt OLBILET.UZ
Телефон / Aloqa +99878 120-90-20
Instagram @OLBILET.UZ
Telegram @OLBILETUZBEKISTAN
Facebook OLBILET.UZ
Threads OLBILET.UZ

СКАНИРУЙТЕ И ПОКУПАЙТЕ БИЛЕТЫ

OL bilet

# SUV ARKASI

## ВОДНАЯ АРКА

*Текст: Станислав Гурфинкель*

Самолёт мягко касается полосы и сворачивает на рулёжную дорожку. Где-то впереди, по бокам от него, ждут два аэродромных пожарных автомобиля – массивные, ярко окрашенные машины, обычно спрятанные в ангарах и появляющиеся только по тревоге. Но сегодня в аэропорту ожидается праздник, а не аварийная ситуация.

Когда лайнер поравняется с ярко-красными гигантами, обе машины одновременно поднимут водяные стволы, и над фюзеляжем расцветёт прозрачный купол. Тысячи литров воды на несколько секунд превратятся в живой памятник – арку, которую невозможно построить инженеру, вылепить скульптору или в точности передать художнику.

Эта церемония называется water salute – «водяной салют», water gate – «водяные ворота» или арка из воды. Её устраивают в особо торжественных случаях, когда в рутинную авиационную деятельность врывается нечто особенное, праздничное, захватывающее и привлекающее всеобщее внимание.


Samolyot uchish-qo'nish yo'lagiga ohista qo'nib, harakatlanish yo'lkasiga buriladi. Oldinroqda, u o'tadigan yo'lning ikki yonida odatda angarlarda yashirin turadigan va faqat xavf-xatar tug'ilgandagina paydo bo'ladigan ulkan, yorqin rangli – ikkita aerodrom o't o'chirish mashinasi kutib turibdi. Biroq bugun aeroportda favqulodda vaziyat emas, balki bayram o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Layner yorqin qizil gigantlar bilan tenglashgan zahoti ikkala mashina bir vaqtning o'zida suv to'plarini yuqoriga ko'taradi va fyuzelyaj uzra shaffof gumbaz qad rostlaydi. Bir necha soniya ichida minglab litr suv jonli yodgorlikka – muhandis qura olmaydigan, haykaltarosh yasay olmaydigan, musavvir chiza olmaydigan arkaga aylanadi.

Bu marosim «water salute» – «suv salyuti», «water gate» – «suv darvozasi» yoki «suv arkasi» deb ataladi. U odatiy aviatsiya faoliyatida o'zgacha, bayramona, hayajonli va barchaning e'tiborini tortadigan biror voqea yuz berganda, ya'ni o'ta tantanali holatlarda uyushtiriladi.







### ОТ ПАРОХОДОВ – К САМОЛЁТАМ: БИОГРАФИЯ ТРАДИЦИИ

Воздухоплавание является «младшим братом» мореплавания, и не только из-за единого корня этих слов. В первую очередь авиаторы переняли от мореходов и продолжили развивать всё, что касается навигации, метеорологии, приборостроения, единиц измерения, терминологии, стандартов безопасности и командной работы. Вот и ритуал водной арки пришел в аэропорты из морских портов.

В золотую эпоху трансатлантического судоходства, между концом XIX и серединой XX века, морские пароходы были высшим достижением инженерной мысли, символами связи континентов, прогресса, человеческой смелости и выносливости. Когда новый лайнер впервые приходил в порт назначения, его встречали фаерботы – пожарные суда, чьей повседневной задачей было тушить горящие склады и нефтеналивные танкеры. По случаю торжества они выходили в бухту и поднимали в небо мощные фонтаны воды, выстреливая струи из палубных стволов на десятки метров вверх.

Это было одновременно благословение, поздравление и объявление: корабль пересёк океан, экипаж справился, можно ликовать. Тот же ритуал применялся для встречи военных кораблей, возвращавшихся домой после долгих кампаний, и прощания с флагманами, отслужившими свой срок эксплуатации.

Самая устойчивая версия указывает на то, что аэропорт Солт-Лейк-Сити в США стал первым, где авиационные пожарные расчёты устроили праздник для капитана авиакомпании Delta Air Lines, завершающего свою многолетнюю безупречную службу на благо пассажиров и авиационного бизнеса. Жест признания заслуг опытного коллеги понравился пилотам, наземному персоналу, пассажирам, и за считанные годы традиция разлетелась по всему миру. Сегодня её можно увидеть повсюду, а в Ташкенте, благодаря бурному росту Centrum Air и развитию всей гражданской авиации, это стало особенно частым ритуалом.

### PAROXODLARDAN SAMOLYOTLARGACHA: BIR AN'ANA TARIXI

Aviatsiya dengizchilik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu yaqinlik shunchaki o'xshash so'zlarda emas, ularning umumiy tabiatida namoyon bo'ladi. Avvalo, aviatorlar dengizchilardan navigatsiya, meteorologiya, asbobsozlik, o'lchov birliklari, terminologiya, xavfsizlik standartlari va jamoaviy ishga oid barcha jihatlarni qabul qilib, ularni yanada rivojlantirishdi. Suv arkasi marosimi ham aeroportlarga aynan dengiz portlaridan kirib kelgan.

Transatlantika kemachiligining oltin davri – XIX asr oxiridan XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda dengiz paroxodlari muhandislik tafakkurining yuksak cho'qqisi, qit'alarni bog'lovchi rishta, taraqqiyot hamda inson jasorati va matonatining timsoli bo'lgan. Yangi layner o'z biriktirilgan portiga ilk bor kirib kelganida, uni fayerbotlar – kundalik vazifasi yonayotgan omborlar va neft tankerlarini o'chirish bo'lgan o't o'chirish kemalari kutib olgan. Tantanali marosim munosabati bilan ular ko'rfazga chiqib, palubadagi suv to'plaridan osmonga o'nlab metr balandlikka suv otib, qudratli favvoralar hosil qilgan.

Bu bir vaqtning o'zida ham oq fotiha, ham tabrik hamda bir xabar edi: kema ummonni kesib o'tdi, ekipaj buni uddaladi, endi tantana qilish mumkin. Ayni marosim uzoq safarlardan so'ng vataniga qaytayotgan harbiy kemalarni kutib olish, shuningdek, o'z xizmat muddatini o'tab bo'lgan flagmanlar bilan xayrlashishda ham qo'llangan.

Eng ishonchli taxminlarga ko'ra, bu an'ana AQShning Solt-Leyk-Siti aeroportida, aerodrom o't o'chiruvchilari tomonidan yo'lovchilar va soha ravnaqi yo'lidagi ko'p yillik xizmatini yakunlayotgan Delta Air Lines aviakompaniyasi kapitani uchun bayram uyushtirilganda boshlangan. Tajribali hamkasb xizmatlarining bu tarzda e'tirof etilishi uchuvchilar, yer usti xodimlari va yo'lovchilarga ma'qul kelib, sanoqli yillar ichida butun dunyoga tarqaldi. Bugungi kunda uni dunyoning istalgan joyida kuzatish mumkin. Toshkentda esa Centrum Air'ning jadal o'sayotgani va butun fuqaro aviatsiyasining rivojlanayotgani tufayli bu hodisa ayniqsa tez-tez takrorlanadigan marosimga aylandi.




### НЕ ТОЛЬКО ВЕТЕРАНЫ

С течением времени водяной салют стал популярным способом чествования не только человеческих заслуг перед авиацией, но и других значимых событий. За прошедшее время получили известность следующие поводы для радости и «водных процедур» на аэродромах:

- поставка нового самолёта в авиакомпанию. Особенно если новенький борт прилетает к заказчику прямо «с завода»: из городов Тулуза (Франция), Гамбург (Германия), Сиэтл (США), то есть совершает первый полёт под флагом своей будущей авиакомпании;
- первый рейс авиакомпании в новый для неё аэропорт или открытие совершенно нового маршрута. Как принято говорить, инаугурационный рейс;
- последний рейс конкретного самолёта перед списанием, особенно если речь идёт о легендарной модели вроде Boeing 747 или Concorde;
- доставка в страну выдающихся людей – олимпийских чемпионов, нобелевских лауреатов, шахматных гениев, рекордсменов, автогонщиков, победителей футбольных и хоккейных баталий.

### NAFAQAT FAXRIYLAR

Vaqt o‘tishi bilan suv salyuti nafaqat insonlarning aviatsiya oldidagi xizmatlarini, balki boshqa muhim voqealarni ham qutlashning ommabop usuliga aylandi. Bugun aerodromlarda «suv muolajalari» quyidagi quvonchli sabablarga ko‘ra o‘tkaziladi:

- aviakompaniyaga yangi samolyotning yetkazib berilishi. Ayniqsa, yangi samolyot buyurtmachiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri «zavoddan» – Tuluza (Fransiya), Gamburg (Germaniya), Sietl (AQSh) shaharlaridan uchib kelganida, ya’ni o‘zining bo‘lajak aviakompaniyasi bayrog‘i ostida ilk parvozini amalga oshirganida ushbu marosim tashkil etiladi;
- yangi aeroportga ilk bor uchib kelinishi yoki mutlaqo yangi yo‘nalishning ochilishi. Boshqacha aytganda, bu aviatsiyada «inauguratsiya reysi» deb yuritiladi;
- muayyan samolyotning hisobdan chiqarilishidan oldingi so‘nggi parvozi. Ayniqsa, gap Boeing 747 yoki Concorde kabi afsonaviy modellar haqida ketayotganda ushbu an’anaga alohida urg‘u beriladi;
- mamlakatga atoqli shaxslar – olimpiada chempionlari, Nobel mukofoti sovrindorlari, shaxmat daholari, rekordchilar, avtopoygachilar, futbol va xokkey bahslari g‘oliblari olib kelinganida.










**ЗНАЕТЕ ЛИ ВЫ, ЧТО...**

1. при запуске прощального салюта Concorde 31 мая 2003 года использовалась специально подобранная пищевая краска: она не оставляла следов на обшивке и быстро смывалась
2. авиакомпания KLM, отметившая в 2019 году столетие, в один день провела водяные салюты сразу в шести аэропортах Европы и Азии
3. когда в 2017 году Airbus передал сотый A380 заказчику, церемонию устроили прямо в Тулузе в присутствии инженеров, собиравших самолёт

**BILASIZMI...**

1. 2003-yil 31-may kuni Concorde bilan xayrlashuv salyutida samolyot qoplamasida iz qoldirmaydigan va tezda yuvilib ketadigan maxsus tanlangan oziq-ovqat bo‘yog‘idan foydalanilgan
2. 2019-yilda o‘zining yuz yilligini nishonlagan KLM aviakompaniyasi bir kunda Yevropa va Osiyoning oltita aeroportida suvli salyutlar uyushtirgan
3. 2017-yilda Airbus kompaniyasi o‘zining minginchi A380 havo kemasini buyurtmachiga topshirayotganida, marosim bevosita Tuluzada, laynerni yig‘gan muhandislar ishtirokida o‘tkazilgan

## АНАТОМИЯ ЦЕРЕМОНИИ: КАК УСТРОЕНА ВОДНАЯ АРКА

За кулисами красоты – ответственная и деликатная работа. Воду подают аэродромные пожарные автомобили международного класса ARFF (Aircraft Rescue and Fire Fighting). Это огромные машины, рассчитанные на тушение горящего авиационного топлива и спасение людей при авиапроисшествиях. Они способны эффективно и безопасно маневрировать в аэропорту, быстро разгоняться до 100 км/ч и нести на борту до 12 тонн воды и 1500 литров пенообразователя. На крыше у каждой такой машины установлен дистанционно управляемый водомёт (water turret), способный подавать тонну воды в минуту с дальностью струи до 80-90 метров.

Для организации мероприятия пожарные расчёты выезжают на обочину рулёжной дорожки, и по команде «дирижёра» церемонии одновременно открывают стволы. Струи, идущие навстречу, скрещиваются над фюзеляжем самолёта и образуют ту самую сверкающую арку.

## MAROSIM ANATOMIYASI: SUV ARKASINING TUZILISHI

Ushbu go'zallik ortida mas'uliyatli va nozik mehnat yotadi. Suvni xalqaro toifadagi ARFF (Aircraft Rescue and Fire Fighting) aerodrom yong'in o'chirish mashinalari yetkazib beradi. Bular aviahalokat yuz berganda yonayotgan aviatsiya yoqilg'isini o'chirish va odamlarni qutqarishga mo'ljallangan ulkan texnikalardir. Ular aeroportda samarali va xavfsiz manyovr qilib, soatiga 100 km gacha tezlikni jadal oshira oladi va bortida 12 tonnagacha suv hamda 1500 litr ko'pik hosil qiluvchi modda olib yura oladi. Har bir bunday mashinaning tomiga masofadan boshqariladigan suv purkagich (water turret) o'rnatilgan bo'lib, u daqiqasiga bir tonna suyuqlikni 80–90 metr masofaga otib bera oladi.

Tadbirni o'tkazish uchun yong'in o'chirish ekipajlari samolyotlar harakatlanish yo'lagining chetidan joy olib, marosim «dirijyori»ning buyrug'i bilan bir vaqtda moslamalarni ishga tushiradi. Bir-biriga qarama-qarshi yo'naltirilgan suv oqimlari samolyot fyuzelyaji uzra kesishib, o'sha yorqin arkani hosil qiladi.

## НЕСКОЛЬКО ТОНКОСТЕЙ, БЕЗ КОТОРЫХ ЦЕРЕМОНИЯ НЕВОЗМОЖНА:

- используется только чистая, неагрессивная вода – без пенообразователя, который применяется при реальном пожаре;
- давление подбирают значительно ниже боевого. При обычной работе пожарного ствола оно превышает 100 psi (около 7 атмосфер), для салюта его существенно снижают, чтобы исключить риск повреждения обшивки, антенн, остекления кабины и створок аварийных люков самолёта;
- учитывается ветер, при сильных порывах церемонию проводить нецелесообразно;
- каждый салют планируется заранее, согласуется с диспетчерской службой, наземным персоналом и, что критически важно, с экипажем воздушного судна. Командир самолёта должен знать, что происходит за бортом, иначе арка может быть воспринята им как нештатная ситуация.

## MAROSIMNI O'TKAZISH UCHUN ZARUR BO'LGAN BIR NECHTA MUHIM JIHATLAR:

- faqatgina toza va zararsiz suvdan foydalaniladi – suv tarkibida ko'pik hosil qiluvchi moddalar bo'lmaydi;
- suv bosimi jangovar holatdagiga nisbatan ancha past qilib tanlanadi. O't o'chirish moslamasining odatiy ish jarayonida bosim 100 psi (taxminan 7 atmosfera)dan yuqori bo'ladi. Salyut vaqtida esa samolyot qoplamasi, antenna, kabina oynalari va avariya lyuklariga shikast yetkazmaslik uchun bu ko'rsatkich sezilarli darajada kamaytiriladi;
- shamol yo'nalishi va kuchi hisobga olinadi. Shamol kuchli esa-yotganda marosimni o'tkazish tavsiya etilmaydi;
- har bir salyut oldindan rejalashtiriladi hamda dispetcherlik xizmati, yerdagi xodimlar va eng muhimi, havo kemasi ekipaji bilan kelishib olinadi. Samolyot komandiri bort tashqarisida nima sodir bo'layotganidan xabardor bo'lishi shart, aks holda u arkani favqulodda vaziyat sifatida qabul qilishi mumkin.

**≈ 7 атм.**
обычное рабочее давление пожарного водомёта при тушении (около 100 psi)

**1 000 л/мин.**
типичная подача воды одной аэродромной пожарной машины

**12 тонн**
максимальный запас воды на борту крупного ARFF-автомобиля

**80-90 м.**
максимальная дальность струи из водомёта

**2 машины**
обычно достаточно для классической церемониальной арки

**1990-е**
десятилетие, когда традиция шагнула из морской в авиационную сферу

**≈ 7 atm.**
yong'inni o'chiruvchi suv purkagichning odatdagi ishchi bosimi (taxminan 100 psi)

**1 000 l/daqiqa**
bitta aerodrom yong'in o'chirish mashinasining odatdagi suv uzatish quvvati

**12 tonna**
yirik ARFF-avtomobil bortidagi maksimal suv zaxirasi

**80-90 m**
suv purkagichdan otiladigan oqimning maksimal masofasi

**2 ta mashina**
klassik marosim arkasini hosil qilish uchun odatda yetarli bo'lgan miqdor

**1990-yillar**
ushbu an'ana dengizchilikdan aviatsiya sohasiga to'liq ko'chgan o'n yillik



## ЧТО ВИДЯТ ПАССАЖИРЫ?

Если вам доведётся оказаться на борту самолёта, проходящего под водяной аркой, эти впечатления наверняка останутся в памяти надолго. Только представьте: после благополучной посадки вы уже мысленно готовитесь к выходу, предвкушаете встречу с новой страной, городом или близкими людьми, как вдруг самолёт замедляет движение, и по фюзеляжу прокатывается необычный ровный шум. Его трудно сравнить с чем-то знакомым, это совсем не похоже на стук дождя по крыше автомобиля. Обшивка самолёта довольно тонкая и чутко отзывается на потоки воды, поэтому звук получается мягким и объемным, словно тысячи ладоней одновременно барабанят по корпусу. В какой-то момент начинает казаться, будто это гул аплодисментов.

В салоне самолёта резко темнеет: иллюминаторы застилает вода, которая смыкается куполом, вид за окном преломляется и блестит. Капли стекают сплошной плёнкой, и лайнер будто на мгновение оказывается в подводном царстве – свет приобретает зеленоватый оттенок, а очертания внешнего мира становятся поистине сказочными. Длится это буквально несколько секунд, и затем самолёт выходит из-под арки: снова яркий свет, ясное небо. При этом всегда раздаются аплодисменты – это тот редкий случай, когда совершенно незнакомые люди, пассажиры и экипаж, испытывают общие эмоции, словно зрители на финале хорошего спектакля. Многие достают телефоны и тянутся к иллюминаторам, чтобы запечатлеть знаковое событие.

Пилоты видят арку сквозь лобовое стекло, как уходящий ввысь занавес. Бортпроводники, казалось бы привыкшие к своим рутинным обязанностям, в эту минуту замирают и просто созерцают происходящее вместе с пассажирами.

## YO‘LOVCHILAR NIMANI HIS QILADI?

Agar suvli arka ostidan o‘tayotgan samolyot bortida bo‘lish baxtiga muyassar bo‘lsangiz, bu taassurotlar xotirangizda uzoq vaqt saqlanib qolishi shubhasiz. Avvaliga muvaffaqiyatli qo‘nishdan so‘ng yengil tortasiz, samolyotdan tushishni, yangi mamlakat yoki yaqinlaringiz bilan uchrashishni orziqib kuta boshlaysiz. Lekin birdan layner tezligini pasaytiradi va fyuzelyaj bo‘ylab shu paytgacha siz ichkarida eshitgan birorta ham tovushga o‘xshamaydigan bir tekis shovqin taraladi. U avtomobil tomini childirma qilib chalayotgan jala ovoziga ham o‘xshamaydi. Samolyot fyuzelyaji ancha yupqa membrana bo‘lgani uchun ovoz yumshoq, go‘yo minglab kaftlar bir vaqtning o‘zida qoplamani baraban qilib chalayotgandek eshitiladi. Bu tovush ko‘proq qarsaklar sadosiga o‘xshaydi.

Illyuminatorlarni suv qoplaydi, kema saloni birdan qorong‘ilashadi: suv gumbaz bo‘lib tutashadi, deraza ortidagi manzara o‘zgacha tus olib, yaltiraydi. Tomchilar yaxlit parda hosil qilib oqadi, havo layneri go‘yo bir lahzaga suvosti saltanatiga tushib qolgandek bo‘ladi – yorug‘lik zumrad rangga kirib, tashqi olam manzarasi chinakamiga ertaknamo ko‘rinish oladi. Bu atigi bir necha soniya davom etadi. Havo kemasi suv arkasi ostidan chiqadi: yana yorqin nur, yana musaffo osmon. Shu lahzada samolyot ichida hamisha qarsaklar yangraydi. Bu mutlaqo notanish odamlar – yo‘lovchilar va ekipaj a’zolari go‘yo yaxshi bir spektakl yakunidagi tomoshabinlardek umumiy his-tuyg‘ularni birga boshdan kechiradigan kamdan-kam uchraydigan lahza. Ko‘pchilik ushbu ramziy voqeani xotiraga muhrlash uchun telefonlarini chiqarib, oyna ortiga talpinadi.

Uchuvchilar arkani peshtoq oynasi ortidan go‘yo ko‘kka ko‘tarilayotgan parda kabi kuzatishadi. Kundalik vazifalariga ko‘nikib qolgan bort kuzatuvchilar esa bu lahzada bir muddat tin olib, ushbu go‘zallikni yo‘lovchilar bilan birga hayrat ichida tomosha qilishadi.







## CENTRUM AIR: ИСТОРИЯ ПЕРВЫХ ВСТРЕЧ

Трёхлетняя история существования нашей авиакомпании принесла немало поводов для торжественных выбросов воды как в аэропорту Ташкента, так и за пределами нашей страны. За этот короткий период Centrum Air, а также наше грузовое подразделение My Freighter почти 30 раз пополняли свой флот новыми самолётами. Были выполнены инаугурационные рейсы в десятки стран и аэропортов.

В апреле прошлого 2025 года в Ташкент прибыл первый широкофюзеляжный пассажирский лайнер Airbus A330-300, открывший для нас новую эру дальнемагистральных полётов. Церемония встречи красавца собрала на перроне Международного аэропорта «Ташкент» им. Ислама Каримова руководство транспортной отрасли, авиакомпании, журналистов, ветеранов гражданской авиации и иностранных партнёров. Сейчас в нашем парке уже четыре широкофюзеляжных Airbus A330, но и до, и после встречи первого такого лайнера водяные арки остаются неотъемлемым элементом радостного события. Каждый новый маршрут авиакомпании Centrum Air, будь то Бангкок, Сеул, Гуанчжоу, Дубай, Стамбул, Тель-Авив, Москва или другие, становится поводом для поднятия широкого, яркого, искрящегося на солнце фонтана чистой воды над рулёжной дорожкой зарубежного аэропорта.

Авиация всегда связана с романтикой, красотой, эмоциями и верностью традициям. Современный самолёт стал одним из самых впечатляющих достижений человеческого разума, а вода во все времена символизировала жизнь. Именно поэтому водяная арка над самолётом воспринимается как красивый и символичный жест, подчёркивающий способность человека преодолевать огромные расстояния между странами и континентами, соединяя водную и воздушную стихии.




## CENTRUM AIR: ILK UCHRASHUVLAR TARIXI

Aviakompaniyamizning uch yillik faoliyati davomida nafaqat Toshkent aeroportida, balki yurtimiz sarhadlari tashqarisida ham havo kemalarini suv arkasi bilan tantanali kutib olish uchun ko‘plab sabablar bo‘ldi. Shu qisqa vaqt ichida Centrum Air hamda My Freighter yuk tashish bo‘linmamiz o‘z aviaparkini qariyb 30 marta yangi samolyotlar bilan to‘ldirdi. O‘nlab mamlakat va aeroportlarga inauguratsiya parvozlari amalga oshirildi.

O‘tgan 2025-yilning aprel oyida Toshkentga biz uchun uzoq magistral parvozlar davrini ochib bergan birinchi keng fyuzelyajli Airbus A330-300 yo‘lovchi layneri kelib qo‘ndi. Ushbu ko‘rkam laynerni kutib olish marosimi Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti perronida transport sohasi va aviakompaniya rahbariyati, jurnalistlar, fuqaro aviatsiyasi faxriylari hamda xorijiy hamkorlarni bir joyga to‘pladi. Hozir aviaparkimizda to‘rtta shunday ulkan samolyot bor, ammo birinchi bortni kutib olishdan oldin ham, keyin ham suv arkalari bunday quvonchli voqeaning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda.

Centrum Air aviakompaniyasining Bangkok, Seul, Guanchjou, Dubay, Istanbul, Tel-Aviv, Moskva yoki boshqa har bir yangi yo’nalishi xorijiy aeroportlarning harakatlanish yo’lagida quyosh nurida yaltirab turuvchi keng va yorqin musaffo suv favvorasini yuqoriga otish uchun sabab bo‘lmoqda.

Aviatsiya hamisha romantika, go‘zallik, yorqin his-tuyg‘ular va an’analarga sodiqlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy samolyot inson tafakkurining eng hayratlanarli yutuqlaridan biriga aylandi, suv esa barcha davrlarda hayot ramzi bo‘lib kelgan. Aynan shu sababli, havo kemasi uzra qad rostlagan suvli arka nafaqat go‘zal marosim, balki suv va havo unsurlarini birlashtirib, insonning qit’alar hamda davlatlararo ulkan masofalarni zabt etish qudratini namoyon etuvchi ramziy e’tirof sifatida qabul qilinadi.







# «BLUE FLAG»: dunyoning eng yaxshi plyajlari bo‘yicha yo‘riqnoma

## BLUE FLAG: ПУТЕВОДИТЕЛЬ ПО ЛУЧШИМ ПЛЯЖАМ МИРА





*Представьте два одинаково красивых пляжа: белый песок, прозрачная вода, лежаки под солнцем и закаты, ради которых хочется задержаться ещё на один день. На первый взгляд они ничем не отличаются, но на одном качество воды и состояние морской экосистемы регулярно проверяют специалисты, а на другом всё это остаётся вопросом удачи. Для большинства путешественников разница почти незаметна, однако в эпоху, когда чистая вода становится одним из самых ценных природных ресурсов, именно такие детали определяют уровень отдыха. Поэтому всё больше туристов по всему миру обращают внимание на голубой флаг – символ одной из самых авторитетных экологических программ в мире.*

### ЧТО ТАКОЕ BLUE FLAG?

История этой экологической программы началась в 1985 году, когда французский Фонд экологического образования провёл необычную акцию: тысячи школьников написали письма, запечатали их в бутылки и отправили в воды Атлантического океана. Эксперимент должен был наглядно показать, насколько тесно связаны между собой водные экосистемы планеты и как загрязнение, возникшее в одной точке мира, может повлиять на жизнь людей за тысячи километров.

Символом инициативы стал голубой флаг с белым кругом и волнами – эмблема, которая вскоре превратилась в международный знак ответственного отношения к воде и окружающей среде. Уже в 1987 году программа получила общеевропейский статус в рамках экологических инициатив Европейского союза, а в 2001 году вышла далеко за пределы Европы и стала глобальным проектом.

Сегодня под этим флагом «выступают» 5274 пляжа в 52 странах мира. Получить этот статус можно лишь при строгом соблюдении экологических, санитарных и инфраструктурных требований. Однако речь идёт не о пожизненном знаке качества: сертификация подтверждается ежегодно, а при нарушении стандартов её могут отозвать в любой момент.

Именно поэтому Blue Flag считается не наградой за прошлые заслуги, а постоянным обязательством поддерживать высокий уровень качества воды, безопасности и экологической ответственности. Важной частью программы остаётся и просветительская деятельность: организация развивает экологические образовательные проекты, программы для школ и инициативы по устойчивому развитию, напоминая, что чистые пляжи начинаются не с сертификатов, а культуры бережного отношения к воде.





*Bir-biridan qolishmaydigan ikki go‘zal plyajni tasavvur qiling: oppoq qum, shaffof suv, quyosh ostidagi shezlonglar va odamni o‘ziga rom etib, yana bir kun qolishga undaydigan quyosh botishi. Bir qarashda ular o‘rtasida hech qanday farq yo‘qdek, biroq birida suv sifati va dengiz ekotizimining holati mutaxassislar tomonidan muntazam tekshirib turilsa, ikkinchisida esa bularning bari tavakkalga topshirilgan. Aksariyat sayyohlar uchun bu farq deyarli sezilmasa-da, toza suv eng qimmatli tabiiy boyliklardan biriga aylanib borayotgan davrda aynan shunday jihatlar dam olish darajasini belgilab beradi. Shu sababli butun dunyoda tobora ko‘proq sayyohlar jahondagi eng nufuzli ekologik dasturlardan birining ramzi bo‘lgan moviy bayroqqa e’tibor qaratmoqda.*

### «BLUE FLAG» NIMA?

Ushbu ekologik dasturning tarixi 1985-yilda, Fransiyaning Ekologik ta’lim jamg‘armasi g‘ayrioddiy aksiya o‘tkazgan paytdan boshlangan: minglab maktab o‘quvchilari xat yozib, ularni shishalarga joylagan va Atlantika okeani suvlariga oqizib yuborgan. Bu tajriba sayyoramiz suv ekotizimlarining bir-biri bilan naqadar chambarchas bog‘liqligini hamda dunyoning bir nuqtasida yuzaga kelgan ifloslanish minglab kilometr uzoqlikdagi odamlar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini yaqqol namoyon etishi kerak edi.

Oq halqa va to‘lqinlar aks etgan moviy bayroq ushbu tashabbusning ramziga aylandi va bu ramz tez orada suv va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatning xalqaro timsoli sifatida tan olindi. Dastur 1987-yildayoq Yevropa Ittifoqining ekologik tashabbuslari doirasida umumyevropa maqomini oldi, 2001-yilga kelib esa Yevropa hududidan ancha tashqariga chiqib, global miqyosga kirdi.

Hozirgi kunda dunyoning 52 mamlakatidagi 5 274 ta plyaj shu bayroq ostida faoliyat yuritadi. Bu maqomga faqat ekologik, sanitariya va infratuzilma talablariga qat’iy rioya qilingandagina erishish mumkin. Biroq bu umrbod beriladigan sifat belgisi emas: sertifikatlash har yili qayta tasdiqlanadi, standartlar buzilgan taqdirda esa u istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

Shu bois ham «Blue Flag» o‘tmishdagi xizmatlar uchun beriladigan mukofot emas, balki suv sifati, xavfsizlik va ekologik mas’uliyatning yuqori darajasini doimiy saqlab turish majburiyati hisoblanadi. Ma’rifiy faoliyat ham dasturning muhim qismi bo‘lib qolmoqda: tashkilot ekologik ta’lim loyihalari, maktablar uchun dasturlar va barqaror rivojlanishga oid tashabbuslarni rivojlantirib, toza plyajlar sertifikatlardan emas, balki suvga ehtiyotkorona munosabat madaniyatidan boshlanishini eslatib turadi.



## ПЯТЬ ПРИЗНАКОВ ХОРОШЕГО ПЛЯЖА

За знаком Blue Flag стоит более тридцати критериев, и хотя большинство отдыхающих никогда не задумывается об этих деталях, именно из них складываются комфорт и безопасность отдыха.

Чистая вода остаётся главным критерием программы. На сертифицированных пляжах её регулярно проверяют по микробиологическим и экологическим показателям. Поблизости не должно быть неочищенных канализационных или промышленных стоков, а вся инфраструктура обязана соответствовать санитарным требованиям. Даже общественные туалеты, если они есть на территории, должны содержаться в образцовом состоянии.

Не меньше внимания уделяется вопросам безопасности, за которыми стоит не только наличие спасателей на вышках. Пляж должен быть подготовлен к любым нештатным ситуациям: иметь оборудование для оказания первой помощи, доступ к питьевой воде и планы реагирования на возможные загрязнения или чрезвычайные происшествия.

Отдельный блок требований посвящён защите окружающей среды, которая предполагает организацию раздельного сбора отходов, регулярную уборку территории и постоянный контроль за состоянием прибрежной зоны. Ограничивается несанкционированный кемпинг, а в ряде случаев – доступ домашних животных. Особое внимание уделяется сохранению морской флоры и фауны. Отдыхающим не рекомендуется забирать с собой ракушки, водоросли и другие природные объекты. Даже пустая раковина может стать домом для рака-отшельника, а состояние водорослей и коралловых рифов напрямую влияет на здоровье всей экосистемы.

## YAXSHI PLYAJNING BESHTA BELGISI

«Blue Flag» belgisi o'ttizdan ortiq mezonni o'z ichiga oladi va aksariyat dam oluvchilar bu tafsilotlar haqida o'ylab ko'rmasa-da, dam olishning qulayligi va xavfsizligi aynan shu jihatlardan tashkil topadi.

Toza suv dasturning asosiy mezoni bo'lib qolmoqda. Sertifikatlangan plyajlarda suvning mikrobiologik va ekologik ko'rsatkichlari muntazam ravishda tekshirib turiladi. Yaqin atrofda tozalanmagan oqova suvlar yoki sanoat chiqindilari bo'lmasligi kerak, barcha infratuzilma esa sanitariya talablariga javob berishi shart. Agar hududda jamoat hojatxonalari mavjud bo'lsa, hatto ular ham namunali holatda saqlanishi kerak.

Xavfsizlik masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratilgan bo'lib, bu minoralarda qutqaruvchilarning mavjudligi bilan cheklanmaydi. Plyaj har qanday kutilmagan vaziyatga tayyor turishi, ya'ni birinchi yordam ko'rsatish uchun anjomlarga, ichimlik suvi manbasiga hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ifloslanish yoki favqulodda hodisalarga qarshi chora-tadbirlar rejasiga ega bo'lishi lozim.

Talablarning alohida bir bo'limi atrof-muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan bo'lib, u chiqindilarni alohida yig'ishni tashkil etish, hududni muntazam tozalash va qirg'oq bo'yi hududining holatini doimiy nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Ruxsatsiz kemping o'rnatish, ayrim hollarda esa uy hayvonlarini olib kirish cheklanadi. Dengiz o'simlik va hayvonot dunyosini asrashga alohida e'tibor qaratiladi. Dam oluvchilarga chig'anoqlar, suvo'tlari va boshqa tabiiy obyektlarni o'zlari bilan olib ketish tavsiya etilmaydi. Hatto bo'sh chig'anoq ham darvesh qisqichbaqa uchun uy bo'lishi mumkin, suvo'tlari va marjon riflarining holati esa butun ekotizim salomatligiga bevosita ta'sir qiladi.

Одним из менее очевидных критериев является информация и экологическое просвещение. На пляже должны быть размещены сведения о качестве воды, особенностях местной природы, культурных объектах и принципах программы Blue Flag. Такой подход помогает не только поддерживать стандарты, но и формировать культуру ответственного отдыха.

Наконец, современные стандарты предполагают, что качественный отдых должен быть доступен каждому. Комфорт для всех подразумевает создание условий для людей с ограниченными возможностями и развитие инфраструктуры, позволяющей пользоваться пляжем максимально широкому кругу посетителей. Именно из таких, на первый взгляд незаметных деталей и складывается тот уровень качества, который отличает пляжи Blue Flag от большинства других мест отдыха у воды.

Kamroq e'tiborga olinadigan mezonlardan biri – axborot va ekologik ma'rifat. Plyajda suv sifati, mahalliy tabiatning o'ziga xos jihatlari, madaniy obyektlar hamda «Blue Flag» dasturi tamoyillari haqidagi ma'lumotlar joylashtirilishi lozim. Bunday yondashuv nafaqat belgilangan me'yorlarni saqlab qolishga, balki mas'uliyat bilan dam olish madaniyatini shakllantirishga ham yordam beradi.

Nihoyat, zamonaviy standartlarga ko'ra, har bir insonga sifatli hordiq chiqarish imkoni berilishi kerak. Barcha uchun qulaylik yaratish bu – imkoniyati cheklangan shaxslarga sharoit hozirlash hamda plyajdan imkon qadar ko'proq odam foydalana olishini ta'minlaydigan infratuzilmani rivojlantirish demak. «Blue Flag» plyajlarini aksariyat boshqa suv bo'yidagi dam olish maskanlaridan ajratib turadigan sifat darajasi aynan mana shunday, bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan jihatlardan tashkil topadi.








## ГДЕ ИСКАТЬ?

За несколько десятилетий существования программы сформировались целые направления, для которых высокие экологические стандарты стали частью туристической идентичности.

Абсолютным лидером остаётся Испания. На почти восьми тысячах километров побережья насчитывается 677 пляжей и 117 гаваней, отмеченных Blue Flag. От городских пляжей Валенсии до атлантических берегов Андалусии в стране сформировалась целая культура ответственного отношения к морю.

Хороший пример – Ла-Мальварроса в Валенсии. Ещё в XIX веке на её месте находились заболоченные территории, а сегодня это один из самых популярных городских пляжей страны. Сюда приезжают сёрферы, любители водных видов спорта и те, кто хочет совместить пляжный отдых с прогулками по одному из самых красивых городов Средиземноморья. В прибрежных водах даже можно встретить морских черепах.

Испанский опыт показывает, что успех программы зависит не только от туристической отрасли: в этом непростом деле участвуют муниципалитеты, университеты, экологические организации и сами жители, для которых чистое море давно стало частью повседневной культуры.

## QAYERDAN IZLASH KERAK?

Dastur mavjud bo'lgan bir necha o'n yilliklar davomida yuqori ekologik standartlar turistik o'ziga xoslikning bir qismiga aylangan butun boshli yo'nalishlar shakllandi.

Ispaniya mutlaq yetakchi bo'lib qolmoqda. Mamlakatning qariyb sakkiz ming kilometrlik sohilbo'yi hududida «Blue Flag» belgisi bilan taqdirlangan 677 ta plyaj va 117 ta gavan mavjud. Mamlakatda Valensiyaning shahar plyajlaridan tortib Andalusiyaning Atlantika sohillarigacha dengizga mas'uliyat bilan yondashish madaniyati shakllangan.

Bunga Valensiyadagi La-Malvarrosani yaqqol misol qilib keltirish mumkin. XIX asrda botqoqlik bo'lgan joylar, bugungi kunda mamlakatning eng mashhur shahar plyajlaridan biriga aylangan. Bu yerga syorfingchilar, suv sporti ishqibozlari va plyajdagi hordiqni O'rta yer dengizining eng go'zal shaharlaridan biridagi sayr bilan birlashtirishni istaganlar tashrif buyuradi. Sohil yaqinidagi suvlarda hatto dengiz toshbaqalarini ham uchratish mumkin.

Ispaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, dasturning muvaffaqiyati faqatgina turizm sohasiga bog'liq emas – bu murakkab ishda munitsipalitetlar, universitetlar, ekologik tashkilotlar va toza dengiz allaqachon kundalik madaniyatining bir qismiga aylangan aholining o'zi ham faol ishtirok etmoqda.











Ещё один мировой лидер – Турция. В текущем году под знаком Blue Flag здесь работают 580 пляжей, а для страны, в экономике которой туризм играет важнейшую роль, экологические стандарты давно стали конкурентным преимуществом.

Особенно это заметно на побережьях Эгейского и Средиземного морей. В последние годы здесь активно модернизируют инфраструктуру, развивают общественные пляжи и внедряют современные экологические практики. Одним из новых обладателей сертификата стал общественный пляж Бодрум Тюркбюкю, где бесплатный доступ сочетается с высоким уровнем сервиса и безопасности.

Yana bir jahon yetakchisi – Turkiya. Joriy yilda bu yerda «Blue Flag» belgisi ostida 580 ta plyaj faoliyat yuritmoqda. Iqtisodiyotida turizm eng muhim o'rin tutadigan mamlakat uchun ekologik standartlar allaqachon raqobatdosh ustunlikka aylanib ulgurgan.

Bu holat, ayniqsa, Egey va O'rta yer dengizi sohillarida yaqqol ko'zga tashlanadi. So'nggi yillarda bu yerda infratuzilma faol modernizatsiya qilinmoqda, jamoat plyajlari rivojlantirilib, zamonaviy ekologik amaliyotlar joriy etilmoqda. Sertifikatning yangi sohiblaridan biri Bodrum Turkbuku jamoat plyaji bo'ldi, unda bepul kirish imkoniyati yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish va xavfsizlik bilan uyg'unlashgan.

CENTRUM HOLIDAYS
TAS ТАШКЕНТ
5 ч. 30 мин.
AYT АНТАЛЬЯ
от 6 млн сумов

Греция уже несколько лет подряд входит в число мировых лидеров программы. На страну приходится около 14 процентов всех пляжей Blue Flag в мире, а настоящим чемпионом остаётся Крит, где сертификат имеют более полутора сотен пляжей.

Родос, Корфу, Лесбос, Ионические острова и прибрежные районы материковой части страны ежегодно подтверждают высокий уровень качества воды. Возможно, такое отношение к побережью связано ещё и с тем, что море здесь всегда было частью национальной идентичности. Из более чем пятисот видов рыб Средиземного моря около семидесяти встречаются исключительно у берегов Греции.




Gretsiya bir necha yildan buyon dasturning jahon yetakchilari qatoridan joy olib kelmoqda. Dunyodagi «Blue Flag»ga ega barcha sohillarning qariyb 14 foizi aynan shu mamlakat hissasiga to‘g‘ri keladi. Yuz ellikdan ortiq plyaji mazkur sertifikatga ega bo‘lgan Krit esa haqiqiy chempion bo‘lib qolmoqda.

Rodos, Korfu, Lesbos, Ioniya orollari va mamlakatning materik qismidagi qirg‘oq bo‘yi hududlari har yili suv sifatining yuqori darajasini tasdiqlab kelmoqda. Balki, sohillarga bo‘lgan bunday munosabat bu yerda dengizning doimo milliy o‘zlikning bir qismi bo‘lib kelgani bilan ham bog‘liqdir. O‘rta yer dengizidagi besh yuzdan ortiq baliq turidan yetmishga yaqini faqat Gretsiya qirg‘oqlarida uchraydi.










На Ближнем Востоке одним из лидеров программы остаются Объединённые Арабские Эмираты. Особое внимание развитию пляжной инфраструктуры уделяет Дубай, где расположены одни из самых известных пляжей региона – от Jebel Ali до Palm Jumeirah и Dubai Islands. Государство ежегодно инвестирует миллионы долларов в развитие общественных пляжей, стремясь сделать отдых у моря комфортным, безопасным и доступным как для жителей, так и для туристов. Сегодня протяжённость благоустроенных общественных пляжей города исчисляется десятками километров и продолжает расти.

Yaqin Sharqda Birlashgan Arab Amirliklari dasturning yetakchilaridan biri bo‘lib qolmoqda. Dubayda plyaj infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda, zero, Jebel Alidan tortib Palm Jumeirah va Dubai Islandsgacha bo’lgan mintaqadagi eng mashhur plyajlar aynan shu yerda joylashgan. Davlat har yili jamoat plyajlarini rivojlantirishga millionlab dollar sarmoya kiritib, dengiz bo‘yidagi hordiqni ham aholi, ham sayyohlar uchun qulay, xavfsiz va oson qilishga intilmoqda. Bugungi kunda shahardagi obodonlashtirilgan jamoat plyajlarining uzunligi o‘nlab kilometrni tashkil etadi va bu ko‘rsatkich o‘sishda davom etmoqda.


РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ
4 ч. 05 мин.
DXB ДУБАЙ
от 1,7 млн сумов






Израиль демонстрирует другой подход к развитию программы, делая ставку не только на инфраструктуру, но и общественное участие в экологических инициативах. Все 13 пляжей Тель-Авива отмечены сертификатом Blue Flag, что делает город одним из наиболее успешных примеров внедрения международных стандартов на Средиземном море. За поддержанием качества здесь следят не только муниципальные власти, но и независимые экологические организации, учёные и волонтёрские движения, для которых сохранение морской среды является частью городской культуры.

Isroil dasturni rivojlantirishda boshqacha yondashuvni namoyish etib, bunda nafaqat infratuzilmaga, balki ekologik tashabbuslarda jamoatchilik ishtirokiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Tel-Avivning barcha 13 ta plyaji «Blue Flag» sertifikati bilan taqdirlangan, bu esa shaharni O'rta yer dengizida xalqaro standartlarni joriy etishning eng muvaffaqiyatli namunalaridan biriga aylantiradi. Bu yerda sifatni saqlashni nafaqat shahar hokimiyati, balki dengiz muhitini asrashni shahar madaniyatining bir qismi deb biladigan olimlar, mustaqil ekologik tashkilotlar va ko'ngillilar harakatlari ham nazorat qilib boradi.



РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

TAS ТАШКЕНТ — 4 ч. 55 мин. — TLV ТЕЛЬ-АВИВ

от 3,5 млн сумов





В Азии лидером по количеству сертифицированных пляжей остаётся Индия. Многие из них расположены в штате Керала – регионе, который ещё со времён Васко да Гамы считается одним из главных морских ворот Индийского океана.

Керала привлекает путешественников не только пляжами, но и богатой природой. Здесь можно наблюдать десятки видов птиц – от ярких попугаев до изящных цапель и нектарниц, что делает отдых у моря частью большого знакомства с местной экосистемой.

Osiyoda sertifikatlangan plyajlar soni bo'yicha Hindiston yetakchilik qilib kelmoqda. Ularning aksariyati Vasko da Gama davridan beri Hind okeanining asosiy dengiz darvozalaridan biri sanaladigan Kerala shtatida joylashgan.

Kerala sayohatchilarni nafaqat plyajlari, balki boy tabiati bilan ham o'ziga jalb etadi. Bu yerda rang-barang to'tiqushlardan tortib, nafis qarqaralar-u nektarxo'rlargacha bo'lgan o'nlab qush turlarini kuzatish mumkin. Bu esa dengiz bo'yidagi hordiqni mahalliy ekotizim bilan yaqindan tanishishning bir qismiga aylantiradi.



РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ

TAS ТАШКЕНТ — 2 ч. 40 мин. — DEL ДЕЛИ

от 1,3 млн сумов



Курорты Южной Кореи тоже регулярно попадают в международные рейтинги качества. Один из самых известных примеров – пляж Синджи Мёнсасимни в уезде Вандо, расположенном примерно в пяти часах езды от Сеула. Он не только получил сертификат Blue Flag, но и вошёл в число лучших пляжей мира по версии ряда международных туристических рейтингов.

Janubiy Koreya kurortlari ham muntazam ravishda xalqaro sifat reytinglaridan o'rin olib kelmoqda. Eng mashhur namunalardan biri – Seuldan taxminan besh soatlik yo'l masofasida joylashgan Vando okrugidagi Sinji Myonsasimni plyaji. U nafaqat «Blue Flag» sertifikatini olgan, balki qator xalqaro sayyohlik reytinglariga ko'ra dunyoning eng yaxshi plyajlari ro'yxatiga ham kiritilgan.

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ
6 ч. 35 мин.
ICN ИНЧХОН
от 2,9 млн сумов








### О ЧЁМ СТОИТ ПОМНИТЬ?

Даже наличие Blue Flag не гарантирует идеальные условия круглый год. На состояние воды влияют погода, сезонность, дожди и штормы, которые могут приносить к берегу водоросли, медуз, мусор и древесные обломки. Кроме того, сертификат присуждается на определённый сезон и требует регулярного подтверждения.

Важно помнить и о том, что Blue Flag оценивает экологию, безопасность и качество инфраструктуры, но не всегда подходит для оценки семейного отдыха. Если вы путешествуете с детьми, дополнительно стоит обратить внимание на глубину воды, удобство захода в море, наличие навесов, понтонов и игровых зон.

### КАК ПОМОЧЬ ЛЮБИМОМУ ПЛЯЖУ СТАТЬ ЛУЧШЕ?

За чистотой воды, безопасностью и состоянием побережья стоят не только муниципальные службы и экологические организации, но и сами путешественники. Какими бы строгими ни были международные стандарты, они возможны лишь там, где люди относятся к месту отдыха с уважением.

Правила просты: не оставляем после себя мусор, не отправляем его в плавание по морю, реке или озеру и бережно относимся к окружающей природе. Если вам понравился крабик или даже пустая ракушка – полюбуйтесь ими издалека, ведь даже самая маленькая рыбка является частью большой экосистемы. Удивительно, но в среднем один рак-отшельник меняет до двадцати раковин за жизнь, поэтому то, что кажется безобидным сувениром, может оказаться важной частью природного мира.

В конечном счёте Blue Flag – это не только сертификат качества, но и напоминание о том, что чистые пляжи начинаются с простых решений каждого из нас.

### NIMALARNI YODDA TUTISH LOZIM?

Hatto «Blue Flag» ham yil davomida ideal sharoitlar bo'lishini kafolatlay olmaydi. Suvning holatiga ob-havo, mavsum, yomg'ir va sohilga suv o'tlari, meduzalar, chiqindilar va yog'och parchalarini olib kelishi mumkin bo'lgan bo'ronlar ta'sir qiladi. Bundan tashqari, sertifikat ma'lum bir mavsum uchun beriladi va muntazam ravishda qayta tasdiqlanishni talab qiladi.

Shuni ham yodda tutish muhimki, «Blue Flag» ekologiya, xavfsizlik va infratuzilma sifatini baholaydi, biroq oilaviy hordiq uchun har doim ham mos kelavermaydi. Agar bolalar bilan sayohat qilayotgan bo'lsangiz, qo'shimcha ravishda suvning chuqurligi, dengizga tushish qulayligi, soyabonlar, pontonlar va o'yin maydonchalari bor-yo'qligiga e'tibor bering.

### SEVIMLI PLYAJINGIZNI QANDAY YAXSHILASH MUMKIN?

Suvning tiniqligi, xavfsizlik va qirg'oqning holati uchun nafaqat munitsipal xizmatlar va ekologik tashkilotlar, balki sayohatchilarning o'zlari ham mas'uldir. Xalqaro standartlar qanchalik qat'iy bo'lmasin, ular faqat odamlar dam olish maskaniga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan joylardagina amal qiladi.

Qoidalar oddiy: o'zimizdan keyin chiqindi qoldirmaymiz, uni dengiz, daryo yoki ko'lga oqizmaymiz va atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lamiz. Agar sizga biror qisqichbaqa yoki hatto bo'sh chig'anoq yoqib qolsa ham, ulardan uzoqdan turib zavqlaning, zero eng kichik baliq ham katta ekotizimning bir bo'lagi hisoblanadi. Ajablanarlisi shundaki, bir darvesh qisqichbaqa umri davomida o'rtacha yigirmatagacha chig'anoqni almashtirar ekan. Shu sababli, sizga arzimas esdalikdek tuyulgan narsa tabiat olamining muhim bir qismi bo'lib chiqishi mumkin.

Pirovardida, «Blue Flag» – nafaqat sifat sertifikati, balki toza plyajlar har birimizning oddiy qarorlarimizdan boshlanishini eslatib turuvchi bir yodnoma.






**Анара Жумаш,**
**сооснователь ioka travel**

*Задолго до появления аэропортов, поездов и цифровых карт именно вода определяла, где пройдет дорога, остановится караван и появится город. Для Центральной Азии эта связь особенно очевидна: здесь реки, озёра, источники и оазисы веками были инфраструктурой движения.*

## ВОДА – ПРИЧИНА ОТПРАВИТЬСЯ В ПУТЬ

Сегодня вода по-прежнему выбирает маршруты, только теперь мы едем к ней не потому, что без неё невозможно продолжить путь, а потому, что она сама становится причиной путешествия. Для региона, который чаще ассоциируется с горами, степями и пустынями, эта водная география особенно любопытна.

**Anara Jumash,**
**ioka travel hammuassisi**

*Aeroportlar, poyezdlar va raqamli xaritalar paydo bo‘lishidan ancha avval yo‘lning qayerdan o‘tishi, karvonning qayerda to‘xtashi va shaharning qayerda bunyod etilishini aynan suv belgilab bergan. Markaziy Osiyoda mazkur bog‘liqlik ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi: bu yerda daryolar, ko‘llar, buloqlar va vohalar asrlar davomida harakat infratuzilmasi bo‘lib xizmat qilgan.*

## SUV – SAFARGA OTLANISH UCHUN GO‘ZAL BAHONA

Bugun ham suv harakat yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Faqat endi biz uning oldiga usiz yo‘lni davom ettirish imkonsiz bo‘lgani uchun emas, balki suvning o‘zi sayohatga sabab bo‘lgani bois boramiz. Joylashuvi ko‘proq tog‘lar, dashtlar va sahrolar bilan bog‘liq bo‘lgan mintaqa uchun bu suvli geografiya ayniqsa qiziqarlidir.



В Узбекистане это хорошо чувствуется на Айдаркуле. После дороги через Кызылкум кажется, будто большое водное пространство возникло буквально из ниоткуда. Попав сюда, хочется задержаться у берега, переночевать в юрте и позволить себе замедлиться. Совсем другой характер у Чарвака, Угама и Пскема. Эти локации – олицетворение движения: отдыхая на Чарваке, можно покататься на катере или водном скутере, а горные реки Угам и Пскем открывают маршруты для сплавов.





O‘zbekistonda Aydarko‘l misolida yaqqol his etish mumkin. Qizilqum bo‘ylab bosib o’tilgan yo‘ldan so‘ng kutilmaganda qarshingizda ulkan suv havzasi paydo bo‘ladi. Bu yerga kelib qolsangiz, qirg‘oqda bir oz to‘xtab, o‘tovda tunab qolgingiz, shoshilmay, osuda hordiq chiqargingiz keladi. Chorvoq, Ugom va Piskomning tabiati esa butunlay o‘zgacha. Bu manzillar – harakat timsoli: Chorvoqda dam olib, kater yoki suv skuterida uchish mumkin, Ugom va Piskom tog‘ daryolari esa oqim bilan qayiqda suzish uchun ajoyib yo‘nalishlarni taqdim etadi.

Кыргызстан открывается с другой стороны. Иссык-Куль – тот редкий случай, когда озеро становится центром всей поездки, вокруг него строятся дни, остановки и планы. А Сон-Куль словно просит сделать обратное – отказаться от плотного расписания. Высота, юрты, пастбища и тишина делают воду частью огромного пространства, а не отдельной достопримечательностью.





Qirg‘iziston esa sayyohlar uchun mutlaqo boshqa qirrasi bilan namoyon bo‘ladi. Issiqko‘l – butun sayohatning asosiy o‘zagiga aylanadigan, kunlik reja, to‘xtash joylari va maqsadlar aynan uning atrofida tuziladigan noyob maskandir. So‘nko‘l esa, aksincha, tig‘iz jadvaldan voz kechishga undayotgandek tuyuladi. Balandlik, o‘tovlar, yaylovlar va sokinlik suvni alohida diqqatga sazovor joy emas, balki bepoyon kenglikning bir bo‘lagiga aylantiradi.

В Казахстане вода встречается с величественными горами. Посещение Большого Алматинского озера, Кольсая или Каинды – это захватывающее приключение, каждый миг которого дарит ощущение высоты и простора. Алаколь и Балхаш задают иной ритм: здесь пространство раскрывается бесконечным горизонтом, а отдых подчинён неспешному курортному течению.





Qozog‘istonda suv ulug‘vor tog‘lar bilan tutashadi. Katta Olmaota ko’li, Ko‘lsoy yoki Qayindi ko‘llariga sayohat – har lahzasi yuksaklik va kenglik hissini baxsh etuvchi hayajonli sarguzashtdir. Olako‘l va Balxash esa butunlay o‘zgacha ohang baxsh etadi: bu yerda bepoyonlik cheksiz ufq bilan ochiladi, hordiq esa shoshilmasdan kechadigan kurort oqimiga.

В Таджикистане вода также оживает среди высокогорных пиков. Искандеркуль и Семь озер – цели для вдумчивого созерцания. А дорога к ним становится частью путешествия, в процессе которого можно наблюдать, как водоемы и скалы меняют свои оттенки вместе с высотой, погодой и светом.

Центральная Азия предлагает самые разные сценарии отдыха у воды. Где-то водоёмы становятся центрами активной курортной жизни, где-то – единственными оазисами посреди пустыни, а местами – долгожданной наградой после сложного горного маршрута.





Tojikistonda ham suv baland tog‘ cho‘qqilari orasida jonlanadi. Iskandarko‘l va Yetti ko‘l – tafakkur bilan mushohada qilish uchun ayni muddao joylar. Ularga olib  boradigan yo‘l esa sayohatning bir qismiga aylanadi, bu jarayonda suv havzalari va qoyalarning balandlik, ob-havo va yorug‘likka qarab o‘z tusini qanday o‘zgartirishini kuzatish mumkin.

Markaziy Osiyo suv bo‘yida hordiq chiqarishning turfa xil usullarini taklif etadi. Qayerdadir suv havzalari jonli kurort hayotining markaziga aylansa, qayerdadir cho‘l o‘rtasidagi yagona vohaga, ba’zan esa murakkab tog‘ yo‘nalishidan so‘ng uzoq kutilgan mukofotga aylanadi.





## КАК УВИДЕТЬ БОЛЬШЕ

Путешествие к воде – повод приостановиться. В суете мы часто воспринимаем красивые места как фон для фотографий, забывая, что любой ландшафт – это живая система: со своим ритмом, хрупкой природой и людьми, для которых этот берег – не локация, а дом.

Настоящие открытия начинаются там, где заканчивается спешка. Выбрать одну дорогу и позволить себе пройти её до конца: задержаться у воды, почувствовать вкус местной кухни, поговорить с теми, кто называет этот край своим домом, и увидеть его не через объектив, а собственными глазами.

Так поездка становится больше, чем просто сменой декораций. Она превращается в настоящее событие – с неожиданными встречами, живыми историями и открытиями, которые не найдёшь в путеводителях. Потому что за знакомыми пейзажами всегда скрывается нечто большее, стоит лишь остановиться и присмотреться.

## ВЫБИРАТЬ – ТОЖЕ ЧАСТЬ ПУТЕШЕСТВИЯ

Вода веками помогала человеку задавать направление. Сегодня она по-прежнему делает это, только теперь мы можем выбирать не просто точку на карте, а то, каким будет само путешествие.

В **ioka travel** мы помогаем сделать путь проще – найти подходящий маршрут, оформить билет и не тратить лишнее время там, где его может сберечь сервис.

## IOKA. ИССЛЕДУЕМ МИР ВМЕСТЕ!

На ioka.uz мы собрали ещё больше водных маршрутов по Узбекистану, Казахстану, Кыргызстану и Таджикистану с подробностями: что посмотреть, в какой сезон лучше ехать и как удобнее добраться.

## YANADA KO‘PROQ NARSANI KO‘RISH UCHUN

Suv bo‘yiga sayohat – bir zum to‘xtab, nafas rostlash uchun imkon. Shoshqaloqlik bilan go‘zal maskanlarga ko‘pincha suratga tushadigan fon sifatida qaraymiz-u, har qanday landshaft o‘zining maromi, nozik tabiati va bu sohilni shunchaki manzil emas, o‘z uyi deb biladigan insonlari bo’lgan jonli tizim ekanini unutib qo‘yamiz.

Haqiqiy kashfiyotlar shoshqaloqlik tugagan joyda boshlanadi. Bir yo‘lni tanlab, uni oxirigacha bosib o‘tishga imkon berish: suv bo‘yida uzoqroq qolish, mahalliy taomlar lazzatidan bahramand bo‘lish, bu o‘lkani o‘z uyi deb bilgan insonlar bilan suhbatlashish va uni obyektiv orqali emas, o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rish demakdir.

Shu tariqa sayohat oddiy manzil almashtirishdan ko‘ra muhimroq narsaga aylanadi. U kutilmagan uchrashuvlar, hayotiy hikoyalar va yo‘lko‘rsatkichlarda topilmaydigan kashfiyotlarga boy haqiqiy sarguzasht bo‘ladi. Zero, tanish manzaralar ortida doim ulkanroq narsa yashirin bo‘ladi, buning uchun shunchaki to‘xtab, sinchiklab nazar solish kifoya.

## TANLOV HAM – SAYOHATNING BIR QISMI

Asrlar davomida suv insoniyatga harakat yo‘nalishini belgilashda ko‘maklashib kelgan. Bugun ham u o‘z vazifasini ado etmoqda, faqat endi biz nafaqat xaritadagi manzilni, balki sayohatning o‘zi qanday kechishini ham tanlay olamiz.

**ioka travel**’da biz safaringizni osonlashtirishga – sizga mos yo‘nalishni topish, chiptani rasmiylashtirish va xizmatimiz yordamida tejalishi mumkin bo‘lgan vaqtingizni behuda sarflamaslikka yordam beramiz.

## IOKA. DUNYONI BIRGALIKDA KASHF ETAMIZ!

ioka.uz veb-saytida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston bo‘ylab yanada ko‘proq suv yo‘nalishlarini jamladik. Bu yerlardagi qaysi manzillarni tomosha qilish, sayohat uchun qaysi mavsum ma’qulligi va u yerga qulay tarzda yetib olish haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Наведите камеру на QR-код, если у вас есть доступ к интернету. Если читаете журнал в полёте – сфотографируйте QR-код или добавьте в закладки сайт ioka.uz. После приземления откройте раздел «Блог», где мы собрали подробные маршруты и практические гайды для поездки.

Internetingiz bo‘lsa, kamerani QR-kodga yo‘naltiring. Agar jurnalni parvoz paytida o‘qiyotgan bo‘lsangiz, QR-kodni suratga oling yoki ioka.uz veb-saytini saqlab qo‘ying. Parvozdan so‘ng veb-saytimizdagi sayohat uchun yo‘nalishlar haqida batafsil ma’lumotlar va amaliy qo‘llanmalar jamlangan «Blog» bo‘limini  oching.

CENTRUMAIR

# #SAVECHARVAQ: CHORVOQNI QANDAY SAQLAB QOLISH VA BUGUNDAN BOSHLAB NIMALARGA ULGURISH MUMKIN...

## #SAVECHARVAQ: КАК СОХРАНИТЬ ЧАРВАК И ЧТО МОЖНО СДЕЛАТЬ УЖЕ СЕГОДНЯ

Дискуссия вокруг Чарвакского водохранилища вспыхнула с новой силой после новостей о застройке побережья. Но, по словам экологических активистов, это лишь одна из угроз. Неменьший вред водохранилищу наносят мусор, отсутствие инфраструктуры и привычка воспринимать природу как место, за которое не нужно нести ответственность. Мы поговорили с автором канала ZBS и инициатором проекта #SaveCharvaq Вадимом Иваньковым о том, почему Чарвак нуждается не только в защите, но и изменении отношения к нему, и что каждый может сделать уже сейчас.

Chorvoq suv ombori qirg‘og‘ida qurilish ishlari boshlangani haqidagi xabarlardan so‘ng, uning atrofidagi bahs-munozaralar yangidan avj oldi. Biroq eko-faollarning so‘zlariga ko‘ra, bu mavjud tahdidlardan faqat bittasi, xolos. Suv omboriga bundan kam bo‘lmagan ziyonni chiqindilar, infratuzilmaning yo‘qligi va tabiatga mas’uliyatsiz yondashish odati ham yetkazmoqda. Biz ZBS kanali muallifi va #SaveCharvaq loyihasi tashabbuskori Vadim Ivankov bilan mazkur maskan nega nafaqat himoyaga, balki unga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga ham muhtojligi hamda bu borada har birimiz hozirdanoq qanday hissa qo‘sha olishimiz haqida suhbatlashdik.





### ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЙ СТАТУС ВОДОХРАНИЛИЩА

С 2017 года территория Чарвакского водохранилища считалась «свободной туристической зоной» – здесь планировали развивать гостиницы, оздоровительные комплексы и другую туристическую инфраструктуру. Однако уже в 2020 году концепция радикально изменилась: поступило предложение создать на Чарваке неприкосновенную санитарную зону с серьёзными ограничениями для отдыхающих, включая запрет общественных пляжей, моторных лодок и ряда других видов деятельности.

«Особой санитарной зоной» Чарвак так и не стал – законопроект принят не был. При этом важно помнить, что водохранилище выполняет не только рекреационную функцию. Это искусственно созданный водоем который по сей день остаётся одним из ключевых источников питьевой воды для Ташкента и прилегающих районов, а по прогнозам Министерства водного хозяйства, к 2030 году дефицит воды в стране может достигнуть 7 млрд кубометров.

Помимо обеспечения населения питьевой водой, водохранилище используется для орошения сельскохозяйственных земель и работы гидроэлектростанций. Также во время сильных осадков оно помогает сдерживать избыточные объёмы воды, снижая риск паводков и селевых потоков.

### ЧТО СЕГОДНЯ ПРОИСХОДИТ С ЧАРВАКОМ

Проблема мусора на берегах Чарвака настолько заметна, что государственные органы проводят рейды по выявлению несанкционированных свалок. Во время одного из таких рейдов всего за три дня специалисты зафиксировали 102 случая незаконного размещения отходов, а также несколько десятков нарушений, связанных с загрязнением воздуха.

На проблему обращают внимание и сами отдыхающие, публикуя в социальных сетях фотографии и видео с замусоренными берегами. На побережье работает множество платных пляжей, однако, судя по отзывам отдыхающих, уборка и на их территории проводится нерегулярно.






### SUV OMBORINING HUQUQIY MAQOMI

2017-yildan boshlab Chorvoq suv ombori hududi «erkin turistik hudud» hisoblanib, bu yerda mehmonxonalar, sog‘lomlashtirish majmualari va boshqa sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish rejalashtirilgan edi. Biroq 2020-yilga kelib konsepsiya tubdan o‘zgardi: Chorvoqda dam oluvchilar uchun jiddiy cheklovlar qo‘yilgan, jumladan, jamoat plyajlari, motorli qayiqlar va boshqa bir qator faoliyat turlarini taqiqlashni ko‘zda tutuvchi daxlsiz sanitariya hududini tashkil etish taklifi ilgari surildi.

Chorvoq «maxsus sanitariya hududi»ga aylanmadi – qonun loyihasi qabul qilinmadi. Shu bilan birga, suv ombori faqatgina rekreatsion (dam olish) vazifasini bajarmasligini yodda tutish muhim. Bu sun’iy yaratilgan suv havzasi bugungi kunda ham Toshkent shahri hamda unga tutash tumanlar uchun asosiy ichimlik suvi manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Suv xo‘jaligi vazirligining prognozlariga ko‘ra esa, 2030-yilga borib mamlakatda suv taqchilligi 7 milliard kubometrga yetishi mumkin.

Suv omboridan aholini ichimlik suvi bilan ta’minlashdan tashqari, qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish hamda gidroelektrstansiyalar faoliyati yo‘lida ham foydalaniladi. Shuningdek, u kuchli yog‘ingarchilik paytida ortiqcha suv hajmini ushlab qolishga yordam berib, suv toshqinlari hamda sel oqimlari xavfini kamaytiradi.

### BUGUN CHORVOQDA NIMALAR SODIR BO‘LYAPTI?

Chorvoq qirg‘oqlaridagi chiqindi muammosi shu qadar sezilarliki, davlat idoralari tomonidan ruxsatsiz axlatxonalarni aniqlash bo‘yicha reydlar o‘tkazilyapti. Shunday reydlardan birida mutaxassislar atigi uch kun ichida chiqindilarni noqonuniy joylashtirish bo‘yicha 102 ta holatni, shuningdek, havoning ifloslanishi bilan bog‘liq bir necha o‘nlab qoidabuzarliklarni qayd etdi.

Dam oluvchilarning o‘zlari ham bu muammoga e’tibor qaratib, ijtimoiy tarmoqlarda chiqindilarga to‘lib ketgan sohillarning surat va videolarini joylashtirishmoqda. Sohil bo‘yida pullik plyajlar ko‘p, biroq dam oluvchilarning fikricha, ularning hududida ham tozalash ishlari muntazam o‘tkazilmaydi.




**ОТ ДОКУМЕНТАЛЬНОГО ФИЛЬМА ДО ВСТРЕЧИ С СОВЕТНИКОМ ПРЕЗИДЕНТА**

О том, как можно помочь Чарваку, мы поговорили с **Вадимом Иваньковым** – автором канала ZBS и инициатором проекта #SaveCharvak. Для него Чарвакское водохранилище – не просто источник питьевой воды и не только памятник природы, а место с богатым историко-культурным наследием, где сохранились памятники, возраст которых насчитывает не одну сотню лет.

**— В видео говорится о 150 археологических памятниках, которые оказались на дне Чарвакского водохранилища. Есть ли сегодня возможность исследовать их или эта часть наследия утрачена безвозвратно? И что вообще известно о том что находится на дне Чарвака?**

— Инициатива SaveCharvak началась с документального фильма, проводником по истории края в нём стал выдающийся учёный Борис Голендер. Его уже нет с нами, но он помог нам понять: Чарвак – не просто водохранилище, его сокровища можно сравнить с теми, что мы находим в давно затонувших городах.

Живое доказательство этому факту – знаменитые петроглифы в Ходжикенте у вековых чинар, расположенных на территории ресторана Cinara's. Они чудом остались на берегу. Если на суше сохранились такие уникальные следы прошлого, только представьте, сколько скрыто под водой! Перед заполнением водохранилища в 1960-х годах археологи успели описать более 150 подобных памятников, находившихся в чаше Чарвака, – от стоянок эпохи палеолита до средневековых городищ.


**HUJJATLI FILMDAN TORTIB PREZIDENT MASLAHATCHISI BILAN UCHRASHUVGACHA**

Biz ZBS kanali muallifi va #SaveCharvak loyihasi tashabbuskori **Vadim Ivankov** bilan Chorvoqqa qanday yordam berish mumkinligi haqida suhbatlashdik. Ushbu faol uchun Chorvoq suv ombori shunchaki ichimlik suvi manbai yoki tabiat yodgorligi emas. Bu – bir necha yuz yillik tarixga ega obidalar saqlanib qolgan boy tarixiy-madaniy merosga ega maskan.

**— Videoda Chorvoq suv ombori tubida qolib ketgan 150 ta arxeologik yodgorlik haqida so‘z yuritiladi. Bugun ularni o‘rganish imkoniyati bormi yoki merosimizning bu qismi qaytarib bo‘lmas darajada yo‘qolganmi? Umuman, Chorvoq tubida nimalar borligi haqida qanday ma’lumotlar bor?**


— Savecharvak tashabbusi hujjatli filmdan boshlangan bo‘lib, unda taniqli olim Boris Golender o‘lka tarixi bo‘yicha yo‘lboshchi bo‘ldi. Garchi u kishi hozir oramizda bo‘lmasa-da, uning ovozi bizga bir haqiqatni anglashga yordam berdi: Chorvoq shunchaki suv ombori emas, uning xazinalarini qadimda suv ostida qolgan shaharlardagi topilmalarga qiyoslash mumkin.

Buning yorqin isboti barchaning ko‘z o‘ngida – Xo‘jakentdagi Cinara’s restorani hududida joylashgan ko‘hna chinorlar yonidagi mashhur petrogliflar. Ularning qirg‘oqda saqlanib qolgani mo‘jiza. Agar quruqlikda o‘tmishning bunday noyob izlari qolgan ekan, suv ostida yana qanchasi yashirin ekanini bir tasavvur qiling! 1960-yillarda suv ombori to‘ldirilishidan avval arxeologlar Chorvoq soyligida joylashgan paleolit davri manzilgohlaridan tortib o‘rta asr shahristonlarigacha bo’lgan 150 dan ortiq shunday yodgorlikni qayd etishga ulgurishgan.









**— Как вы считаете, можно ли найти баланс между необходимостью «осваивать» Чарвак в том числе через строительство и тем, что регион уже сильно пострадал от строек?**

— Баланс возможен только при жёстком контроле и правильной расстановке приоритетов. Мы не можем и не должны полностью останавливать развитие инфраструктуры. Жителям местных кишлаков – Якатута, Богустана, Сиджака, Наная – нужны рабочие места, хорошие дороги, современные коммуникации.

Строительство новых заводов и туристических комплексов даёт им работу, и это, безусловно, позитивный сдвиг. Однако развитие должно быть продуманным и экологичным – нельзя строить что-либо без учёта потребностей граждан и экологических норм, нарушения которых повлекут за собой огромные последствия.

Каждое новое здание должно возводиться с оглядкой на рельеф, обязательным наличием современных очистных сооружений и сохранением природного ландшафта. Развитие и экология должны идти рука об руку, а не противоречить друг другу.

**— Когда говорят о проблемах Чарвака, внимание обычно сосредоточено на строительстве. Какие угрозы для водохранилища сегодня кажутся вам не менее серьёзными, но остаются в тени общественной дискуссии?**

— Чарвак – это живой организм. Горы вокруг него состоят из древнего известняка, который работает как гигантский природный фильтр, делая воду чистой и целебной. Не менее серьезную угрозу, чем застройка, представляют тонны строительного и бытового мусора на берегах. Одной лишь застройкой воду не погубить, гораздо опаснее общее равнодушие. Нам критически не хватает элементарных урн и развития инфраструктуры, но главное – пора менять потребительское отношение к этому месту. Пока мы не уберем этот «мусор в головах» и не начнем беречь Чарвак, никакие запреты не помогут.

**— Fikringizcha, Chorvoqni, jumladan, qurilishlar orqali «o‘zlashtirish» zarurati bilan hududning allaqachon qurilishlardan jiddiy jabr ko‘rgani o‘rtasida muvozanat topish mumkinmi?**

— Muvozanatga faqat qat’iy nazorat va ustuvor vazifalarni to‘g‘ri belgilash orqaligina erishish mumkin. Biz infratuzilma rivojini butunlay to‘xtata olmaymiz va to‘xtatmasligimiz ham kerak. Yoqotut, Bog‘iston, Sijjak, Nanay kabi mahalliy qishloqlar aholisiga ish o‘rinlari, yaxshi yo‘llar, zamonaviy kommunikatsiyalar zarur.

Yangi zavodlar va turistik majmualarning qurilishi ularni mana shunday ish bilan ta’minlaydi va bu, shubhasiz, ijobiy o‘zgarishdir. Biroq rivojlanish puxta o‘ylangan va ekologik toza bo‘lishi zarur – fuqarolarning ehtiyojlari va buzilishi ortidan juda katta oqibatlarni olib keladigan ekologik me’yorlarni hisobga olmasdan turib biror narsa qurish mutlaqo mumkin emas.

Har bir yangi bino relyefni hisobga olgan holda, zamonaviy oqova suvlarni tozalash inshootlarini majburiy ravishda qurish va tabiiy landshaftni saqlab qolish sharti bilan qad ko‘tarishi lozim. Taraqqiyot va ekologiya bir-biriga zid kelmasdan, aksincha, hamnafas rivojlanishi kerak.

**— Chorvoq muammolari haqida gap ketganda, odatda, asosiy e’tibor qurilishlarga qaratiladi. Sizningcha, bugungi kunda jamoatchilik muhokamasi soyasida qolib ketayotgan, ammo suv ombori uchun mavjud bo’lgan yana qanday jiddiy tahdidlar bor?**

— Chorvoq – bu tirik organizm. Uni o‘rab turgan tog‘lar qadimiy ohaktoshdan tarkib topgan bo‘lib, ulkan tabiiy filtr vazifasini bajaradi va suvni toza hamda shifobaxsh qiladi. Sohillardagi tonnalab qurilish va maishiy chiqindilar ham qurilishlardan kam bo‘lmagan jiddiy xavf tug‘diradi. Suvni yolg‘iz qurilishlarning o‘zi bilan nobud qilib bo‘lmaydi, umumiy befarqlik undan-da xavfliroq. Bizga oddiy chiqindi qutilari va infratuzilma rivoji juda yetishmayapti, lekin eng asosiysi – bu joyga bo‘lgan iste’molchilik munosabatini o‘zgartirish vaqti keldi. Toki biz bu «boshimizdagi chiqindilarni» tozalab, Chorvoqni asray boshlamas ekanmiz, hech qanday taqiqlar yordam bera olmaydi.






**— Если проблема не только в нехватке инфраструктуры, но и в отношении людей, то с чего, на ваш взгляд, должны начинаться изменения? Что поможет сформировать культуру бережного отдыха на Чарваке?**

— Сформировать такую культуру практически с нуля – задача масштабная. Чтобы вернуть побережью его первозданный вид, нужны не только правильные слова, но и современная эко-инфраструктура и сильные медиапроекты. А чтобы добиться этого, нужно начать работать прямо сейчас.

Именно поэтому инициатива SaveCharvak открыта к долгосрочному партнёрству с брендами и компаниями. Для бизнеса это возможность внести реальный вклад в спасение Чарвака, поддержать важную экологическую инициативу и получить колоссальный репутационный капитал.

**— Agar muammo faqat infratuzilma yetishmasligida emas, balki odamlarning munosabatida ham bo‘lsa, u holda, sizningcha, o‘zgarishlar nimadan boshlanishi kerak? Chorvoqda oqilona dam olish madaniyatini shakllantirishga nima yordam beradi?**

– Bunday madaniyatni deyarli noldan shakllantirish – keng ko‘lamli vazifa. Sohilga o‘zining asl qiyofasini qaytarish uchun nafaqat to‘g‘ri so‘zlar, balki zamonaviy ekoinfratuzilma va kuchli medialoyihalar ham zarur. Bunga erishish uchun esa ishni hozirdanoq boshlash lozim.

Aynan shu sababli Savecharvak tashabbusi brendlar va kompaniyalar bilan uzoq muddatli hamkorlik qilishga tayyor. Biznes uchun bu – Chorvoqni asrab qolishga real hissa qo‘shish, muhim ekologik tashabbusni qo‘llab-quvvatlash va ulkan obro‘-e’tibor qozonish imkoniyatidir.



**— В чем важность восприятия для Ташкента и всего региона Чарвака не только как места отдыха, но и части большой экосистемы?**

— Потому что Чарвак – это главный донор жизни для всей Ташкентской оазисной зоны. Сюда впадают чистейшие горные реки: Чаткал, Коксу, Пскем, Чимгансай. Их воды питают Ташкентскую долину и сам город Ташкент. Пожалуй, ни один город в Узбекистане не обладает таким фантастическим богатством чистой питьевой воды.

Если мы продолжим относиться к Чарваку как к гигантской столичной даче или бассейну, где можно просто развлечься и оставить после себя гору пластика, то рискуем остаться без одного из важнейших природных ресурсов страны.

Мы не планируем останавливаться на разовых акциях и уже сделали первый важный шаг: запустили сайт savecharvak.uz. На нем работает интерактивная карта Чарвакского водохранилища, которую разделили на 14 зон. Именно здесь мы будем регулярно публиковать детальные отчеты в формате «до и после», чтобы каждый мог наглядно увидеть результаты нашей работы и реальные изменения на побережье.

**— Почему именно Чарвак стал темой для документального фильма? В какой момент вы поняли, что об этой истории нужно рассказывать широкой аудитории?**

— Идея вызревала давно, но переломным моментом стало осознание важного контраста. Мы привыкли видеть парадный, глянцевый Чарвак из окон зон отдыха. Но когда ты начинаешь общаться с местными жителями, погружаться в архивы, узнаёшь о затопленных памятниках, переселении кишлаков и хрупкости существующего здесь природного баланса, картинка меняется.

**— Nima uchun Toshkent va butun mintaqa Chorvoqni shunchaki dam olish maskani emas, balki katta ekotizimning bir qismi sifatida qabul qilishi muhim?**

Chunki Chorvoq – butun Toshkent vohasining asosiy hayot manbai. Bu yerga eng sof tog‘ daryolari – Chotqol, Ko‘ksuv, Pskom va Chimyonsoy kelib quyiladi. Ularning suvi Toshkent vodiysi va Toshkent shahrini obihayot bilan ta’minlaydi. Ehtimol, O‘zbekistondagi birorta ham shahar bunday ajoyib va toza ichimlik suvi boyligiga ega emasdir.

Agar Chorvoqqa shunchaki hordiq chiqarib, bir to‘da plastik chiqindi qoldirsa bo‘ladigan ulkan dala hovli yoki hovuz deb qarashda davom etsak, mamlakatning eng muhim tabiiy boyliklaridan biridan ayrilib qolishimiz xavfi bor.

Biz bir martalik aksiyalar bilangina cheklanib qolmoqchi emasmiz va bu borada ilk muhim qadamni tashladik: savecharvak.uz veb-saytini ishga tushirdik. Ushbu veb-saytda biz 14 ta hududga ajratgan Chorvoq suv omborining interaktiv xaritasi mavjud. Aynan unda har bir inson faoliyatimiz natijalari va sohilbo‘yidagi haqiqiy o‘zgarishlarni yaqqol ko‘rishi uchun «avval va keyin» formatidagi batafsil hisobotlarni muntazam e’lon qilib boramiz.

**— Nega hujjatli film uchun aynan Chorvoq mavzu qilib olindi? Qaysi pallada bu voqeani keng ommaga so‘zlab berish kerakligini angladingiz?**

— G‘oya allaqachon pishib yetilgan, lekin muhim bir ziddiyatni anglab yetish burilish nuqtasi bo‘ldi. Biz dam olish maskanlari derazalaridan ko‘rinadigan hashamatli, jiloli Chorvoqqa o‘rganib qolganmiz. Ammo mahalliy aholi bilan muloqot qilganingizda, arxivlarga sho‘ng‘iganingizda, suv ostida qolgan yodgorliklar, ko‘chirilgan qishloqlar va bu tabiiy muvozanatning naqadar mo‘rtligi haqida bilganingizda, tasavvuringiz butunlay o‘zgaradi.

Мы поняли, что у Чарвака есть свой голос, который почти никто не слышит. Захотелось сорвать этот глянцевый слой и показать глубокую историю места, призвать людей к осознанности.

Во время работы над фильмом больше всего нас удивил масштаб человеческих судеб, скрытых за этим инженерным чудом. После съёмок отношение кардинально изменилось. Раньше Чарвак казался просто красивой локацией для отдыха на выходных. Теперь мы понимаем, что это живой организм, который нуждается в защите, и приезжать туда просто как потребители больше не должны.

**— Сняв фильм о Чарваке, вы пошли дальше и даже записали песню Save Charvak. Почему вам показалось важным говорить об этой теме не только языком документального кино, но и через музыку?**

— Документальное кино – прекрасный и глубокий инструмент, но у него своя, довольно ограниченная аудитория. Музыка же обладает уникальной способностью пробивать любые барьеры и находить отклик в сердцах. Этот трек – своеобразный манифест, эмоциональный триггер, который легко подхватить, поделиться им в соцсетях, включить в машине по дороге на тот же Чарвак. Это еще один способ сделать экологическую повестку живой, ритмичной и близкой каждому.

**— Какой отклик вы получили на инициативу SaveCharvak? Удалось ли привлечь к проблеме новую аудиторию, которая раньше не интересовалась экологической повесткой?**

— Отклик превзошёл наши ожидания. К инициативе стали подключаться разные люди: молодёжь, блогеры, предприниматели, музыканты. Формат продвижения через творчество, визуал и музыку сработал идеально. Мы смогли доказать, что заботиться о природе – это круто и современно.

Biz Chorvoqning o‘ziga xos, ammo deyarli hech kim eshitmaydigan sadosi borligini angladik. Bu jiloli pardani olib tashlab, maskanning teran tarixini ko‘rsatishni, odamlarni esa onglilikka da’vat etishni istadik.

Film ustida ishlash davomida bu muhandislik mo‘jizasi ortida yashirinib yotgan insoniy taqdirlarning miqyosi bizni hammadan ko‘ra ko‘proq hayratga soldi. Suratga olish ishlaridan so‘ng munosabatimiz tubdan o‘zgardi. Ilgari Chorvoq shunchaki dam olish kunlari boriladigan go‘zal maskan bo‘lib tuyulardi. Hozir esa biz uning himoyaga muhtoj tirik organizm ekanini tushunib yetdik va u yerga endi shunchaki iste’molchi sifatida bormasligimiz kerak.

**— Chorvoq haqidagi filmdan so‘ng siz yanada oldinga qadam tashlab, hatto «Save Charvak» qo‘shig‘ini ham yozdingiz. Nima uchun bu mavzuda nafaqat hujjatli kino tilida, balki musiqa orqali ham gapirishni muhim deb bildingiz?**

– Hujjatli kino – ajoyib va teran vosita, biroq uning o‘z tomoshabini bor. Musiqa esa har qanday to‘siqlarni yengib o‘tish va qalblardan joy olishdek noyob xususiyatga ega. Bu trek – o‘ziga xos bir manifest, his-tuyg‘ularni junbishga keltiruvchi turtki bo‘lib, uni tezda ilg‘ab olish, ijtimoiy tarmoqlarda bo‘lishish, o‘sha mashhur Chorvoqqa ketayotib mashinada eshitish mumkin. Bu ekologik muammolarni jonli, maroqli va har bir insonga yaqinroq qilishning yana bir usulidir.

**— «Save Charvak» tashabbusi qanday kutib olindi? Bungacha ekologik masalalarga qiziqmagan yangi auditoriyani ushbu muammoga jalb qila oldingizmi?**

– Natija biz kutgandan ham a’lo bo‘ldi. Tashabbusimizga turli kishilar: yoshlar, blogerlar, tadbirkorlar va musiqachilar qo‘shila boshladi. Ijodkorlik, vizual materiallar va musiqa orqali targ‘ib qilish usuli a’lo samara berdi. Biz tabiatga g‘amxo‘rlik qilish bu – zo‘r va zamonaviy ekanini isbotlay oldik.





Моральная поддержка и вовлечённость людей вдохновили нас ещё больше. Однако когда дело доходит до реализации больших инфраструктурных идей, одной энергии волонтёров уже недостаточно – здесь необходима поддержка со стороны бизнеса и государства. К примеру, хокимият Бостанлыкского района уже поддержал инициативу на этапе её презентации. Очень рассчитываем, что этот диалог постепенно перейдёт в практическую плоскость. Со своей стороны мы открыты к взаимодействию с государственными структурами, бизнесом и всеми организациями, которым небезразлично будущее Чарвака.

Самым важным витком в развитии проекта на сегодняшний день стала встреча с Азизом Абдухакимовым – советником Президента Республики Узбекистан по вопросам экологии и председателем Национального комитета по экологии и изменению климата. Наша команда презентовала свою инициативу и получила мощную поддержку: Азиз Абдукахарович отметил, что ведомство бросает все силы на спасение Чарвака, а наш проект видит одним из рычагов решения этой проблемы. Итогом встречи стало решение объединить усилия в медиапространстве: мы хотим разработать масштабный брендинг и контент-план на ближайшие три года.

Очистить берег – значит устранить симптомы, тогда как нужно вылечить саму причину. Поэтому наш главный приоритет – формирование экологической культуры и бережного отношения к природе через просвещение и вовлечение людей.

Мы планируем рассказывать о проблеме Чарвака современным, творческим языком, хотим менять привычки людей через собственный блог, музыку и видеоконтент. Нам важно сформировать у людей простое понимание: природа Чарвака – это не бесконечный бесплатный аттракцион, а ценнейший ресурс, который необходимо беречь. И говорить об этом мы хотим современно и открыто.

Odamlarning ma’naviy madadi va faolligi bizga yanada ilhom bag‘ishladi. Biroq gap yirik infratuzilmaviy g‘oyalarni amalga oshirish haqida ketganda, birgina ko‘ngillilar g‘ayratining o‘zi kifoya qilmaydi – bu o‘rinda biznes va davlat ko‘magi zarur. Masalan, Bo‘stonliq tumani hokimligi tashabbusni uning taqdimoti bosqichidayoq qo‘llab-quvvatladi. Ushbu muloqot asta-sekin amaliy bosqichga o‘tishiga juda umidvormiz. O‘z navbatida, biz Chorvoq kelajagiga befarq bo‘lmagan davlat idoralari, biznes va barcha tashkilotlar bilan hamkorlikka ochiqmiz.

Bugungi kunga kelib, loyihamiz rivojlanishidagi eng muhim burilish nuqtasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv bo‘ldi. Jamoamiz o‘z tashabbusini taqdim etib, kuchli qo‘llab-quvvatlandi: Aziz Abduqahhorovich idora Chorvoqni saqlab qolish uchun bor kuchini safarbar etishini, bizning loyihamizni esa ushbu muammo yechimining dastaklaridan biri sifatida ko‘rayotganini ta’kidladi. Uchrashuv yakunida mediamakondagi sa’y-harakatlarni birlashtirishga qaror qilindi: biz keng qamrovli brending va yaqin uch yil uchun kontent-reja ishlab chiqmoqchimiz.

Sohilni tozalash – kasallik alomatlarini yo‘qotish demakdir, vaholanki, uning asl sababini davolash kerak. Shu bois, bizning asosiy ustuvor vazifamiz – ma’rifat va odamlarni jalb qilish orqali ekologik madaniyatni hamda tabiatga e’tiborli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Biz Chorvoq muammosi haqida zamonaviy va ijodiy tilda so‘zlashni rejalashtirib, odamlarning odatlarini o‘z blogimiz, musiqamiz va video kontentimiz orqali o‘zgartirmoqchimiz. Biz uchun odamlarda Chorvoq tabiati – tuganmas bepul attraksion emas, balki asrab-avaylanishi zarur bo‘lgan bebaho tabiiy boylik degan oddiy bir tushunchani shakllantirish muhim. Bu haqda zamonaviy hamda ochiq-oydin gapirishni istaymiz.




**— Расскажите подробнее о команде проекта. Кто помогает в осуществлении задуманного?**

— Команда ZBS состоит из единомышленников, где каждый горит общим делом. Это талантливые звукорежиссёры, блогеры, артисты, музыканты и видеографы. В частности, авторами гимна стали финалист программы «Голос» (Россия) Хэнсли и популярный блогер Радмир. Также хочу отметить лицо и амбассадора инициативы Мадину Шадиеву и нашего видеографа Сардора Юсупова. Большую поддержку проекту на разных этапах оказали коллеги из агентства GRANDPR. То есть проект создается благодаря синергии творческих людей, бизнеса, готового помогать правильным инициативам, и неравнодушных активистов, которые вкладывают своё время и душу без какой-либо коммерческой выгоды.

**— Loyiha jamoasi haqida batafsilroq so‘zlab bersangiz. Rejadagi ishlarni amalga oshirishda kimlar yordam beryapti?**

— ZBS jamoasi umumiy g‘oya bilan yonib yashaydigan hamfikrlardan iborat. Ular iqtidorli ovoz rejissyorlari, blogerlar, san’atkorlar, musiqachilar va videograflardir. Xususan, madhiya mualliflari – «Golos» (Rossiya) dasturi finalchisi Xensli hamda mashhur bloger Radmir. Shuningdek, tashabbusning yuzi va ambassadori Madina Shodiyeva hamda videografimiz Sardor Yusupovni alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman. Loyihaning turli bosqichlarida GRANDPR agentligidagi hamkasblarimiz ham katta yordam ko‘rsatishdi. Ya’ni, loyiha ijodkorlar, ezgu tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga tayyor biznes vakillari hamda hech qanday moddiy manfaatni ko‘zlamay, o‘z vaqti va mehrini ayamaydigan jonkuyar faollarning hamjihatligi tufayli yaratilmoqda.




**— Если представить, что через десять лет ситуация вокруг водохранилища существенно улучшилась, какие изменения вы хотели бы увидеть в первую очередь?**

— Хотелось бы увидеть Чарвак, где проблема с отходами полностью решена благодаря современной системе их сбора и переработки, а побережье свободно от бытового и строительного мусора. Место, где все туристические объекты гармонично вписаны в ландшафт и используют зелёную энергию. Но в первую очередь, конечно, – чистую и прозрачную воду, обустроенные экотропы для туристов и счастливых местных жителей, которые гордятся своим краем и берегут его. Хотелось бы, чтобы Чарвак стал символом нового Узбекистана, где прогресс уважает природу.

Для меня лично Чарвак – это прежде всего место силы. Сюда приезжаешь, чтобы просто выдохнуть, отключиться от городского шума и побыть наедине с природой. Здесь особенный воздух и энергетика: достаточно провести всего пару часов, чтобы полностью перезагрузиться, отдохнуть и душой, и телом. Это место буквально заряжает новой энергией и именно поэтому хочется сделать все возможное, чтобы сохранить его чистым и живым.

**— Если бы у вас была возможность обратиться ко всем, кто приезжает на Чарвак отдохнуть, что бы вы им сказали?**

— Отвечу на этот вопрос словами выдающегося, ныне покойного Бориса Голендера: «Берегите нашу драгоценную природу, потому что она и есть источник нашей жизни».

Чарвак всегда открыт и гостеприимен для каждого. Приезжайте и отдыхайте, но уходя, пожалуйста, забирайте с собой свой мусор. Не оставляйте его на берегу и обочинах. Давайте вместе беречь это место, чтобы сохранить его красоту для тех, кто придет после нас!

**— Agar o‘n yildan keyin suv ombori atrofidagi vaziyat sezilarli darajada yaxshilanganini tasavvur qilsak, birinchi navbatda qanday o‘zgarishlarni ko‘rishni istardingiz?**

— Chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlashning zamonaviy tizimi tufayli maishiy chiqitlar muammosi to‘liq hal etilgan, sohillari esa qurilish chiqindilaridan xoli bo‘lgan Chorvoqni ko‘rishni istardim. Barcha turistik obyektlar landshaftga uyg‘un tarzda joylashgan va yashil energiyadan foydalanadigan joyni. Lekin eng avvalo, albatta, toza va musaffo suvni, sayyohlar uchun obod eko-so‘qmoqlarni hamda o‘z yurtidan faxrlanib, uni asrab-avaylaydigan baxtiyor mahalliy aholini ko‘rishni xohlardim. Chorvoq – taraqqiyot tabiat bilan hamnafas bo‘lgan yangi O‘zbekiston ramziga aylansa edi.

Shaxsan menga Chorvoq – avvalo, quvvat manbai, bir taskin maskani. Bu yerga shunchaki nafas rostlangani, shahar shovqinidan uzilib, tabiat bilan yolg‘iz qolgani kelasan kishi. Bu yerning havosi ham, ruhiyati ham o‘zgacha: atigi bir necha soatning o‘zida ham ruhan, ham jismonan tetiklashib, butunlay hordiq chiqarish mumkin. Bu joy insonga chin ma’noda yangi kuch bag‘ishlaydi. Aynan shuning uchun ham uni boricha – toza va jonli saqlab qolish yo‘lida qo‘ldan kelganini qilging keladi.

**— Chorvoqqa dam olishga kelayotganlarning barchasiga murojaat qilish imkoni tug‘ilganda, ularga nima degan bo‘lardingiz?**

— Bu savolga marhum, atoqli siymo Boris Golenderning so‘zlari bilan javob bergim keladi: «Bebaho tabiatimizni asrang, zero u hayotimiz manbaidir».

Chorvoq doimo barcha uchun ochiq va mehmondo‘stdir. Bu yerga kelib hordiq chiqaring. Ammo ketayotganda, iltimos, o‘z chiqindilaringizni olib keting. Uni sohil va yo‘l yoqalarida qoldirmang. Keling, bu go‘shani birgalikda asraylik va uning go‘zalligini bizdan keyingilar uchun saqlab qolaylik.




# «HAYOT FOUNDATION»: O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY MAS’ULIYATNING YANGI MADANIYATI

## HAYOT FOUNDATION: НОВАЯ КУЛЬТУРА СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Качество жизни невозможно изменить усилиями одной организации. Именно поэтому HAYOT Foundation – первая в Узбекистане CSR-платформа – объединяет бизнес, государство и общество вокруг проектов с долгосрочным общественным эффектом.

Безопасная дорога в школу, доступ к чистой воде, возможность учиться, говорить на родном языке и приобщаться к культуре – всё это кажется естественной частью жизни, пока однажды не становится недоступным. Именно тогда приходит понимание, что качество жизни складывается из множества взаимосвязанных вещей, а решать их по отдельности невозможно. На этом понимании строится работа HAYOT Foundation. Как CSR-платформа ННО «Национальный центр поддержки и развития инициатив „Ренессанс“», фонд выстраивает сотрудничество между бизнесом, государством и обществом для реализации социально значимых проектов с долгосрочным результатом. В основе такого партнерства лежит принцип корпоративной социальной ответственности – осознанного участия бизнеса в решении значимых для общества задач.

Hayot sifatini birgina tashkilotning sa’y-harakatlari bilan o‘zgartirib bo‘lmaydi. Shu bois ham, O‘zbekistondagi ilk CSR-platforma hisoblangan «HAYOT Foundation» uzoq muddatli ijtimoiy samara beruvchi loyihalar atrofida biznes, davlat va jamiyatni birlashtirmoqda.

Maktab sari xavfsiz yo‘l, toza ichimlik suvi, ta’lim olish, ona tilida so‘zlashish va madaniyatdan bahramand bo‘lish imkoniyati – bularning barchasi to imkonsiz bo‘lib qolmaguncha, hayotning ajralmas qismi bo‘lib tuyuladi. Faqat o‘shandagina hayot sifati ko‘plab o‘zaro bog‘liq jihatlardan tashkil topishi va ularni alohida-alohida hal qilib bo‘lmasligi ayon bo‘ladi. «HAYOT Foundation» faoliyati ham mazkur tushunchaga asoslanadi. «Renessans» tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish milliy markazi» NNTning CSR-platformasi bo‘lgan ushbu jamg‘arma uzoq muddatli ijtimoiy samara beruvchi loyihalar atrofida biznes, davlat va jamiyatni birlashtiradi. Bunday hamkorlik zamirida korporativ ijtimoiy mas’uliyat, ya’ni biznesning jamiyat hayoti uchun muhim vazifalarni hal etishda ongli ravishda ishtirok etish tamoyili yotadi.





*«Men uchun “HAYOT Foundation” – bu ijtimoiy mas’uliyat mavhum g‘oya bo‘lishdan to‘xtab, amaliy harakatga aylanadigan muhit. Bu muammo va uning yechimi o‘rtasida masofa emas, balki birgalikda bosib o‘tiladigan yo‘l paydo bo‘ladigan joydir»,* – «Renessans» tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish milliy markazi NTT boshqaruvi raisi Kamoliddin Beknazarov.

«HAYOT Foundation» ni birinchilardan bo‘lib «Gross» sug‘urta kompaniyasi qo‘llab-quvvatladi. Bu platforma uchun juda muhim, zero bunday ko‘mak ijtimoiy mas’uliyatni jamiyat uchun ahamiyatli o‘zgarishlarda real ishtirok etish sifatida chuqur anglashni ifodalaydi.

### G‘OYADAN HARAKAT SARI

«HAYOT Foundation» – hududlarning ehtiyojlarini o‘rganib, yechimlar izlaydigan, davlat tashkilotlari va biznes bilan hamkorlik o‘rnatadigan hamda loyihalarni barcha bosqichlarda qo‘llab-quvvatlaydigan jamoa.

*«Biz uchun ezgu g‘oyalar shunchaki muhokamalar darajasida qolib ketmasligi muhim. Jamoaning vazifasi – muammoni aniqlashdan tortib, odamlar foydasini chinakam his etadigan aniq yechim topilgunga qadar bo‘lgan butun yo‘lni bosib o‘tishdir»,* – deya ta’kidlaydi Kamoliddin Beknazarov.

Shu sababli ham platforma faoliyatining zamirida hamkorlik yotadi. Biznes, davlat tuzilmalari va jamiyat o‘z resurslari hamda ekspertiza imkoniyatlarini birlashtirganda, muammo va uning yechimi o‘rtasidagi masofa haqiqatan ham qisqaradi.




*«Для меня HAYOT Foundation – это пространство, где социальная ответственность перестаёт быть абстрактной идеей и становится действием. Когда между проблемой и её решением появляется не дистанция, а путь, который можно пройти вместе»,* – говорит Председатель правления ННО «Национальный центр поддержки и развития инициатив "Ренессанс"» Камолиддин Бекназаров.

Одной из первых HAYOT Foundation поддержала страховая компания Gross. Для платформы это особенно важно, потому что такая поддержка отражает глубокое понимание социальной ответственности как реального участия в значимых для общества изменениях.

### ОТ ИДЕИ – К ДЕЙСТВИЮ

HAYOT Foundation – это команда, которая изучает потребности регионов, ищет решения, выстраивает взаимодействие с государственными организациями и бизнесом и сопровождает проекты на всех этапах.

*«Для нас важно, чтобы хорошие идеи не оставались только в формате обсуждений. Задача команды – пройти весь путь от выявления проблемы до конкретного решения, пользу которого действительно почувствуют люди»,* – отмечает Камолиддин Бекназаров.

Именно поэтому в основе работы платформы лежит партнёрство. Когда бизнес, государственные структуры и общество объединяют ресурсы и экспертизу, расстояние между проблемой и её решением действительно становится короче.

## ТРИ НАПРАВЛЕНИЯ ОДНОЙ СИСТЕМЫ

Работа HAYOT Foundation развивается в рамках трёх направлений: Inson Hayoti, связанного с безопасностью, здоровьем, образованием и качеством жизни; Tabiat Hayoti, посвящённого природе, воде и экологическому просвещению; и Madaniy Hayot, охватывающего культуру, язык, искусство, литературу и образование. На первый взгляд эти направления могут показаться разными, но в центре каждого из них находится человек.

## ВОДА КАК ЧАСТЬ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ

Одно из важнейших направлений HAYOT Foundation связано с доступом к чистой питьевой воде. Для платформы вода – это не просто природный ресурс. Это здоровье, гигиена, устойчивость, спокойствие семьи и качество среды, в которой развиваются дети.

*«Я вырос в Карши и с детства хорошо помню, какое значение вода имеет в повседневной жизни. Такой опыт остаётся с человеком надолго и помогает по-другому чувствовать ценность самых базовых вещей»,* – говорит Камолиддин Бекназаров.

Особое внимание команда уделяет учреждениям Чимбайского района Республики Каракалпакстан. Одним из следующих практических этапов работы в этом направлении станет передача водовоза. Данная инициатива служит продолжением общего подхода HAYOT Foundation, объединяя партнёров вокруг решений, которые помогают формированию более устойчивого и комфортного уровня жизни в регионах.

Для HAYOT Foundation вода – это не только вопрос качества жизни, но и образ, в котором соединяются память, природа, дом и будущее. Именно поэтому тема воды звучит в проектах платформы по-разному – через практические инициативы, культуру и творчество.

## BIR TIZIMNING UCH YO‘NALISHI

«HAYOT Foundation» faoliyati uch yo‘nalishda: xavfsizlik, salomatlik, ta’lim va hayot sifatiga oid «Inson Hayoti»; tabiat, suv va ekologik ma’rifatga bag‘ishlangan «Tabiat Hayoti» hamda madaniyat, til, san’at, adabiyot va ta’limni qamrab olgan «Madaniy Hayot» yo‘nalishlari doirasida rivojlanmoqda. Bir qarashda bu yo‘nalishlar turlicha tuyulishi mumkin, biroq ularning har birining markazida inson turadi.

## SUV – HAYOT SIFATINING BIR BO‘LAGI

«HAYOT Foundation» faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishi toza ichimlik suvi ta’minoti bilan bog‘liq. Platforma uchun suv shunchaki tabiiy resurs emas. Bu – salomatlik, gigiyena, barqarorlik, oila xotirjamligi va bolalar kamol topadigan muhit sifati.

*«Men Qarshida o‘sib-ulg‘ayganman va bolaligimdan suvning kundalik hayotda qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini juda yaxshi bilaman. Bunday tajriba inson xotirasida uzoq saqlanib qoladi va eng oddiy narsalarning qadrini boshqacha his etishga ko‘maklashadi»,* – deydi Kamoliddin Beknazarov.

Jamoa Qoraqalpog‘iston Respublikasining Chimboy tumanidagi muassasalarga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu boradagi amaliy bosqichlardan biri maxsus suv tashish mashinasini topshirish bo‘ladi. Mazkur tashabbus «HAYOT Foundation»ning umumiy yondashuvini davom ettirgan holda, hamkorlarni hududlarda yanada barqaror va qulay hayot darajasini shakllantirishga yordam beradigan yechimlar atrofida birlashtiradi.

«HAYOT Foundation» uchun suv nafaqat hayot sifati masalasi, balki xotira, tabiat, uy va kelajakni o‘zida mujassam etgan timsoldir. Shu bois ham suv mavzusi platforma loyihalarida turli yo‘nalishlarda – amaliy tashabbuslar, madaniyat va ijod orqali aks etadi.






Одним из таких примеров стала творческая коллаборация с Saya Musa и командой Abstract – клип SUV, в котором вода раскрывается как символ жизни, хрупкости природы и связи человека с окружающим миром. Так социальная тема получает не только практическое, но и культурное измерение, а разговор о важном становится более тонким, эмоциональным и близким.

Ключевым принципом HAYOT Foundation является то, что общественно значимые инициативы должны не только решать конкретные задачи, но и находить живой язык, который способен по-настоящему откликаться людям.

Saya Musa va «Abstract» jamoasi bilan ijodiy hamkorlikda yaratilgan «SUV» klipi shunday misollardan biri bo‘ldi. Unda suv – hayot, tabiatning mo‘rtligi hamda insonning atrof-muhit bilan uzviy bog‘liqligi timsoli sifatida ochib beriladi. Shu tariqa, ijtimoiy mavzu nafaqat amaliy, balki madaniy ahamiyat ham kasb etib, muhim masalalar haqidagi suhbat yanada teran, hissiyotlarga boy va samimiy tus oladi.

«HAYOT Foundation» uchun bu prinsipial ahamiyatga ega: ijtimoiy muhim tashabbuslar nafaqat aniq vazifalarni hal qilishi, balki odamlar qalbida haqiqatda aks sado bera oladigan jonli tilni ham topishi lozim.

**«HAYOT FOUNDATION»NING HAR BIR LOYIHASI ZAMIRIDA NAFAQAT HUJJATLAR VA RAQAMLAR, BALKI HUDUDLARGA SAFARLAR, UCHRASHUVLAR, MUZOKARALAR, YECHIMLAR IZLASH HAMDA MUAYYAN VAZIFAGA QANCHA KERAK BO‘LSA, SHUNCHA QAYTISHGA TAYYORLIK MUHITI TURADI.**

ЗА КАЖДЫМ ПРОЕКТОМ HAYOT FOUNDATION СТОЯТ НЕ ТОЛЬКО ДОКУМЕНТЫ И ЦИФРЫ, НО И ПОЕЗДКИ В РЕГИОНЫ, ВСТРЕЧИ, ПЕРЕГОВОРЫ, ПОИСК РЕШЕНИЙ И ГОТОВНОСТЬ ВОЗВРАЩАТЬСЯ К ЗАДАЧЕ СТОЛЬКО РАЗ, СКОЛЬКО ПОТРЕБУЕТСЯ.

## КОГДА ОДИН ШАГ МЕНЯЕТ ЖИЗНЬ

Девиз HAYOT Foundation – «Шаг к добру». В нём отражена философия команды: большие изменения начинаются с одного конкретного действия. Иногда таким шагом становится школьный автобус, иногда – водовоз, а иногда – культурный или образовательный проект, который открывает людям новые возможности. Именно из таких шагов складываются долгосрочные изменения, способные сделать жизнь людей лучше.

## BIRGINA QADAM HAYOTNI O‘ZGARTIRGANDA

«HAYOT Foundation» jamg‘armasining shiori – «Yaxshilik sari qadam». Unda butun jamoa falsafasi o‘z aksini topgan: ulkan o‘zgarishlar bitta aniq harakatdan boshlanadi. Ba’zan bu tashabbus maktab avtobusi bo‘lsa, ba’zan suv tashuvchi mashina, ba’zan esa odamlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochadigan madaniy yoki ta’lim loyihasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Aynan mana shunday harakatlar tufayli odamlar hayotini yaxshilashga qodir bo‘lgan uzoq muddatli o‘zgarishlar yuzaga keladi.




# DANIL KIM: «HAR BIR YIRIK LOYIHA ORTIDA DOIMO JAMOA TURADI»

## ДАНИЛ КИМ: «ЗА КАЖДЫМ БОЛЬШИМ ПРОЕКТОМ ВСЕГДА СТОИТ КОМАНДА»





Фестиваль в пустыне, ферма, городское кафе, креативный хаб и проекты, связанные с экологией, на первый взгляд сложно объединить в одну историю. Но для него все они – части одной истории: создавать пространства, где люди встречаются, обмениваются опытом и вместе запускают что-то новое. О том, как идея превращается в реальные проекты, зачем бизнесу выходить за рамки своей непосредственной функции и какую пользу он может приносить людям и месту, узнал Гио Кардава у предпринимателя и продюсера Данила Ким.

**— Данил, вы не публичный человек. Это хитро продуманный маркетинговый ход или так комфортнее?**

— Просто не люблю всю эту историю ещё с тех времён, когда занимался кинопроизводством. Я был связан с этой сферой около восьми лет и понимал, что для того, чтобы быть медийным, нужно уделять этому очень много времени, а мне интереснее посвящать его проектам.

**— Вы из Казахстана. Как оказались в Узбекистане и почему решили не продолжать бизнес на родине?**

— Я достаточно долго жил и работал в Казахстане, и в какой-то момент мне захотелось нового развития – попробовать себя в других средах, исследовать новые рынки, получить иной опыт и не ограничиваться одной площадкой.

Я не считаю, что для развития обязательно нужно менять страну, наоборот, развиваться можно где угодно. Но для меня путешествия и смена локаций всегда были важной частью этого процесса. Новая среда позволяет по-другому смотреть на привычные вещи, знакомиться с новыми людьми, получать новые впечатления и идеи. В определённый момент это становится дополнительным стимулом двигаться дальше, создавать что-то новое и не останавливаться.

**— Расскажете о вашем опыте в кинопроизводстве?**

— Я пришёл в кинопроизводство через съёмку рекламы. В этой сфере проработал порядка восьми лет. Мы сотрудничали с крупными международными и локальными компаниями, в том числе европейскими, украинскими, российскими и казахстанскими партнёрами. Большая часть деятельности была связана с производством рекламных и документальных проектов, в том числе социальных историй. Мы много ездили по Казахстану, снимали в разных регионах и локациях, многие из которых тогда были практически неизвестны широкой аудитории и недоступны для обычного туристического потока.

В этом была ещё одна важная составляющая нашей работы – мы фактически показывали Казахстан международной аудитории через кино и визуальные истории. Некоторые места, которые мы тогда открывали для съёмок, сегодня стали достаточно известными туристическими направлениями. Поэтому в определённой степени это было связано и с развитием туристического потенциала Алматинской области и Казахстана в целом. И это был большой международный опыт, связанный не только непосредственно с производством, но и организацией сложных съёмок, экспедиций, логистики и работы больших команд.

А потом, наверное, моё время в этой сфере просто закончилось. Вообще, стараюсь не задерживаться в проектах дольше трёх лет, если говорить об интенсивной операционной работе. Дальше, если проект уже хорошо работает, участвую скорее на уровне стратегии – даю советы, подсказываю направления развития, но уже не занимаюсь операционкой.

С продакшном так не получалось, поэтому появилась идея собрать команду, которая могла бы быть полностью самостоятельной. Со временем так и получилось, а люди продолжили развиваться уже в своих направлениях.

Bir qarashda sahrodagi festival, ferma, shahar qahvaxonasi, kreativ hab va ekologiya bilan bog‘liq loyihalarni yagona hikoyaga birlashtirish qiyindek tuyuladi. Biroq u inson ko‘z o‘ngida bularning barchasi bitta zanjirning bo‘laklaridir. Ya’ni, odamlar uchrashadigan, o‘zaro tajriba almashadigan va birgalikda qandaydir yangi tashabbuslarni hayotga tatbiq etadigan makonlar yaratish poydevoridir. Gio Kardava qanday qilib g‘oya haqiqiy loyihalarga aylanishi, nima uchun biznes o‘zining bevosita vazifalari doirasidan chetga chiqishi kerakligi, u odamlarga va hududga qanday foyda keltirishi mumkinligini tadbirkor va prodyuser Danil Kimdan batafsil bilib oldi.

**— Danil, siz unchalik ham ommada ko‘rinish beravermaysiz. Bu puxta o‘ylangan marketing yurishimi yoki sizga shunday qulayroqmi?**

– Shunchaki, kino ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan paytlarimdan beri bunday ishlarni yoqtirmayman. Bu soha bilan qariyb sakkiz yil bog‘liq bo‘lganman va mediada faol bo‘lish ko‘p kuch sarflashni talab etishini anglar edim, menga esa vaqtimni loyihalarga bag‘ishlash qiziqroq.

**— Siz Qozog‘istondansiz. O‘zbekistonga qanday kelib qoldingiz va nima uchun biznesni o‘z vataningizda davom ettirmaslikka qaror qildingiz?**

– Men Qozog‘istonda ancha uzoq vaqt yashab, ishladim va bir payt kelib yangicha yuksalish – o‘zimni boshqa muhitlarda sinab ko‘rish, o‘zga bozorlarni o‘rganish, o‘zgacha tajriba orttirish va bitta maydon bilan cheklanib qolmaslik istagi paydo bo‘ldi.

Men rivojlanish uchun albatta mamlakatni almashtirish shart deb hisoblamayman, aksincha, istalgan joyda muvaffaqiyatga erishish mumkin. Ammo men uchun sayohatlar va joylarni almashtirish doimo bu jarayonning muhim qismi bo‘lib kelgan. Yangi muhit odatiy narsalarga boshqacha nazar solish, yangi odamlar bilan tanishish, unutilmas taassurot va g‘oyalar olish imkonini beradi. Ma’lum bir vaqtga kelib, bu oldinga intilish, noodatiy loyihalar yaratish va to‘xtab qolmaslik uchun qo‘shimcha rag‘batga aylanadi.

**— Kino ishlab chiqarish sohasidagi tajribangiz haqida so‘zlab bersangiz.**

– Men kino sanoatiga reklama roliklarini suratga olish orqali kirib kelganman. Bu sohada qariyb sakkiz yil ishladim. Biz yirik xalqaro va mahalliy kompaniyalar, jumladan, yevropalik, ukrainalik, rossiyalik va qozog‘istonlik hamkorlar bilan ishladik. Faoliyatimizning katta qismi reklama va hujjatli loyihalar, jumladan, ijtimoiy mavzudagi hikoyalar yaratish bilan bog‘liq edi. Biz Qozog‘istonning ko‘plab hududlarini kezdik, aksariyati o‘sha paytda keng ommaga deyarli noma’lum va oddiy sayyohlar oqimi yetib borishi qiyin bo‘lgan manzillarda tasvirga oldik.

Faoliyatimizning yana bir muhim jihati shunda ediki, biz amalda Qozog‘istonni xalqaro auditoriyaga kino va vizual hikoyalar orqali namoyish etardik. O‘shanda biz suratga olish uchun kashf etgan ba’zi joylar bugungi kunda ancha mashhur sayyohlik yo‘nalishlariga aylangan. Shu bois, bu ma’lum darajada Olmaota viloyati va umuman mamlakatning turizm salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qildi. Bu nafaqat bevosita ishlab chiqarish, balki murakkab suratga olish jarayonlari, ekspeditsiyalar, logistika va yirik jamoalar ishini tashkil etish bilan bog‘liq ulkan xalqaro tajriba bo‘ldi.

НОВАЯ СРЕДА ПОЗВОЛЯЕТ ПО-ДРУГОМУ СМОТРЕТЬ НА ПРИВЫЧНЫЕ ВЕЩИ

YANGI MUHIT ODATIY NARSALARGA BOSHQACHA NAZAR SOLISH IMKONINI BERADI

**— Как вы оказались в Узбекистане?**

— В Узбекистан я приехал по приглашению знакомого, который занимался международной логистикой. Он предложил мне приехать по контракту на три месяца, чтобы открыть здесь дополнительный филиал компании, набрать команду и обучить сотрудников основным рабочим процессам. Одной из причин, почему меня пригласили, было то, что я знаю казахский и уйгурский языки, а также узбекский. Благодаря этому мне было проще ориентироваться на месте, общаться с людьми и выстраивать необходимые процессы.

Долго не думал – согласился, и уже через два дня был в Ташкенте. Открыл офис, набрал людей, настроил операционку. Так случился мой первый рабочий опыт в Узбекистане.

После этого я уехал в Тбилиси. Примерно через полгода снова приехал сюда, и мы открыли с ребятами бар «Слухи», впоследствии ставший Honey Murena, чтобы познакомиться с местной аудиторией – людьми, которым интересно что-то новое, которые понимают такой формат и готовы прийти в необычное место.

**— Как у вас сочетаются бизнес-администрирование, операционка и всё остальное? Как это всё между собой связано?**

— Наверное, всё это существует ради одной большой идеи. У меня, пожалуй, нет проектов, которые были бы абсолютно самостоятельными и существовали сами по себе, каждый ради своей отдельной цели. Все они в первую очередь про объединение людей, создание разных комьюнити, которые могут вместе взаимодействовать.

Неважно, это фестиваль «Стихия», Kosa Farm или работа в SEDA – Ассоциации социально-экономического развития, где я несколько лет был экспертом. Мы работали с регионами республики, и задача была создавать новые экономические модели их развития, которые строились вокруг трёх направлений: Creative, Eco и IT. Чтобы это развивать, нужны люди, которые мыслят креативно, а чтобы их находить, нужны пространства, где они могут собираться, знакомиться, общаться, формироваться как сообщество.

Все эти проекты нужны для того, чтобы познакомить человека с той или иной идеей – например, научить более бережно относиться к воде. Но это работает только тогда, когда человек сначала получает какой-то опыт. Условно говоря, увидел что-то интересное, попробовал, вдохновился, а потом, чтобы снова получить этот опыт, он уже должен соблюдать определённые правила.

Если их не соблюдаешь: бросаешь мусор где попало, не экономишь воду – извини, ты не наш человек. Если не ценишь креативный подход или делишь людей на «нормальных» и «странных», то это тоже, наверное, не то сообщество, за которым, как мне кажется, будущее.

Неважно, какой ты человек, чем занимаешься, где работаешь. Главное, чтобы ты ценил подходы других людей, если они, конечно, не переступают каких-то базовых норм.

ВСЕ ЭТИ ПРОЕКТЫ НУЖНЫ ДЛЯ ТОГО, ЧТОБЫ ПОЗНАКОМИТЬ ЧЕЛОВЕКА С ТОЙ ИЛИ ИНОЙ ИДЕЕЙ. НАПРИМЕР, НАУЧИТЬ БОЛЕЕ БЕРЕЖНО ОТНОСИТЬСЯ К ВОДЕ

BU LOYIHALARNING BARCHASI INSONNI QANDAYDIR G‘OYA BILAN TANISHTIRISHGA XIZMAT QILADI. MASALAN, SUVGA EHTIYOTKORROQ MUNOSABATDA BO‘LISHNI O‘RGATISH

Keyinchalik esa, ehtimol, mening ushbu sohadagi davrim shunchaki yakuniga yetdi. Umuman olganda, agar jadal operatsion faoliyat haqida gap ketadigan bo‘lsa, loyihalarda uch yildan ortiq qolib ketmaslikka harakat qilaman. Kelgusida, agar loyiha o‘z iziga tushib ketsa, ko‘proq strateg darajasida ishtirok etaman – maslahat beraman, rivojlanish yo‘nalishlarini ko‘rsataman, biroq kundalik jarayonlar bilan shug‘ullanmayman.

Prodakshn bilan bunday qilishning imkoni bo‘lmadi, shu sababli to‘liq mustaqil ishlay oladigan guruhni yig‘ish g‘oyasi tug‘ildi. Vaqt o‘tishi bilan jamoa mustaqillikka erishdi, insonlar esa allaqachon o‘z yo‘nalishlarida yuksalishda davom etdilar.

**— O‘zbekistonga qanday kelib qoldingiz?**

— O‘zbekistonga xalqaro logistika bilan shug‘ullanadigan tanishimning taklifiga binoan tashrif buyurganman. U menga bu yerda kompaniyaning qo‘shimcha filialini ochish, jamoa yig‘ish va xodimlarni asosiy ish tizimiga o‘rgatish uchun uch oylik shartnoma asosida kelishni taklif qildi. O‘zbek tili bilan birga qozoq va uyg‘ur tillarini ham bilishim meni taklif qilishlarining sabablaridan biridir. Buning sharofati bilan menga mahalliy sharoitga moslashish, odamlar bilan muloqot qilish va kerakli jarayonlarni yo‘lga qo‘yish osonroq kechdi. Uzoq o‘ylab o‘tirmadim – rozi bo‘ldim va ikki kundan so‘ng Toshkentda edim. Ofis ochdim, xodimlarni ishga oldim, operatsion jarayonlarni yo‘lga qo‘ydim. O‘zbekistondagi ilk ish tajribam shunday kechgan.

Shundan so‘ng Tbilisiga ketdim. Taxminan yarim yil o‘tgach, bu yerga yana tashrif buyurdim va yangilikka qiziquvchi, bunday formatni tushunadigan hamda noodatiy maskanlarga borishga tayyor bo‘lgan mahalliy auditoriya bilan yaqindan tanishish maqsadida, yigitlar bilan keyinchalik «Honey Murena»ga aylangan «Sluxi» barini ochdik.

**— Sizda biznes boshqaruvi, operatsion faoliyat va boshqa barcha jarayonlar qanday uyg‘unlashadi? Bularning o‘zaro bog‘liqligi nimada?**

— Chamasi, bularning barchasi bitta katta g‘oya tufayli mavjud bo‘lsa kerak. Men shakllantirgan tashabbuslar orasida mutlaqo ajralib turadigan, shunchaki o‘zining alohida vazifasi uchungina faoliyat yuritadiganlari deyarli yo‘q. Birinchi navbatda, ularning barchasi odamlarni birlashtirishga, o‘zaro hamkorlik qila oladigan turli hamjamiyatlarni yaratishga qaratilgan.

«Stixiya» festivali, «Kosa Farm» yoki men bir necha yil ekspert sifatida qatnashgan SEDA – Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish assotsiatsiyasidagi tajribam bo‘ladimi, buning ahamiyati yo‘q. Biz respublika hududlari bilan hamkorlik qilardik va vazifamiz ularning taraqqiyotini uchta – Creative, Eco va IT yo‘nalishlariga asoslangan yangi iqtisodiy modellarini yaratish edi. Ushbu tarmoqlarni yuksaltirishga kreativ fikrlaydigan odamlar kerak, ularni topish uchun esa ular yig‘ilishi, tanishishi, muloqot qilishi va hamjamiyat sifatida shakllanishi mumkin bo‘lgan manzillar zarur.

Bu loyihalarning barchasi insonni qandaydir g‘oya bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Masalan, suvga ehtiyotkorroq munosabatda bo‘lishni o‘rgatish. Ammo bu faqat u avval qandaydir tajriba orttirgandagina ish beradi. Shartli qilib aytganda, u qiziqarli narsani ko‘rdi, sinovdan o‘tkazdi, ilhomlandi va keyin bu tajribani yana his qilish uchun u ma’lum qoidalarga rioya qilishi shart bo‘ladi.

Agar ularga rioya qilmasang, chiqindilarni duch kelgan joyga tashlasang, suvni tejamasang – kechirasan, sen bizning odamimiz emassan. Agar ijodiy yondashuvni qadrlamasang yoki atrofdagilarni «normal» va «g‘alati» larga ajratsang, unda bu ham, menimcha, kelajagi bor hamjamiyat emas.

Qanday inson ekanliging, nima bilan shug‘ullanishing, qayerda ishlashing muhim emas. Asosiysi, boshqa odamlarning yondashuvlarini qadrlay bilishingdir, albatta, agar ular qandaydir asosiy me’yorlardan chetga chiqmasa.









**— А какое у вас образование?**

— По специальности я мастер сельскохозяйственного производства, а по большому счёту – фермер. Но заниматься этим начал только четыре года назад – в 35 лет.

Я родился в глубинке, в посёлке на границе с Китаем, а в 15 лет переехал в Алматы ради работы. Самым доступным делом тогда была торговля на рынке. У меня это хорошо получалось, поэтому впоследствии переквалифицировался в мерчендайзера, потом торгового представителя. Работал в разных компаниях и сферах. Вообще, продажи – это, наверное, самая большая часть моего профессионального опыта.

**— Получается, вы можете налаживать процессы в любой области?**

— Дело в том, что на самом деле процессы везде очень схожи: по сути, ты просто применяешь определённые логические подходы, однако не все понимают, к чему именно эти подходы применимы. Например, в HoReCa нельзя просто взять и перенести корпоративную структуру один в один. Здесь важно подобрать команду, понимать взаимодействие с комьюнити, учитывать сам формат места и поводы, по которым люди могут регулярно пересекаться.

**— Что объединяет все ваши проекты?**

— На первый взгляд они совсем разные: фестиваль в пустыне, городское кафе, ферма, креативный хаб, цифровая экосистема, но для меня всё это – части одной идеи, и даже тема вашего выпуска – $H_2O$ – это не просто вода. Это поток людей, идей и впечатлений, рождающий проекты и новые сообщества.

Наверное, поэтому мне никогда не было интересно просто открыть ещё одно кафе, ведь намного интереснее создавать места, куда люди захотят приехать специально для знакомств, разговоров, идей, творчества и поиска новых партнёрств.

При этом очень важно сказать одну вещь: я не верю в проекты, которые реализует один человек. За каждым большим проектом стоят десятки, а иногда и сотни людей. У каждого своя роль, свои компетенции и своя ответственность, именно это делает проект живым. Поэтому мне никогда не хочется говорить «я сделал» – правильнее сказать «мы сделали».

Во всех начинаниях рядом со мной была супруга Мария Китаева – маркетолог, креативный продюсер и мой самый близкий профессиональный партнёр. Мы вместе формировали идеи, обсуждали концепции, искали решения и развивали инициативы, каждая из которых была уникальной благодаря своим партнёрам и команде. Именно разнообразие взглядов и опыта позволяет создавать проекты, которые живут долго и продолжают развиваться.

Моя роль тоже была разной: где-то приходилось быть соавтором идеи, где-то исполнительным продюсером, где-то стратегическим руководителем, партнёром или креативным продюсером. Но суть работы всегда оставалась одной – объединять людей, помогать разным компетенциям работать вместе, видеть общую картину и создавать условия, в которых сильная команда может реализовать сильную идею.

**Я НЕ ВЕРЮ В ПРОЕКТЫ, КОТОРЫЕ РЕАЛИЗУЕТ ОДИН ЧЕЛОВЕК. ЗА КАЖДЫМ БОЛЬШИМ ПРОЕКТОМ СТОЯТ ДЕСЯТКИ, А ИНОГДА И СОТНИ ЛЮДЕЙ**

**MEN BIR KISHI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILADIGAN LOYIHALARGA ISHONMAYMAN. HAR BIR YIRIK LOYIHA ORTIDA O‘NLAB, BA’ZAN ESA YUZLAB ODAMLAR TURADI**





**— Ma’lumotingiz?**

– Mutaxassisligim bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish ustasiman, aslini olganda esa – fermerman. Ammo ushbu faoliyat bilan shug‘ullanishni bor-yo‘g‘i to‘rt yil avval –35 yoshimda boshladim.

Men chekka bir joyda, Xitoy bilan chegaradosh qishloqda tug‘ilganman va 15 yoshimda mehnat qilish maqsadida Olmaotaga ko‘chib o‘tganman. O‘shanda eng ma’qul ish bozorda savdo qilish edi. Bu qo‘limdan yaxshi kelardi, shuning uchun keyinchalik merchendayzer, so‘ngra savdo vakili bo‘lib ishladim. Turli kompaniya va sohalarda faoliyat yuritganman. Umuman olganda, savdo – kasbiy tajribamning eng katta qismi bo‘lsa kerak.

**— Demak, istalgan sohadagi jarayonlarni yo‘lga qo‘ya olar ekansiz-da?**

– Gap shundaki, aslida boshqaruv qonuniyatlari hamma yerda bir-biriga juda o‘xshash: mohiyatan, siz shunchaki ma’lum mantiqiy yondashuvlarni qo‘llaysiz, biroq ushbu uslublar aynan qayerda ish berishini hamma ham anglayvermaydi. Masalan, HoReCa’da korporativ tuzilmani shunchaki olib, boricha ko‘chirib o‘tkazib bo’lmaydi. Bu yerda jamoani to‘g‘ri tanlash, hamjamiyat bilan o‘zaro aloqani tushunish, joyning formati va odamlar muntazam uchrashib turishi mumkin bo‘lgan sabablarni hisobga olish muhim.

**— Barcha loyihalaringizni nima birlashtirib turadi?**

– Bir qarashda ular turlicha: sahrodagi festival, shahar qahvaxonasi, ferma, kreativ hab, raqamli ekotizim. Ammo men uchun bularning barchasi yagona bir tushunchaning qismlaridir. Hatto ushbu nashrimiz mavzusi bo’lgan $H_2O$ ham shunchaki suyuqlik emas. Bu – yangi tashabbuslar hamda noodatiy hamjamiyatlarni yuzaga keltiradigan insonlar, g‘oyalar va taassurotlar oqimidir.

Ehtimol, shu bois ham menga shunchaki navbatdagi qahvaxonani ochish hech qachon qiziq bo‘lmagan. Axir odamlar tanishuv, dildan suhbat, ijodkorlik hamda yangi hamkorlar topish maqsadida maxsus tashrif buyuradigan maskanlarni barpo etish ancha maroqlidir.

Shu bilan birga, bir narsani aytib o‘tish juda muhim: men bir kishi tomonidan amalga oshiriladigan loyihalarga ishonmayman. Har bir yirik loyiha ortida o‘nlab, ba’zan esa yuzlab odamlar turadi. Har kimning o‘z roli, malakasi va mas’uliyati bor, aynan shu narsa loyihani jonlantiradi. Shuning uchun hech qachon «men qildim» degim kelmaydi – «biz qildik» deyish to‘g‘ri bo’ladi.

Barcha boshlagan ishlarimda yonimda marketolog, kreativ prodyuser va mening eng yaqin kasbiy hamkorim – turmush o‘rtog‘im Mariya Kitayeva bo‘ldi. Biz birgalikda g‘oyalarni shakllantirdik, konsepsiyalarni muhokama qildik, yechimlar izladik hamda hamkorlar va jamoa tufayli har biri noyob bo’lgan loyihalarni rivojlantirdik. Aynan qarashlar va tajribalar xilma-xilligi uzoq umr ko‘radigan va rivojlanishda davom etadigan loyihalarni yaratish imkonini beradi. Mening rolim ham turlicha edi: ba’zida g‘oya hammuallifi, qayerdadir ijrochi prodyuser, yana birida esa strategik rahbar, hamkor yoki kreativ prodyuser bo‘lishimga to‘g‘ri keldi. Ammo ishning mohiyati doimo bir xilligicha qolavergan – odamlarni birlashtirish, turli ko‘nikma egalariga birgalikda ishlashda yordam berish, umumiy manzarani ko‘ra bilish va kuchli jamoa samarali g‘oyani amalga oshira oladigan sharoit yaratish.

Qolaversa, so‘nggi yillarda inson asta-sekin o‘zini borliqning bir qismi sifatida his qilmay qo‘ygani haqida tez-tez o‘ylaydigan bo‘ldim. Biz tabiatni hamkor emas, balki resurs sifatida qabul qilishga o‘rganib qoldik. Shaharlar hayotimizni qulaylashtirdi, ammo shu bilan birga oziq-ovqat, suv va energiya qayerdan kelishini anglashdan bizni uzoqlashtirdi. Men uchun tabiat bilan muvozanat – texnologiyalardan voz kechish emas, balki ongli bo’lishdir. Suvga, yerga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga va ular bilan ishlaydigan insonlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘z qarorlarining oqibatlarini his etish demakdir.

А ещё последние годы я всё чаще думаю о том, что человек постепенно перестал чувствовать себя частью природы. Мы привыкли воспринимать её как ресурс, а не как партнёра. Города сделали нашу жизнь удобнее, но одновременно отдалили от понимания того, откуда появляются еда, вода и энергия. Для меня баланс с природой – это не отказ от технологий, а осознанность. Уважение к воде, земле, локальным производителям и людям, которые работают с ними, понимание последствий собственных решений.

Наверное, поэтому многие проекты, в которых мы участвовали, так или иначе связаны с природой. Kosa показывает путь продукта от земли до тарелки, Joydaman объединяет людей через городскую культуру, MOC помогает появляться новым идеям и творческим сообществам, Honey Murena Pass объединяет локальный бизнес, а «Стихия» напоминает, насколько человек зависит от природы и как важно научиться жить с ней в партнёрстве. Не думаю, что природу нужно спасать от человека, скорее человеку нужно заново научиться жить в гармонии с ней. Когда это произойдёт, выиграют все: люди, города, бизнес и окружающая среда.

Именно это объединяет все наши проекты. Не их формат и масштаб, а люди. Потому что именно люди, их доверие друг к другу, желание создавать вместе и чувствовать ответственность за место, где они живут, делают города интереснее, а проекты – по-настоящему живыми.

**— Что первично: идея, место или люди?**

— Думаю, именно в таком порядке: идея, место, люди. Собственно, Honey Murena Pass – это и есть объединение идей, мест и людей, которое ты готов рекомендовать своим друзьям. Вместо советов, куда сходить, можно просто отправить одну ссылку, где будет собрано всё, что действительно стоит рекомендовать.

Желающие стать частью этой экосистемы могут приобрести карту лояльности и с её помощью посещать разные места, пользоваться преимуществами и бонусами. Никаких ограничений нет – стать обладателем карты может любой. Например, недавно у нас была коллаборация с Centrum Air, что предоставляло возможность получить её по QR-коду, размещённому на брендированном посадочном талоне.

**— Давайте поговорим о вашем подходе к делу с точки зрения бизнеса. Какие у вас критерии оценки того, стоит ли вообще запускать проект?**

— В первую очередь принимаю во внимание собственные ощущения. По моему мнению, запускать стоит только те проекты, в которые ты сам веришь.

**— То есть это просто интуитивная история?**

— Нет, конечно. Интуитивно у тебя, скорее, рождается идея, появляется какое-то первоначальное видение, но следующим этапом в любом бизнес-процессе является этап исследования: проверка гипотезы, её описание, попытка понять, насколько она вообще жизнеспособна, и так далее.

На самом деле сейчас многие люди готовы помогать даже бесплатно – поделиться опытом, дать совет, посмотреть на идею со стороны. Поэтому сложно сказать, что существует какой-то универсальный критерий, но совершенно точно одно: проект должен быть хорошо продуман и ты сам должен полностью понимать, что именно делаешь и зачем.

И, пожалуй, самое главное: проект должен быть действительно востребован той аудиторией, для которой ты его создаёшь. Если он нравится только тебе, это тоже нормально, но нужно понимать, что необходимы ресурсы на его содержание.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, biz ishtirok etgan ko‘plab loyihalar u yoki bu tarzda borliq bilan bog‘liq. «Kosa» mahsulotning yerdan dasturxongacha bo‘lgan yo‘lini ko‘rsatadi, «Joydaman» shahar madaniyati orqali odamlarni birlashtiradi, MOS vaqt o‘tishi bilan yangi g‘oyalar va ijodiy hamjamiyatlarning paydo bo‘lishiga yordam beradi, «Honey Murena Pass» mahalliy biznesni jipslashtiradi, «Stixiya» esa inson tabiatga qanchalik bog‘liq ekani va u bilan hamkorlikda yashashni o‘rganish qanchalik muhimligini eslatib turadi. Menimcha, tabiatni insondan qutqarishning hojati yo‘q, aksincha, insoniyat u bilan uyg‘unlikda yashashni qaytadan o‘rganishi lozim. Bu amalga oshganda, bundan hamma – odamlar, shaharlar, biznes va atrof-muhit yutadi.

Ehtimol, barcha loyihalarimizni aynan shu narsa birlashtirsa kerak. Ularning formati va ko‘lami emas, balki odamlar. Chunki aynan odamlar, ularning bir-biriga bo‘lgan ishonchi, birgalikda yaratish istagi va o‘zlari yashayotgan joy uchun mas’uliyatni his qilishlari shaharlarni yanada qiziqarli, loyihalarni esa chinakamiga jonli qiladi.

**— Nima birlamchi: g‘oya, joy yoki odamlarmi?**

— Ehtimol, aynan quyidagi tartibda: g‘oya, joy, odamlar. Aslida, «Honey Murena Pass» – bu siz do‘stlaringizga tavsiya qilishga tayyor bo‘lgan qarashlar, manzillar va shaxslar uyg‘unligidir. Qayerga borish haqida maslahat berish o‘rniga, haqiqatan ham borishga loyiq bo‘lgan barcha narsa jamlangan bitta havolani yuborishning o‘zi kifoya.

Ushbu ekotizimning bir qismi bo‘lishni istaganlar sodiqlik kartasini sotib olib, uning yordamida turli manzillarga tashrif buyurishlari, imtiyoz va bonuslardan foydalanishlari mumkin. Hech qanday cheklov yo‘q – istalgan kishi karta sohibi bo‘lishi mumkin. Masalan, yaqinda biz Centrum Air bilan hamkorlik qildik va brendning bortga chiqish taloniga joylashtirilgan QR-kod orqali uni qo‘lga kiritish imkoni berilgandi.

**— Keling, faoliyatingizga biznes nuqtayi nazaridan yondashuv haqida gaplashsak. Loyihani umuman yo‘lga qo‘yishga arziydimi yoki yo‘qmi – buni baholashda sizda qanday mezonlar bor?**

— Ehtimol, birinchi navbatda o‘z his-tuyg‘ularimni inobatga olsam kerak. Fikrimcha, faqat o‘zing ishonadigan loyihalarnigina ishga tushirish maqsadga muvofiqdir.

**— Ya’ni, bu shunchaki intuitsiyaga bog‘liq holatmi?**

— Yo‘q, albatta. Intuitiv ravishda sizda avvalo g‘oya tug‘iladi, qandaydir dastlabki tasavvur paydo bo‘ladi, ammo har qanday biznes-jarayondagi keyingi qadam bu tadqiqot bosqichi: gipotezani tekshirish, uni tavsiflash, uning umuman qanchalik talabgor ekanini tushunishga urinish va hokazo.

Aslida, hozirda ko‘pchilik hatto bepul ham yordam berishga – tajriba ulashishga, maslahat berishga, g‘oyaga chetdan qarashga tayyor. Shuning uchun qandaydir universal mezon mavjud deb aytish qiyin, lekin bir narsa aniq: tashabbus puxta o‘ylangan bo‘lishi hamda o‘zingiz aynan nimani va nima uchun qilayotganingizni to‘liq tushunishingiz shart.

Shuningdek, balki eng muhimi: loyihaga siz mo‘ljallab yaratayotgan auditoriya tomonidan haqiqatan ham ehtiyoj mavjud bo‘lishi lozim. Agar u faqat o‘zingizga yoqsa, bu ham yomon emas, lekin uni yuritish muayyan resurslarni talab etishini yodda tutish kerak.

ПО МОЕМУ МНЕНИЮ, ЗАПУСКАТЬ СТОИТ ТОЛЬКО ТЕ ПРОЕКТЫ, В КОТОРЫЕ ТЫ САМ ВЕРИШЬ

FIKRIMCHA, FAQAT O‘ZING ISHONADIGAN LOYIHALARNIGINA ISHGA TUSHIRISH MAQSADGA MUVOFIQDIR














**— Сегодня во многих странах наблюдается тенденция возвращаться к продуктам, выращенным на своей земле, локальному производству. Как вы думаете, почему так происходит? Это просто мода или что-то большее?**

— Скорее это осознанность. Люди начинают понимать, что органический продукт – это наш основной ресурс, а значит, то, что мы и должны употреблять. То же самое касается воды: организм взрослого человека на 60 процентов состоит из воды, поэтому так важно, какого она качества. И чем больше мы будем потреблять качественные органические продукты, тем меньше потом придётся ходить по больницам и компенсировать недостатки питания всевозможными БАДами.

Кстати, локация фермы выбрана нами неслучайно. Изначально мы рассматривали несколько площадок – Калифорнию, Кахетию в Грузии, Самаркандскую область и, собственно, посёлок Самсарак в Паркентском районе. По климату, высоте и условиям ведения сельского хозяйства этот регион подобен известным винодельческим территориям. Но нас интересовал не только виноград: мы смотрели, что ещё здесь можно выращивать такого же высокого качества – томаты, баклажаны, сладкий и острый перец, развивать мясное и молочное производство.

Изначально планировалось создавать подобные экосистемы в разных регионах, объединяя научные центры и специалистов, формируя образовательные кластеры. В нынешнем проекте такой кластер, даже скорее кампус примерно на две тысячи студентов в год, тоже предусмотрен. В будущем, наверное, такую модель можно будет масштабировать и на другие регионы.

**— Это будет именно фермерское образование?**

— Не только. Creative, Eco и IT – все эти направления должны существовать вместе. Фермерство лишь даёт больше возможностей объединить их.

Если говорить о посёлке Самсарак, то с точки зрения Creative мы работали с местными производителями. Например, бабушка делает аджику. Во многих регионах такие продукты до сих пор продают просто в пластиковой бутылке или банке где-нибудь вдоль дороги. Креативный же подход заключается в другом: ты берёшь красивую баночку, делаешь простую, но аккуратную этикетку, пастеризуешь содержимое, правильно упаковываешь. Всё это можно делать дома с минимальными вложениями, но благодаря этому продукт выглядит совершенно иначе, производитель начинает зарабатывать в несколько раз больше, а городскому покупателю такой формат становится намного интереснее.

Именно такой подход мы демонстрируем на примере ресторана в Kosa Farm, которая развивается как часть Villayat Group. Вместе с Фарухом Зияевым на протяжении четырёх лет мы были основными стратегическими руководителями и партнёрами проекта, работая над его концепцией и развитием. При этом сам проект развивала большая команда, и его результат – общая работа многих людей. Сегодня это не просто ресторан, а экосистема, объединяющая ферму, производство продуктов, гостиницу, рынок, гастрономию, творческие резиденции, отдых и сельский туризм. Мы хотим показать, что качественный локальный продукт способен стать основой развития территории и туризма.

С этой же целью трижды проводили художественные арт-резиденции: привозили художников, стрит-артистов, сотрудничали с творческими объединениями. Они знакомились с жителями посёлка, общались с ними, обсуждали идеи и создавали эскизы, которые потом переносили на заборы и фасады старых домов.

**— Bugun ko‘plab mamlakatlarda o‘z yerida yetishtirilgan mahsulotlarga, mahalliy ishlab chiqarishga qaytish tendensiyasi kuzatilmoqda. Nima deb o‘ylaysiz, nega bunday bo‘lmoqda? Bu shunchaki modami yoki undan ham muhimroq narsami?**

— Menimcha, bu onglilik. Odamlar organik mahsulot bizning asosiy resursimiz ekani, demak, biz aynan ularni iste’mol qilishimiz shartligini tushuna boshladi. Xuddi shu holat suvga ham tegishli: katta yoshli odam organizmining 60 foizi suvdan iborat, shuning uchun ham uning sifati juda muhim. Sifatli organik ne’matlarni qanchalik ko‘p tanovul qilsak, keyinchalik kasalxonalarga qatnashga va ovqatlanishdagi kamchiliklar o‘rnini turli xil BFQlar bilan to‘ldirishga shunchalik kamroq ehtiyoj tug‘iladi.

Aytgancha, ferma manzilini ham bejiz tanlamaganmiz. Dastlab bir nechta hududlarni – Kaliforniya, Gruziyadagi Kaxetiya, Samarqand viloyati va o‘sha Parkent tumanidagi Samsarak posyolkasini ko‘rib chiqdik. Iqlimi, dengiz sathidan balandligi va qishloq xo‘jaligini yuritish sharoitlariga ko‘ra bu o‘lka mashhur vinochilik hududlariga o‘xshaydi. Ammo bizni nafaqat uzum qiziqtirardi: biz bu yerda yana nimalarni xuddi shunday yuqori sifatda yetishtirish mumkinligini – pomidor, baqlajon, achchiq va bulg‘or qalampirlari yetishtirishni, shuningdek, go‘sht va sut ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlarini ham o‘rganib chiqdik.

Dastlab ilmiy markazlar va mutaxassislarni birlashtirib, ta’lim klasterlarini shakllantirgan holda turli hududlarda shunga o‘xshash ekotizimlarni yaratish rejalashtirilgan edi. Hozirgi loyihada ham bunday klaster, aniqrog‘i, yiliga taxminan ikki ming talabaga mo‘ljallangan kampus ko‘zda tutilgan. Kelajakda, ehtimol, ushbu modelni boshqa viloyatlarga ham tatbiq etish mumkin bo‘lar.

**— Bu aynan fermerlik bo‘yicha ta’lim bo‘ladimi?**

— Nafaqat u. Creative, Eco va IT – ushbu barcha tarmoqlar o‘zaro uyg‘unlikda mavjud bo‘lishi lozim. Shunchaki fermerlik ularni birlashtirish uchun ko‘proq imkoniyat beradi.

Samsarak posyolkasi haqida gapiradigan bo‘lsak, Creative nuqtai nazaridan biz mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan ishladik. Masalan, bir onaxon adjika tayyorlaydi. Ko‘pgina hududlarda bunday mahsulotlar hamon yo‘l chetlarida shunchaki plastik idish yoki bankalarda sotiladi. Kreativ yondashuvning mohiyati esa butunlay boshqacha: chiroyli banka olasiz, unga oddiy, ammo bejirim yorliq yopishtirasiz, ichidagi mahsulotni pasterizatsiya qilib, to‘g‘ri qadoqlaysiz. Bularning barchasini uy sharoitida minimal xarajat bilan amalga oshirish mumkin, natijada u mutlaqo o‘zgacha qiyofa kasb etadi,, ishlab chiqaruvchi bir necha barobar ko‘proq daromad topa boshlaydi, shaharlik xaridor uchun esa bunday format ancha qiziqarliroq bo‘ladi.

Aynan shunday yondashuvni biz «Villayat Group»ning bir qismi sifatida yuksalayotgan «Kosa Farm»dagi restoran misolida ko‘rsatyapmiz. Farrux Ziyayev bilan birgalikda to‘rt yil davomida ushbu tashabbusning asosiy strategik rahbarlari va hamkorlari sifatida uning konsepsiyasi va istiqboli ustida ishladik. Shu bilan birga, mazkur g‘oya katta jamoa tomonidan hayotga tatbiq etildi va uning natijasi ko‘plab insonlarning umumiy mehnati mahsulidir. Bugungi kunda bu shunchaki restoran emas, balki ferma, oziq-ovqat ishlab chiqarish, mehmonxona, bozor, gastronomiya, ijodiy rezidensiyalar, dam olish va qishloq turizmini o‘zida birlashtirgan ekotizimdir. Biz sifatli mahalliy mahsulot hudud va turizm rivojlanishining asosi bo‘la olishini ko‘rsatmoqchimiz.

Xuddi shu maqsadda uch marta badiiy art-rezidensiyalar o‘tkazildi: rassomlar, ko‘cha san’ati ustalari olib kelindi, ijodiy uyushmalar bilan hamkorlik qilindi. Ular posyolka aholisi bilan tanishib, suhbatlashishdi, g‘oyalarni muhokama qilib, keyinchalik eski uylarning devor va fasadlariga tushirilgan eskizlarni yaratishdi.

С музыкальной частью было немного сложнее, потому что в посёлке нет музыкальной школы, но мы приглашали артистов из других стран. Например, музыканты ансамбля Omnibus приезжали в Паркент, жили там в палатках, общались с местными жителями, слушали местных музыкантов, впитывали атмосферу, а потом на этой основе создавали музыкальную программу, с которой выступали уже на фестивале.

То же самое происходило и с нашей командой – поварами, барменами. Мы постоянно ездили туда, жили несколько дней, вдохновлялись. Потом забирали продукты, привозили их в город и уже здесь, в Joydaman, включали их в меню как специальные позиции – так мы переносили небольшую часть Паркента в город.

Мне кажется, работа в коллаборации с небольшими посёлками – хороший кейс для любого городского ресторана. Всегда найдутся местные жители, которые готовы этим заниматься. Допустим, у одного человека есть две сотки земли. Если ресторан инвестирует в небольшую теплицу, получается совместный проект: этот человек вместе со своей семьёй выращивает томаты специально для твоего ресторана. Любой турист может приехать туда, посмотреть, как именно это происходит, узнать больше о культуре региона.

Тогда агротуризм приобретает настоящий смысл. Ты едешь не просто посмотреть что-то абстрактное, а за конкретной историей. По аналогии с теплицами можно заняться и разведением уток, кур, коров – это применимо к любому хозяйству. Всё зависит от того, что именно нужно конкретному проекту.

**— Расскажите немного про фестиваль «Стихия», что он для вас значит?**

— Мне всегда хочется создавать пространство, где хорошо всем – и местным жителям, и приезжим, где каждый может найти что-то своё: фермерство, музыку, искусство – неважно. «Стихия» – один из таких проектов. Основатель и генеральный продюсер фестиваля – Отабек Сулейманов, а я на протяжении трёх лет работал над фестивалем как исполнительный продюсер. До этого мы вместе с Адылом Мухамедовым и ещё одним партнёром запускали MOS. Впоследствии продолжили совместную работу и над фестивалем: вместе с большой командой занимались взаимодействием с местными жителями, организацией площадки, инфраструктуры, логистического обеспечения, фуд-кортов, привлечением партнёров.

Для меня «Стихия» – пример того, как культура может менять отношение к территории. Фестиваль не просто собирает людей, желающих послушать музыку, а напоминает всему миру о судьбе Аральского моря и показывает, что даже место экологической катастрофы может стать пространством для искусства, диалога и надежды.

МНЕ ВСЕГДА ХОЧЕТСЯ СОЗДАВАТЬ ПРОСТРАНСТВО, ГДЕ ХОРОШО ВСЕМ – И МЕСТНЫМ ЖИТЕЛЯМ, И ПРИЕЗЖИМ, ГДЕ КАЖДЫЙ МОЖЕТ НАЙТИ ЧТО-ТО СВОЁ: ФЕРМЕРСТВО, МУЗЫКУ, ИСКУССТВО – НЕВАЖНО. «СТИХИЯ» – ОДИН ИЗ ТАКИХ ПРОЕКТОВ

MEN DOIM HAMMAGA: MAHALLIY AHOLIGA HAM, KELGAN MEHMONLARGA HAM QULAY BO‘LADIGAN, HAR KIM O‘ZI ISTAGAN YO‘NALISHNI – XOH DEHQONCHILIK, XOH MUSIQA-YU SAN’AT BO‘LSIN – TOPA OLADIGAN MAKON YARATISHNI XOHLAYMAN. «STIXIYA» ANA SHUNDAY LOYIHALARDAN BIRI

Musiqiy qism bilan bog‘liq holat biroz murakkabroq edi, chunki posyolkada musiqa maktabi yo‘q, biroq biz boshqa mamlakatlardan san’atkorlarni taklif qildik. Masalan, «Omnibus» ansambli sozandalari Parkentga kelib, chodirlarda yashashdi, mahalliy aholi bilan suhbatlashib, mahalliy musiqachilarni tinglashdi, u yerdagi muhitni his qilishdi, so‘ngra shu asosda yangi dastur yaratib, uni festival doirasida taqdim etishdi.

Bizning jamoamiz – oshpazlar, barmenlar bilan ham xuddi shunday bo’lgan. Biz doim u yerga borib, bir necha kun yashab, ilhomlanardik. So‘ngra mahsulotlarni olib, poytaxtga keltirardik va shu yerda, «Joydaman»da, ularni taomnomaga maxsus pozitsiyalar sifatida kiritardik – shu tariqa Parkentning kichik bir qismini shaharga ko‘chirib o‘tkazardik.

Menimcha, kichik posyolkalar bilan hamkorlikda ishlash – har qanday shahar restorani uchun yaxshi amaliyot. Ushbu ish bilan shug‘ullanishga tayyor bo‘lgan mahalliy aholi hamisha topiladi. Aytaylik, bir kishining ikki sotix yeri bor. Agar restoran u yerda kichik issiqxona barpo etishga sarmoya kiritsa, o‘zaro hamkorlik loyihasi yuzaga keladi: ushbu inson o‘z oilasi bilan birgalikda aynan sizning restoraningiz uchun pomidor yetishtiradi. Har qanday sayyoh u yerga borib, jarayon aynan qanday amalga oshirilayotganini ko‘rishi va hudud madaniyati haqida ko‘proq ma’lumot olishi mumkin.

Shundagina agroturizm chinakam ma’no kasb etadi. Siz shunchaki qandaydir mavhum narsani emas, balki aniq bir voqelikni ko’rish uchun borasiz. Issiqxonalar kabi o‘rdak, tovuq, sigir boqishni ham yo‘lga qo‘yish mumkin – buni har qanday xo‘jalikda qo‘llasa bo‘ladi. Barchasi muayyan loyihaga aynan nima kerakligiga bog‘liq.

**— «Stixiya» festivali haqida qisqacha so‘zlab bersangiz, u siz uchun qanday ahamiyatga ega?**

— Men doim hammaga: mahalliy aholiga ham, kelgan mehmonlarga ham qulay bo‘ladigan, har kim o‘zi istagan yo‘nalishni – xoh dehqonchilik, xoh musiqa-yu san’at bo‘lsin – topa oladigan makon yaratishni xohlayman. «Stixiya» ana shunday loyihalardan biri. Festivalning asoschisi va bosh prodyuseri – Otabek Sulaymonov. Men uch yil davomida ushbu tadbirda ijrochi prodyuser sifatida faoliyat yuritdim. Ungacha biz Odil Muhamedov va yana bir hamkorimiz bilan MOSni ishga tushirgan edik. Keyinchalik festival ustida ham birgalikda ishlashni davom ettirdik: katta jamoa tarkibida mahalliy aholi bilan muloqot qilish, maydon, infratuzilma, logistika ta’minoti va fudkortlarni tashkil etish, hamkorlarni jalb qilish kabi vazifalarni bajardik.

Men uchun «Stixiya» – madaniyatning hududga bo‘lgan munosabatni qanday o‘zgartira olishiga misol bo’la oladi. Festival shunchaki musiqa tinglashni istagan insonlarni bir joyga jamlabgina qolmay, balki butun dunyoga Orol dengizi taqdirini eslatadi va hatto ekologik falokat yuz bergan joy ham san’at, muloqot, umid makoniga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

**— Xo‘sh, shaxsan sizga buning nima keragi bor?**

— Odamlar bilan birlashish, mutlaqo yangi narsalar yaratish uchun. Axir men ham bu orqali doim nimanidir o‘rganaman. Yangi tajriba orttirish – bu harakat, hayot, yuksalish demakdir.

Ushbu festival men uchun, birinchi navbatda, hamjamiyat ham bo’lib, u haqiqatan ham bitta vosita yordamida odamlarni global muammoga jalb qilishning yaxshi namunasi ekanini bildiradi. Ko‘pchilikni aynan elektron musiqa ilk bor Orol dengizining ekologik fojiasi mavzusi bilan yuzlashtiradi. Garchi «Stixiya» nafaqat elektron musiqa, balki ilm-fan va san’atni ham o‘z ichiga oladi. Hozirda festival atrofida tobora ko‘proq qo‘shimcha loyihalar paydo bo‘lmoqda, masalan, mahalliy bolalar uchun «Stihia Gen» ta’lim dasturi.



**— А лично вам это зачем?**

— Чтобы объединяться с людьми, создавать что-то новое. Я ведь благодаря этому тоже постоянно чему-то учусь. Получать новый опыт – это и есть движение, жизнь, рост.

Данный фестиваль для меня, в первую очередь, тоже комьюнити и хороший пример того, как с помощью одного инструмента привлечь людей к действительно глобальной проблеме. Многих именно электронная музыка впервые приводит к теме экологической катастрофы Аральского моря. Хотя «Стихия» – это не только про электронную музыку, а про науку и искусство. Сейчас вокруг фестиваля появляется всё больше дополнительных проектов, например образовательная программа для местных детей Stihia Gen.

**— Сейчас много говорят о нехватке воды и прогнозируют связанные с этим серьёзные проблемы, в то же время на Чарваке активно идёт строительство разных объектов. Как вы на это смотрите?**

— Сложно оценивать всё, что происходит вокруг Чарвака, но одно могу сказать точно: у нас есть возможность накапливать и сохранять воду. Это как раз то, чего сейчас очень не хватает. Можно собирать дождевую, талую воду и создавать дополнительные водные резервы, высаживать деревья на склонах – то есть заниматься не последствиями, а предотвращением проблемы.

**— Hozir suv tanqisligi haqida ko‘p gapirilmoqda va bu bilan bog‘liq jiddiy muammolar yuzaga kelishi bashorat qilinmoqda, ayni paytda esa Chorvoqda turli obyektlar qurilishi qizg‘in davom etmoqda. Siz buni qanday baholaysiz?**

— Chorvoq atrofida yuz berayotgan barcha holatlarga baho berish qiyin, lekin bir narsani aniq ayta olaman: bizda suvni to‘plash va saqlab qolish imkoniyati bor. Hozir bizga aynan shu narsa juda yetishmaydi. Yomg‘ir va erigan qor suvlarini yig‘ib, qo‘shimcha suv zaxiralarini yaratish, yonbag‘irlarga daraxtlar ekish – ya’ni qiyinchilikning oqibatlari bilan emas, balki uning oldini olish bilan shug‘ullanish mumkin.

Lekin asosiy muammo, menimcha, ekologik ta’limning yo‘qligida, chunki bularning barchasini hech kim o‘rgatmaydi. Agar tizimli – ham nazariy, ham amaliy poydevor bo‘lmas ekan, hech narsa o‘zgarmaydi.

Agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, ko‘chamizda ikkita bochka osig‘liq turibdi. Ularga konditsionerlardan oqib tushadigan suv yig‘iladi va undan o‘simliklarni sug‘orishda foydalanamiz. Axir bu qandaydir iflos suv emas, balki kondensat. Namlik yuqori bo‘lganda, konditsionerdan suv tom ma’noda chelaklab quyiladi. Men o‘lchab ko‘rdim: namlik taxminan 55–65 foiz atrofida bo‘lganda, ikki-uch kun ichida ikkita agregatdan taxminan 65 litr toza suv yig‘iladi – bu 40 tadan ortiq bir yarim litrli idish demak. Fikrimcha, odamlar shunchaki bu haqida biroz o‘ylab ko‘rishlari kerak.

Но главная загвоздка, как мне кажется, в отсутствии экологического образования, ведь всему этому просто никто не учит. Если не будет системного образования – и теоретического, и практического, – ничего не изменится.

У нас на улице, если вы заметили, висят две бочки. В них поступает вода из кондиционеров, которая используется для полива растений. Это же конденсат, а не какая-то грязная вода. Когда влажность повышенная, кондиционер буквально льёт воду вёдрами. Я замерял: при влажности примерно 55–65 процентов за два-три дня с двух агрегатов набирается около 65 литров чистой воды – это более сорока полуторалитровых бутылок. Просто людям, наверное, нужно чуть больше задумываться об этом.

В какой-то из африканских стран местные жители выкапывали небольшие лунки для сбора дождевой воды, куда потом высаживали деревья, а одна супружеская пара смогла вырастить целый лес на площади около пятидесяти гектаров. То есть это возможно. И даже не очень хорошую воду можно очищать – для этого необязательно строить дорогостоящие сооружения, существуют и естественные способы, например, микроводоросль хлорелла.

Что касается тех же проектов на Чарваке, говорят, там внедряют разные современные технологии, и это хорошо – сегодня их множество. Ситуация с Аралом, конечно, печальная. Со стороны Казахстана сейчас действительно происходят хорошие изменения, благодаря строительству гидротехнических сооружений часть воды постепенно возвращается. Но моря в том виде, каким оно было раньше, уже не будет. Задача сейчас другая – хотя бы не сделать ситуацию ещё хуже.

В общем, многое остаётся в наших руках: нужно уже сейчас начинать собирать воду, бережнее её расходовать и в целом менять отношение к этому ресурсу.

**— Мы заметили, что говорить об экологии сегодня стало даже модно. Насколько вы вообще верите в искренность экологической повестки и может ли она реально что-то изменить?**

— Хочется в это верить. Наверное, поэтому основной посыл всех наших проектов – устойчивое развитие. Joydaman, например, получился таким не потому, что мы изначально решили использовать необычные материалы: всё произошло случайно. Вся конструкция здесь – это бывший бар, который я строил для «Стихии» на берегу Аральского моря. После фестиваля разобрал его, привёз сюда и сконструировал это пространство. Сам Joydaman мы запускали вместе с друзьями и партнёрами, которые поверили в идею и помогли превратить её в реальность.

То же самое с брезентом, который вы видите под потолком: мы использовали его во время сварки, а потом было жалко выбрасывать – теперь он работает как шумоизоляция, утепление и огнеупорный материал. И с деревом была такая же история: мы поставили себе задачу не выбросить ни одной доски.

Я не говорю, что всё вокруг нужно строить только из вторичных материалов, но если их можно использовать повторно, почему этого не сделать? Из дерева можно сделать что угодно – от элементов интерьера до удобрения. Даже щепа вокруг растений помогает дольше сохранять влагу в почве, а значит, их можно реже поливать.

Мне кажется, многие экологические проблемы связаны именно с отсутствием культуры повторного использования. Людям просто не объясняют базовые вещи. Например, траву необязательно сжигать – её можно сложить в кучу, и через пару лет получится удобрение.

Afrika mamlakatlarining birida mahalliy aholi yomg‘ir suvini to‘plash uchun kichik chuqurchalar qazib, keyinchalik u yerga daraxtlar ekkan, bir er-xotin esa ellik gektarga yaqin maydonda butun boshli o‘rmon barpo qilishga muvaffaq bo‘lgan. Demak, buning iloji bor. Hatto unchalik toza bo‘lmagan suvni ham tozalash mumkin – bu maqsad yo‘lida qimmatbaho inshootlar qurish shart emas, xlorella mikrosuvo‘ti kabi tabiiy usullar ham mavjud.

Chorvoqdagi o‘sha tashabbuslarga kelsak, aytishlaricha, u yerda turli zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda va bu yaxshi – bugungi kunda ular juda ko‘p. Orol bilan bog‘liq vaziyat, albatta, achinarli. Hozir Qozog‘iston tomonida haqiqatan ham ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda, gidrotexnik inshootlar qurilishi tufayli suvning bir qismi asta-sekin qaytmoqda. Lekin dengiz avvalgidek holatida bo‘lmaydi. Hozirgi vazifa boshqa – hech bo‘lmaganda vaziyatning bundan battar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat.

Xullas, ko‘p narsa o‘z qo‘limizda: hozirdanoq suvni yig‘ishni boshlashimiz, uni tejamkorroq sarflashimiz va umuman olganda, ushbu resursga bo‘lgan munosabatimizni o‘zgartirishimiz kerak.

**— Bugungi kunda ekologiya haqida gapirish hatto modaga aylanganini payqadik. Siz ekologik kun tartibining samimiyligiga qanchalik ishonasiz va u haqiqatan ham biror narsani o‘zgartira oladimi?**

— Bunga ishongim keladi. Ehtimol, shuning uchun ham barcha loyihalarimizning asosiy g‘oyasi barqaror rivojlanishdan iborat. Masalan, «Joydaman» biz boshidanoq g‘ayrioddiy materiallardan foydalanishga qaror qilganimiz uchun shunday bo‘lib qolmagan: hammasi tasodifan yuz bergan. Bu yerdagi butun inshoot – Orol dengizi sohilida «Stixiya» uchun o‘zim qurgan sobiq bar. Festivaldan so‘ng uni qismlarga ajratib, bu yerga olib keldim va ushbu makonni barpo etdim. «Joydaman»ning o‘zini esa g‘oyaga ishongan va uni ro‘yobga chiqarishga yordam bergan do‘stlar hamda hamkorlarimiz bilan birgalikda ishga tushirganmiz.

Shiftda siz ko‘rib turgan brezent bilan ham xuddi shunday bo‘lgan: biz uni payvandlash ishlarida ishlatganmiz, keyin esa tashlab yuborishga achindik – endi esa u shovqin va issiqlik izolyatsiyasi hamda o‘tga chidamli qoplama sifatida xizmat qilmoqda. Yog‘och bilan ham xuddi shunday bo‘lgan: o‘z oldimizga bitta ham taxtani tashlab yubormaslik vazifasini qo‘ygan edik.

Men atrofdagi hamma narsani faqat ikkilamchi xomashyodan qurish kerak, demoqchi emasman, lekin ulardan qayta foydalanishning imkoni bo‘lsa, nega bunday qilmaslik kerak? Yog‘ochdan interyer elementlaridan tortib o‘g‘itgacha bo‘lgan istalgan narsani olish mumkin. Hatto o‘simliklar atrofidagi payrahalar ham tuproqda namlikni uzoqroq saqlashga yordam beradi, demak, ularni kamroq sug‘orish mumkin.

Nazarimda, ko‘plab ekologik muammolar aynan qayta foydalanish madaniyatining yo‘qligi bilan bog‘liq. Odamlarga shunchaki oddiy narsalarni tushuntirishmaydi. Masalan, o‘tni shunchaki yoqib yuborish yaramaydi – uni bir joyga to‘plab qo‘yilsa, bir necha yildan so‘ng undan tayyor o‘g‘it hosil bo‘ladi.

МНОГОЕ ОСТАЁТСЯ В НАШИХ РУКАХ: НУЖНО УЖЕ СЕЙЧАС НАЧИНАТЬ СОБИРАТЬ ВОДУ, БЕРЕЖНЕЕ ЕЁ РАСХОДОВАТЬ И В ЦЕЛОМ МЕНЯТЬ ОТНОШЕНИЕ К ЭТОМУ РЕСУРСУ

KO‘P NARSA O‘Z QO‘LIMIZDA: HOZIRDANOQ SUVNI YIG‘ISHNI BOSHLASHIMIZ, UNI TEJAMKORROQ SARFLASHIMIZ VA UMUMAN OLGANDA, USHBU RESURSGA BO‘LGAN MUNOSABATIMIZNI O‘ZGARTIRISHIMIZ KERAK




Ферма – это прекрасный пример того, как можно правильно работать с отходами. Я знаю, что некоторые рестораны уже их сортируют, и именно объём отходов ресторанов или производств позволяет строить полноценные биогазовые установки. Можно собирать органические отходы, перерабатывать их и получать сразу несколько полезных продуктов – биогаз, электричество, удобрения. И всё это из того, что обычно просто выбрасывается.

**— Если представить, что прибыль вообще не имеет значения, чем бы вы тогда занимались?**

— Наверное, тем же самым, потому что для меня эти проекты в первую очередь не про прибыль.

Может быть, отдельно развивал бы какой-нибудь вид спорта. Например, рыбалку, потому что я очень её люблю – это лучшая медитация. Подводный мир вообще весьма большой и невероятно интересный.

**— А что для вас является самым значимым ресурсом во всех проектах?**

— Идеи и люди.

**— В завершение хочу задать немного философский вопрос: что бы вы хотели оставить после себя?**

— Конечно, каждый человек хоть раз об этом задумывался, но сейчас у меня нет какого-то готового ответа. Что останется – то останется.

Ferma – chiqindilar bilan qanday qilib to‘g‘ri ishlash mumkinligiga yaqqol misoldir. Ayrim restoranlar anchadan beri ularni saralaydi va aynan restoranlar yoki ishlab chiqarish korxonalari qoldiqlari hajmi to‘laqonli biogaz qurilmalarini barpo etish imkonini beradi. Organik ashyolarni to‘plab, ularni qayta ishlash va bir vaqtning o‘zida bir nechta foydali mahsulotlar – biogaz, elektr energiyasi va o‘g‘it olish mumkin. Bularning barchasi odatda shunchaki tashlab yuboriladigan narsalardan olinadi.

**— Agar foydaning umuman ahamiyati yo‘q deb tasavvur qilsak, u holda nima bilan shug‘ullangan bo‘lar edingiz?**

— Ehtimol, xuddi shu ishlar bilan, chunki men uchun bu tashabbuslar birinchi navbatda daromad olishga qaratilmagan.

Balki, sportning biror turini alohida rivojlantirgan bo‘lardim. Masalan, baliq ovlashni, chunki uni juda yaxshi ko‘raman – bu eng yaxshi meditatsiya. Umuman olganda, suv osti dunyosi juda katta va nihoyatda qiziqarli.

**— Barcha tashabbuslaringizda siz uchun eng muhim resurs nima?**

— G‘oyalar va insonlar.

**— Suhbatimiz yakunida biroz falsafiy savol bermoqchiman: o‘zingizdan keyin nima qoldirishni istardingiz?**

— Albatta, har bir inson bu haqda bir marta bo‘lsa ham o‘ylab ko‘rgan, lekin hozir bunga tayyor javobim yo‘q. Nima bo‘lsa – o‘sha qoladi.

# KO‘LLAR SADOSI

## ГОЛОСА ОЗЁР

*У каждого озера свой характер. Одни веками кормят людей, другие рождаются после землетрясений, третьи меняют жизнь тем, кто однажды оказался на их берегу. Мы собрали четыре озера, до которых можно добраться рейсами Centrum Air, и попросили рассказать о них людей, для которых вода стала частью собственной истории. Для одного Кольсай – это тишина, для другого Ладога – дом, Байкал – уважение, а Айбзее – восхищение. На этих страницах озёра говорят голосами своих жителей.*

*Har bir ko‘l o‘zgacha bir olam. Ayrimlari asrlar osha odamlarni boqib kelayotgan bo‘lsa, boshqalari zilzilalar sabab paydo bo‘ladi, yana birlari esa ularning qirg‘og‘iga borib qolgan insonlar taqdirini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Biz «Centrum Air» reyslari bilan yetib borish mumkin bo‘lgan to‘rtta ko‘lni jamladik va suv o‘z taqdirining bir bo‘lagiga aylangan kishilardan ular haqida so‘zlab berishlarini iltimos qildik. Kimdir uchun Ko‘lsoy bu – sokinlik, boshqa birov uchun Ladoga – vatan, Baykal – ehtirom, Aybzee esa zavq-shavqdir. Ushbu sahifalarda ko‘llar o‘z ahlining tili bilan tilga kiradi.*








*Surat : Ayaal Konstantinov*
*Фото: Айаал Константинов*

### КОЛЬСАЙСКИЕ ОЗЁРА: ЗАПОВЕДНАЯ ТИШИНА ТЯНЬ-ШАНЯ

Кольсайские озёра – система из трёх бирюзовых водоёмов на севере Тянь-Шаня, всего в четырёх часах езды от Алматы. Они расположены на территории национального природного парка *«Көлсай көлдері»*, где также находится ещё одна уникальная достопримечательность – озеро Кайынды, известное как «Затопленный лес».

Среднее и Верхнее Кольсайские озёра доступны только если идти по пешеходной тропе или ехать верхом на лошади. Маршрут проходит через пограничную зону, поэтому с собой обязательно нужно иметь документы (для иностранных граждан – загранпаспорт). Это единственное место в нашей подборке, где искупаться не удастся, если только вы не Павел Дуров.

**Айаал Константинов родился в Республике Саха (Якутия), а три года назад переехал в Казахстан, где нашёл своё призвание – организацию путешествий. Снимает на квадрокоптер и ведёт свой блог про Казахстан.**

— Кольсай прекрасен в любое время года. Лето – это катание на вёсельных лодках и катамаранах на Нижнем озере, прогулки на лошадях, трекинг до второго и третьего озёр (они несложные, подойдут пенсионерам и детям, но гида всё же лучше взять). Всесезонно доступна рыбалка – можно выловить радужную форель. На побережье можно найти много точек для красивых фотосессий, в том числе в национальных одеждах, с орлом или беркутом.

### KO‘LSOY KO‘LLARI: TYAN-SHANNING DAXLSIZ SOKINLIGI

Ko‘lsoy ko‘llari – Tyan-Shanning shimolida, Olmaotadan atigi to‘rt soatlik yo‘l masofasida joylashgan uchta firuza rangli ko‘ldan iborat tizim. Ular *«Көлсай көлдері»* milliy tabiat bog‘i hududida joylashgan bo‘lib, bu yerda yana bir noyob diqqatga sazovor maskan – «Suv bosgan o‘rmon» nomi bilan tanilgan Qayindi ko‘li ham bor.

O‘rta va Yuqori Ko‘lsoy ko‘llariga faqat piyodalar so‘qmog‘i orqali yoki otda borish mumkin. Yo‘nalish chegara hududidan o‘tgani sababli, yoningizda hujjatlar (chet el fuqarolari uchun – xorijga chiqish pasporti) bo‘lishi shart. Bu yer ro‘yxatimizdagi cho‘milib bo‘lmaydigan yagona joy, – faqat ism-sharifingiz Pavel Durov bo‘lmasa, albatta.

**Ayaal Konstantinov Saxa Respublikasida (Yoqutiston) tug‘ilgan, uch yil avval esa Qozog‘istonga ko‘chib o‘tgan va aynan shu yerda o‘z hayotiy yo‘li – turizmni kashf etdi. U kvadrokopterda suratga oladi va Qozog‘iston haqidagi o‘z blogini yuritadi.**

— Ko‘lsoy yilning istalgan faslida go‘zal. Yozda Quyi ko‘lda qayiq va katamaranlarda sayr qilish, ot minish, ikkinchi va uchinchi ko‘llarga piyoda chiqish mumkin (bu yo‘llar unchalik qiyin emas, keksalar va bolalarga ham to‘g‘ri keladi, lekin baribir yo‘lboshlovchi bilan borgan ma’qul). Bu yerda har doim baliq ovlash mumkin – hatto rangdor gulmohini (forelni) ham tutsa bo‘ladi. Ko‘l bo‘yida chiroyli fotosessiya uchun joylar ko‘p, jumladan, milliy liboslarda, burgut yoki lochin bilan ham rasmga tushish mumkin.



*Surat : Ayaal Konstantinov*
*Фото: Айаал Константинов*

Но моё любимое место – терраса этнокафе Tary. Ради вида на ущелье и озеро стоит преодолеть триста ступеней, которые, кстати, построены вручную.

Больше всего мне нравится приезжать сюда весной и зимой. Туристов становится меньше, царит почти абсолютная тишина. Весной природа словно замирает в ожидании тепла или укрыта снегом (такие пейзажи я, как уроженец Якутии, очень люблю!).

Эти озёра по праву называют «жемчужинами Северного Тянь-Шаня», и они неизменно дарят невероятные эмоции. Однажды на исходе осени, когда ударили первые заморозки, над зеркальной гладью озера опустился густой туман. В этот момент группа гостей отправилась кататься на лодке, а я поднял дрон. Получились, пожалуй, поистине фантастические кадры – такого завораживающего по красоте природного явления я никогда в жизни не видел!

Если располагаете временем, обязательно останьтесь в горах на ночь. Тогда вечером можно насладиться магией звёздного неба вдали от городской суеты, а на рассвете – «поймать» идеальное отражение гор в бирюзовой воде. Для этого на Нижнем и Среднем озёрах есть оборудованные кемпинги, уютные гостевые дома и современные глэмпинги.

Biroq men uchun eng qadrdon joy – «Tary» etno-qahvaxonasining ayvoni. Dara va ko'l manzarasidan bahra olish ilinjida, aytgancha, qo'lda bunyod etilgan uch yuzta pillapoyani bosib o'tishga arziydi.

Men bu yerga, ayniqsa, bahor va qish fasllarida kelishni yoqtiraman. Sayyohlar kamayib, deyarli mutlaq sukunat hukm suradi. Bahorda tabiat go'yo iliqlikni kutib to'xtab qolgandek yoki qor bilan qoplangan bo'ladi (Yoqutistonda tug'ilganim uchun bunday manzaralarni juda yaxshi ko'raman!).

Ushbu ko'llar bejizga «Shimoliy Tyan-Shan durdonalari» deb atalmaydi, ular doimo kishiga ajoyib tuyg'ular hadya etadi. Bir safar kuz oxirlarida, ilk sovuqlar tushganida ko'lning ko'zgudek yuzasini quyuq tuman qoplagandi. O'sha paytda bir guruh mehmonlar qayiqda sayrga otlanishdi, men esa dronni havoga ko'tardim. Natijada, chindan ham g'aroyib kadrlar chiqdi – men umrimda bunchalik maftunkor tabiiy hodisani hech qachon ko'rmaganman!

Agar vaqtingiz bo'lsa, albatta tog'da tunab qoling. Shunda oqshom shahar shovqinidan yiroqda yulduzli osmon sehridan bahramand bo'lishingiz, tongda esa tog'larning zangori suvda aks etgan go'zal manzarasini «ushlashingiz» mumkin. Buning uchun Quyi va O'rta ko'llar bo'yida jihozlangan kempinglar, shinam mehmon uylari va zamonaviy glempinglar bor.

Bugungi kunda Ko'lsoy ko'z o'ngimizda o'zgarib, sayyohlik yo'nalishi sifatida jadal rivojlanmoqda. Bu yerda yangi yo'llar, milliy taomlar taklif etuvchi kafelar va turli xil turar-joylar paydo bo'lmoqda. Xavfsizlikni esa Favqulodda vaziyatlar vazirligining kecha-yu kunduz faoliyat yurituvchi postlari hamda shoshilinch evakuatsiya uchun jihozlangan vertolyot maydonchasi ta'minlamoqda.

Yana bir noyob maskan – «Suv bosgan o'rmon», ya'ni Qayindi ko'li. Bundan bir asr avvalroq tog'larda Rixter shkalasi bo'yicha 8 balldan yuqori zilzila sodir bo'lgan va yuz bergan



*Surat : Ayaal Konstantinov*
*Фото: Айаал Константинов*



*Surat : Ayaal Konstantinov*
*Фото: Айаал Константинов*

Сегодня Кольсай меняется на глазах и стремительно развивается как туристическое направление. Здесь появляются новые дороги, кафе с национальной кухней и большим выбором вариантов проживания, а безопасность обеспечивают круглосуточные посты МЧС и оборудованная вертолётная площадка для экстренной эвакуации.

Ещё одно уникальное место – «Затопленный лес»: озеро Кайынды. Чуть более века назад в горах произошло землетрясение силой более 8 баллов по шкале Рихтера, из-за случившихся обвалов ущелье затопило водой, но деревья за счёт мощных корней выжили. И теперь над водой высятся голые стволы, напоминающие мачты затонувших кораблей, а под водой сохранились ветви и даже еловые иголки. Добраться сюда становится всё проще: если раньше туристов везли только внедорожники и местные УАЗы, то вскоре появится асфальтированная дорога.

Замечу: купаться в здешних горных озёрах запрещено, именно поэтому вода в них остаётся удивительно чистой, такой, что её можно пить. А чай, заваренный на этой воде, получается особенно вкусным – попробуйте обязательно!

ko'chkilar oqibatida o'rmon suv ostida qolgan, biroq daraxtlar baquvvat ildizlari tufayli nobud bo'lmagan. Hozirda suv yuzasida daraxtlarning cho'kib ketgan kemalar machtasini yodga soluvchi yalang'och tanalari qad rostlab turibdi, suv ostida esa ularning shoxlari va hatto ninabarglari ham aslicha saqlangan. Bu yerga yetib olish borgan sari osonlashib bormoqda: agar ilgari sayyohlarni faqat yo'ltanlamas avtomobillar va mahalliy UAZlar olib kelgan bo'lsa, tez orada bu yerga asfalt yo'l yotqiziladi.

Eslatib o'taman: bu yerdagi tog' ko'llarida cho'milish taqiqlangan. Aynan shuning uchun ham ularning suvi hayratlanarli darajada toza, uni ichsa bo'ladi. Bu suvga damlangan choy esa o'zgacha mazali chiqadi, albatta tatib ko'ring!

РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ
1 ч. 45 мин.
ALA АЛМАТЫ
от 789 тыс. сумов



### ПОСЛЕ ЛАДОГИ – ТОЛЬКО НА МОРЕ!

Из Санкт-Петербурга легко добраться до невероятного Ладожского озера – крупнейшего пресноводного озера Европы. До южного побережья можно доехать на автомобиле, а до северной части, в Карелию, которую иногда называют «русской Скандинавией», – на ночном поезде или в составе экскурсионного тура.

**Ирина Пешина, аттестованный гид-экскурсовод по Санкт-Петербургу, Ленинградской области и Карелии, уже более пятнадцати лет знакомит путешественников с этим регионом. Также она – участник с парусных гонок на Финском заливе и водных походов по Ладожскому озеру.**

— На юго-восточном берегу Ладожского озера, между Шлиссельбургом и Новой Ладогой, вдоль Новоладожского канала тянется череда деревень, откуда родом мои предки. Поэтому Ладога для меня – не просто озеро, а живая память, связь с корнями и история семьи.

Каждое лето мы приезжали к бабушке, куда из Санкт-Петербурга добирались не на машине, а на собственной моторной лодке. Тогда необъятные просторы Ладоги казались мне настоящим морем. Больше всего я любила вечера, когда вся семья выходила на берег смотреть, как солнце медленно опускается в воду. Эта традиция бережно хранится до сих пор, и каждый приезд в родную деревню мы идём на берег провожать закат.

### LADOGADAN SO'NG – FAQAT DENGIZGA!

Sankt-Peterburgdan Yevropaning eng yirik chuchuk suvli ko'li – ajoyib Ladoga ko'liga osongina borish mumkin. Janubiy sohilga avtomobilda, shimoliy qismga, ya'ni gohida «rus Skandinaviyasi» deb ataladigan Kareliyaga esa tungi poyezdda yoki ekskursiya turi bilan yo'l olish qulay.

**Irina Peshina – Sankt-Peterburg, Leningrad viloyati va Kareliya bo'yicha attestatsiyadan o'tgan giddir. U o'n besh yildan ortiq vaqtdan buyon sayyohlarni ushbu o'lka bilan tanishtirib kelmoqda. Irina Fin ko'rfazidagi sport tadbirlari hamda Ladoga ko'li bo'ylab uyushtiriladigan suv sayohatlari ishtirokchisi.**

— Ladoga ko'lining janubi-sharqiy sohilida, Shlisselburg va Novaya Ladoga oralig'ida, Novoladoga kanali bo'ylab mening ajdodlarim yashab o'tgan bir qator qishloqlar joylashgan. Shu sababli Ladoga men uchun shunchaki ko'l emas, balki jonli xotira, nasl-nasabim bilan bog'liqlik va oilam tarixidir.

Har yozda buvimnikiga mehmonga borardik va Sankt-Peterburgdan u yerga mashinada emas, o'zimizning motorli qayig'imizda yetib olardik. O'shanda Ladoganing bepoyon sarhadlari ko'zimga haqiqiy dengiz bo'lib ko'rinardi. Hammasidan ham butun oilamiz bilan sohilga chiqib, quyoshning asta-sekin suvga g'arq bo'lishini tomosha qiladigan paytimiz – oqshomni yoqtirardim. Bu an'anani bugungi kungacha ardoqlab saqlab kelyapmiz va har gal o'z qishlog'imizga kelganimizda quyosh botishini kuzatish uchun qirg'oqqa otlanamiz.

Среди моих предков – ладожские рыбаки, поэтому рыбалка всегда была частью жизни нашей семьи. Издревле люди селились на этих берегах именно благодаря воде: она поила, кормила и соединяла между собой поселения. На севере, у карелов, рыба долгое время была важнее хлеба – плодородной земли здесь почти нет. И сегодня именно блюда из ладожской рыбы остаются главным гастрономическим впечатлением региона. А ещё здесь стоит попробовать дичь – оленину, лосятину или медвежатину.

Но главное богатство Ладоги – её потрясающая природа. Южное побережье славится песчаными пляжами и мелководьем, поэтому хорошо подходит для отдыха с детьми, хотя вода даже летом может оставаться холодной.

Север Ладоги совсем другой – суровый, скалистый, идеальный для любителей дикой природы. Именно здесь начинаются знаменитые ладожские шхеры – более шестисот островов, разделенных узкими проливами. С высоты они напоминают огромный природный лабиринт. Здесь можно наблюдать необычные отполированные ветрами и ледником скалы – «бараньи лбы», пройтись по острову Койонсаари, который называют нашим «северным Баунти», или отправиться на Кильполу, где густые хвойные леса встречаются с прозрачной синевой воды.





Ota-bobolarimiz orasida Ladoga baliqchilari ham bor, shu bois baliq ovi doimo oilamiz hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Qadimdan odamlar bu sohillarga aynan suv tufayli o'rnashgan: suv ularning ehtiyojlarini qoplagan, boqqan va qishloqlarni bir-biri bilan bog'lab turgan. Shimolroqda baliq uzoq vaqt davomida karellar uchun nondan ham muhimroq hisoblangan, chunki bu yerlarda unumdor zamin deyarli yo'q. Bugungi kunda ham aynan Ladoga baliqlaridan tayyorlangan taomlar o'lkaning birinchi raqamli gastronomik mo'jizasi bo'lib kelmoqda. Shuningdek, bu yerda bug'u, los yoki ayiq kabi yovvoyi hayvonlarning go'shtlarini ham tatib ko'rish imkoni bor.

Ammo Ladoganing asosiy boyligi – uning hayratomuz tabiatidir. Ko'lning janubiy sohillari qumli plyajlari va sayozligi bilan mashhur bo'lib, garchi yozda ham suvi ba'zida muzdek bo'lsa-da, bolalar bilan dam olish uchun juda qulay.

Ladoganing shimoli butunlay o'zgacha – iqlimi sovuqroq, qoyali bo'lib, yovvoyi tabiat shaydolari uchun ayni muddao. Mashhur Ladoga shxerlari – tor bo'g'ozlar bilan ajralib turgan olti yuzdan ortiq orol aynan shu yerdan boshlanadi. Yuqoridan ular ulkan tabiiy labirintni eslatadi. Bu yerda shamol va muzliklar silliqlagan g'aroyib qoyalarni – «qo'y peshonalarini» tomosha qilish, bizning «shimoliy Bauntimiz» deb ataladigan Koyonsaari oroliga chiqish yoki quyuq ignabargli o'rmonlar zilol moviy suv bilan tutashgan Kilpolaga borish mumkin.

Iliq mavsum – piyoda sayrlar va suv sayohatlari uchun eng yaxshi vaqt: shamol yelkanni to'ldirib, to'lqinlar uzra eltadi. Biroq Ladoga o'ziga nisbatan hurmat talab qiladi. Uning fe'li injiq: ochiq havoda ham bu yerda kutilmaganda bo'ron ko'tarilib, qisqa va baland to'lqinlar paydo bo'lishi mumkin. Qadimda buhol kema halokatlariga sabab bo'lgan, hozir ham sayohatchilar uchun jiddiy sinovga aylanishi hech gap emas.

Qishda Ladoga butunlay boshqacha tus oladi. Oq-qora rangdagi qorli peyzajlar, muzlagan ko'l uzra aerochanada sayr qi-



Тёплый сезон – лучшее время для походов и водных путешествий, когда сила ветра наполняет парус и несёт по волнам. Но Ладога требует уважения, у неё капризный характер: даже в ясную погоду здесь могут внезапно подняться шторм и короткая высокая волна. В древности это приводило к кораблекрушениям, да и сейчас может стать настоящим испытанием для путешественников.

Зимой Ладога становится совсем другой. Монохромные заснеженные пейзажи, прогулки на аэросанях по замёрзшему озеру, подлёдная рыбалка, вечера у камина или печи в гостевых домах – путешествие приобретает совершенно иное очарование. Также возьмите на заметку всесезонные достопримечательности: в Карелии это горный парк Рускеала, эко-этнопарк «Долина водопадов», Карельский зоопарк с животными со всего света. Туда как раз можно отправиться на аэросанях из города Сортавала, который соединил в себе три эпохи: русскую, шведскую и финскую.

Если хочется глубже узнать историю региона, обязательно стоит увидеть Старую Ладогу – первую столицу Руси, через которую проходил путь «из варяг в греки», и Шлиссельбург у истока Невы. В тёплый сезон отсюда можно попасть в древнюю крепость Орешек на Ореховом острове. На востоке Приладожья расположен уютный Олонец с Национальным музеем карелов-ливвиков имени Н. Г. Прилукина, а история русского православия неразрывно связана с островами Валаам и Коневец, где находятся знаменитые монастыри.

В завершение хочу сказать, что Ладога – это простор, после неё на маленьких водоёмах тесно. И если ехать куда-то, то только на море, чтобы вновь ощутить это величие и свободу водной стихии!

lish, muz osti baliq ovi, mehmon uylaridagi kamin yoki pechka atrofidagi oqshomlar – bularning bari sayohatga o'zgacha joziba bag'ishlaydi. Shuningdek, har qanday mavsumda borish mumkin bo'lgan diqqatga sazovor joylarni ham yodda tuting: Kareliyada bular Ruskeala tog' parki, «Sharsharalar vodiysi» eko-etnoparki va dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan jonivorlar maskan tutgan Kareliya hayvonot bog'i. Bu joylarga uch davr – rus, shved va fin davrlarini o'zida mujassam etgan Sortavala shahridan aerochanada yo'l olish mumkin.

Agar mintaqa tarixini chuqurroq o'rganishni istasangiz, Rusning birinchi poytaxti, «varyaglardan yunonlargacha» olib boruvchi yo'l o'tgan Eski Ladoga va Neva daryosi boshidagi Shlisselburgni albatta ko'rishingiz kerak. Issiq mavsumda bu yerdan Orexoviy orolidagi qadimiy Oreshek qal'asiga borish mumkin. Ladoga bo'yining sharqida N. G. Prilukin nomidagi karel-livviklar milliy muzeyi joylashgan shinamgina Olonets bor, rus pravoslaviyasi tarixi esa mashhur monastirlar qad rostlagan Valaam va Konevets orollari bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, Ladoga – bepoyon kenglik, undan keyin mayda suv havzalari odamni siqib qo'ygandek tuyuladi. Agar biror yerga boriladigan bo'lsa, suv tabiatining ulug'vorligi va erkinligini yana bir bor his qilish uchun faqat dengizga yo'l olish kerak!

CENTRUMAIR РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ
4 ч. 45 мин.
LED САНКТ-ПЕТЕРБУРГ
ОТ 1,67 МЛН СУМ

## БАЙКАЛ САМ РЕШАЕТ, ЧТО ПОКАЗАТЬ ГОСТЯМ

Байкал хранит около 20 процентов мировых запасов пресной воды и считается одним из самых чистых озёр на планете. Но для тех, кто живёт рядом с ним, это не только природный рекорд, а место силы, к которому возвращаются снова и снова.

**Арина Запорожцева, родилась и выросла на Байкале. Уже более десяти лет работает гидом и организатором путешествий и за это время провела сотни туров по озеру.**


— Байкал – это сакральная мощь и природная красота, не имеющая себе равных. По обе его стороны, будь то берега Иркутской области или Бурятии, скрываются действительно уникальные уголки. Я много путешествую по миру, но столь сильного места больше нет. Его магия – в недоступности: пешком и на машине мы можем посмотреть только маленькие кусочки, остальное – только с воды, и то не каждый год. И Байкал всегда сам решает, насколько приоткрыть свои тайны гостям.

Каждый сезон здесь – отдельное путешествие. И если есть возможность, Байкал стоит увидеть хотя бы дважды. Но даже если у вас всего несколько часов, то их хватит для полной перезагрузки, настолько здесь мощная энергетика.

Для меня самый фантастический сезон наступает осенью, когда сходит последняя листва и Байкал проявляет свой характер в преддверии зимы. В ноябре, с приходом штормов, волны вздымаются на такую высоту, что кажется, можно заниматься сёрфингом! А затем начинается настоящее волшебство: вода застывает, и там, где ты ещё недавно проплывал, уже можно идти пешком, любуясь ледяными скульптурами и тончайшими узорами.



*Surat : Arina Zaporojseva*
*Фото: Арина Запорожцева*



*Surat : Arina Zaporojseva*
*Фото: Арина Запорожцева*

## MEHMONLARGA NIMANI KO'RSATISHNI BAYKALNING O'ZI HAL QILADI

Baykal o'zida dunyodagi chuchuk suv zaxiralarining qariyb 20 foizini saqlaydi va sayyoradagi eng toza ko'llardan biri hisoblanadi. Ammo uning yaqinida yashovchilar uchun bu shunchaki tabiat mo'jizasi emas, balki tez-tez intiltiradigan quvvat maskanidir.

**Arina Zaporojseva Baykal bo'yida tug'ilib voyaga yetgan. U o'n yildan ortiq vaqtdan buyon gid va sayohat tashkilotchisi sifatida faoliyat yuritib, shu davr mobaynida ko'l bo'ylab yuzlab turlar o'tkazgan.**


— Baykal – bu muqaddas qudrat va tengi yo'q tabiat go'zalligidir. Uning har ikki tarafida, xoh Irkutsk viloyati, xoh Buryatiya qirg'oqlari bo'lsin, chinakam betakror go'shalar yashiringan. Men dunyo bo'ylab ko'p sayohat qilaman, lekin bunchalik qudratli makonni boshqa hech qayerda uchratmadim. Uning sehri – yetib borish qiyinligida: piyoda va mashinada biz uning faqat kichik bir qismigina ko'ra olamiz, xolos. Qolgan joylarini esa faqat suvdan turib tomosha qilish mumkin va bu har yili ham nasib etavermaydi. Baykal o'z sirlarini mehmonlarga qanchalik ochishni har doim o'zi hal qiladi.



Мой совет – особенно для осенне-зимнего сезона – приезжать в групповые туры, доверив логистику надёжным местным проводникам, и планировать поездку заранее, за 2–3 месяца. Суровая погода и переменчивая ледовая обстановка, когда закрывают паромные переправы или ледовые дороги, превращают самостоятельное путешествие в авантюру со множеством рисков. К тому же, есть много уединённых мест, которые вам покажут только гиды. Если, конечно, сам Байкал позволит!

Обязательно пробуйте местную воду: она вкусная, мягкая, с чуть сладковатым привкусом – нигде такой больше нет! Если мы идём в поход вдоль береговой линии, то не берём большой запас, просто зачерпываем из озера, а зимой гости особенно любят дегустации из ледяных бокалов.





*Surat : Arina Zaporojseva*
*Фото: Арина Запорожцева*

Bu yerda har bir mavsum – o‘zgacha bir sayohat. Imkon bo‘lsa, Baykalni hech qursa ikki marta ko‘rish kerak. Ammo atigi bir necha soatgina vaqtingiz bo‘lsa ham, ular to‘laqonli hordiq chiqarishga yetadi: bu yerdagi quvvat manbai shu qadar kuchli.

Men uchun eng g‘aroyib mavsum kuzda, oxirgi barglar ham to‘kilib, qish arafasida Baykal o‘z fe’l-atvorini namoyon qila boshlaganida keladi. Noyabrda bo‘ronlar boshlanishi bilan to‘lqinlar shu qadar balandga ko‘tariladiki, go‘yoki ularda bemalol syorfing bilan shug‘ullansa bo‘ladi! Shundan so‘ng esa haqiqiy sehr-sinoatlar boshlanadi: suv muzga aylanadi va kuni kecha suzib o‘tilgan sarhadlarda endi piyoda yurib, muz haykallariyu nafis naqshlardan zavqlanishingiz mumkin.

Mening maslahatim – ayniqsa, kuz-qish mavsumida sayohatni 2-3 oy oldin rejalashtirib, logistikani ishonchli mahalliy yo‘lboshlovchilarga ishonib topshirgan holda, jamoaviy turlar bilan keling. Qahraton ob-havo va muzning o‘zgaruvchan holatlari, ya’ni paromlar qatnovi yoki muz yo‘llarning yopilishi mustaqil sayohatni ko‘plab xatarlarga to‘la sarguzashtga aylantiradi. Bundan tashqari, faqat gidlargina ko‘rsata oladigan xilvat maskanlar ko‘p. Albatta, agar Baykalning o‘zi izn bersa!

Albatta mahalliy suvni tatib ko‘ring: u biroz shirin ta’mli, yumshoq va juda mazali – boshqa hech qayerda bunday suv yo‘q! Qirg‘oq bo‘ylab sayrga chiqqanda o‘zimiz bilan ko‘p suv olmaymiz, shundoqqina ko‘ldan olib ichaveramiz. Qishda esa mehmonlar muzdan yasalgan qadahlarda ichimliklar tatib ko‘rishni ayniqsa xush ko‘rishadi.

Bu musaffolik siri Baykalning noyob ekotizimida yashirin. Millionlab mikroorganizmlar, jumladan, mayda epishura-qisqichbaqachalar va ko‘l gubkalari suvni xuddi tabiiy filtrlar kabi doimiy ravishda tozalab turadi. Shuningdek, inson omili ham bundan kam ahamiyatga ega emas. Mahalliy aholi orasida tabiat in’omini ko‘z qorachig‘idek asrash, o‘z ortidan chiqindilarni olib ketish va Baykal shunchaki bir tabiat obyekti emas, balki azaldan e’zozlab kelinadigan tirik mavjudot ekanini yodda tutish odatga aylangan.







Секрет этой чистоты – в уникальной экосистеме Байкала. Миллионы микроорганизмов, в том числе крошечные рачки-эпишуры и байкальские губки, постоянно очищают воду, словно природные фильтры. Но не менее важно и отношение людей. Здесь принято увозить за собой мусор и помнить, что Байкал – не просто природный объект, а живое существо, к которому испокон веков относятся с уважением.

И, пожалуй, самый главный совет: найдите на берегу тихое место, останьтесь наедине с Байкалом и просто послушайте. Очень часто именно там люди получают ответы на вопросы, с которыми приехали.

Ehtimol, eng asosiy maslahat: qirg‘oqda xilvat bir go‘sha topib, Baykal bilan yolg‘iz qoling va shunchaki uni tinglang. Ko‘pincha odamlar o‘zlarining savollariga aynan o‘sha yerda javob topishadi.

CENTRUMAIR РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ
3 ч. 45 мин.
KJA КРАСНОЯРСК
ОТ 1,9 млн сум

# KUZDA BAYKALDA AMALGA OSHIRISH MUMKIN BO'LGAN TOP-3 ISHLAR

## ТОП-3 ДЕЛ НА БАЙКАЛЕ ОСЕНЬЮ



1

Посетить юг Байкала – посёлок Танхой и Байкальский государственный биосферный заповедник. Там расположен визит-центр «Байкал заповедный» – туристический комплекс мирового уровня, проложены экологические тропы (более 93 км), в том числе тропа с широким деревянным настилом длиной 2,6 км. В заповеднике обязательно понаблюдайте за белками и бурундуками.

Baykalning janubiy qismidagi Tanxoy posyolkasi va Baykal davlat biosfera qo'riqxonasiga tashrif buyurish. U yerda jahon darajasidagi turizm markazi bo'lgan «Daxlsiz Baykal» tashrif markazi joylashgan bo'lib, unda umumiy uzunligi 93 km dan ortiq ekologik so'qmoqlar, jumladan, 2,6 km uzunlikdagi keng yog'och to'shamali yo'lak yotqizilgan. Qo'riqxonada olmaxon va burunduqlarni kuzatishni unutmang.

2

Поймать дзен в посёлке Большие Ко́ты. В отличие от туристической Листвянки (она находится всего в 20 км) здесь тихо и спокойно: всё дело в труднодоступности места, попасть сюда можно или пешком, или водным транспортом.

Bolshie Koti posyolkasida dzen holatini topish. Listvyanka sayyohlik maskanidan (atigi 20 km uzoqlikda joylashgan) farqli o'laroq, bu yerda sokinlik va osoyishtalik hukm suradi: bunga esa manzilning chekkadaligi sababdir, chunki u yerga qatnov faqat piyoda yo'laklar yoki suv transporti bilan cheklangan.





3

Добраться до Тажеранской степи и бухты Ая на юго-западном побережье. Здесь можно застать стихию и замереть от восхищения, глядя на то, какой Байкал бескрайний.

Tajeran dashti va janubi-g'arbiy qirg'oqdagi «Aya» ko'rfaziga yetib borish. Bu yerda tabiat qudratiga duch kelish va Baykalning naqadar cheksiz ekanidan hayratga tushish mumkin.





# QISHDA BAYKALDA AMALGA OSHIRISH MUMKIN BO'LGAN TOP-3 ISHLAR

## ТОП-3 ДЕЛ НА БАЙКАЛЕ ЗИМОЙ




1

Побывать в арктическом лагере «БОРО-БОРО», созданном по аналогии с полярными исследовательскими базами, в центре пролива Малое Море: поиграть там в ледовый боулинг и, как бы неожиданно это не прозвучало, позагорать. Лагерь стоит прямо на льду: внизу прозрачная толща 120 м, а вокруг – бескрайние ледяные просторы.

Kichik dengiz bo'g'ozi markazida qutb tadqiqot bazalari qiyofasida barpo etilgan «BORO-BORO» Arktika lageriga tashrif buyurish: u yerda muz boulingi o'ynash va naqadar g'alati eshitilmasin, oftobda toblanish. Lager bevosita muz ustida joylashgan: ostingizda 120 metr qalinlikdagi shaffof muz qatlami, atrofingizda esa cheksiz muzliklar yastanib yotadi.

2

Моё любимое место зимой – остров Еленка. Вокруг этой скалы эффектно замерзает лёд – с трещинами, торосами и сокуями – ледовыми наплесками. В отличие от Ольхона, остров можно обойти пешком прямо по льду и сделать красивые фотографии.

Bolshie Koti posyolkasida dzen holatini topish. Listvyanka sayyohlik maskanidan (atigi 20 km uzoqlikda joylashgan) farqli o'laroq, bu yerda sokinlik va osoyishtalik hukm suradi: bunga esa manzilning chekkadaligi sababdir, chunki u yerga qatnov faqat piyoda yo'laklar yoki suv transporti bilan cheklangan.






3

Лечь в тихой бухте на лёд ночью, смотреть на звёзды и слушать, как Байкал с вами говорит.

Tunda sokin ko'rfazda muz ustiga yotib, yulduzlarni tomosha qilish va Baykalning siz bilan so'zlashayotganini tinglash.





### АЙБЗЕЕ: ИЗУМРУД У ПОДНОЖИЯ ЦУГШПИТЦЕ

В Баварских Альпах, у подножия самой высокой вершины Германии – горы Цугшпитце, – раскинулось одно из красивейших озёр этого региона – кристально чистое Айбзее *(Eibsee)*. Это единственное место в нашей подборке, где можно увидеть водную гладь с высоты канатной дороги, а затем спуститься к самому берегу.

Небольшой совет: если вы отправитесь на Айбзее из Франкфурта-на-Майне на автомобиле (время в дороге составит около пяти часов), обязательно сделайте остановки у Ульмского собора – одного из самых высоких в мире – и знаменитого замка Нойшванштайн, ставшего прообразом сказочного замка из заставки мультфильмов Walt Disney.

### AYBZEE: SUGSHPITSE ETAGIDAGI ZUMRAD

Bavariya Alp tog‘larida, Germaniyaning eng baland cho‘qqisi – Sugshpitse tog‘i etagida, ushbu mintaqaning eng go‘zal ko‘llaridan biri – billurdek tiniq Aybzee (Eibsee) ko‘li yastanib yotadi. Bu bizning tanlanmamizdagi osma yo‘l balandligidan suv sathini tomosha qilib, so‘ng sohilga tushish mumkin bo‘lgan yagona joydir.

Kichik bir maslahat: agar Aybzeega Frankfurt-Mayn shahridan avtomobilda boradigan bo‘lsangiz (taxminan besh soatlik yo‘l), dunyodagi eng baland soborlardan biri bo‘lgan Ulm ibodatxonasi hamda Walt Disney multfilmlari muqaddimasidagi ertaknamo qasrga prototip bo‘lgan mashhur Noyshvanshtayn qasri oldida albatta to‘xtab o‘ting.



**Марина Метцлер, 5 лет живёт в Баварии.**
— Мы приехали сюда сразу после первых послаблений, связанных с пандемией. К тому моменту наша семья уже около года жила в Баварии, и однажды мы решили подняться на Цугшпитце – самую высокую вершину страны (целых 2962 метра!). С неё открываются виды сразу на четыре государства, а подняться можно как со стороны Германии, так и со стороны Австрии. Удивительное место, где на фоне величественных Альп так гармонично переплетаются две культуры, две страны.

**Marina Mettsler, 5 yildan beri Bavariyada yashaydi.**
— Biz bu yerga pandemiya bilan bog‘liq dastlabki yengilliklardan so‘ng darhol yetib keldik. O‘sha paytga kelib oilamizning Bavariyada yashayotganiga bir yilcha bo‘lib qolgandi. Bir kuni mamlakatning eng baland cho‘qqisi – Sugspitzega (naq 2962 metr!) chiqishga qaror qildik. Undan birvarakayiga to‘rtta davlatning manzarasi kaftdek ko‘rinib turadi, cho‘qqiga esa ham Germaniya tomonidan, ham Avstriya tomonidan chiqsa bo‘ladi. Bu – ulug‘vor Alp tog‘lari fonida ikki madaniyat, ikki mamlakat o‘zaro uyg‘unlashib ketgan ajoyib bir maskan.







Кстати, небольшой инсайдерский совет: канатная дорога из австрийского Эрвальда *(Tiroler Zugspitzbahn)* обычно обходится дешевле, чем подъём со стороны Германии из Грайнау *(Seilbahn Zugspitze)*.

Ожидая посадку в кабинку канатной дороги Seilbahn, я представляла захватывающие панорамы, острые горные пики и традиционные баварские блюда в кафе на вершине. Но реальность превзошла все ожидания! Уже во время подъёма мы заметили внизу нечто невероятное: словно огромный изумрудный глаз, переливающийся бесконечным множеством оттенков синего и зелёного, блестело озеро Айбзее. От этого вида невозможно было отвести взгляд – так и ехали, словно заворожённые, до самой станции на вершине Цугшпитце.

Darvoqe, kichik bir insayderlik maslahati: Avstriyaning Ervald shahridan ko'tariladigan dor yo'li *(Tiroler Zugspitzbahn)* odatda Germaniyaning Graynau shahri tomonidan chiqadigan dor yo'liga *(Seilbahn Zugspitze)* qaraganda ancha arzonga tushadi.

Seilbahn osma yo'lining kabinasiga chiqishni kutar ekanman, ko'z oldimga hayratomuz manzaralar, tik tog' cho'qqilari va yuqoridagi qahvaxonada an'anaviy Bavariya taomlari kelardi. Ammo voqelik men kutgandan ham a'lo bo'lib chiqdi! Hali tepaga ko'tarilayotganimizdayoq, pastdagi aqlbovar qilmas manzaraga ko'zimiz tushdi: moviy va yashil ranglarning cheksiz jilolari bilan tovlanayotgan ulkan zumrad ko'z misoli Aybzee ko'li yaraqlab yotardi. Bu manzaradan ko'z uzib bo'lmasdi –

Позже мы узнали, что на Айбзее можно остановиться в милых отелях, прогуляться по круговому маршруту вокруг озера протяжённостью около 7 км, заняться водными видами спорта и искупаться на оборудованных пляжах. Зима – тоже отличное время для визита: по-прежнему доступна пешеходная дорожка со сказочными пейзажами, а для любителей активного отдыха открыты горные трассы для катания.

Иногда самые яркие впечатления рождаются совершенно случайно. Для меня Айбзее стал именно таким местом – сначала мимолётным открытием из окна канатной дороги, а потом озером, к которому хочется возвращаться вновь и вновь.

Sugshpitse cho'qqisidagi bekatgacha go'yo sehrlangan kabi yo'lda davom etdik.

Keyinroq bildikki, Aybzeeda bir-biridan shinam mehmonxonalarda qolish, ko'l atrofidagi yetti kilometrli aylanma yo'lak bo'ylab sayr qilish, suv sporti bilan shug'ullanish va jihozlangan plyajlarda cho'milish mumkin ekan. Qish fasli ham sayohat uchun juda qulay vaqt hisoblanadi: ertaknamo manzaralarga boy piyoda sayr yo'lagi hamon ochiq bo'ladi, faol hordiq chiqarish ixlosmandlari uchun esa tog'-chang'i trassalari xizmat ko'rsatadi.

Ba'zan eng yorqin taassurotlar mutlaqo tasodifan paydo bo'ladi. Men uchun Aybzee ana shunday maskanga aylandi: avvaliga osma yo'ldan ko'zga tashlangan bir lahzalik kashfiyot, so'ngra esa qayta va qayta intilish istagini uyg'otadigan musaffo ko'lga aylandi.

CENTRUMAIR РЕГУЛЯРНЫЕ РЕЙСЫ
TAS ТАШКЕНТ
7 ч. 20 мин.
FRA ФРАНКФУРТ
от 2,5 млн сум

# TOZA SUV – UZOQ UMR KO‘RISH ASOSI: ZAMONAVIY TIBBIYOTNING GLOBAL KUN TARTIBIGA NIGOHI

## ЧИСТАЯ ВОДА КАК ОСНОВА ДОЛГОЛЕТИЯ: ВЗГЛЯД СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЫ НА ГЛОБАЛЬНУЮ ПОВЕСТКУ



**Камиля Табеева**
*заведующая отделением эндокринологии, эксперт в области профилактической и антивозрастной медицины, руководитель проекта «Женщина-врач». Кандидат наук, доктор медицинских наук.*



**Kamilla Tabeyeva**
*endokrinologiya bo‘limi mudiri, profilaktik va anti-age tibbiyot sohasi eksperti, «Ayol-shifokor» loyihasi rahbari. Fan nomzodi, tibbiyot fanlari doktori.*

Водная повестка ООН на 2026 год, пиком которой станет Международная конференция по водным ресурсам в Абу-Даби (8–10 декабря), впервые ставит вопрос качества воды не просто как экологический фактор, а как системную угрозу глобальному общественному здоровью. В рамках концепции One Health («Единое здоровье») устойчивость водных экосистем напрямую определяет биологическую безопасность человека.

Разрабатывая индивидуальные стратегии активного долголетия, эксперты Европейского медицинского центра (EMC) всегда учитывают фундаментальное влияние внешней среды. Нарушение баланса водных ресурсов запускает цепную реакцию: снижение качества природной фильтрации приводит к накопительной токсической нагрузке – скрытому фактору риска, по оценкам ВОЗ угрожающему здоровью свыше 2 миллиардов человек.

BMTning 2026-yilga mo‘ljallangan suv dasturining eng oliy tadbiri – Abu-Dabi shahrida bo‘lib o‘tadigan Xalqaro suv resurslari konferensiyasi (2026-yil 8–10-dekabr) – ilk bor suv tozaligi muammosini shunchaki ekologik omil emas, balki global jamoat salomatligi uchun tizimli tahdid sifatida o‘rtaga tashlamoqda. «Yagona salomatlik» (One Health) konsepsiyasi doirasida suv ekotizimlarining barqarorligi insonning biologik xavfsizligini bevosita belgilaydi.

Yevropa tibbiyot markazi (EMC) ekspertlari faol uzoq umr ko‘rishning individual strategiyalarini ishlab chiqishda tashqi muhitning fundamental ta’sirini doimo inobatga olishadi. Suv resurslari muvozanatining buzilishi zanjirli reaksiyani boshlab beradi: tabiiy filtratsiya sifatining pasayishi JSST ma’lumotlariga ko‘ra 2 milliarddan ortiq odam salomatligiga tahdid soladigan yashirin xavf omili – organizmda toksik yuklamaning to‘planishiga olib keladi.

### СКРЫТЫЕ УГРОЗЫ: МИКРОПЛАСТИК И ХИМИЧЕСКАЯ ТОКСИЧНОСТЬ


Особую тревогу медицинского сообщества вызывает накопительное загрязнение водной среды микро- и нанопластиком, а также стойкими химическими соединениями. Проникая в организм человека через питьевую воду и пищевые цепи, они действуют по трём опасным векторам:

1. Нанопластиковый барьер: частицы размером менее 1 мкм способны преодолевать плацентарный и гематоэнцефалический барьеры, накапливаясь во внутренних органах и провоцируя хроническое системное воспаление на клеточном уровне.
2. Эффект токсического переноса: частицы пластика адсорбируют пестициды, тяжелые металлы и стойкие органические загрязнители, высвобождая этот токсичный коктейль внутри тканей.
3. Эндокринные разрушители (EDC): вымываемые из пластика фталаты и бисфенол А (BPA) имитируют гормоны человека. Это напрямую коррелирует с ростом патологий щитовидной железы, метаболическими сбоями и снижением репродуктивной функции (невынашивание, снижение фертильности).
4. Фактор «вечных химикатов» (PFAS): промышленные компоненты не разлагаются в воде, накапливаются в городских системах водоснабжения и вызывают долгосрочные иммунные сбои и повышение онкологических рисков.

### YASHIRIN TAHDIDLAR: MIKROPLASTIK VA KIMYOVIY TOKSIKLIK

Suv muhitining mikro- va nanoplastiklar, shuningdek, turg‘un kimyoviy birikmalar bilan asta-sekin ifloslanib borishi tibbiyot hamjamiyatida alohida xavotir uyg‘otmoqda. Bu moddalar inson organizmiga ichimlik suvi va oziq-ovqat zanjirlari orqali kirib, uchta xavfli yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi:

1. Nanoplastik to‘siq: hajmi 1 mkm dan kichik bo‘lgan zarrachalar platsentar hamda gematoensefalik to‘siqlarni yengib o‘tishga qodir va ichki a’zolarda to‘planib, hujayra darajasida surunkali tizimli yallig‘lanishni qo‘zg‘atadi.
2. Toksiklikni tashish effekti: plastik zarrachalari pestitsidlar, og‘ir metallar va turg‘un organik ifloslantiruvchilarni o‘ziga adsorbsiya qilib, to‘qimalar ichida ushbu zaharli kokteylni ajratib yuboradi.
3. Endokrin tizimini buzuvchilar (EDC): Plastmassadan ajralib chiqadigan ftalatlar va bisfenol A (BPA) moddalari inson gormonlarini imitatsiya qiladi. Bu esa qalqonsimon bez patologiyalarining ortishi, moddalar almashinuvining buzilishi va reproduktiv funksiyaning pasayishi (homila tushishi, fertillikning kamayishi) bilan bevosita bog‘liq.
4. «Abadiy kimyoviy moddalar» (PFAS) omili: sanoat komponentlari suvda parchalanmaydi, shahar suv ta’minoti tizimlarida to‘planadi hamda uzoq muddatli immun tizimi buzilishlariga va onkologik xatarlarning ortishiga sabab bo‘ladi.




По оценкам Global Wellness Institute, глобальные медицинские расходы, связанные с воздействием пластика и эндокринных нарушений, превысят порог в 250 млрд долларов ежегодно к 2030 году.

### ПРЕВЕНТИВНАЯ МЕДИЦИНА И ЭКОСИСТЕМНЫЙ ПОДХОД

Борьба с инфекционными заболеваниями и метаболическими сбоями сегодня начинается не только в кабинете врача, но и с экологической безопасности окружающей среды в целом. Поддержка инициатив по интегрированному управлению водными ресурсами – это вклад в предотвращение пандемий и снижение бремени неинфекционных заболеваний.

В EMC мы убеждены: будущее превентивной медицины и активного долголетия невозможно без осознания связи между чистой водой и качеством жизни. Защита водных ресурсов – это фундаментальная инвестиция в здоровье будущих поколений.

Global Wellness Institute hisobotiga ko‘ra, 2030-yilga borib plastik va endokrin buzilishlar bilan bog‘liq yillik global tibbiy xarajatlar miqdori 250 milliard dollardan oshib ketadi.

### PREVENTIV TIBBIYOT VA EKOTIZIMLI YONDASHUV

Bugungi kunda yuqumli kasalliklar va metabolik buzilishlarga qarshi kurash nafaqat shifokor qabulxonasida, balki umuman, atrof-muhitning ekologik xavfsizligini ta’minlashdan boshlanadi. Suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash – pandemiyalarning oldini olish va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar yukini kamaytirishga qo‘shilgan hissadir.

EMC klinikasida biz shunga aminmizki, toza suv va hayot sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglamasdan turib, preventiv tibbiyot hamda faol uzoq umr ko‘rishning kelajagini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Suv resurslarini muhofaza qilish – kelajak avlodlar salomatligiga kiritilgan fundamental sarmoyadir.




# VLADIMIR MUXIN: «BOSH OSHPAZ UCHUN SUV – BU TO‘LAQONLI BIR MASALLIQ»

## ВЛАДИМИР МУХИН: «ДЛЯ ШЕФ-ПОВАРА ВОДА — ЭТО ПОЛНОЦЕННЫЙ ИНГРЕДИЕНТ»



Владимир Мухин стал первым российским шеф-поваром, о котором снял фильм Netflix: его история вошла в третий сезон культового сериала Chef's Table. Сегодня он – обладатель звезды Michelin, входит в десятку лучших шеф-поваров мира по версии The Best Chef Awards и считается одним из главных амбассадоров современной гастрономии. Но этот разговор оказался не столько о высокой кухне, сколько о памяти, вкусах, которые остаются с нами на всю жизнь. Вместе мы вспоминаем бабушкины рецепты, пытаемся понять, почему вода для повара – такой же важный ингредиент, как мясо или овощи, и рассуждаем о том, как еда помогает человеку вернуться к самому себе.

**— Владимир, вы не раз говорили, что работа шеф-повара начинается задолго до кухни. Что для вас значит быть шефом?**

— Для меня это почти то же самое, что быть музыкантом. Я беру разные ингредиенты и создаю из них гармонию, словно соединяя отдельные звуки в единое произведение. И чем богаче палитра продуктов, тем больше вкусовых «нот».

Более того, считаю, что с помощью еды можно разговаривать с человеком. Если бы в школе существовал предмет «Гастрономия» и меня попросили рассказать, как я провёл лето в Ташкенте, я не стал бы писать сочинение, а приготовил блюдо. Для меня именно оно стало бы этим рассказом.

Vladimir Muxin «Netflix» film suratga olgan ilk rossiyalik bosh oshpaz bo‘ldi: u haqida hikoya mashhur «Chef’s Table» serialining uchinchi mavsumidan o‘rin oldi. Bugungi kunda u Michelin yulduzi sohibi, «The Best Chef Awards» talqiniga ko‘ra dunyoning eng yaxshi o‘n nafar bosh oshpaz qatorida va zamonaviy gastronomiyaning asosiy ambassadorlaridan biri sanaladi. Biroq bu suhbatimiz yuksak pazandalikdan ko‘ra, bir umr biz bilan qoladigan xotiralar va ta’mlar haqida bo‘ldi. Birgalikda buvimizning retseptlari ta’mini yodga olamiz, oshpaz uchun nima sababdan uchun suv ham go‘sht yoki sabzavotlar kabi muhim masalliq ekanini anglashga harakat qilamiz hamda taom insonning o‘zligiga qaytishiga qanday yordam berishi haqida fikr yuritamiz.

**— Vladimir, siz ko‘p bora bosh oshpazning ishi oshxonadan ancha oldin boshlanishini aytgansiz. Siz uchun bosh oshpaz bo‘lish nimani anglatadi?**

— Men uchun bu sozanda bo‘lish bilan barobar. Masalliqlarni xuddi alohida sadolarni yagona asarga jamlagandek birlashtiraman. Mahsulotlar palitrasi qanchalik boy bo‘lsa, ta’m «notalari» ham shuncha ko‘p bo‘ladi.

Ustiga-ustak, taom yordamida inson bilan muloqot qilish mumkin. Agar maktabda «Gastronomiya» fani bo‘lganida va mendan Toshkentda yozni qanday o‘tkazganim haqida so‘rashganida, insho o‘rniga taom tayyorlagan bo‘lardim — u men uchun butun bir hikoya bo‘lar edi.

**— И каким был бы этот образ?**
— Наверное, это были бы спелые, сочные персики с помидорной водой. А ещё лучше – жареные персики с чёрным перцем и ванильным мороженым с тем самым пломбирным вкусом, а сверху бы добавил кристалл виноградного сахара. Мне кажется, этого достаточно – так мы убираем всё лишнее и оставляем самое главное.

**— Есть ли вкус, который мгновенно возвращает вас в детство?**
— Конечно. Признаться, меня давно интересует эта тема. В какой-то момент я увлёкся синестезией. О ней говорили и Кандинский, и Набоков. Цвет, запах, вкус – всё это связано гораздо сильнее, чем кажется.

Представьте: вы берете красное яблоко, а оно оказывается кислым или горьким. Возникает внутренний диссонанс, потому что такое яблоко в нашем восприятии должно быть сладким. И это ожидание рождается ещё в детстве.

Когда-то дедушка сорвал яблоко прямо с дерева, вытер его о рубашку и протянул тебе; или бабушка испекла шарлотку; мама сварила компот, сделала варенье или сок. Или ты впервые попробовал яблоко на рынке, и этот момент оказался таким счастливым! Подобные воспоминания остаются с человеком навсегда.

Психологи называют это «кормить внутреннего ребёнка». Помните мультфильм «Рататуй»? Там есть сцена, где критик пробует рататуй и в одно мгновение переносится в детство: снова становится мальчиком, которому бабушка поставила на стол тарелку с этим блюдом.

На самом деле эта сцена совсем не про еду. Она про любовь, заботу, безопасность, счастье. Настоящая еда умеет возвращать человека к самому себе. Как будто смывает всё лишнее, и ты снова становишься тем ребёнком, которым когда-то был.

Если повару удается хотя бы немного попасть в эти детские воспоминания, человек почти наверняка скажет, что ресторан хороший и еда удалась. Но к этому пониманию приходишь только после того, как очень долго готовишь для людей.

Со временем я понял ещё одну важную вещь: прежде чем готовить, нужно спросить человека, чего он действительно хочет. Обычно гость открывает меню и выбирает блюдо почти случайно, а ведь можно задать простой вопрос: «Какое блюдо из детства вызывает у вас самые тёплые воспоминания?». Вот расскажите мне, пожалуйста.

**— Борщ, который готовила бабушка. Она всегда говорила, что не умеет его готовить, но после её борща я какой-либо другой уже не могу воспринимать.**
— Настоящий красный?

**— Да, такой, что ложка стояла. Она готовила его в настоящей печи.**
— Видите, у каждого из нас свой вкус детства. И когда человек вдруг получает ту самую тарелку борща, он проваливается в воспоминания. Наверное, поэтому еда – это своего рода медитация. И ещё это невероятная soft power, объединяющая людей. Стоит поставить на стол плов, как разговоры о политике, работе, проблемах сами собой заканчиваются. Все начинают спорить уже совсем о другом: какой плов вкуснее.

**— Xo‘sh, bu qanday obraz bo‘ladi?**
— Sershira, pishib yetilgan shaftoli va pomidor suvining uyg‘unligi bo‘lsa kerak. Yana ham yaxshisi – aynan o‘sha plombir ta’miga ega, qora murch va vanilli muzqaymoq hamrohligidagi qovurilgan shaftoli, ustiga esa uzum shakaridan kristall qo‘shgan bo‘lardim. Menimcha, shuning o‘zi kifoya – shunda biz barcha ortiqcha narsalarni olib tashlab, eng asosiysini qoldirgan bo‘lamiz.

**— Sizni bir zumda bolalikka qaytaradigan ta’m bormi?**
— Albatta. Ochig‘ini aytsam, bu mavzu meni anchadan beri qiziqtirib keladi. Bir paytlar sinesteziya bilan juda qiziqib qolganman. Bu haqda Kandinskiy ham, Nabokov ham so‘z yuritgan. Rang, hid, ta’m – bularning barchasi biz o‘ylaganimizdan ko‘ra ancha mustahkamroq bog‘langan.

Tasavvur qiling: qo‘lingizga qip-qizil olma oldingiz-u, u nordon yoki achchiq bo‘lib chiqdi. Bu holatda ichki ziddiyat yuzaga keladi, chunki bizning tasavvurimizda bunday olma shirin bo‘lishi kerak. Bu kutish hissi esa aynan bolalikda shakllanadi.

Qachonlardir bobongiz daraxtdan olma uzib, ko‘ylagiga artgancha sizga uzatgan. Yoki buvingiz «Sharlotka» pishirib bergan. Onangiz kompot qaynatgan, murabbo yoki sharbat tayyorlagan. Balki olmani ilk bor bozorda tatib ko‘rgandirsiz – o‘sha lahza shunchalar baxtli tuyulgandir! Bunday xotiralar inson bilan bir umrga qoladi.

Psixologlar buni «ichki bolani oziqlantirish» deb atashadi. «Ratatuy» multfilmi esingizdami? Unda tanqidchi ratatuyni tatib ko‘rishi bilan bir zumda bolaligiga qaytib, buvisi dasturxonga shu taomni qo‘yib bergan kichkina bolakayga aylanib qoladigan sahna bor.

Aslida, bu sahna umuman taom haqida emas. U mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik, xavfsizlik va baxt haqida. Yaxshi taom insonni o‘zligiga qaytarishga qodir. Go‘yo barcha ortiqcha narsalarni yuvib tashlaydi-yu, siz yana o‘sha bolakayga – qachonlardir bo‘lgan bolakayga aylanasiz.

Agar oshpaz insonning bolalik xotiralarini biroz bo‘lsa-da uyg‘ota olsa, mehmon bu restoranni ham, taomni ham a’lo darajada deb aytishi turgan gap. Biroq bu haqiqatni faqat odamlar uchun uzoq yillar davomida taom tayyorlabgina anglab yetasiz.

Vaqt o‘tishi bilan yana bir muhim haqiqatni angladim: taom tayyorlashdan avval, insondan uning aslida nima istayotganini so‘rash kerak ekan. Odatda, mehmon taomnomani ochadi-yu, taomni deyarli tasodifan tanlaydi. Vaholanki, unga oddiygina savol berish mumkin: «Bolaligingizdagi qaysi taom sizda eng shirin xotiralarni uyg‘otadi?». Qani, siz ham menga aytib bering-chi.

**— Bu buvim pishirgan borsh. U kishi doim borsh pishirishni bilmayman deb aytardilar, lekin ularning borshlaridan keyin men boshqa birortasini tan ololmaydigan bo‘lib qolganman.**
— Haqiqiy qizil borshmidi?

**— Ha, qoshiq tik turadigan darajada quyuq bo‘lardi. Buvim uni rosmana pechda pishirar edilar.**
— Ko‘ryapsizmi, har birimizning bolalikdagi o‘z ta’mimiz bor. Inson oldiga aynan o‘sha, bolaligidagi bir kosa borsh qo‘yilsa, xotiralar ummoniga g‘arq bo‘ladi. Shu sababdan ham taom tanovul qilish – o‘ziga xos bir meditatsiya bo‘lsa kerak. Yana bu – odamlarni birlashtiradigan ajoyib bir «soft power». Dasturxonga osh tortilishi bilan siyosat, ish, muammolar haqidagi suhbatlar o‘z-o‘zidan to‘xtaydi. Hamma endi butunlay boshqa narsa – qaysi palov mazaliroq ekani haqida bahslasha boshlaydi.

VAQT O‘TISHI BILAN BIR MUHIM NARSANI ANGLADIM — TAOM TAYYORLASHDAN AVVAL ODDIY SAVOL BERISH KERAK: «BOLALIGINGIZDAGI QAYSI TAOM SIZDA ENG SHIRIN XOTIRALARNI UYG‘OTADI?»
СО ВРЕМЕНЕМ Я ПОНЯЛ ОДНУ ВАЖНУЮ ВЕЩЬ: ПРЕЖДЕ ЧЕМ ГОТОВИТЬ, НУЖНО ЗАДАТЬ ПРОСТОЙ ВОПРОС: «КАКОЕ БЛЮДО ИЗ ДЕТСТВА ВЫЗЫВАЕТ У ВАС САМЫЕ ТЁПЛЫЕ ВОСПОМИНАНИЯ?»





# MENIMCHA, YAXSHI BOSH OSHPAZ GO‘SHT YOKI SABZAVOT TANLAGANI KABI SUVNI HAM SHUNDAY SINCHKOVLIK BILAN TANLASHI LOZIM
# МНЕ КАЖЕТСЯ, ХОРОШИЙ ШЕФ ДОЛЖЕН ВЫБИРАТЬ ВОДУ ТАК ЖЕ ВНИМАТЕЛЬНО, КАК ВЫБИРАЕТ МЯСО ИЛИ ОВОЩИ

Для меня каждая поездка в Узбекистан – это новый плов. Хотя приезжаю я сюда часто, он никогда не повторяется. Даже если рецепт один и тот же, каждый повар добавляет что-то своё: чуть больше зиры, изюма, по-другому готовит морковь. Рис впитывает все нюансы – в этом и заключается уникальность плова.

Вообще, мне кажется, что гид «Мишлен» должен был обратить внимание на Узбекистан уже давно. Здесь есть чем гордиться: вкусами, традициями и гастрономической культурой, которая удивительным образом сохранилась.

**— Но если вернуться к вопросу о том, какой вкус сильнее всего возвращает вас в детство, что вы ответите?**

— Наверное, вкус бабушкиных солёных помидоров. Я повар в пятом поколении, и именно бабушка сформировала мои главные гастрономические воспоминания. Возле её дома росла огромная сосна – такая мощная, что корни приподнимали фундамент, а под ней стояла большая дубовая бочка с помидорами.

Их вкус менялся вместе с сезоном. Сначала они были слабосолёными, почти игристыми – буквально взрывались во рту, со временем становились всё насыщеннее. Для меня это было настоящее таинство!

Потом бабушки не стало... Сосну срубили, и вместе с ней словно исчезла целая эпоха. Но рецепт сохранился, и я продолжил солить помидоры. Более того, у меня есть авторский сет, посвящённый пяти стадиям принятия по Элизабет Кюблер-Росс. На стадии гнева я подаю именно эти помидоры.

**— Наш выпуск посвящен воде. Вы много лет исследуете локальные продукты и гастрономические традиции разных регионов. Какую роль в этом путешествии играет вода? Можно ли сказать, что она так же формирует вкус территории, как климат или почва?**

— Для меня вода – это полноценный ингредиент. Будучи поваром, тщательно подбираю воду для кухни. Недалеко от Ельца есть место – Варгол, где бьют минеральные источники, часто именно эта вода используется нами для приготовления кваса для окрошки либо варки бульонов.

Мне кажется, хороший шеф должен выбирать воду так же внимательно, как выбирает мясо или овощи.

**— Насколько место – его природа, вода, люди – меняет не только кухню, но и самого повара?**

— Думаю, значительно. Однажды я оказался на Алтае, а именно реке Кучерле, где сильна легенда о Беловодье. Старообрядцы верили, что если добраться до Белых Вод, человек обретёт вечную жизнь.

Когда я впервые оказался рядом с Белухой, это стало для меня настоящим откровением. Мне предложили подлететь к горе на вертолёте. Высаживаться было нельзя, но перед вылетом кто-то сказал: «Если хочешь, можешь задать горе вопрос».

И уже в воздухе я неожиданно спросил: «Зачем я пришел на эту планету?». Ответ пришёл мгновенно: «Помогать людям».

После этого многое встало на свои места. Я понял, что именно так воспринимаю свою профессию. Считаю, чем больше появляется мест, где человека могут сделать счастливее с помощью еды, тем лучше. Для меня каждый ресторан – это отдельный мир, за которым стоит большое сообщество: около ста сотрудников кухни и зала, их семьи, люди, которые ежедневно создают одну культуру вкуса. У нас даже есть внутреннее понятие «носитель вкуса» – это клиент, который настолько хорошо знаком со спецификой наших блюд, что может приехать в любой ресторан, попробовать их и сразу понять, где что изменилось. Мы очень внимательно относимся к такой обратной связи и всегда используем её в работе.

Вот почему открывать «Горыныч» в Ташкенте было большой ответственностью. Для меня Узбекистан – настоящая гастрономическая Мекка. Здесь невозможно конкурировать с традицией, можно только существовать рядом с ней.

**— Можно ли понять страну, не попробовав её воду?**

— Думаю, нет. Однажды я засолил огурцы в воде алтайской реки. Давно хотел попробовать именно такой эксперимент, и, честно говоря, это были самые вкусные солёные огурцы в моей жизни.

Поэтому, наверное, страну действительно можно понять через воду. Я вырос рядом с минеральными источниками, и пока другие ездили туда пить воду, в детстве вообще принимал в ней ванны. Поэтому вода для меня – очень важная стихия.

Men uchun O‘zbekistonga qilgan har bir safarim – yangi bir palov demak. Bu yerga tez-tez kelib tursam-da, u hech qachon takrorlanmaydi. Oshning retsepti bir xil bo‘lgan taqdirda ham, har bir oshpaz o‘zidan nimadir qo‘shadi: zirani biroz ko‘proq soladi, mayiz qo‘shadi, sabzini o‘zgacha tayyorlaydi. Guruch ana shu nozik jihatlarni o‘ziga shimdirib oladi – palovning betakrorligi ham aynan shunda.

O‘zi, nazarimda, «Mishlen» gidi O‘zbekistonga ancha oldin kelishi kerak edi. Bu yerda faxrlanishga arziydigan narsalar juda ko‘p: ta’mlar, an’analar va ajoyib tarzda saqlanib qolgan gastronomik madaniyat shular jumlasidandir.

**— Yana o‘sha savolga qaytsak: aynan qaysi ta’m sizni bolalikka qaytaradi?**

— Buvim tuzlagan pomidorlarning ta’mi bo‘lsa kerak. Men beshinchi avlod oshpazman va aynan buvim mening asosiy gastronomik xotiralarimni shakllantirganlar. Uylarining yonida bahaybat bir qarag‘ay o‘sardi – u shunday qudratli ediki, ildizlari hatto poydevorni ham ko‘tarib yuborgandi. O‘sha daraxtning tagida pomidor solingan katta eman bochka turardi.

Ularning mazasi faslga qarab o‘zgarib borardi. Avvaliga ular kam tuzli bo’lib, og‘izda chirt etib yorilardi. Keyin esa ta’mi tobora to‘yinib borardi. Men uchun bu haqiqiy bir sir-sinoat edi!

Keyin buvim olamdan o‘tdilar... Qarag‘ay kesildi, u bilan birga butun bir davr ham g‘oyib bo‘lgandek edi. Ammo retsept saqlanib qoldi, men pomidor tuzlashni davom ettirdim. Qolaversa, Elizabet Kyubler-Rossning qabul qilishning besh bosqichiga oid mualliflik setim ham bor. G‘azab bosqichida men shu pomidorlarni tortaman.

**— Jurnalimizning ushbu soni suv mavzusiga bag‘ishlangan. Siz ko‘p yillardan beri turli hududlarning mahalliy mahsulotlari va gastronomik an’analarini tadqiq qilib kelasiz. Bu sayohatda suv qanday o‘rin tutadi? Uni ham xuddi iqlim yoki tuproq kabi hudud ta’mini shakllantiruvchi omil deyish mumkinmi?**

— Men uchun suv – bu to‘laqonli masalliq. Oshpaz sifatida oshxona uchun suvni sinchiklab tanlaymiz. Yelets yaqinida Vargol degan joy bor, u yerda mineral buloqlar qaynab chiqadi. Biz ko‘pincha aynan o‘sha suvdan okroshka uchun kvas tayyorlashda yoki bulyonlar qaynatishda foydalanamiz.

Menimcha, yaxshi bosh oshpaz go‘sht yoki sabzavot tanlagani kabi suvni ham shunday sinchkovlik bilan tanlashi lozim.

**— Mintaqa, ya’ni uning tabiati, suvi, odamlari nafaqat taomnomani, balki oshpazning o‘zini ham qay darajada o‘zgartiradi?**

— Nazarimda, ancha jiddiy o‘zgartiradi. Bir kuni Oltoyda, Oq suvlar o‘lkasi – «Belovodye» haqidagi rivoyat keng tarqalgan Kucherla daryosi bo‘yida bo‘ldim. Qadimgi rus pravoslavlari Oq Suvlarga yetib borgan inson abadiy hayotga erishadi, deb ishonishgan.

Beluxa etagiga ilk bor qadamim yetganida, men uchun bu chinakamiga bir kashfiyot bo‘ldi. Menga tog‘ga vertolyotda uchib borishni taklif qilishdi. Unga qo‘nishning iloji yo‘q edi, biroq parvozdan oldin kimdir: «Istasang, tog‘dan bir narsa so‘rashing mumkin», dedi.

Ichimda: «Bu sayyoraga nima uchun keldim?» deb so‘radim. Tezda javobi keldi: «Odamlarga yordam berish uchun».

Shundan so‘ng hamma narsa o‘z iziga tushdi. Men o‘z kasbimni aynan shunday idrok etishimni anglab yetdim. Nazarimda, taom yordamida insonni baxtli qila oladigan maskanlar qanchalik ko‘paysa, shuncha yaxshi. Men uchun har bir restoran –alohida bir olam.

Har bir restoran ortida katta bir jamoa turadi: yuzga yaqin oshxona va zal xodimlari, ularning oilalari, har kuni yagona ta’m madaniyatini yaratadigan insonlar. Bizda hatto «ta’m sohibi» degan ichki tushuncha ham bo’lib, bu taomlarimiz lazzatini shu darajada yaxshi biladigan odamlarki, ular istalgan restoranga kelib, taomlarni tatib ko‘rishlari va nima o‘zgarganini darhol payqashlari mumkin. Biz bunday fikr-mulohazalarga juda diqqat bilan yondashamiz va doim ularni o‘z ishimizda inobatga olamiz.

Aynan shu sababli Toshkentda «Gorynich» restoranini ochish biz uchun katta mas’uliyat edi. Men uchun O‘zbekiston – haqiqiy gastronomik Makka. Bu yerda an’analar bilan raqobatlashib bo‘lmaydi, faqatgina ular bilan yonma-yon yashash mumkin, xolos.

**— Mamlakatning suvini tatib ko‘rmay turib, uni anglash mumkinmi?**

— O‘ylaymanki, yo‘q. Bir gal Oltoy daryosi suvida bodring tuzlagan edim va bu hayotimdagi eng mazali tuzlangan bodringlar bo‘lgan edi.

Shu bois mamlakatni chindan ham suv orqali anglash mumkin bo‘lsa kerak. Men mineral buloqlar yonida ulg‘ayganman, boshqalar u yerga chanqoq bosgani borganida, men bolaligimda o‘sha shifobaxsh buloqlar ichida cho‘milardim. Aynan mana shu sababli suv men uchun juda muhim unsur hisoblanadi.

**— Есть ли место, которое изменило вас как человека?**
— Определённо, Алтай. Именно поездка туда изменила мою жизнь и, наверное, моё отношение к ней. Если вы там ещё не были, обязательно съездите. Есть замечательный проект We Are Altay – ребята создают очень деликатные глэмпинги в самых красивых местах Алтая. Они практически не вмешиваются в природу: строят на сваях, чтобы не нарушать ландшафт. Там почти нетронутая человеком природа. Можно собирать местные ингредиенты, готовить из них, пробовать новые вкусы. Это очень сильный опыт.

**— Что вы ищете в новом месте прежде всего?**
— Новый вкус. Любая страна для меня начинается с рынка. Первым делом я еду туда пробовать продукты и искать ингредиенты, которые могут меня удивить. И всякий раз нахожу что-то новое.

Даже если приезжаешь в одно и то же место не впервые, всё равно открываешь его заново – появляются сезонные продукты, меняется ассортимент. Вот на рынок Чорсу я приезжал уже миллион раз, но всё время нахожу что-то, чего раньше не видел.

Вообще, по рынку можно многое понять о городе и его гастрономической культуре. Если рынок живой, а люди действительно думают о том, что купить домой и как это приготовить, – это говорит о многом. И каждый продавец – настоящий кладезь знаний. Я всегда подхожу и спрашиваю: «А как вы это готовите?», и в ответ обычно получаю не один, а сразу десяток рецептов.





**— Если бы у вас появилась возможность на время выпасть из привычного ритма жизни, куда бы вы отправились?**
— Честно говоря, мне нравится мой ритм, он даёт мне драйв. Хотя иногда, конечно, полезно остановиться, немного побыть наедине с собой, подумать, но для меня главное оставаться в процессе. Я – экстраверт, который учится через людей, общение с ними. Именно люди дают мне энергию.

При этом очень люблю долгие перелеты. Несмотря на то, что сегодня почти везде есть Wi-Fi, в самолёте всё равно появляется та редкая возможность отключиться от каждодневной суеты. Я пишу новые меню для ресторанов, придумываю блюда или просто читаю. Наверное, поэтому длинные перелёты для меня – тоже своего рода отдых.

**— Вернёмся к кухне. Что лично для вас означает ответственная работа с природными ресурсами? Если для блюда нужен редкий продукт, можно ли отказаться от него и найти альтернативу?**
— Конечно, можно, но замена ингредиента полностью меняет ход событий внутри блюда. Иногда мне достаточно попробовать его, чтобы многое понять о поваре: как он выстраивает вкус, как работает с продуктом. Но я убежден, что задача шефа – не усложнять, а упрощать. Есть известная мысль: скульптор не создает скульптуру – он просто отсекает от камня всё ненужное. С блюдом происходит то же самое. Для меня идеальный вкус – это сочетание двух-трёх ингредиентов.

**— Agar odatiy turmush tarzidan bir muddat g‘oyib bo‘lish imkoniyati tug‘ilsa, qayerga yo‘l olgan bo‘lardingiz?**
– Ochig‘ini aytsam, menga o‘z hayot maromim yoqadi, u meni olg‘a undaydi. Garchi ba’zida to‘xtab, biroz yolg‘iz qolish, o‘yga tolish foydali bo‘lsa-da, men uchun eng muhimi – jarayonning ichida qolish. Men odamlar orqali, ular bilan muloqot qilib o‘rganadigan ekstravertman. Aynan odamlar menga kuch-quvvat bag‘ishlaydi.

Lekin uzoq parvozlarni juda yaxshi ko‘raman. Bugun deyarli hamma yerda Wi-Fi bor bo‘lsa-da, samolyotda odatiy hayot maromidan biroz chekinish uchun noyob imkoniyat paydo bo‘ladi. Men restoranlar uchun yangi taomnomalar tuzaman, yangi taomlar o‘ylab topaman yoki shunchaki kitob o‘qiyman. Shundan bo‘lsa kerak, uzoq parvozlar o‘ziga xos hordiq bag‘ishlaydi.

**— Keling, yana oshxona mavzusiga qaytsak. Shaxsan siz uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanish nimani anglatadi? Agar biror taom uchun noyob masalliq kerak bo‘lsa, undan voz kechib, muqobil variantini topish mumkinmi?**
– Albatta, mumkin, lekin masalliqni almashtirish taomning butun ta’mini o‘zgartirib yuboradi. Ba’zida oshpazni anglash uchun taomni bir marta tatib ko‘rish kifoya: u ta’m zanjirini qanday qurgani, mahsulot bilan qanday ishlagani darrov ayon bo‘ladi. Ammo men bosh oshpazning vazifasi murakkablashtirish emas, aksincha, soddalashtirish ekaniga ishonaman. Mashhur bir fikr bor: haykaltarosh haykalni yaratmaydi – u shunchaki toshning ortiqcha qismlarini yo‘nib tashlaydi. Taom bilan ham xuddi shunday. Men uchun mukammal ta’m – bu ikki-uch mahsulotning uyg‘unligidir.

**— Sizni shaxs sifatida o‘zgartirgan biror joy bormi?**
– Shubhasiz, Oltoy. Aynan o‘sha yerga qilgan safarim hayotimni va, ehtimol, unga bo‘lgan munosabatimni butunlay o‘zgartirib yubordi. Agar hali u yerga bormagan bo‘lsangiz, albatta borib ko‘ring. «We Are Altay» nomli ajoyib loyiha bor – ular Oltoyning eng go‘zal joylarida tabiatga uyg‘un glempinglar barpo etishmoqda. Ular tabiatga deyarli aralashishmaydi: landshaftga ziyon yetkazmaslik uchun inshootlarni ustunlar ustiga qurishadi. U yerning tabiatiga inson qo‘li aslo tegmagan. Mahalliy masalliqlarni terib, ulardan taom pishirish, yangi ta’mlarni tatib ko‘rish mumkin. Bu juda kuchli taassurot qoldiradi.

**— Yangi maskanga borganingizda avvalo nimani qidirasiz?**
– Yangi ta’m. Men uchun har qanday mamlakat bozorlardan boshlanadi. U yerga birinchi navbatda mahsulotlarni tatib ko‘rish va meni hayratga soladigan masalliqlarni qidirish uchun boraman. Chindan ham, har safar yangi biror narsa topaman.

Hatto biror joyga birinchi marta kelmayotgan bo‘lsangiz ham, baribir uni o‘zingiz uchun qaytadan kashf etasiz – mavsumiy mahsulotlar paydo bo‘ladi, xilma-xillik o‘zgaradi. Masalan, «Chorsu» bozoriga million marta kelganman, lekin har gal ilgari ko‘rmagan biron narsani topaman.

Umuman, bozorga qarab shahar va uning gastronomik madaniyati haqida ko‘p narsani tushunsa bo‘ladi. Agar bozor gavjum bo‘lsa, odamlar chindan ham uyga nimadir xarid qilish va uni qanday tayyorlash haqida o‘ylasa, bu ko‘p narsadan dalolat beradi. Har bir sotuvchi esa chinakam bilimlar xazinasidir. Men har doim ular yoniga borib: «Bu qanday tayyorlanadi?» deb so‘rayman va javobiga odatda bitta emas, birdaniga o‘nlab retseptlarni olaman.



CENTRUMAIR

GASTRONOMIYA QANCHALIK O‘ZGARMASIN, UNING ODAMLARNI BIR DASTURXON ATROFIDA JAMLASH VA ULARGA HIS-TUYG‘ULAR HADYA ETISH BO‘LGAN MOHIYATI O‘ZGARMAYDI. QOLGAN BARCHA NARSA – SHUNCHAKI VOSITA, XOLOS

КАК БЫ НИ МЕНЯЛАСЬ ГАСТРОНОМИЯ, ЕЁ СМЫСЛ ОСТАНЕТСЯ ПРЕЖНИМ: СОБИРАТЬ ЛЮДЕЙ ЗА ОДНИМ СТОЛОМ И ДАРИТЬ ИМ ЭМОЦИИ. ВСЁ ОСТАЛЬНОЕ – ЛИШЬ ИНСТРУМЕНТЫ

Поэтому поиск замены – это не уступка обстоятельствам, а возможность придумать новое блюдо. Если бы меня спросили, какое самое удачное блюдо я придумал, я бы ответил: кокосовое сало. Когда-то мне захотелось сделать сало, которое могли бы есть люди любых конфессий.

Идея родилась в Бангкоке: кокос, чеснок, укроп, соль, перец, немного маринада и, как я шучу, пятнадцать секунд не тайского, а расслабляющего массажа. Потом тонко нарезаешь, кладёшь на бородинский хлеб и создается ощущение, будто ешь настоящее сало. Совсем недавно его даже пробовал Реджеп Тайип Эрдоган.

**— Какой продукт вы назвали бы абсолютным совершенством природы?**

— Наверное, овощи – они вдохновляют меня больше всего. Мясо и рыба для меня – прежде всего белок, а овощи бесконечно разнообразны. Особенно если они выращены с любовью, на правильной земле и в своём месте.

Мне вообще интересно изучать историю продуктов. Например, почему один и тот же овощ в разных местах получается совершенно разным. Если помидору нужен селен, он должен расти на почве, богатой селеном. Когда начинаешь разбираться в таких вещах, понимаешь, что еда – это не только удовольствие, но и лекарство.

Поэтому меня больше всего вдохновляют именно овощи, ну и конечно, фрукты с ягодами.

**— Какой, по-вашему, будет гастрономия через двадцать лет? Что останется неизменным, а что исчезнет?**

— Мне кажется, гастрономия будущего – это простая, понятная еда. Через двадцать лет люди по-прежнему будут есть плов, борщ, картофельное пюре, котлеты. Именно этому я учу своих поваров: делать простые блюда лучше всех.

К молекулярной кухне я отношусь спокойно. Умею с ней работать, но не люблю технологии ради технологий. Они интересны только тогда, когда действительно делают блюдо лучше.

Например, однажды мы сделали для тирамису кофейную «икру». Когда впервые попробовал этот десерт, случайно вдохнул какао-порошок и долго кашлял. Спустя годы захотелось сохранить вкус тирамису, но избавиться от этого недостатка. Так вместо какао появилась кофейная икра – это иллюстрация к тому, как технология применяется не ради эффектного аттракциона, а как решение конкретной задачи. Поэтому уверен: люди всегда будут ценить прежде всего честную и вкусную еду, хотя новые сочетания будут появляться постоянно. Именно для этого у нас существует «Лаборатория» – место, где повара создают новое меню без права повторяться. Клиенты возвращаются снова и снова, потому что знают: каждый раз их ждет новый гастрономический опыт.

Но как бы ни менялась гастрономия, её смысл останется прежним: собирать людей за одним столом и дарить им эмоции. Всё остальное – лишь инструменты.

Shu bois, muqobil mahsulot izlash – sharoitga taslim bo‘lish emas, balki yangi taom o‘ylab topish uchun bir imkoniyat. Agar mendan o‘zim ixtiro qilgan eng zo‘r taom qaysi deb so‘rashsa, «kokosli salo (dumba)» deb javob berardim. Bir paytlar har qanday dinga mansub kishilar yeya oladigan salo tayyorlashni istaganman.

Bu g‘oya Bangkokda tug‘ilgandi: kokos, sarimsoq, shivit, tuz, murch, ozroq marinad va men hazillashib aytganimdek, o‘n besh soniya taycha emas, balki tinchlantiruvchi massaj. So‘ng uni yupqa qilib kesib, borodino noni ustiga qo‘ysangiz, go‘yo haqiqiy dumba yeyayotgandek bo‘lasiz. Yaqindagina uni hatto Rajab Toyyib Erdo‘g‘on ham tatib ko‘rdi.

**— Qaysi mahsulotni tabiatning mutlaq mukammalligi deb ayta olasiz?**

— Menimcha, sabzavotlarni – ular meni hammadan ko‘proq ilhomlantiradi. Go‘sht va baliq — avvalo, oqsil manbayidir, sabzavotlar esa cheksiz darajada xilma-xil. Ayniqsa, ular mehr bilan, unumdor tuproqda va o‘z joyida yetishtirilgan bo‘lsa.

Umuman olganda, men mahsulotlarning tarixini o‘rganishga qiziqaman. Masalan, nega ayni sabzavot turli joylarda mutlaqo boshqacha bo‘lib yetishadi? Agar pomidorga selen zarur bo‘lsa, u selenga boy tuproqda o‘sishi kerak. Shu kabi jihatlarni tushuna boshlaganingizdan keyin, oziq-ovqat nafaqat lazzat, balki shifo ham ekanini anglaysiz.

Shundan bo‘lsa kerak, meni eng ko‘p ilhomlantiradigan narsa – sabzavotlar, qolaversa, meva va rezavorlardir.

**— Sizningcha, yigirma yildan keyin gastronomiya qanday ko‘rinish oladi? Nimalar o‘zgarishsiz qoladi-yu, nimalar yo‘qolib ketadi?**

— Nazarimda, kelajak gastronomiyasi bu – oddiy va tushunarli taomlardir. Yigirma yildan keyin ham odamlar avvalgidek palov, borsh, kartoshka pyuresi, kotletlarni iste’mol qilaverishadi. Men oshpazlarimga aynan shuni: oddiy taomlarni hammadan zo‘r tayyorlashni o‘rgataman.

Molekulyar oshxona meni unchalik hayratlantirmaydi. U bilan ishlashni bilaman, lekin shunchaki texnologiya uchun qilinadigan texnologiyani xush ko‘rmayman. Bunday usullar faqatgina taomni haqiqatan ham yaxshilaydigan bo‘lsagina qiziq.

Masalan, bir safar tiramisu uchun qahva «ikrasi»ni tayyorlaganmiz. Bu desertni ilk bor tatib ko‘rganimda, bexosdan kakao kukuni nafas yo’limga ketgan va uzoq vaqt yo‘talgandim. Yillar o‘tib, tiramisu ta’mini saqlagan holda, o‘sha kamchilikni bartaraf etish istagi paydo bo‘ldi. Shu tarzda, kakao o‘rniga qahva «ikrasi» kelib chiqdi, bu texnologiyaning shunchaki bir hayratga soluvchi attraksion sifatida emas, balki muayyan muammoni hal qilish uchun qo‘llanishiga yaqqol misoldir. taomnGarchi yangi ta’mlar uyg‘unligi muntazam ravishda paydo bo‘lib tursa-da, odamlar har doim birinchi navbatda chinakam va mazali taomni qadrlashlariga ishonchim komil. Bizda oshpazlar takrorlamaslik sharti bilan yangi taomnoma yaratadigan «Laboratoriya» bor. Mijozlar bu yerga qayta-qayta tashrif buyurishadi, chunki har safar ularni yangi gastronomik tajriba kutayotganini bilishadi.

Ammo gastronomiya qanchalik o‘zgarmasin, uning odamlarni bir dasturxon atrofida jamlash va ularga his-tuyg‘ular hadya etish bo’lgan mohiyati o‘zgarmaydi. Qolgan barcha narsa – shunchaki vosita, xolos.



РЕКЛАМА
ГОРЫНЫЧ
ЛЕГЕНДАРНЫЙ РЕСТОРАН В ТАШКЕНТЕ
ул. Шота Руставели, 22А
+998 88 555-32-22

# «ENG MURAKKABI – ODDIY TAOMLAR»: VLADIMIR BOGOJAVETS KASBI, SAYOHATLARI VA SUV HAQIDA

## «ПРОСТАЯ КУХНЯ – САМАЯ СЛОЖНАЯ»: ВЛАДИМИР БОГОЖАВЕЦ О ПРОФЕССИИ, ПУТЕШЕСТВИЯХ И ВОДЕ

*В продолжение нашей кулинарной темы мы поговорили с Владимиром Богожавцем – бренд-шефом ресторана Maroon, обладателем «Пальмовой ветви» в номинации «Шеф-повар года» премии «Лучшие в индустрии – 2023». За плечами Богожавца – несколько десятилетий на профессиональной кухне, работа с сильными командами и стажировка в Иордании, где ему довелось готовить для королевской семьи.*

Мы обсудили, почему путешествия для шефа – это прежде всего способ учиться, как Ташкент успел повлиять на его гастрономические планы и почему вода – такой же важный рабочий инструмент на кухне, как нож или печь.

**— Вы на кухне с тринадцати лет. Что все эти годы продолжает вас удивлять в профессии шеф-повара?**

— Больше всего меня удивляет то, что в нашей профессии невозможно перестать учиться. Кулинария настолько необъятна, что целой жизни не хватит, чтобы сказать: «Теперь я все понял». Каждый день открываешь для себя что-то новое и понимаешь, что можно было сделать иначе: приготовить по-другому, использовать другой продукт, применить другую технику. Это бесконечный процесс, и именно этим профессия меня и вдохновляет.

К примеру, буквально сегодня меня приятно удивил один продукт. Я попробовал аргентинское вагю и понял, что оно нравится мне даже больше, чем японское. Это ещё одно доказательство того, что в гастрономии всегда есть место открытиям, сколько бы лет ты ни работал.

**— Что для вас интереснее: придумать новое блюдо или идеально приготовить что-то простое?**

— Придумать по-настоящему новое блюдо, которое до тебя никто не создавал, невероятно сложно – таких открытий в гастрономии единицы. В своё время революцию совершили создатели молекулярной кухни, но сегодня гастрономия, наоборот, все больше стремится к простоте.

*Pazandachilik haqidagi mavzuning davomi tariqasida «Maroon» restorani brend-shefi, «Industriyaning eng yaxshilari – 2023» mukofotining «Yil bosh oshpazi» nominatsiyasi bo'yicha «Palma shoxi» sovrindori Vladimir Bogojavets bilan suhbatlashdik. Bogojavets professional oshxonada o'n yillik tajribani ortda qoldirgan, kuchli jamoalar bilan ishlagan va Iordaniyada malaka oshirib, qirollik oilasi uchun taom tayyorlagan.*

Biz sayohatlar bosh oshpaz uchun avvalo tajriba orttirish yo'li ekanligi, Toshkent uning gastronomik rejalariga qanday ta'sir ko'rsatishga ulgurgani va nima sababdan suv oshxonada pichoq yoki pech kabi muhim ish quroli hisoblanishi haqida fikr almashdik.

**— Siz o'n uch yoshingizdan beri oshxonadasiz. Bosh-oshpazlik kasbida sizni hamon nima hayratda qoldirmoqda?**

— Meni hamma narsadan ko'proq hayratda qoldiradigan holat – bu kasbda izlanishni aslo to'xtatib bo'lmasligidir. Pazandalik shu qadar cheksizki, «Endi hammasini tushundim», deyishga butun bir umr ham yetmaydi. Har kuni o'zingiz uchun qandaydir yangilik kashf etasiz va o'sha amalni mutlaqo boshqacha bajarish, tamoman o'zgacha mahsulotdan foydalanish yoki yangi bir texnikani qo'llash mumkin bo'lganini anglab yetasiz. Bu – cheksiz bir jarayon, meni ushbu hunarga bog'lab turgan, ilhom bag'ishlayotgan asosiy omil ham aynan shudir.

Mana, aynan bugunning o'zida bir mahsulot meni lol qoldirdi. Argentinaning «Vagyu» go'shtidan tatib ko'rdim va u menga Yaponiyanikidan ham ko'proq yoqdi. Bunday ta'mni kashf etish o'zim uchun haqiqiy kutilmagan holat bo'ldi. Bu esa necha yil ishlashingizdan qat'iy nazar, gastronomiyada kashfiyotlar uchun hamisha joy borligining yana bir dalilidir.

**— Bugungi kunda siz uchun nima qiziqroq: yangi taom o'ylab topishmi yoki oddiy biror yegulikni mukammal tayyorlashmi?**

— Haqiqatan ham butunlay yangi taom o'ylab topish nihoyatda qiyin. Ya'ni, aynan sizdan oldin hech kim yaratmagan yangi taomni nazarda tutyapman – gastronomiyada bunday kashfiyotlar sanoqli.













## MENGA SODDA VA TUSHUNARLI TAOMLAR BILAN ISHLASH ANCHA QIZIQROQ

## МНЕ ГОРАЗДО ИНТЕРЕСНЕЕ РАБОТАТЬ С ПОНЯТНОЙ ЕДОЙ, И ИМЕННО ОНА ОКАЗЫВАЕТСЯ САМОЙ СЛОЖНОЙ

Поэтому мне гораздо интереснее работать с понятной едой, и именно она оказывается самой сложной: приготовить идеальную яичницу, шашлык, кебаб или хумус намного труднее, чем придумать авторскую подачу с десятками техник. Потому что простые блюда знакомы нам с детства: у каждого есть свой эталон, который готовили мама или бабушка, и гость всегда сравнивает твой результат именно с этим воспоминанием.

Со сложной авторской кухней в каком-то смысле легче: шеф сам задает правила игры и предлагает гостю свой взгляд. А вот простая еда не про эффектность, она требует безупречного исполнения. Здесь нельзя спрятаться за необычной техникой или красивой историей, ведь всё решает вкус. Именно поэтому простая кухня – самая сложная.

**— Чему кухня научила вас как человека?**

— Для меня кухня – это настоящая школа жизни, потому что ничего другого я по сути никогда не делал. Она научила дисциплине, ответственности и уважению к людям. На кухне очень четкая иерархия, и без неё невозможно работать. Многие сравнивают профессиональную кухню с армией: здесь тоже важны порядок, взаимное доверие и понимание своей роли в команде.

Но с годами приходит осознание, что быть шефом – это не только требовать, но и правильно относиться к людям, которые работают рядом с тобой. То есть нужно уметь быть требовательным и при этом оставаться человечным.

**— Если бы в юности вы не попали на кухню, кем могли бы стать?**

— Балетным артистом (смеётся). А если серьезно, в детстве было много вариантов. В какой-то момент хотел стать военным, потом врачом, даже думал о профессии адвоката. Но, честно говоря, после того как попал на кухню, больше уже ничего другого не хотелось. Я очень быстро понял, что это моё.

**— А как вы вообще оказались в этой стихии? То была случайность или осознанный выбор?**

— Скорее случайность. Мне просто нужны были деньги, и я устроился работать в ресторан, где начинал с самых простых обязанностей: уборки, мойки. А в свободное время заходил к поварам смотреть, как они работают, и меня это буквально затянуло.

Наверное, интерес появился ещё в детстве. Мне всегда нравилось наблюдать, как готовят мама и бабушка, самому что-то придумывать, смешивать продукты, экспериментировать. А когда оказался на профессиональной кухне, понял, что хочу этим заниматься всерьез.

Меня заворожила сама атмосфера: большая команда, чёткая организация – у каждого своя роль и своя ответственность. Но главное, кухня никогда не бывает одинаковой. Ты можешь каждый день готовить одни и те же блюда, работать с теми же продуктами, но каждый раз они будут немного другими. Именно эта постоянная изменчивость и не даёт профессии превратиться в рутину.

O‘z vaqtida molekulyar oshxona asoschilari katta burilish yasagan edi, bugun esa gastronomiya, aksincha, borgan sari soddalikka intilyapti.

Shu sababli menga sodda va tushunarli taomlar bilan ishlash ancha qiziqroq. Aslida esa eng murakkabi ham aynan shunday taomlar bo‘lib chiqadi: o‘nlab usullar qo‘llanadigan g‘ayrioddiy narsani ixtiro qilishdan ko‘ra, mukammal tarzda qovurilgan tuxum, ideal shashlik, kabob yoki humus tayyorlash ancha qiyinroq. Chunki oddiy taomlar bizga bolalikdan tanish: har kimning o‘z etaloni – onasi yoki buvisi tayyorlab bergan o‘sha totli ta’mi bor. Mehmon esa sizni doim o‘sha xotirasi bilan solishtiradi.

Qaysidir ma’noda murakkab mualliflik taomlari bilan ishlash osonroq: oshpaz o‘yin qoidalarini o‘zi o‘rnatadi va mehmonga o‘z qarashini taklif qiladi. Oddiy taom esa kishini hayratda qoldirishni emas, benuqson tayyorlanishni talab etadi. Bu yerda g‘ayrioddiy usul yoki chiroyli hikoya ortiga yashirinib bo‘lmaydi, chunki hammasini ta’m hal qiladi. Aynan shuning uchun ham oddiy taomlar eng murakkabi hisoblanadi.

**— Oshxona sizni inson sifatida nimaga o‘rgatdi?**

— Men uchun oshxona – haqiqiy hayot maktabi, chunki aslida boshqa hech bir ish bilan shug‘ullanmaganman. U meni intizomga, mas’uliyatga va insonlarni hurmat qilishga o‘rgatdi. Oshxonada juda qat’iy iyerarxiya bor, usiz ishlashning iloji yo‘q. Ko‘pchilik professional oshxonani armiyaga qiyoslaydi: bu yerda ham tartib-intizom, o‘zaro ishonch va jamoadagi o‘z o‘rningni anglash muhim.

Ammo yillar o‘tib, bosh oshpaz bo‘lish faqat talab qilish emas, balki yoningizda ishlaydigan odamlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish ham ekanini tushunib yetasiz. Talabchan bo’lgan holda insoniylikni ham saqlab qola bilish kerak.

**— Yoshligingizda oshpazlik sohasiga kelib qolmaganingizda, kim bo‘lar edingiz?**

— Balet artisti bo‘lardim (kuladi). Hazilni bir chetga sursak, bolalikdagi orzularim rang-barang edi: goh harbiy, goh shifokor, hatto advokat bo‘lishni xohlaganman. Lekin oshpazlikka kirib kelganimdan keyin qalbimda boshqa sohaga joy qolmadi. Bu aynan mening o‘lim ekanini juda tez anglaganman.

**— Umuman olganda, bu sohaga qanday kirib qolgansiz? Tasodifmi yoki ongli tanlov?**

— Ko‘proq tasodif, desam bo‘ladi. Menga shunchaki pul kerak bo‘lib, restoranga ishga kirganman: faoliyatimni eng oddiy yumushlar – tozalash, idish-tovoq yuvishdan boshlaganman. Bo‘sh vaqtlarimda esa oshpazlarning yoniga kirib, ularning ishini kuzatar edim, bu meni o‘ziga rom qilgandi.

Nazarimda, poydevor bolalikda qo‘yilgan. Onam va buvijonimning ovqat pishirishini kuzatish, o‘zimcha nimadir o‘ylab topish, mahsulotlarni aralashtirish, tajriba qilishni yoqtirardim. Professional oshxonaga kelgach esa, hayotimni shu hunarga bag‘ishlashga qaror qildim.

Meni muhitning o‘zi maftun qildi: katta jamoa, puxta tashkil etilgan tizim, har bir xodimning o‘z o‘rni va mas’uliyati bor edi. Lekin eng muhimi – oshxona hech qachon bir xil bo‘lmaydi. Har kuni ayni taomlarni tayyorlashingiz, o‘sha mahsulotlar bilan ishlashingiz mumkin, ammo baribir ular har safar biroz boshqacha chiqadi. Aynan mana shu doimiy o‘zgaruvchanlik kasbning kundalik zerikarli bir xillikka aylanib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.



**— Есть ли место на карте, куда вы возвращаетесь вновь и вновь не как турист, а как шеф?**

— Нет, такого места я пока не нашёл. Наверное, потому, что ещё слишком многое не успел увидеть. В мире столько гастрономических культур, продуктов и техник, что мне гораздо интереснее открывать новые места, чем возвращаться в уже знакомые.

Возможно, однажды такое место появится, но пока хочется увидеть, попробовать как можно больше и продолжать учиться. Ведь каждое путешествие – это возможность посмотреть на профессию по-новому.

**— Случались ли путешествия, после которых вы меняли привычные рецепты или технологии на своей кухне?**

— Скорее нет. Если блюдо уже есть в меню, значит мы в нем уверены. Оно прошло множество доработок, и менять его только потому, что увидел что-то интересное в другой стране, было бы неправильно.

Зато путешествия часто становятся отправной точкой для новых проектов. После стажировки в Иордании, например, появилась идея ресторанов ближневосточной кухни. Или возьмем Ташкент: здесь я попробовал сюзьму. Это очень вкусно, и мы решили обязательно включить её в меню ташкентского Maroon.

Для меня путешествия – это возможность открыть что-то необычное и использовать это при создании новых концепций или блюд. Но это не повод пересматривать то, что уже прошло проверку временем и полюбилось гостям.

**— Давайте представим, что у вас есть всего один день в незнакомой стране. Как он пройдет? Что вы обязательно попробуете, куда отправитесь и с кем захотите поговорить?**

— Скорее всего, я вообще ни с кем не буду разговаривать, а посвящу время знакомству с местной кухней. Завтрак, обед, ужин и поиск чего-нибудь вкусного между этим – именно так обычно проходят мои путешествия.

При этом я почти не посещаю дорогие рестораны. Меня гораздо больше интересуют небольшие локальные заведения, куда приходят сами жители. Чем проще место и чем больше там людей, тем выше шанс попробовать настоящую национальную кухню.

Так было и в Ташкенте. Я вернулся домой на семь килограммов тяжелее, потому что всё время ел. Просто ходил из одного места в другое, пробовал, запоминал вкусы и наблюдал за тем, что любят сами горожане.

Вообще, приезжая в новую страну, я хочу познакомиться именно с её гастрономическими традициями. Для меня лучший ресторан – тот, где готовят для своих, а не для туристов. Именно там чаще всего рождаются самые яркие впечатления и самые честные вкусы.

**MEN UCHUN SAYOHATLAR – BIROR YANGI NARSANI KASHF ETISH VA ULARDAN YANGI KONSEPSIYA YOKI TAOMLAR YARATISHDA FOYDALANISH IMKONIYATI**

**ДЛЯ МЕНЯ ПУТЕШЕСТВИЯ – ЭТО ВОЗМОЖНОСТЬ ОТКРЫТЬ ЧТО-ТО НЕОБЫЧНОЕ И ИСПОЛЬЗОВАТЬ ЭТО ПРИ СОЗДАНИИ НОВЫХ КОНЦЕПЦИЙ ИЛИ БЛЮД**



**— Xaritada siz sayyoh emas, balki aynan bosh oshpaz sifatida qayta-qayta boradigan manzilingiz bormi?**

– Yo‘q, hali bunday joyni topganim yo‘q. Balki, hali ko‘p maskanlarni ko‘rishga ulgurmaganim sabablidir. Dunyoda shunchalik ko‘p gastronomik madaniyatlar, mahsulotlar va texnikalar borki, menga tanish joylarga qaytishdan ko‘ra yangilarini kashf etish ancha qiziqarliroq.

Kun kelib shunday maskan paydo bo‘lar. Hozircha esa hamma yerda bo‘lishni, imkon qadar ko‘proq lazzatlarni tatib ko‘rishni va o‘rganishda davom etishni istayman. Zero, har bir sayohat – kasbga yangicha nazar tashlash imkoniyatidir.

**— Oshxonangizdagi odatiy retseptlar yoki texnologiyalarni o‘zgartirishingizga turtki bergan sayohatlar bo‘lganmi?**

– Deyarli yo‘q. Agar yegulik taomnomaga kiritilgan bo‘lsa, demak, biz uning sifatiga ishonamiz. U ko‘p marotaba takomillashtirilgan, shuning uchun, boshqa mamlakatda qandaydir qiziqarli narsani ko‘rganim sababli uni o‘zgartirish noto‘g‘ri bo‘ladi.

Biroq sayohatlar ko‘pincha yangi loyihalar uchun turtki bo‘ladi. Masalan, Iordaniyadagi amaliyotdan so‘ng Yaqin Sharq taomlari restoranlarini ochish g‘oyasi tug‘ilgan. Yoki Toshkentni olaylik: bu yerda suzmani tatib ko‘rdim. Bu juda mazali taom ekan, shuning uchun biz uni Toshkentdagi «Maroon» taomnomasiga albatta kiritishga qaror qildik.

Men uchun sayohatlar – biror yangi narsani kashf etish va ulardan yangi konsepsiya yoki taomlar yaratishda foydalanish imkoniyati. Lekin vaqt sinovidan o‘tgan va mehmonlarimiz mehrini qozongan narsalarni qayta ko‘rib chiqishga sabab bo’la olmaydi.

**— Tasavvur qiling, notanish mamlakatda ixtiyoringizda bor-yo‘g‘i bir kun vaqt bor. Uni qanday o‘tkazasiz? Nimani albatta tatib ko‘rasiz, qayerlarga borasiz va kim bilan suhbatlashishni istaysiz?**

– Katta ehtimol bilan, umuman hech kim bilan gaplashmasam kerak – butun e’tiborimni mahalliy taomlarni o‘rganishga qarataman. Nonushta, tushlik qilaman, kechki ovqatni yeyman va ular orasida yana biror mazali narsa qidiraman. Odatda men aynan shunday sayohat qilaman.

Lekin qimmat restoranlarga deyarli kirmayman. Meni ko‘proq mahalliy aholining o‘zi boradigan kichik, oddiy oshxonalar qiziqtiradi. Joy qanchalik kamtarona va odam qanchalik ko‘p bo‘lsa, haqiqiy milliy taomlarni tatib ko‘rish imkoni shuncha yuqori bo‘ladi.

Toshkentda ham xuddi shunday bo‘ldi. Uyga yetti kilogrammga og‘irlashib qaytdim, chunki tinimsiz ovqatlanardim. Shunchaki bir joydan boshqa joyga borib, taomlarni tatib ko‘rdim, ta’mlarini eslab qoldim va shaharliklarning o‘zi nimalarni sevib iste’mol qilishini kuzatdim.

Umuman, yangi mamlakatga borganimda, avvalo uning gastronomik an’analari bilan tanishishni istayman. Men uchun eng yaxshi restoran – sayyohlar emas, mahalliy aholi uchun taom tayyorlaydigan joy. Aynan o‘sha yerda eng yorqin taassurotlar va eng sof ta’mlar paydo bo‘ladi.

# SUV – BOSH OSHPAZ UCHUN XUDDI PICHOQ YOKI PLITA KABI MUHIM ISH QUROLI HISOBLANADI

## ВОДА СОВЕРШЕННО ТОЧНО ТАКОЙ ЖЕ РАБОЧИЙ ИНСТРУМЕНТ ШЕФ-ПОВАРА, КАК НОЖ ИЛИ ПЛИТА

**— Ресторан Maroon уже стал частью гастрономической карты Москвы, а теперь открылся и в Ташкенте. Что было самым важным при запуске франшизы в другой стране: сохранить концепцию или дать ей возможность измениться под местный контекст?**

— В случае с Ташкентом, безусловно, дать ей возможность измениться. Мы не хотим, чтобы ресторан был точной копией московского Maroon. Наоборот, нам интересно развивать проект вместе с местной гастрономической культурой и постепенно интегрировать в него узбекские вкусы.

Все зависит от города. Когда мы открывали рестораны в других регионах России, местная кухня не требовала такого глубокого переосмысления концепции. А в Узбекистане гастрономические традиции настолько сильные и самобытные, что игнорировать их было бы неправильно.

Конечно, это не происходит одномоментно, я только начинаю знакомиться с местными продуктами и кухней, многое ещё предстоит открыть. Но уже сейчас понимаю, что у Maroon в Ташкенте будет свой характер. Какие-то блюда и продукты останутся только здесь и никогда не появятся в московском ресторане. Как мне кажется, это правильно: каждый проект должен отражать место, в котором он живёт.

**— В Maroon весьма богатое меню. С чего посоветуете начать знакомство с рестораном?**

— Обязательно с горячего хлеба и мезе, а дальше я бы посоветовал не заказывать каждому по одному блюду, а собирать общий стол. Maroon – это кухня для компании, где хочется пробовать понемногу, делиться блюдами друг с другом, обсуждать вкусы и открывать что-то новое вместе. Поэтому должно быть как можно больше разных позиций. Именно так, на мой взгляд, и раскрывается ближневосточная кухня.

**— Тема нашего выпуска – вода. Считаете ли вы, что она может быть полноценным ингредиентом?**

— Не просто может, на мой взгляд, вода – самый недооценённый и самый незаметный ингредиент. Мы уделяем огромное внимание продуктам, специям, техникам, но часто забываем, что именно вода во многом определяет конечный вкус блюда.

**— Фильтрованная, минеральная, родниковая… Существует ли идеальная вода для кухни или всё зависит от блюда?**

— Универсальной воды не существует, но хорошая вода – обязательное условие. Мы работаем с тщательно отфильтрованной водой, потому что её качество напрямую влияет на результат. Жёсткая вода сразу чувствуется – она меняет вкус и поведение продуктов.

В разных гастрономических культурах к воде относятся по-разному. Например, в японской кухне большое значение имеет очень мягкая вода, потому что именно она позволяет максимально деликатно раскрыть вкус продуктов. Поэтому выбор воды всегда зависит от того, что именно ты готовишь. Но вода совершенно точно такой же рабочий инструмент шеф-повара, как нож или плита.

**— Можно ли испортить даже идеальный продукт плохой водой?**

— Конечно. Хорошие продукты и хорошая вода не существуют друг без друга. Именно поэтому на профессиональной кухне качеству воды уделяют не меньше внимания, чем выбору самих ингредиентов. Если вода плохая, это неизбежно отражается на результате.

**— Получается, вода – это важнейший ингредиент, который мы почти не замечаем. А что, на ваш взгляд, мы сегодня вообще слишком часто принимаем как должное – в еде, природе, жизни?**

— Наверное, именно то, что кажется нам самым привычным. Мы перестаём замечать воду, продукты, землю, людей, которые всё это создают. Понимание того, насколько это важно, приходит тогда, когда мы ощущаем нехватку чего-то или оно и вовсе исчезает. Думаю, в этом и есть ценность хорошей кухни: она возвращает внимание к простым вещам и напоминает, что за каждым вкусом стоят продукт, место, человек и большая история.

**— «Maroon» restorani Moskva gastronomik xaritasidan allaqachon joy olgan, endi esa Toshkentda ham ochildi. Boshqa davlatda franshiza loyihasini yo‘lga qo‘yishda nima muhimroq edi: asl konsepsiyani saqlab qolishmi yoki uning mahalliy sharoitga moslashishiga imkon berishmi?**

– Toshkent misolida, so‘zsiz, unga o‘zgarish imkoniyatini berish lozim. Biz restoran Moskvadagi «Maroon» ning ayni nusxasi bo‘lishini istamaymiz. Aksincha, loyihani mahalliy gastronomik madaniyat bilan birga rivojlantirish va unga asta-sekin o‘zbekona ta’mlarni uyg‘unlashtirish bizga ancha qiziqarliroq.

Hammasi shaharga bog‘liq. Rossiyaning boshqa hududlarida restoranlar ochganimizda, mahalliy oshxona konsepsiyani bunchalik chuqur qayta ko‘rib chiqishni talab qilmagan edi. O‘zbekistonda esa gastronomik an’analar shu qadar kuchli va o‘ziga xoski, ularni e’tiborsiz qoldirish xato bo‘lardi.

Albatta, bu bir zumda yuz bermaydi. Men mahalliy xomashyo va pishirish sirlari bilan tanishishni endigina boshlayapman, kashf etilishi lozim bo‘lgan sirlar juda ko‘p. Ammo hozirdanoq Toshkentdagi «Maroon»ning o‘ziga xos fe’l-atvori bo‘lishini anglab yetyapman. Ayrim taom va mahsulotlar faqat shu yerda qoladi va hech qachon Moskvadagi «Maroon» restoranida paydo bo‘lmaydi. Nazarimda, bu to‘g‘ri yondashuv: har bir loyiha o‘zi joylashgan makonni aks ettirishi kerak.

**— «Maroon» ancha boy taomnomaga ega. Restoran bilan tanishishni nimadan boshlashni maslahat berasiz?**

– Albatta, issiq non va mezelardan. Menimcha, «Maroon» bilan tanishuvni aynan shulardan boshlagan ma’qul. So‘ngra har kimga alohida taom buyurtirish o‘rniga, umumiy dasturxon tuzashni tavsiya qilaman. «Maroon» – bu yaqinlar davrasiga mo‘ljallangan oshpazlik makoni bo‘lib, kishida har bir lazzatdan oz-ozdan tatib ko‘rish, ularni o‘zaro baham ko‘rish, ta’mlarni muhokama qilish va birgalikda yangiliklarni kashf etish istagini uyg‘otadi. Shu sababli maslahatim oddiy: avval meze va non oling, keyin esa issiq taomlardan tanlab, iloji boricha ko‘proq turini tatib ko‘ring. Nazarimda, Yaqin Sharq oshxonasi aynan shu tarzda namoyon bo‘ladi.

**— Nashrimizning bu galgi soni mavzusi – suv. Uni to‘laqonli masalliq deb hisoblaysizmi?**

– Nafaqat to’laqonli. Nazarimda, suv oshxonadagi eng kam baholangan va eng sezilmas masalliq. Biz mahsulotlarga, ziravorlarga, pishirish usullariga katta e’tibor beramiz-u, lekin ko‘pincha taomning yakuniy ta’mini aynan suv belgilashini unutib qo‘yamiz.

**— Filtrlangan, mineral, chashma suvi… Oshxonadagi mukammal suvning o‘zi bormi yoki hammasi taomga bog‘liqmi?**

– Universal suvning o‘zi yo‘q, lekin uning sifatli bo‘lishi – majburiy shart. Biz yaxshilab filtrlangan suvdan foydalanamiz, chunki uning sifati natijaga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qattiq suv darhol bilinadi – u mahsulotlarning ta’mini ham, xossalarini ham o‘zgartirib yuboradi.

Turli gastronomik madaniyatlarda suvga turlicha munosabatda bo’lishadi. Masalan, yapon taomlarida juda yumshoq suv katta ahamiyat kasb etadi, chunki aynan u mahsulotlar ta’mini imkon qadar nafisroq namoyon etadi. Shu sababli suv tanlovi sizning nima tayyorlayotganingizga bog‘liq. Lekin suv – bosh oshpaz uchun xuddi pichoq yoki plita kabi muhim ish quroli hisoblanadi.



**— Sifatsiz suv eng mukammal mahsulotni ham buzib qo‘yishi mumkinmi?**

– Albatta. Sarxil masalliqlar va toza suv o‘zaro bog‘liq. Shu sababli professional oshxonada suvning tozaligiga masalliqlarni tanlashdan kam e’tibor qaratilmaydi. Agar suv sifatsiz bo‘lsa, bu natijada o‘z aksini topmay qolmaydi.

**— Demak, suv biz deyarli sezmaydigan eng muhim masalliq ekan-da. Sizningcha, bugun biz taomlarda, tabiatda va hayotda nimalarni ko‘pincha oddiy hol sifatida qabul qilyapmiz?**

– Ehtimol, bizga eng tanish bo‘lib tuyulgan ne’matlarni. Biz suvni, oziq-ovqatni, yerni, ushbu ne’matlarni yaratayotgan odamlarni payqamay qo‘ymoqdamiz. So‘ng biror narsa yetishmay qolsa yoki yo‘qolsagina bularning qanchalik muhim ekanini tushunamiz. Nazarimda, yaxshi pazandachilikning qiymati ham shunda: u e’tiborni yana oddiy narsalarga qaratadi va har bir ta’m ortida mahsulot, joy, inson hamda katta bir tarix yotganini eslatib turadi.

# QUMLAR MUSIQASI: QURIGAN DENGIZ PLEYLISTI

## МУЗЫКА ПЕСКОВ: ПЛЕЙЛИСТ ОБ УШЕДШЕМ МОРЕ



MATN: GEORGIY SHVANOV | FOTO: ANDRIS MOLCHANOV

*O'zbekiston va Qozog'iston hududida joylashgan, bir paytlar dunyodagi to'rtinchi eng yirik ko'l hisoblangan Orol dengizi bugungi kunga kelib deyarli qurib, sahroga aylangan. Bu noyob o'lkaning hayoti qashshoqlashgan, havosi tuz va chang bilan to'yingan, biroq Orol yashashda davom etmoqda va yildan-yilga o'ziga ko'proq e'tiborni jalb qilmoqda.*

*Orol muammolari haqida bong urish va uning muhitini iloji boricha yorqinroq aks ettirish usullaridan biri – san'atdir. Jumladan, Markaziy Osiyoda mashhur bo'lgan «Stixiya» elektron musiqa festivali aynan uning qumliklari bag'rida bo'lib o'tadi.*


*Biz Orol tarixi va muhitidan ilhomlanib yaratilgan O'zbekiston, Qozog'iston va Yevropa san'atkorlarining xit pop-rokidan tortib, maftunkor embientgacha bo'lgan musiqiy asarlarini bir joyga jamladik. Siz bu o'lka mana shunday tarzda jaranglashi mumkinligini xayolingizga ham keltirmagansiz.*

ТЕКСТ: ГЕОРГИЙ ШВАНОВ | ФОТО: АНДРИС МОЛЧАНОВ

*Аральское море – некогда четвёртое по величине озеро в мире, расположенное на территории Узбекистана и Казахстана, ныне практически высохло и превратилось в пустыню. Жизнь этого уникального региона обеднела, воздух наполнен солью и пылью, но Арал год от года привлекает к себе всё больше внимания.*

*Один из способов заявить о проблемах Арала и как можно ярче передать его атмосферу – искусство. В частности, именно среди его песков проходит знаменитый в Центральной Азии фестиваль электронной музыки «Стихия».*

*Мы собрали музыкальные произведения артистов из Узбекистана, Казахстана и Европы – от хитового поп-рока до завораживающего эмбиента, вдохновлённые историей и атмосферой Арала. Вы и не думали, что этот регион может звучать так.*






Южное Приаралье на протяжении поколений было землёй каракалпакского народа (Каракалпакстан сейчас является автономной республикой в составе Узбекистана), поэтому нашу подборку просто невозможно представить без музыкантов-каракалпаков. В качестве примера можно привести песню, записанную с участием оперного солиста Женисбека Пиязова, родившегося в Республике Каракалпакстан.

Изначально, в 2020 году, ташкентская рок-группа «Электрооко» выпустила совместную композицию с популярной певицей Севарой Назархан. Но именно версия с Пиязовым, вышедшая год спустя, привязала её к трагедии Арала и наполнила новым смыслом – во многом благодаря масштабному клипу, вселяющему надежду, что когда-нибудь вода всё же вернётся в этот край.

Русскоязычная версия звучит в исполнении лидера группы и автора слов Ашота Даниэляна, а партию Женисбека можно послушать как на узбекском, так и каракалпакском языке.

Janubiy Orolbo‘yi azaldan qoraqalpoq xalqining yurti bo‘lib kelgan (bugungi kunda Qoraqalpog‘iston O‘zbekiston tarkibidagi suveren respublika), shu bois to‘plamimizni qoraqalpoq ijodkorlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bunga misol tariqasida Qoraqalpog‘iston Respublikasida tavallud topgan opera xonandasi Jenisbek Piyazov ishtirokida yozilgan ushbu qo‘shiqni keltirish mumkin.

Dastlab, 2020-yilda Toshkentning «Elektrooko» rok-guruhi ushbu kompozitsiyani mashhur xonanda Sevara Nazarxon bilan birgalikda ijro etgan edi. Biroq oradan bir yil o‘tib, aynan Jenisbek Piyazov bilan kuylangan talqin uni Orol fojiasiga bog‘ladi va yangicha mazmun bilan boyitdi. Bunga ko‘p jihatdan kun kelib bu o‘lkaga suv baribir qaytishiga umid bag‘ishlovchi keng miqyosli klip sabab bo‘ldi.

Qo‘shiqning rus tilidagi talqinini guruh yetakchisi va matn muallifi Ashot Danielyan ijro etgan, Jenisbekning partiyasini esa o‘zbek hamda qoraqalpoq tillarida tinglash mumkin.










Юлдуз Усманова – певица, прозванная «Примадонной» или «Королевой» узбекской эстрады. За более чем тридцатилетнюю карьеру она завоевала признание не только в своей стране, но и по всей Центральной Азии.

Также ещё в 90-х годах Усманова выпускала альбомы в США и Европе, поэтому неудивительно, что в конце концов ей удалось привлечь внимание по-настоящему культового музыканта – человека, стоявшего у истоков пост-панка, баскиста группы Public Image, Ltd. Джа Уоббла.

Альбом Bilmadim, вышедший на его лейбле 30 Hertz Records, получился далёким от классической узбекской эстрады, и песня Orol Dengyz не стала исключением. В ней нет слов, и ориентальный вокализ Усмановой парит над тягучей звуковой равниной из упругого баса Уоббла, приглушённых барабанов и гитар и столь же по-восточному звучащих клавишных и духовых. Как результат, музыка мгновенно вызывает яркие и узнаваемые образы бескрайних песков и палящего солнца, от которого буквально плавится воздух.

Yulduz Usmonova – o‘zbek estradasining «Primadonnasi» yoki «Qirolichasi» deya e‘tirof etilgan xonanda. O‘ttiz yildan ortiq davom etgan ijodi mobaynida u nafaqat o‘z yurtida, balki butun Markaziy Osiyoda shuhrat qozondi.

Usmonova 90-yillardayoq AQSh va Yevropada albomlar chiqargan edi, shu bois uning oxir-oqibat post-pank janri asoschilaridan biri, «Public Image Ltd» guruhining bas-gitarachisi, chinakam afsonaviy musiqachi – Ja Uobbl e‘tiborini torta olgani ajablanarli hol emas.

«30 Hertz Records» leybli ostida chiqqan «Bilmadim» albomi klassik o‘zbek estradasidan ancha yiroq bo‘lib, «Orol dengizi» qo‘shig‘i ham bundan mustasno emas. Qo‘shiqda so‘zlar yo‘q – Usmonovaning sharqona vokalizi Uobblning quyuq bas ritmlari, bo‘g‘iq baraban va gitaralar, ayni shunday sharqona sadolanuvchi klavishli hamda puflama cholg‘ulardan iborat cho‘ziq tovushlar sathi uzra parvoz qiladi. Natijada, musiqa bir zumda cheksiz qumliklar, havoni eritgudek jazirama quyoshning yorqin va tanish manzaralarini ko‘z o‘ngimizda gavdalantiradi.






А следующему герою подборки повезло меньше – его мечта выступить на «Стихии» до сих пор не сбылась, хотя анонимный мультижанровый итальянский музыкант настолько впечатлился поездкой к Аральскому морю, что даже взял себе псевдоним Muynak.

«Ода Аральскому морю» завершает альбом Crossing Borders. Это композиция в стиле неоклассики, главную роль в которой играют струнные. Настроение, в отличие от взгляда Бисенгалиевой, у неё не столь тягостное – скорее выражающее готовность преодолевать трудности и идти вперёд несмотря ни на что.

Путешествия – главный источник вдохновения для музыканта. Он надеется, что однажды его музыка станет саундтреком и вашего пути.

To'plamning keyingi qahramoniga esa omad kamroq kulib boqdi – garchi ko'p janrli anonim italyan musiqachisi Orol dengiziga qilgan sayohatidan juda ham ta'sirlanib, hatto o'ziga Muynak taxallusini olgan bo'lsa-da, uning «Stixiya»'da chiqish qilish orzusi hanuzgacha ushalgani yo'q.

«Orol dengiziga qasida» kompozitsiyasi «Crossing Borders» albomiga yakun yasaydi. Bu neoklassik uslubdagi asar bo'lib, unda asosiy o'rinni torli cholg'ular egallagan. Asar kayfiyati, Bisengalievaning nigohidan farqli o'laroq, unchalik mungli emas – aksincha, qiyinchiliklarni yengib o'tish va har qanday sharoitda ham oldinga intilishga tayyorlikni ifodalaydi.

Musiqachining o'zi sayohatlar unga ilhom bag'ishlashini tan oladi va yaratgan musiqasi sizning yo'lingizda hamroh bo'lishiga umid qiladi.










Скрипачка из Казахстана Галия Бисенгалиева построила успешную карьеру в Великобритании. Её игру можно услышать в фильмах крупнейших режиссёров и альбомах самых известных артистов – от Radiohead до Фрэнка Оушена.

При этом Галия не забывает родину и в собственном творчестве рефлексирует на тему крупных экологических катастроф – Арала и Семипалатинска. Альбом Aralkum стал её дебютным полноформатником.

Это инструментально-электронная музыка, плавная и мрачная, близкая к дарк-эмбиенту и дроуну. При таком раскладе выступление Бисенгалиевой на фестивале «Стихия» было лишь вопросом времени.


Оно состоялось в 2024 году, и профессиональная видеозапись позволяет не только прочувствовать, но и увидеть своими глазами атмосферу пустыни. На альбом существует и сборник ремиксов с участием известных западных электронных продюсеров.

Qozog'istonlik skripkachi Galya Bisengalieva Buyuk Britaniyada muvaffaqiyatli karyera qura oldi. Uning ijrosini yirik rejissyorlarning filmlarida va Radiohead'dan tortib Frank Ocean'gacha bo'lgan eng mashhur san'atkorlarning albomlarida eshitish mumkin.

Shu bilan birga, Galya o'z vatanini ham unutmaydi va o'z ijodida Orol hamda Semipalatinsk kabi yirik ekologik fojialar mavzusiga murojaat qiladi. «Aralkum» albomi uning ilk to'liq formatli albomiga aylandi.

Bu dark-embient va droun janrlariga yaqin bo'lgan, sokin va mungli ohanglarga boy instrumental-elektron musiqa. Shu bois Bisengalievaning «Stixiya» festivalidagi chiqishi shunchaki vaqt masalasi edi, xolos.

Bu chiqish 2024-yilda bo'lib o'tdi. Professional videoyozuv nafaqat cho'l muhitini his etish, balki uni o'z ko'zingiz bilan ko'rish imkonini ham beradi. Shuningdek, albomning o'zida taniqli g'arb elektron prodyuserlari ishtirokidagi remikslar to'plami ham joy olgan.




Наконец дадим высказаться самому Аральскому морю, а именно его природе и его жителям. Британский музыкант Питер Кьюзак, помимо работы в известных экспериментальных коллективах, занимается и полевыми записями.

Для проекта «Звуки» он собирает аудио в регионах, переживших экологическую катастрофу. Одним из них стало и Приаралье.

В череде поездок, совершенных в 2010-х годах, он записал слова детей, крики верблюдов и коз, раскаты грома и шум дождя, плеск водяной мельницы и многое другое. Намеренно отказавшись от редактирования звуков, Кьюзак расставил их в определённом порядке, тем самым создав красочные аудиопейзажи.

Центральным леймотивом альбома стала запись кыргызского музыканта Тинарбека Керимбекова, свиртуозно исполнившего композицию на национальном инструменте – комузе.

Nihoyat, navbatni Orol dengizining o‘ziga, aniqrog‘i, uning tabiati va aholisiga beramiz. Britaniyalik musiqachi Peter Cusack mashhur eksperimental jamoalardagi faoliyatidan tashqari, dala yozuvlari bilan ham shug‘ullanadi.

U o‘zining «Tovushlar» loyihasi uchun ekologik halokat yuz bergan hududlardan audio yozuvlar to‘playdi. Orol dengizi ham ana shunday joylardan biriga aylandi.

2010-yillarda qilgan sayohatlari davomida u bolalar suhbati, tuya va echkilarning ma’rashi, momaqaldiroq gumburlashi-yu yomg‘ir shovqini, suv tegirmonining shildirashi kabi ko‘plab ovozlarni yozib olgan. Cusack ongli ravishda tovushlarni tahrirlashdan voz kechdi va ularni ma’lum bir tartibda joylashtirib, rang-barang audiomanzaralar yaratdi.

Qirg‘iz musiqachisi Tinarbek Kerimbekovning milliy cholg‘u – qo‘mizda ijro etgan kuyi albomning markaziy asariga aylandi.





Аральское море сегодня можно увидеть на карте, сфотографировать с борта самолёта или посетить во время экспедиции в Муйнак, но понять его с помощью одного только зрительного восприятия невозможно. Для этого нужно услышать, как оно звучит в музыке, голосах людей, шуме ветра, и отражается в пронзительной тишине бывшего морского дна. Рассмотренные нами произведения очень разные по жанру и настроению, однако все они напоминают об одном: даже когда вода отступает, память о ней продолжает жить в истории, песках и конечно, искусстве.

Bugun Orol dengizini xaritada ko‘rish, samolyot bortidan suratga olish yoki Mo‘ynoqqa uyushtirilgan ekspeditsiya paytida borib ko‘rish mumkin bo‘lsa-da, uni jonli ko‘rib idrok etib bo‘lmaydi. Buning uchun uning musiqada, odamlar ovozida, shamol shovqinida qanday jaranglashini va sobiq dengiz tubining qalbni zirqiratuvchi sukunatida qanday aks etishini tinglash kerak. Biz ko‘rib chiqqan asarlar janri va kayfiyati jihatidan bir-biridan farq qilsa-da, barchasi bir narsani yodga soladi: suv chekingan taqdirda ham, u haqdagi xotira tarixda, qumlarda va, albatta, san’atda yashashda davom etadi.

# TEPLO STORE: ILHOM OQIMLARI

## TEPLO STORE: ПОТОКИ ВДОХНОВЕНИЯ



Исторически города рождались у воды. Реки и каналы прокладывали путь через засушливую землю, превращая её в пространство для жизни, где развивались ремёсла, торговля и культура. Подобно водному потоку, знания мастеров переходили от поколения к поколению, меняя форму, но сохраняя свою суть.

Сегодня эта идея непрерывного течения лежит в основе Teplo Store – концептуального пространства современной моды, дизайна и ремёсел Узбекистана.

История Teplo началась в 2017 году с небольшого магазина пряжи и пространства для вязания. Уже через год состоялась первая ярмарка Teplo Market, объединившая 30 независимых мастеров и дизайнеров. Постепенно отдельные творческие ручейки сложились в целое сообщество: появились новые маркеты и фестивали, а в 2022 году в Ташкенте открылся первый постоянный Teplo Store.





Tarixan shaharlar suv bo‘yida bunyod bo‘lgan. Daryo va kanallar qurg‘oqchil zamin bag‘ridan yo‘l ochib, ularni hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojlangan hayot maskaniga aylantirgan. Suv oqimi singari ustozlarning bilimlari ham shaklan o‘zgarsa-da, asl mohiyatini saqlagan holda avloddan avlodga o‘tib kelgan.

Bugun ana shu uzluksiz oqim g‘oyasi O‘zbekiston zamonaviy modasi, dizayni va hunarmandchiligi uchun konseptual makonga aylangan «Teplo Store» faoliyatining zamirida yotadi.

«Teplo» tarixi 2017-yilda kichik bir ip-kalava do‘koni va to‘qish makonidan boshlangan edi. Oradan bir yil o‘tib, 30 nafar mustaqil hunarmand va dizaynerni birlashtirgan ilk «Teplo Market» yarmarkasi tashkil etildi. Asta-sekin alohida ijodiy jilg‘alar yaxlit bir hamjamiyatga birlashdi: yangi marketlar va festivallar paydo bo‘ldi, 2022-yilda esa Toshkentda birinchi doimiy «Teplo Store» ochildi.

**BUGUNGI KUNDA TEPLO 100 DAN ORTIQ MUSTAQIL BREND VA HUNARMANDLARNI O‘ZIDA BIRLASHTIRIB, TOSHKENT VA SAMARQAND SHAHARLARIDAGI MAYDONLARINI RIVOJLANTIRMOQDA, MAHALLIY DIZAYNERLARGA XALQARO BOZORGA CHIQISHDA YORDAM BERIB KELMOQDA**

СЕГОДНЯ TEPLO ОБЪЕДИНЯЕТ БОЛЕЕ 100 НЕЗАВИСИМЫХ БРЕНДОВ И РЕМЕСЛЕННИКОВ, РАЗВИВАЯ ПРОСТРАНСТВА В ТАШКЕНТЕ И САМАРКАНДЕ И ПОМОГАЯ ЛОКАЛЬНЫМ ДИЗАЙНЕРАМ ВЫХОДИТЬ НА МЕЖДУНАРОДНЫЙ РЫНОК





Bu yerdagi har bir buyum o‘zida muallifining dastxatini saqlaydi. Matoda qo‘l mehnati sur’ati, charmda – hunarmandchilikning aniq ishlovi, taqinchoqlarda esa material va shakllar haqidagi bilimlar saqlanib qolgan. An’analar o‘tmishda qolib ketmaydi: ular o‘z harakatini davom ettirib, zamonaviy ohang topadi va tabiiy ravishda bugungi hayotimizning bir qismiga aylanadi.

Teplo‘ning maqsadi – mahalliy brendlarning rivojlanishi va o‘zbekistonlik dizaynerlarni mamlakat ichida hamda xorijda tanitish uchun sharoit yaratishdan iborat. Mazkur makon yosh brendlarga o‘z auditoriyasini topish, savdoni yo‘lga qo‘yish, marketingni rivojlantirish, professionallar hamjamiyatiga qo‘shilish va o‘z mahoratini barqaror biznesga aylantirishda yordam beradi.

Biroq har bir brendning yuksalishi shunchaki bir mahsulot tarixidan iborat emas. U bilan birga yangi ish o‘rinlari yaratiladi, mahalliy xomashyo va ishlab chiqarishga talab ortadi, ishga suratkashlar, stilistlar, kommunikatsiya, logistika va vizual bezak bo‘yicha mutaxassislar jalb etiladi. Shu tariqa birgina muvaffaqiyatli brend butun boshli ijodiy ekotizimning o‘sish nuqtasiga aylanadi.

Каждое изделие здесь несёт отпечаток рук своего автора. В ткани сохраняется ритм ручного ткачества, в коже – точность ремесленной обработки, в украшениях – знание материалов и формы. Традиции не остаются в прошлом: они продолжают своё движение, находя современное звучание и естественно становясь частью сегодняшней жизни.

Миссия Teplo – создавать условия для развития локальных брендов и продвижения дизайнеров Узбекистана как внутри страны, так и за её пределами. Пространство помогает молодым брендам находить свою аудиторию, выстраивать продажи, развивать маркетинг и становиться частью профессионального сообщества, превращая мастерство в устойчивый бизнес.

Но рост каждого бренда – это всегда больше, чем история одного продукта. Вместе с ним появляются новые рабочие места, увеличивается спрос на локальное сырьё и производство, в работу включаются фотографы, стилисты, специалисты по коммуникациям, логистике и визуальному оформлению. Так один успешный бренд становится точкой роста для целой творческой экосистемы.







В Teplo традиции продолжают жить в работах современных мастеров. Навыки, передаваемые в семьях и мастерских, встречаются здесь с новым взглядом, технологиями и современной эстетикой, позволяя ремеслу развиваться и оставаться частью сегодняшней культуры. Так рождается дизайн, укоренённый в традициях Узбекистана и открытый миру. Подобно воде, он сохраняет связь со своим источником, но каждый раз принимает новую форму.

Сегодня в пространствах Teplo Store в Ташкенте и Самарканде каждый может открыть для себя современный дизайн Узбекистана через вещи, за которыми стоят живые истории, мастерство и уважение к традициям.

Teplo'da an'analar zamonaviy ustalarning ijodi orqali yashashda davom etmoqda. Oilalar va ustaxonalarda avloddan avlodga o'tib kelayotgan mahorat bu yerda yangicha nigoh, texnologiyalar hamda zamonaviy estetika bilan uyg'unlashib, hunarmandchilikning rivojlanishi va bugungi madaniyatning bir qismiga aylanishiga imkon yaratadi. Shu tariqa O'zbekiston an'analarida ildiz otgan va dunyoga yuz tutgan dizayn yaraladi. U suv misoli o'z manbai bilan aloqani saqlasa-da, har gal yangi bir shaklga kiradi.

Bugun Toshkent va Samarqanddagi «Teplo Store» makonlarida har bir kishi jonli tarix, mahorat va an'analarga hurmat mujassam bo'lgan buyumlar orqali O'zbekistonning zamonaviy dizaynini o'zi uchun kashf etishi mumkin.



РЕКЛАМА

Teplo Store

Ведущее пространство независимых дизайнеров
и современного ремесла Узбекистана



г. Ташкент, NRG Oybek, ул. Нукусская, 31/2
г. Самарканд, Kaganat Mall, 2 этаж, ул. Амира Темура, 24

teplostore_2022 | www.teplo.store

# SUVDAN YARALGAN: O‘ZBEK KINOSI TARIXI

## РОЖДЁННОЕ ВОДОЙ: ИСТОРИЯ УЗБЕКСКОГО КИНО







*O‘zbek kinosida suv ko‘plab qahramonlardan ham avvalroq paydo bo‘lgan. Unda daryolar, kanallar, favvoralar va suv omborlari hech qachon shunchaki bezak bo‘lib qolmagan: ular dramaturgiyaning, kayfiyatning va kadr nafasining bir qismiga aylangan. Kino bo‘yicha PhD, Istanbul kino akademiyasi akademigi, Butunrossiya davlat kinematografiya instituti (VGIK) Toshkent filiali tashkilotchisi Eldar Yo‘ldoshev o‘z mualliflik ruknida suv stixiyasi peyzaj elementidan milliy ekranning to‘laqonli qahramoniga aylanib, o‘zbek kinosining vizual tilini qay tarzda shakllantirganini tadqiq qiladi.*


*В узбекском кино вода появилась раньше многих героев. Реки, каналы, фонтаны и водохранилища здесь никогда не были лишь декорацией: они становились частью драматургии, настроения и самого дыхания кадра. В своей авторской колонке Эльдар Юлдашев – PhD по кино, академик Стамбульской киноакадемии и организатор Филиала Всероссийского государственного университета кинематографии имени С.А. Герасимова в городе Ташкенте – исследует, как водная стихия сформировала визуальный язык узбекского кинематографа, превратившись из элемента пейзажа в полноценного героя национального экрана.*

Волшебство воды на узбекском экране – отражение самой хронологии становления этого вида искусства и его традиций. Про воду в Узбекистане снимали лучшие из лучших: от вечного классика Сергея Эйзенштейна с его триптихом **«Ферганский канал» (1939)** до исследователей альма-матери мирового масштаба – Оксфордского университета с их проектом **«Амударья: река к исчезнувшему морю» (2025)**, и всегда эти работы символизировали жизнь, очищение, стихию или перемены.

Даже самый первый художественный фильм, созданный в Узбекистане более ста лет назад, был посвящен именно этому первичному элементу. Речь идет о ленте **«Пахта-Арал» (1925)**, или «Как ожила Голодная степь», рассказывающей о водной стихии, которая находится в самой сердцевине процессов покорения степных и засушливых районов, давая им вторую жизнь. Этой работой ознаменовалось начало деятельности киностудии «Узбекгоскино» – своего рода колыбели национального кинематографа. Её появлению предшествовало учреждение в 1924 г. по договору «Севзапкино» с правительством Бухарской народной республики кинотоварищества «Бухарское кино».

O‘zbek ekranidagi suv mo‘jizasi – ushbu san’at turining shakllanish xronologiyasi va an’analarining ifodasidir. O‘zbekistonda suv mavzusida eng taniqli ijodkorlar film suratga olishgan: mangu klassik Sergey Eyzenshteynning **«Farg‘ona kanali» (1939)** triptixidan tortib, jahon ilm-fan beshigi – Oksford universiteti tadqiqotchilarining **«Amudaryo: yo‘qolgan dengiz sari yo‘l olgan daryo» (2025)** loyihasigacha. Bu asarlar hamisha hayot, poklanish, stixiya yoxud o‘zgarishlar ramzi bo‘lib kelgan.

O‘zbekistonda bundan yuz yildan avvalroq yaratilgan eng birinchi badiiy film ham aynan shu birlamchi elementga bag‘ishlangan edi. Gap sahro va qurg‘oqchil hududlarni o‘zlashtirish jarayonlarining zamirida turgan hamda ularga yangi hayot baxsh etgan suv stixiyasi haqida hikoya qiluvchi **«Paxta-Orol» (1925)** yoki «Och dashtning jonlanishi» kinokartinasi xususida ketmoqda. Milliy kinematografiyaning beshigi bo‘lgan «O‘zbekdavlatkino» studiyasi o‘z faoliyatini ushbu asar bilan boshlagan. Uning paydo bo‘lishiga esa 1924-yilda «Sevzapkino» va Buxoro Xalq Respublikasi hukumati o‘rtasidagi kelishuvga binoan «Buxoro kinosi» shirkatining tashkil etilishi asos solgan edi.



«Ферганский канал» (1939) / Farg‘ona kanali (1939)

Дальше – больше, эта тема в узбекском кино жила «как рыба в воде»: рождались фильмы, главными лейтмотивами которых становились моря, озера, реки, каналы, фонтаны и другие гидросооружения.

Например, река Анхор являлась не просто местом съёмок, а фоном, на котором разворачиваются события дебютной работы Эльёра Ишмухамедова – мелодрамы **«Нежность» (1967)**, ставшей одним из лидеров кинопроката того времени и впоследствии заслужившей статус культовой; всем известный сегодня фонтан перед зданием Государственного академического Большого театра имени Алишера Навои, получивший в народе название «Хлопок», выступил главной прелюдией и развязкой знаменитого фильма Мелиса Абзалова **«Дуэль под чинарой» (1979)**. Бывшему Комсомольскому озеру на Бешагаче мы обязаны появлением первого узбекского саундтрека: именно это место вдохновило Манаса Левиева на создание прекрасной лирической композиции «Песня о весне» – одного из главных музыкальных украшений киношедевра Шухрата Аббасова **«Об этом говорит вся махалля» (1960)**. Позже к этой музыке обращался легендарный Эннио Морриконе.

Bora-bora bu mavzu o‘zbek kinosida «suvdagi baliqdek» erkin va chuqur ildiz otdi: dengizlar, ko‘llar, daryolar, kanallar, favvoralar va boshqa suv inshootlari asosiy leytmotivga aylangan yangi asarlar yaratila boshladi.


Masalan, Anhor kanali shunchaki suratga olish joyi emas, balki Elyor Ishmuhamedovning debyut asari – o‘sha davr kinoprokatining yetakchilaridan biriga aylangan va keyinchalik kult maqomini olgan **«Noziklik» (1967)** melodramasidagi voqealar rivojlanadigan jonli muhit vazifasini o‘tagan; Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri binosi oldidagi, xalq orasida «Paxta» nomi bilan mashhur favvora esa Melis Abzalovning afsonaviy **«Chinor ostidagi duel» (1979)** filmining asosiy muqaddimasi va yechimi bo‘lib xizmat qilgan.

Birinchi o‘zbek saundtrekining yaratilishi Beshyog‘ochdagi sobiq Komsomol ko‘li bilan bog‘liq: aynan shu joy Manas Leviyevni Shuhrat Abbosovning **«Mahallada duv-duv gap» (1960)** kino durdonasining asosiy musiqiy bezaklaridan biri bo‘lgan «Bahor qo‘shig‘i» nomli go‘zal lirik kompozitsiyani yaratishga ilhomlantirgan. Keyinchalik afsonaviy Ennio Morrikone ham bu musiqaga murojaat qilgan.



«Нежность» (1967) / Noziklik (1967)


«Дуэль под чинарой» (1979) / Chinor ostidagi duel (1979)



«Об этом говорит вся махалля» (1960) / Mahallada duv-duv gap (1960)

Главным же своеобразием фильма **«Насреддин в Бухаре» (1943)** для многих является заключительная сцена, где Ходжа Насреддин с возлюбленной Гульджан едут по дну современного Чарвакского водохранилища, во многом определившего эффект восприятия этого кадра.

Ko‘pchilik uchun **«Nasriddin Buxoroda» (1943)** filmining asosiy o‘ziga xos jihati uning yakuniy sahnasidir: unda Xo‘ja Nasriddin sevgilisi Guljon bilan hozirgi Chorvoq suv ombori o‘zani bo‘ylab yuradi va mazkur holat kadrning ta’sir kuchini belgilab bergan.



*Бозсуйская ГЭС (1 мая 1926 года)*
*Bo‘zsuv GES (1926-yil 1-may)*



*Волховская ГЭС (19 декабря 1926 года)*
*Volxov GES (1926-yil 19-dekabr)*



«Насреддин в Бухаре» (1943) / Nasriddin Buxoroda (1943)

А теперь предлагаю с помощью кинематографа сделать настоящее научное открытие прямо на страницах этого журнала. Дело в том, что, собирая материал для статьи, я обратился к такому жанру, как хроника. Именно хроникёры и отреставрированная старая плёнка позволили мне установить, что самой первой ГЭС на просторах бывшего Союза по плану ГОЭЛРО нужно считать Бозсуйскую ГЭС в Ташкенте, а не Волховскую ГЭС в Ленинградской области, так как первая – та, что расположена на территории Узбекистана, введена в эксплуатацию 1 мая 1926 года, а вторая – 19 декабря того же года, то есть на 8 месяцев позже.

Подытоживая статью небольшим, но гордым историческим открытием, хочу отметить: все вышеперечисленные фильмы подчёркивают, что вода в узбекском кинематографе – не просто композиционный элемент, а полноценный персонаж, способный менять сюжет, усиливать драматургию и расставлять акценты всего повествования.

Endi esa kinematografiya yordamida ushbu jurnal sahifalarida haqiqiy ilmiy kashfiyot qilishni taklif etaman. Gap shundaki, men maqola uchun material to‘plash asnosida xronika janriga murojaat qildim. Aynan hujjatli kino ustalari va qayta tiklangan eski plyonkalar menga bir haqiqatni aniqlash imkonini berdi: GOELRO rejasi bo‘yicha sobiq Ittifoq hududidagi eng birinchi GES sifatida Leningrad viloyatidagi Volxov GESini emas, balki Toshkentdagi Bo‘zsuv GESini e’tirof etish lozim. Chunki birinchisi – O‘zbekiston hududida joylashgan GES 1926-yil 1-mayda foydalanishga topshirilgan, ikkinchisi esa o‘sha yilning 19-dekabrida, ya’ni qariyb sakkiz oy keyin ishga tushirilgan.

Maqolani kichik, ammo sharafli tarixiy kashfiyot bilan yakunlar ekanman, bir narsani alohida ta’kidlamoqchiman: yuqorida sanab o‘tilgan filmlarning barchasi o‘zbek kinosida suv shunchaki kompozitsion element emas, balki syujetni o‘zgartirishga, dramaturgiyani kuchaytirishga va butun hikoyaning urg‘ularini joy-joyiga qo‘yishga qodir to‘laqonli personaj ekanligini ko‘rsatib beradi.




# SOF IDROK EKSTRIMI

## ЭКСТРИМ ЧИСТОГО РАЗУМА




*Aksariyat fotosuratchilar yaxshi yorug‘lik va qulay suratga olish nuqtasini izlayotgan bir paytda, u tog‘larda arqonga osilib, vaznsizlik sharoitida «Formula-1» bolidi pit-stopini kadrga muhrlaydi va kun kelib Oyda skeytbordchini suratga olishni orzu qiladi. Uning ishlarini «National Geographic» nashr etadi, Red Bull Illume xalqaro tanlovi esa ikki bor dunyoning eng yaxshilaridan biri deb topgan. Biz ekshen-fotosuratchi Denis Klero bilan nima uchun kadrni surat olish imkonsizdek tuyulgan joylardan izlash kerakligi, nega inson hamon insonni qiziqtirishi va zamonaviy fotografiyada sun’iy intellekt qanday rol o‘ynashi haqida suhbatlashdik.*

*Пока большинство фотографов ищет удачный свет и удобную точку съёмки, он висит на страховке в горах, снимает пит-стоп болида «Формулы-1» в невесомости и мечтает однажды сфотографировать скейтбордиста на Луне. Его работы публикует National Geographic, а международный конкурс Red Bull Illume дважды признаёт одними из лучших в мире. Мы поговорили с экшен-фотографом Денисом Клеро о том, зачем искать удачный кадр там, где его, кажется, невозможно сделать, почему человеку по-прежнему интересен человек и какую роль в современной фотографии играет искусственный интеллект.*

**— Вы прошли достаточно долгий путь и сменили разные профессии, прежде чем стали фотографом. В какой момент пришло понимание, что фотография – это всё-таки ваше?**

— Понял это уже в процессе занятия фотографией, хотя на самом деле всё началось с работы над визуалом: я делал дизайн для веб-сайтов. Иногда нужно было придумать какую-нибудь незамысловатую фотографию, чтобы вставить её в готовый макет.

Я не из тех людей, которым дедушка подарил фотоаппарат, и с этого всё началось. У меня нет такой красивой истории, но была практическая задача, и постепенно я в это втянулся.

Наверное, как и любой человек, хочу получить всё и сразу. Долгие проекты, которыми нужно заниматься месяцами, быстро начинают меня утомлять. Хочется, чтобы раз – и получилось что-то классное. Фотография как раз про это: нажал на кнопку и возникает ощущение, что работа сделана. Понятно, что за этим стоят подготовка, организация, обработка, но всё равно в фотографии есть работа с моментом.

**— Fotosuratchi bo‘lguningizga qadar ancha yo‘l bosib, turli kasblarni almashtiribsiz. Fotografiya sizning sohangiz ekanini qachon anglab yetgansiz?**

— Buni fotografiya bilan shug‘ullana boshlaganimdan keyin, jarayon davomida anglab yetdim. Vaholanki, hammasi vizual ustida ishlayotganimda – veb-saytlar uchun dizayn yaratayotganimda boshlangan. Ba’zan tayyor maketga qo‘yish uchun biror-bir oddiy surat olishga to‘g‘ri kelardi.

Men hammasiga bobom sovg‘a qilgan fotoapparat sababchi deydigan odamlardan emasman. Bunday chiroyli hikoyam ham yo‘q, ammo amaliy vazifa tufayli bu sohaga kirib kelganman.

Har qanday inson kabi men ham hammasiga bir zumda erishishni istayman. Oylab davom etadigan uzoq loyihalar meni tezda toliqtirib qo‘yadi. Bir harakat bilan ajoyib natijaga erishsam deyman. Fotografiya aynan shunday soha: tugmani bosasiz va ish bitgandek tuyuladi. Albatta, buning ortida tayyorgarlik, tashkiliy ishlar, qayta ishlash kabi jarayonlar bor, lekin baribir fotografiyada lahzani tuta bilish muhim.

**— А если бы вы не стали фотографом, кем бы были сегодня?**
— Наверное, артистом, актёром. Я всю жизнь видел себя именно так. Но мама сказала: «Сначала стань человеком, а потом уже будешь заниматься чем хочешь». Так я и поступил на физический факультет Красноярского государственного университета, хотя при этом играл в КВН, театре и вообще постоянно был связан со сценой.


Так или иначе фотография всё равно во многом связана с актёрской профессией. Многие навыки оттуда мне до сих пор помогают. Например, когда нужно объяснить человеку, что сделать, какую эмоцию показать в кадре, да и сам на съёмочной площадке постоянно находишься в определённой роли.

Здесь невозможно просто сесть за стол и отгородиться от мира монитором. Эта работа – про людей. Про общение, доверие, умение показать, увлечь и, если нужно, самому немного стать актёром, ведь с одним человеком ведёшь себя так, с другим – совсем иначе. В этом смысле мой актёрский опыт оказался очень полезным.

**— Вы признанный экшен-фотограф. Пробовали ли сами заниматься каким-нибудь экстремальным видом спорта?**
— Сам я редко занимаюсь спортом, тем более экстремальным. Но мне не раз приходилось испытывать вполне экстремальные нагрузки, когда нужно было просто быть рядом с героем и фотографировать его, например, в горах.

Это и подъёмы, и работа на высоте: висишь на верёвках, на скале... Но у меня всегда была одна цель: сделать классную фотографию. Это, пожалуй, единственная мотивация, ради которой я готов идти в горы.





**— Agar fotosuratchi bo‘lmaganingizda, hozir kim bo‘lar edingiz?**
— Ehtimol, artist yoki aktyor bo‘lardim. Umrim bo‘yi o‘zimni aynan shu sohada tasavvur qilganman. Lekin onam: «Avval odam bo‘l, keyin xohlagan ishingni qilasan», deganlar. Shunday qilib, Krasnoyarsk davlat universitetining fizika fakultetiga o‘qishga kirganman. Shunday bo‘lsa-da, KVNda, teatrda o‘ynardim va umuman, doim sahna bilan bog‘liq edim.

Har qalay, fotografiya baribir ko‘p jihatdan aktyorlik kasbiga bog‘liq. O‘sha sohadan orttirgan ko‘plab ko‘nikmalarim menga hozirgacha yordam berib keladi. Masalan, suratga olinayotgan odamga nima qilish kerakligini yoki kadrda qanday hissiyotni ko‘rsatish lozimligini tushuntirayotganda buni his qilaman. Qolaversa, suratga olish maydonchasida o‘zim ham doimo muayyan bir rolda bo‘laman.

Bu yerda shunchaki stolga o‘tirib, monitor ortiga yashirinib olib bo‘lmaydi. Bu ish – odamlar bilan ishlash demakdir. Bu muloqot, ishonch, namoyon eta bilish va qiziqtirish haqida. Bir odam bilan o‘zimni unga moslab tutsam, boshqasi bilan butunlay boshqacha tutishim kerak bo‘ladi. Zarur o‘rinlarda o‘zim ham biroz aktyorga aylanishimga to‘g‘ri keladi. Shu ma’noda aktyorlik tajribam juda asqatadi.

**— Siz e’tirof etilgan ekshen-fotosuratchisiz. O‘zingiz ham ekstremal sport turlaridan birortasi bilan shug‘ullanib ko‘rganmisiz?**
— O‘zim sport, ayniqsa, uning ekstremal turlari bilan kamdan-kam shug‘ullanaman. Lekin qahramonim yonida bo‘lib, uni, masalan, tog‘larda suratga olishim kerak bo‘lganida, ancha ekstremal yuklamalarni boshdan kechirishimga to‘g‘ri kelgan.

Bular ham balandlikka ko‘tarilish, ham balandlikda ishlash degani: arqonlarda, qoyada osilib turaman... Lekin menda doim bitta maqsad bo‘lgan – zo‘r surat olish. Aftidan, tog‘larga borishga tayyorligimning yagona sababi ham mana shu.







**— Интересный момент, ведь нам обычно кажется, что экшен-фотограф должен и сам быть практически спортсменом. Но, как выясняется, это совсем не обязательное условие. Тогда что на самом деле делает человека хорошим фотографом? Какие качества и навыки для вас действительно важны?**
— Как и любому фотографу, прежде всего нужна насмотренность. Плюс всё, что важно для любого жанра: понимать композицию, уметь её выстраивать и т.д.

Но в моём случае работа всё-таки связана с физической нагрузкой. Когда снимаешь спортсменов, хочешь не хочешь, а придётся и в гору бежать, и куда-то лезть по скале. Студия с идеально расставленными бутылочками – это не моя история. Мне гораздо ближе работа, где физическая активность сочетается с фотографией. Если таких проектов много, то можно отдельно в спортзал даже не ходить.

**— Bu qiziq jihat, chunki biz odatda ekshen-fotosuratchining o‘zi ham deyarli sportchi bo‘lishi kerak deb o‘ylaymiz. Ammo ma’lum bo‘lishicha, bu umuman majburiy shart emas ekan. Xo‘sh, unda insonni nima yaxshi fotosuratchiga aylantiradi? Siz uchun qaysi fazilatlar va ko‘nikmalar haqiqatan ham muhim?**
– Har qanday fotosuratchida, avvalo, vizual tajriba va shakllangan did bo’lishi kerak. Bundan tashqari, har qanday janr uchun muhim bo‘lgan narsalar: kompozitsiyani tushunish, uni yarata bilish va hokazolar zarur. Lekin mening ishim, baribir, jismoniy faollik bilan bog‘liq. Sportchilarni suratga olayotganda, xohlaysizmi-yo‘qmi, tog‘ga yugurib chiqishga ham, qoyaga tirmashishga ham to‘g‘ri keladi. Idishlar chiroyli qilib terib qo‘yilgan studiya – menbop ish emas. Menga jismoniy harakat va fotografiya uyg‘unlashgan jarayon ancha ma’qul. Agar shunday loyihalar ko‘p bo‘lsa, sportzalga borishga hojat ham qolmaydi.







**— Какая съёмка стала для вас самой сложной с точки зрения техники или условий? И, возможно, самой необычной?**

— Самая необычная – определённо та, где я больше всего боялся не справиться. И действительно были трудности, но об этом знаю только я.

Речь идёт о съёмке болида «Формулы-1» в невесомости, проекте Red Bull Zero-G. Мы снимали пит-стоп: загнали болид в самолёт Ил-76 МДК, на котором тренируются космонавты и где имитируется невесомость. Самолёт набирал высоту, наступал режим невесомости, и техники прямо в полёте меняли болиду колёса.

Это один из лучших проектов, в которых мне довелось участвовать: я полетал в невесомости, поснимал бэкстейдж и видео. Учитывая, насколько всё это дорого и сложно организовано, снимал всё подряд – просто на всякий случай.

**— Texnika yoki sharoitlar nuqtayi nazaridan qaysi suratga olish ishi siz uchun eng qiyini bo‘ldi? Balki, eng g‘aroyibimi?**

— Eng g‘aroyibi – shubhasiz, xatoga yo‘l qo‘yishdan eng ko‘p qo‘rqqan loyihamdir. Qiyinchiliklar haqiqatan ham bo‘lgan, lekin buni faqat o‘zim bilaman.

Bu Red Bull Zero-G loyihasi – «Formula-1» bolidini vaznsizlikda suratga olish edi. Biz pit-stopni suratga oldik: bolidni vaznsizlik hosil etiladigan Il-76 MDK samolyotiga joyladik. Samolyot balandlikka ko‘tarilgach, vaznsizlik boshlandi va mexaniklar parvozda bolid g‘ildiraklarini almashtirishdi. Bu men ishtirok etishga muvaffaq bo‘lgan eng yaxshi loyihalardan biri: vaznsizlikda uchdim, sahna orti jarayonlari va videolarni tasvirga oldim. Bularning barchasi qanchalik qimmat va murakkab tashkil etilganini hisobga olib, har ehtimolga qarshi hamma narsani ketma-ket suratga olaverdim.

**— Как вы себя чувствовали после этой съёмки? Получилось реализовать всё, что было запланировано?**

— После съёмки обычно думаешь: «Эх, надо было ещё вот так снять... И вот так тоже». Такое всегда бывает. Но вообще, это яркий пример работы в заданных условиях. Параллельно снимала видеокоманда, всё происходило по чёткому сценарию, так что особенно разгуляться было нельзя. Но это был безумно интересно.

**— asvirga olish jarayonidan so‘ng o‘zingizni qanday his qildingiz? Rejalaringizning barchasini amalga oshira oldingizmi?**

— asvirga olish tugagach, odatda: «Eh, bu tarzda olsam ham bo‘larkan... Yana bunday qilib ham», deb o‘ylab qolasan. Bu – odatiy hol. Biroq mazkur vaziyat belgilangan sharoitda ishlashning yaqqol namunasidir. Parallel ravishda videojamoa ham tasvirga olayotgandi, hamma narsa aniq ssenariy asosida kechdi, shu sababli erkin ijod qilishga unchalik imkon bo‘lmadi. Ammo jarayon o’ta qiziqarli edi.



**— Ваши работы публиковались в том числе в National Geographic, вы получали престижные награды... Какое достижение считаете самым важным?**

— Лично для меня это звание лауреата международного конкурса экшен-фотографии Red Bull Illume.

Это открытый конкурс – участвовать в нём может любой желающий. И я – единственный фотограф на всём постсоветском пространстве, который не только выиграл данную награду, но сделал это дважды. Для меня это, пожалуй, самое крутое достижение.

**— А ещё вы в 2016 году победили на конкурсе «Хрустальный пик» в номинации «Человек риска». Любите ли вы сами рисковать?**

— Нет, я вообще человек нерисковый: ни в жизни, ни в работе. Со стороны может показаться, что я постоянно подвергаю себя опасности. Да и когда смотришь на моих героев, кажется, что они всё время рискуют, но на самом деле всё продумано, просчитано, а риск сведён к минимуму.

Я всегда доверяю спортсмену и понимаю, что он профессионал. Он, в свою очередь, понимает, что я тоже знаю, что делаю. Поэтому все возможные риски мы стараемся продумать заранее.

**— Sizning ishlaringiz, jumladan, «National Geographic» nashrida ham chop etilgan, nufuzli mukofotlarga sazovor bo‘lgansiz... Eng muhim yutug‘ingiz deb qaysi natijani hisoblaysiz?**

— Shaxsan men uchun bu — Red Bull Illume xalqaro ekshen-fotografiya tanlovi laureati unvonidir. Qolaversa, ikki marotaba.

Bu ochiq tanlov – unda xohlagan kishi ishtirok etishi mumkin. Men butun postsovet hududida ushbu mukofotni qo‘lga kiritgan, balki buni ikki marta uddalagan yagona fotosuratchiman. Bu men uchun, shubhasiz, eng ulkan muvaffaqiyatdir.

**— 2016-yilda «Billur cho‘qqi» tanlovining «Tavakkalchi inson» nominatsiyasida ham g‘olib bo‘lgansiz. O‘zingiz tavakkal qilishni yaxshi ko‘rasizmi?**

— Yo‘q, men umuman olganda na hayotda, na ishda tavakkal qiladigan odam emasman. Tashqaridan qaraganda, go‘yo o‘zimni doim xavf-xatarga qo‘yayotgandek ko‘rinishim mumkin. Qahramonlarimga nazar tashlaganda ham ular doim tavakkal qilayotgandek tuyuladi, lekin aslida hammasi puxta o‘ylangan, hisob-kitob qilingan, xavf esa minimal darajaga tushirilgan bo‘ladi.


Men har doim sportchiga ishonaman va uning professional ekanini bilaman. O‘z navbatida, u ham men nima qilayotganimni bilishimni tushunadi. Shu sababli, barcha ehtimoliy xavflarni oldindan o‘ylab olishga harakat qilamiz.



**— В этом году вы снимали Red Bull Dance Your Style в Узбекистане. Какие особенности есть у танцевальной съёмки?**

— Я уже много лет снимаю танцы. В основном это был брейк-данс – например, проекты Red Bull BC One. Но Red Bull Dance Your Style – немного другая история, потому что здесь каждый участник выступает в своём стиле.

Из-за этого каждый раз приходится искать новый визуальный язык, за счёт чего происходящее становится ещё интереснее. Например, брейк-данс часто снимают на «рыбий глаз» – фишай, и таких нюансов много. Но для меня самое интересное – через танец показать самого человека и место, где всё происходит. Если мы говорим про Ташкент, то хочется, чтобы в кадре были не только танцоры, но и сам город, его архитектура, улицы.




**— В таком случае, наверное, важно чувствовать атмосферу города и локальную культуру?**

— Когда оказываешься в новом месте, постепенно входишь с ним в резонанс через собственный опыт и ощущения. Обычно всё завязывается с самого очевидного: герой на фоне какого-то знакового места. А потом начинаешь копать глубже: работать с народными костюмами, узорами, местными деталями, искать вещи, которые сразу считываются людьми, живущими здесь.

Конечно, к таким съёмкам нужно готовиться заранее: подбирать локации, продумывать идеи. Но когда приезжаешь на место, многое меняется. Начинаешь смотреть на город по-другому, замечаешь нюансы, которых не увидишь на фотографиях из интернета, и именно тогда рождаются новые идеи. Поэтому финальная съёмка обычно получается более живой и креативной.



**— Bu yil siz O‘zbekistonda Red Bull Dance Your Style tadbirini tasvirga oldingiz. Raqsli s’yomkalarning o‘ziga xos qanday jihatlari bor?**

— Men ko‘p yillardan beri raqslarni tasvirga olib kelaman. Bu asosan breyk-dans – masalan, Red Bull BC One loyihalari bo‘lgan. Lekin Red Bull Dance Your Style biroz boshqacharoq, chunki unda har bir ishtirokchi o‘z uslubida chiqish qiladi.

Shu sababli har safar yangi vizual til topishga to‘g‘ri keladi, bu jarayonni yanada qiziqarli qiladi. Masalan, breyk-dans ko‘pincha «baliq ko‘zi» – «fish-eye»da suratga olinadi va bunday jihatlar talaygina. Lekin men uchun eng qiziqarlisi – raqs orqali insonning o‘zini va voqea sodir bo‘layotgan joyni ko‘rsatish. Agar Toshkent haqida gapiradigan bo‘lsak, kadrda nafaqat raqqoslar, balki shaharning o‘zi, me’morchiligi, ko‘chalari va muhiti ham aks etishini istardim.

**— Shunday ekan, shahar muhiti va mahalliy madaniyatni his qilish muhim bo‘lsa kerak?**

— Yangi joyga kelganimda, o‘z tajribam va hissiyotlarim orqali u bilan hamohang bo‘la boshlayman. Odatda, hammasi eng yaqqol narsadan — biror mashhur maskan fonidagi qahramondan boshlanadi. Chuqurroq izlana boshlayman: milliy liboslar, naqshlar, mahalliy detallar bilan ishlayman, shu yerlik odamlar bir qarashda tushunadigan va o‘ziniki deb biladigan narsalarni qidiraman.

Albatta, bunday suratga olish ishlariga oldindan tayyorgarlik ko‘rish kerak: joylarni tanlash, g‘oyalarni puxta o‘ylash lozim. Biroq manzilga yetib kelganimda, ko‘p narsa o‘zgarib ketadi. Shaharga boshqacha nigoh bilan qaray boshlayman, internetdagi suratlarda ko‘rinmaydigan jihatlarni ilg‘ayman. Ana shunda yangi g‘oyalar tug‘iladi. Aynan shuning uchun ham yakuniy suratga olish jarayoni odatda jonliroq va kreativ chiqadi.





**— Давайте поговорим на тему, которую сегодня обсуждают, кажется, все. Мы видим, что искусственный интеллект всё активнее меняет индустрию визуального контента. Как вы относитесь к этим изменениям? Это новый инструмент для автора или угроза профессии?**

— Как конкурента я искусственный интеллект точно не воспринимаю. Но, как и к любому инструменту, к нему нужно подходить с умом.

Во-первых, это не совсем про Red Bull, с которым я в основном сотрудничаю. У них есть чёткое правило не использовать ИИ для создания визуального контента. Red Bull – это про достижения человека, возможности и пределы тела и духа. Да и в целом человеку интересен человек. Мне кажется, это вообще актуально для любой сферы. Если сказать, что картинка полностью создана искусственным интеллектом или фильм целиком снят ИИ с ненастоящими актёрами, сначала это, конечно, вызовет любопытство, но потом данный эффект пройдёт. У таких героев нет личной истории, нет ничего, за что можно зацепиться, поэтому для меня человек всё равно остаётся в центре. Многие сейчас этого не понимают и следуют за хайпом, но интерес друг к другу – это в нашей природе.

В своей работе я использую искусственный интеллект в основном для создания референсов. Раньше, если появлялась идея, приходилось искать подходящие изображения, собирать коллажи в Photoshop, чтобы продемонстрировать клиенту то, что именно я хочу снять. Когда придумываешь что-то нестандартное, объяснить идею словами – дело непростое. Сейчас достаточно подробно описать идею, а ИИ быстро создаёт изображение, которое можно доработать промптами. Всем сразу становится понятно, о чём идёт речь, и это сильно экономит время.

При этом я довольно глубоко разобрался в этих инструментах и при желании могу сгенерировать вполне фотореалистичную рекламную картинку, которую легко принять за настоящую фотографию. Но мне это не особенно интересно, всё-таки в таком случае ты сидишь за компьютером, а не бегаешь вокруг атлета. А как мы уже выяснили, второй вариант мне нравится гораздо больше.

**— Keling, bugun hamma muhokama qilayotgan mavzu haqida gaplashsak. Sun’iy intellekt vizual kontent sohasini tobora faolroq o‘zgartirib yuborayotganini ko‘rib turibmiz. Siz bu o‘zgarishlarga qanday qaraysiz? Bu muallif uchun yangi vositami yoki kasbga tahdidmi?**

— Sun’iy intellektni o‘zimga raqobatchi deb bilmayman. Ammo har qanday vositaga bo‘lgani kabi unga ham aql bilan yondashish kerak.

Birinchidan, bu gap men asosan hamkorlik qiladigan Red Bull haqida emas. Ularda vizual kontent yaratish uchun sun’iy intellektdan foydalanmaslik haqida aniq qoida bor. Red Bull – insonning yutuqlari, uning tanasi va ruhi imkoniyatlari hamda chegaralari haqida. Umuman olganda, odamga odam qiziq. Nazarimda, bu har qanday soha uchun o‘rinli. Agar biror suratni to‘liq sun’iy intellekt chizgan yoki filmni butunlay SI haqiqiy bo‘lmagan aktyorlar bilan ishlagan deyilsa, bu, albatta, avvaliga qiziqish uyg‘otadi, lekin keyin bu ta’sir yo‘qoladi. Bunday qahramonlarning shaxsiy tarixi, jozibador biror jihati bo‘lmaydi. Shu bois men uchun markazda baribir inson turadi. Hozir ko‘pchilik buni tushunmay, shov-shuv ketidan quvyapti, lekin bir-birimizga qiziqish bizning tabiatimizga xos.

O‘z ishimda sun’iy intellektdan asosan referenslar yaratishda foydalanaman. Ilgari biror g‘oya tug‘ilsa, mijozga aynan nimani suratga olmoqchi ekanimni ko‘rsatish uchun mos rasmlarni qidirib, Photoshopda kollajlar yasashim kerak bo‘lardi. Qanday-dir nostandart narsa o‘ylab topganingda, g‘oyani so‘z bilan tushuntirish oson ish emas. Hozir esa g‘oyani batafsil tasvirlab berishning o‘zi kifoya – sun’iy intellekt tezda tasvirni yaratib beradi va uni promptlar yordamida yanada takomillashtirish mumkin. Natijada nima haqida gap ketayotgani hammaga darhol ayon bo‘ladi va bu vaqtni ancha tejaydi.

Shu bilan birga, men bu vositalarni ancha chuqur o‘zlashtirib oldim va xohlasam, haqiqiy fotosuratdan farqlab bo‘lmaydigan darajada fotorealistik reklama tasvirini yarata olaman. Lekin bu narsa meni unchalik qiziqtirmaydi. Axir, bunday holatda sportchining atrofida yugurmasdan, kompyuter qarshisida o‘tirgan bo‘laman. Yuqorida aytganimdek, menga ikkinchi variant ko‘proq ma’qul.






**— Денис, а если представить, что у вас есть возможность снять один-единственный кадр без ограничений по месту, времени и бюджету, что бы это было?**

— Наверное, я бы снял скейтбордиста на Луне. С искусственным интеллектом такое можно сделать хоть сейчас, а вот в реальности – невозможно.

Представьте: скейтбордист едет по кратеру, использует его как огромную рампу или хафпайп, вылетает и делает трюк, а мы в этот момент снимаем. Вот такие у меня фантазии. Во-первых, это необычно; во-вторых, такого ещё точно никто не делал.

Вообще, мне нравится придумывать что-то уникальное. Если появляется идея, хочется воплотить её так, чтобы никто не смог снять лучше. По-другому – пожалуйста, но лучше – нет. По крайней мере в моей сфере.

**— Denis, aytaylik, sizda joy, vaqt va byudjet borasida hech qanday cheklovlarsiz yagona kadrni suratga olish imkoni tug‘ilsa, nimani suratga olgan bo‘lardingiz?**

– Ehtimol, Oyda skeytbord uchayotgan kishini suratga olardim. Buni sun’iy intellekt yordamida hozirning o‘zida ham yaratish mumkin, lekin real hayotda imkonsiz.

Tasavvur qiling: skeytbordchi kraterda uchib borib, undan ulkan rampa yoki «xafpayp» sifatida foydalanadi-da, yuqoriga otilib tryuk bajaradi, biz esa aynan shu lahzani tasvirga olamiz. Mening xayollarim shunaqa. Birinchidan, bu g‘ayrioddiy. Ikkinchidan, bunaqasini hali hech kim qilmagani aniq.

Umuman, men hali hech kim tasvirga olmagan narsalarni o‘ylab topishni yoqtiraman. Agar biror g‘oya tug‘ilsa, uni hech kim mendan yaxshiroq tasvirga ololmaydigan darajada amalga oshirishni istayman. Boshqacha usulda – marhamat, lekin yaxshiroq – yo‘q. Har holda, mening sohamda.

KABELTECH

# Aloqani yaratamiz. Energiyani uzatamiz. Kelajakni bunyod etamiz.

KABEL TECH ENERGY — O'zbekiston kabel sanoatida yangi standartlarni o'rnatayotgan kompaniya.

110 kV yuqori kuchlanishli kabelni seriyali ishlab chiqarish — texnologik salohiyatni mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonning sanoat mustaqilligini oshirish va kelajak avlodlar uchun ishonchli energetika infratuzilmasini barpo etish yo‘lidagi ulkan hissadir.

# Создавая связь. Передавая энергию. Формируя будущее.

KABEL TECH ENERGY — компания, задающая новые стандарты кабельной промышленности Узбекистана.

Серийное производство высоковольтного кабеля 110 кВ — вклад в технологическое лидерство, промышленную независимость Нового Узбекистана и создание инфраструктуры будущих поколений.

+998 (71) 225-55-52
+998 (71) 225-94-00

kabeltech.uz




РЕКЛАМА

# O‘ZGARISHLAR OQIMIDA

## В ПОТОКЕ ПЕРЕМЕН

*Centrum Air растёт вместе с пассажиропотоком: открывает новые маршруты, увеличивает флот, развивает сервисы и технологии. За каждым новым направлением и решением стоит одна цель – сделать путешествия доступнее и удобнее. Поэтому мы...*

### ОТКРЫВАЕМ НОВЫЕ ГОРИЗОНТЫ

В 2026 году Centrum Air значительно расширила маршрутную сеть, связав Ташкент с Омском, Самарой, Краснодаром, Карачи и Лахором, Ошем, Костанаем, Актобе и Астаной, а Фергану – со Стамбулом. Отдельным этапом стал первый европейский маршрут Ташкент – Франкфурт, открывший авиакомпании выход на европейский рынок. Осенью сеть дополнилась рейсами в Екатеринбург, Уфу и Пермь. Одновременно Ташкент развивается как транзитный хаб, позволяющий пассажирам выстраивать маршруты между разными странами и регионами.







*Centrum Air yo‘lovchilar oqimi bilan birga o‘sib bormoqda: yangi yo‘nalishlarni ochmoqda, aviaparkini kengaytirmoqda, xizmat va texnologiyalarni rivojlantirmoqda. Har bir yangi yo‘nalish va qaror ortida yagona maqsad mujassam – sayohatlarni yanada hamyonbop va qulay qilish. Shu bois biz...*

### YANGI UFQLARNI KASHF ETMOQDAMIZ

2026-yilda Centrum Air Toshkentni – Omsk, Samara, Krasnodar, Karachi, Lahor, O‘sh, Qo‘stanoy, Aqto‘be va Ostona shaharlari bilan, Farg‘onani esa Istanbul bilan bog‘lab, o‘zining yo‘nalishlar tarmog‘ini sezilarli darajada kengaytirdi. Yevropa bozoriga chiqish imkonini bergan Toshkent–Frankfurt yo‘nalishi aviakompaniya faoliyatida alohida bosqich bo‘ldi. Kuzda yo‘nalishlar tarmog‘i Yekaterinburg, Ufa va Permga qatnovlar bilan to‘ldirildi. Ayni paytda Toshkent yo‘lovchilarga turli mamlakatlar va mintaqalar o‘rtasida qulay yo‘nalishlarni tanlash imkonini beruvchi tranzit hab sifatida rivojlanmoqda.






### РАСТЁМ И СОХРАНЯЕМ СВЯЗЬ С ИСТОРИЕЙ

В мае флот Centrum Air пополнился 16-м воздушным судном – Airbus A320, получившим имя Алишера Навои. В рамках масштабной инициативы самолётам холдинга присваиваются имена выдающихся исторических личностей Узбекистана, среди которых Амир Темур, Алишер Навои, Бахауддин Накшбанди, Абдулла Кадыри, Имам аль-Бухари, Абу Али ибн Сино, Беруни, Аль-Хорезми и Мирзо Улугбек. Так флот становится не только инструментом развития маршрутной сети, но и способом представлять культурное наследие страны в мире.







### O‘TMISH BILAN ALOQANI SAQLAGAN HOLDA O‘SIB BORMOQDAMIZ

Joriy yilning may oyida Centrum Air aviaparki Alisher Navoiy nomi berilgan 16-havo kemasi – Airbus A320 samolyoti bilan to‘ldirildi. Keng ko‘lamli tashabbus doirasida xolding samolyotlariga O‘zbekistonning Amir Temur, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshbandiy, Abdulla Qodiriy, Imom al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy va Mirzo Ulug‘bek singari buyuk tarixiy shaxslarining nomlari berilmoqda. Shu tariqa, aviapark nafaqat yo‘nalishlar tarmog‘ini rivojlantirish vositasi, balki mamlakat madaniy merosini dunyoga tanitish usuliga ham aylanmoqda.






### ДОБАВЛЯЕМ БОЛЬШЕ УДОБСТВА

Чтобы сделать путешествие комфортнее, Centrum Air запустила услугу Priority во всех аэропортах маршрутной сети. Она позволяет одним из первых пройти регистрацию и попасть на борт, а также получить багаж в приоритетном порядке.

### ДЕЛАЕМ ТЕХНОЛОГИИ ЧАСТЬЮ ПУТЕШЕСТВИЯ

Цифровые сервисы Centrum Air становятся всё разнообразнее. Пассажиры теперь могут покупать билеты и управлять бронированием через мобильное приложение, оплачивать его с помощью Apple Pay и Google Pay, корпоративных карт и китайских юаней через WeChat. Мы также стали первой авиакомпанией в Центральной Азии, интегрировавшей криптоэквайринг. Всё это позволяет сделать покупку билета быстрее и удобнее для пассажиров из разных стран.




### YANADA KO‘PROQ QULAYLIK YARATAMIZ

Sayohatni yanada qulay qilish maqsadida Centrum Air o‘zining barcha yo‘nalishlar tarmog‘idagi aeroportlarda Priority xizmatini yo‘lga qo‘ydi. Ushbu xizmat yo‘lovchilarga birinchilardan bo‘lib ro‘yxatdan o‘tish, samolyot bortiga chiqish hamda yuklarini olish imkonini beradi.

### TEXNOLOGIYALARNI SAYOHATNING AJRALMAS QISMIGA AYLANTIRAMIZ

Centrum Air’ning raqamli xizmatlari tobora kengayib bormoqda. Endilikda yo‘lovchilar mobil ilova orqali chipta xarid qilishlari va bronlarini boshqarishlari, to‘lovlarni esa Apple Pay hamda Google Pay, korporativ kartalar va WeChat orqali Xitoy yuanida amalga oshirishlari mumkin. Shuningdek, biz Markaziy Osiyoda kriptoekvayringni joriy etgan birinchi aviakompaniya bo‘ldik. Bularning barchasi turli mamlakatlardagi yo‘lovchilar uchun chipta xarid qilish jarayonini tezroq va qulayroq qilish imkonini beradi.

### ДЕЛАЕМ ШОПИНГ БЛИЖЕ

Centrum Holding запустил новый масштабный проект – Centrum Post, который помогает заказывать товары в зарубежных интернет-магазинах и доставлять их в Узбекистан. Сервис объединяет международную логистику и цифровые технологии, позволяя оформлять покупки онлайн и получать их в стране от трёх дней, а пользователи могут отслеживать движение посылки на всех этапах доставки. Новый проект расширяет логистические возможности холдинга и создаёт ещё один удобный канал связи Узбекистана с мировым рынком.

### SHOPINGNI YANADA OSONLASHTIRAMIZ

Centrum Holding xorijdagi onlayn do‘konlardan mahsulotlarni buyurtma qilish va ularni O‘zbekistonga yetkazib berishda yordam beruvchi yangi keng ko‘lamli Centrum Post loyihasini ishga tushirdi. Ushbu servis o’zida xalqaro logistika va raqamli texnologiyalarni birlashtirib, xaridlarni onlayn rasmiylashtirish hamda uch kunda mamlakat hududida qabul qilib olish imkonini taqdim etadi. Foydalanuvchilar esa jo‘natma bilan bog’liq harakatlarni yetkazib berishning barcha bosqichlarida kuzatib borishlari mumkin. Yangi loyiha xoldingning logistika imkoniyatlarini kengaytirib, O‘zbekistonni jahon bozori bilan bog‘laydigan yana bir qulay aloqa kanalini yaratadi.



### ПОДДЕРЖИВАЕМ ТЕХ, КОМУ НУЖНА ПОМОЩЬ

Социальные инициативы – ещё одна важная часть работы Centrum Air. Компания поддержала Республиканскую центральную библиотеку для незрячих, передав учреждению литературу на шрифте Брайля и необходимое оборудование, и запустила акцию по сбору книг. Отдельное направление – помощь приюту «Милые кошки»: в рамках проекта «Шопер добра» пожертвования направлялись напрямую на лечение, содержание и уход за животными, а команда Centrum Air регулярно приезжает в приют, привозя корм, лекарства и всё необходимое.

Ещё одно направление – помощь молодым людям, которые только начинают свой путь. Компания предоставила Дилафруз Собировой из Ферганы, поступившей на биологический факультет Harvard University, авиабилеты дважды в год на протяжении всего периода обучения. Для нас такие проекты – не только возможность помогать здесь и сейчас, но и создавать условия для развития тех, кто в будущем сможет менять страну.

### ВЫХОДИМ ЗА ПРЕДЕЛЫ ВОЗМОЖНОГО

Centrum Air стала партнёром Александра Кроу — путешественника, путешественника со спинальной мышечной атрофией, который начали начал кругосветное путешествие из Ташкента. Своей историей Александр хочет показать, что физические ограничения и сложные жизненные обстоятельства не должны определять границы человеческих возможностей. В рамках проекта он намерен обращаться не только к людям с инвалидностью, но и ко всем, кто оказался в непростой ситуации и не видит пути вперёд. Для нас участие в этой истории стало способом поддержать идею о том, что возможности человека могут быть гораздо шире, чем принято думать.








### YORDAMGA MUHTOJLARNI QO‘LLAB-QUVVATLAYMIZ

Ijtimoiy tashabbuslar – Centrum Air faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishidir. Kompaniya Respublika markaziy ko‘zi ojizlar kutubxonasiga Brayl alifbosidagi adabiyotlar va zaruriy uskunalarni taqdim etib, unga ko‘maklashdi hamda kitob yig‘ish aksiyasini yo‘lga qo‘ydi. «Yoqimtoy mushuklar» hayvonlar boshpanasiga yordam ko‘rsatish esa alohida bir yo‘nalishdir: «Mehr-muruvvat shoperi» loyihasi doirasida kelib tushgan xayriya mablag‘lari bevosita hayvonlarni davolash, boqish va parvarishlashga yo‘naltirildi, Centrum Air jamoasi boshpanaga muntazam ravishda tashrif buyurib, ozuqa, dori-darmon va barcha zarur narsalarni yetkazib turadi.

Yana bir yo‘nalish – hayot yo‘lini endigina boshlayotgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash. Kompaniya Harvard universitetining biologiya fakultetiga o‘qishga kirgan farg‘onalik Dilafro‘z Sobirovani butun o‘qish davri mobaynida yiliga ikki marta aviachiptalar bilan ta’minlaydi. Biz uchun bunday loyihalar nafaqat hozirning o‘zida yordam berish, balki kelajakda mamlakatni o‘zgartirishga qodir insonlarning kamol topishi uchun sharoit yaratish imkoniyatidir.

### IMKONIYATLAR CHEGARASIDAN TASHQARIGA CHIQAMIZ

Centrum Air orqa miya mushak atrofiyasi xastaligi bilan yashayotgan sayohatchi Aleksandr Krouning hamkoriga aylandi. U o‘zining dunyo bo‘ylab sayohatini Toshkentdan boshladi. Aleksandr o‘z hikoyasi orqali jismoniy cheklovlar va hayotdagi murakkab vaziyatlar inson imkoniyatlarining chegarasini belgilamasligi kerakligini ko‘rsatmoqchi. Loyiha doirasida u nogironligi bo‘lgan shaxslargina emas, balki qiyin vaziyatga tushib qolgan va kelajak sari yo‘l topa olmayotgan barcha insonlarga murojaat qilishni maqsad qilgan. Biz uchun bu hikoyaning bir qismi bo‘lish – inson imkoniyatlari tasavvur qilganimizdan ham kengroq ekanini ko‘rsatadigan g‘oyani qo‘llab-quvvatlash uchun go‘zal fursatdir.







### ПОЛУЧАЕМ ПРИЗНАНИЕ И ПРОДОЛЖАЕМ ДВИЖЕНИЕ

Развитие Centrum Holding получило и признание со стороны государства: основатель и генеральный директор холдинга Абдулазиз Абдурахманов был награждён орденом «Дустлик» за вклад в развитие авиации, логистики, международного транспортного сообщения и экономики Узбекистана.

Сегодня мы продолжаем расширять географию, флот и сервисы, а вместе с ними – возможности, позволяющие путешествовать, работать, учиться и открывать мир.

### E’TIROFGA SAZOVOR BO‘LIB, YUKSALISHDA DAVOM ETMOQDAMIZ

Centrum Holding’ning taraqqiyoti davlatimiz tomonidan ham e’tirof etildi: xolding asoschisi va bosh direktori Abdulaziz Abdurahmonov aviatsiya, logistika, xalqaro transport aloqalari hamda O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun «Do‘stlik» ordeni bilan taqdirlandi.

Bugungi kunda biz geografiya, aviapark va xizmatlarimizni, ular bilan birga esa sayohat qilish, ishlash, o‘qish va dunyoni kashf etish imkoniyatlarini kengaytirishda davom etmoqdamiz.

РЕКЛАМА


# Building Supply Chain Without Limits




**Wagon Management**
Efficient wagon allocation and operational control across Eurasia



**Project Logistics**
Customized solutions for industrial and project cargo transportation



**Freight Forwarding**
End-to-end multimodal freight solutions with complete coordination




**Customs Services**
Fast customs clearance and customs documentation support



**Container Management**
Container supply, repair, monitoring, and fleet management



**Warehouse Logistics**
Secure storage, inventory control, and cargo distribution



**Terminal & Truck Management**
Integrated terminal operations and reliable trucking services




**Rail Freight Transportation**
Rail freight organization with railway codes and shipment support



**Digital Operations**
The operating system of the group

centrum-logistics.com



# MOMONGA

HAND ROLL
SUSHI BAR



СЛЕДУЙ

MOMONGA.TASHKENT

СВОЕМУ ВКУСУ!

Г. ТАШКЕНТ, АМИРА ТЕМУРА, 22/5

+998 92 045 0405

РЕКЛАМА

GALVANINA®

# GALVANINA

SINCE THE ROMAN SPRING OF RIMINI

## ДВА СВОДА НАД ОДНОЙ ВОДОЙ

Сардобу – кирпичный купол над врытым в землю бассейном – в степи было видно издалека, он служил маяком для караванов. Под куполом была вода. Благодаря своду она оставалась прохладной и не испарялась.

У Galvanina свод природный: почти три года вода проходит сквозь песок и глину Апеннин, которые служат для неё природным фильтром и охлаждают.

К источнику на холме Парадизо она поступает чистой на микробиологическом уровне и сразу попадает в стеклянную тару. Герб XVI века, украшающий бутылку, не случаен – тем же столетием датируют степные сардобы.

На двух концах одной дороги, в одну эпоху, люди думали об одном и том же: как сохранить самое ценное – воду.

Resursi
distribution
SINCE 1989

Galvanina в Узбекистане
Resursi Distribution
reshop.uz

САРДОБА. Купольное хранилище воды
на караванных путях Центральной Азии

СУХОЙ ОСТАТОК 514,5 МГ/Л · БИКАРБОНАТЫ 427,1 · КАЛЬЦИЙ 128,4

From January 7 to February 5

# AFC Asian Cup Saudi Arabia 2027™

**Osiyoning asosiy futbol bayrami markazida bo‘ling**

Будьте в центре главного футбольного праздника Азии



CENTRUMAIR | Saudi Welcome to Arabia | CENTRUM HOLIDAYS